

O'ZDAVTEMIRYO'LNAZORAT



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TEMIR YOLLARIDA POEZDLAR
HARAKATI VA MANYOVR
ISHLARI BOYICHA**

YORIQNOMA

**Toshkent
2014 yil**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TEMIR YO'LLARDA YUK VA YO'LOVCHILAR
TASHISH XAVFSIZLIGINI NAZORAT QILISH DAVLAT INSPEKSIYASI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TEMIR YOLLARIDA POEZDLAR
HARAKATI VA MANYOVR
ISHLARI BOYICHA**

YORIQNOMA

**(27.01.2003 yil holatiga
qo'shivcha va o'zgartirishlar bilan)**

**("O'zdavtemiryo'lnazorat" DI ning
2001 yil 06 noyabrdan 50-son buyrug'i bilan
2001 yil dekabridan kuchga kirgan)**

**Toshkent
2014 yil**

1-BO'LIM

UMUMIY QOIDALAR

1. O'zbekiston Respublikasi temir yo'llarida poezdlar harakati va manyovr ishlari bo'yicha Yo'riqnomal¹, O'zbekiston Respublikasi temir yo'laridan texnikaviy foydalanish qoidalari² (keyinchalik - TFQ) va O'zbekiston Respublikasi temir yo'llarida signallashtirish bo'yicha yo'riqnomal³da belgilangan asosiy qoidalarga muvofiq ravishda quyidagi qoidalarni o'rnatadi:

stansiyadagi signalizatsiya, markazlashtirish va blokirovka (SSB) ning hamda signalizatsiya va aloqaning turli vositalarida, jumladan, normal holatlarda ham, ushbu qurilmalar nosozligida ham poezdlarni qabul qilish, jo'natish va o'tkazish;

temir yo'llarda va inshootlarda ta'mirlash-qurilish ishlari amalga oshirilayotgan sharoitlarda poezdlarni qabul qilish va jo'natish;

stansiyalarda manyovrlarni amalga oshirish;

poezdlarga ogohlantirishlar berish;

poezdlar harakati va manyovr ishlari xavfsizligini belgilovchi boshqa qoidalari.

Ushbu Yo'riqnomada ko'zda tutilgan talablarni tegishli xodimlar yaxshi bilishlari va aniq bajarishlari - poezdlar va manyovrlar ishlarini amalga oshirishda xavfsizlikni ta'minlashning eng muhim shartlaridan biridir.

2. TFQ ning 234-bandiga muvofiq, poezdlar harakatiga rahbarlik qilish bo'yicha har bir stansiya va yo'l posti va har bir poezd bir paytning o'zida faqat bir xodim, ya'ni: stansiya – stansiya navbatchisining, dispatcherlik markazlashtirish bilan jihozlangan uchastkalarda esa - poezd dispetcherning, post - post navbatchisining, poezd - yetakchi lokomotiv (motorvagon poezdi) mashinistining tasarrufida bo'lishi shart.

Har bir stansiya va yo'l postida poezdlarni qabul qilish, jo'natish va o'tkazishni faqat bir xodim - stansiya navbatchisi, dispatcherlik markazlashtirish bilan jihozlangan uchastkalarda esa - poezd dispetcheri boshqarishi mumkin.

Yo'lning rivojlanganligiga bog'liq ravishda stansiyalarda bir necha stansiya, post yoki park navbatchilari bo'lishi mumkin, ularning har biri o'ziga biriktirilgan ish hududida poezdlar harakatini yakka o'zi boshqaradi va belgilangan operatsiyalarni bajaradi. Bunday xodimlarning boshqaruv hududlarini chegaralanishi va bajaradigan vazifalari stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatiladi.

3. Poezdlarni boshqarish va manyovr ishlari bo'yicha barcha farmoyishlar qisqa, lo'nda va tushunarli qilib berilishi lozim. Farmoyish bergen xodim har safar uni qisqacha takrorini eshitib, farmoyish to'g'ri tushunilganiga, keyinchalik uning to'g'ri bajarilganligiga (nazorat uskunalari ko'rsatmali, ijrochining radio aloqa, park aloqasi orqali yoki shaxsiy dokladiga ko'ra) ishonch qilishi kerak.

Poezdlarni qabul qilish, jo'natish va o'tkazish, shuningdek, manyovr ishlarini bajarish bo'yicha barcha ishlar aniq, Texnikaviy foydalanish qoidalari, O'zbekiston Respublikasi temir

¹ Davlat ro'yxatidan o'tishga muhtoj emas deb topilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 13.11.2001 yildan 20-15-273/20- son xati)

²Davlat ro'yxatidan o'tishga muhtoj emas deb topilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 27.08.2001 yildan 20-15-205/11- son xati)

³ Davlat ro'yxatidan o'tishga muhtoj emas deb topilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 09.11.2001 yildan 20-15-279/20- son xati)

yo'llarida signalashtirish bo'yicha Yo'riqnomalar, ushbu Yo'riqnomalar va stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktiga binoan to'g'ri bajarilishi shart.

4. Odamlar hayotiga, temir yo'l transportining moddiy-texnika vositalari va inshootlari butligiga xavf soluvchi favqulodda holatlar vujudga kelgan sharoitlarda poezdlar harakati va manyovr ishlari tartibi tegishli bo'linmalar uchun DATK boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlanadigan me'yoriy hujjatlarda belgilanadi.

5. Signalizatsiya, markazlashtirish va blokirovka qurilmalarini boshqarish, svetoforlarni ochish va yopish quyidagi xodimlar tomonidan amalga oshiriladi:

stansiyada - stansiya navbatchisi (keyinchalik - DSP) yoki yning farmoyishiga binoan stansiya navbatchisi huzuridagi operator, markazlashtirish posti operatori yoki strelkali post navbatchisi tomonidan;

yo'l postida - post navbatchisi vazifasini bajaruvchi stansiya navbatchisi (keyinchalik - post DSP si) tomonidan;

dispatcherlik markazlashtirish mavjud bo'lsa - poezd dispatcheri (keyinchalik - DNS) tomonidan.

6. Poezd stansiyadan chiqish svetoforining taqiq ko'rsatmasida yoki chiqish svetoforiga ega bo'lman yo'llardan jo'nayotgan bo'lsa, peregonni band etishga ruxsat (agar u radio aloqa opqali uzatilmagan taqdirda) yetakchi lokomotiv mashinistiga stansiya navbatchisi yoki poezdlar harakatiga aloqador stansiya xodimlaridan birining tomonidan shaxsan taqdim etiladi, bu stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatiladi. Mashinist berilgan ruxsatnomaga poezd va peregonning nomeriga mos ekanligiga ishonch hosil qilishi kerak.

7. Signalining taqiq ko'rsatmasida poezdni qabul qilish yoki jo'natish xaqidagi stansiya navbatchisining buyrug'i manshinistga radio aloqa orqali uzatilsa, bunday buyruqning matni ushbu Yo'riqnomaning 30- va 31-bandlarida belgilangan shakllarga mos kelishi kerak.

Stansiya navbatchisining poezd mashinistiga radio aloqa orqali buyruq matnini yetkazishidan oldin barcha hollarda buyruq nomeri ko'rsatiladi. Mashinist buyruq matnini to'liq takrorlashi, stansiya navbatchisi esa - uni to'g'ri qabul qilinganini "To'g'ri, bajaring" so'zlar bilan tasdiqlashi va mashinistga buyruq berilgan vaqtini (soat, minut) ko'rsatishi kerak.

8. Kirish, marshrut yoki chiqish svetoforining taqiq ko'rsatmasida poezdlar qabul qilingan yoki jo'natilgan holatlarda poezdlar harakati jurnalida poezd nomerining to'g'risida ("Izohlar" ustunida) tegishli belgi qo'yillishi kerak:

"PC" (radio aloka orqali), "PS" (taklif signali bo'yicha), "PR" (yo'zma ruxsatnomaga bo'yicha). "PC" belgisida, bundan tashqari, buyruqning nomeri va uni mashinistga uzatilgan vaqt, shuningdek, svetofor literlari (yoki chiqish svetofori bo'lmasa, jo'natilgan yo'lning nomeri) ko'rsatilishi lozim.

Masalan: "RS № 1 12-00 CH2". Poezdlar harakati jurnalida buyruq matni yozilishi talab etilmaydi.

Mashinistga uzatiladigan buyruqlarni hujatlari ro'yxatlashtirish tizimi bilan jihozlangan stansiyalarda svetoforining taqiq ko'rsatmasida poezdlarni qabul qilish va jo'natish to'g'risidagi buyruqlap magnitonfon tasmasida ham qayd etiladi.

Poezdlar harakati jurnalida yuqorida ko'rsatilgan qayd barcha holatlarda bo'lishi shart.

9. Kirish, chiqish (marshrut) svetoforining taqiq ko'rsatmasida poezdlarni stansiyaga qabul qilish yoki jo'natishda barcha xolatlarda stansiya navbatchisi, taklif signali knopkasidan foydalanishi yoki mashinistga taqiq signalidan o'tishga tegishli ruxsatnomaga berishdan avval

qo'ndoq (knonka) ni svetoferning taqiq ko'rsatmasiga mos holatga keltirishi lozim va stansiyaniig texnikaviy-boshqaruv aktida belgilangan tartibda, qabul qilish yo'lining bo'sh ekanligi, marshrutdagi strelkalar to'g'ri o'rnatilganligi va tutashtirilgani, poezdni jo'natishta esa, byndan tashqari, birinchi blok-uchastka (avtomatik blokirovkada) yoki peregonning (yarim avtomatik blokirovkada) bo'sh ekanligiga hamda blok-tizim tegishli harakat yo'nalishtiga o'tkazilganligiga ishonch hosil qilishi kerak. Taklif signali knopkasini, toki qabul qilinayotgan yoki jo'natalayotgan poezdning yetakchi lokomotivi svetofordan o'tgunicha, bosib turish lozim.

10. Strelka bo'g'izlarida yoki svetoferning taqiq ko'rsatmasida poezdni qabul qilish yoki jo'natishta temir yo'l kesishmasini yopilishi to'g'risida "pereezdni yopish" knopkasini bosish bilan xabar beriladigan uzoqlashish uchastkalarida joylashgan pereezdlari mavjud stansiyalarda, stansiya navbatchisi ushbu knopkani bosishi, poezd pereezddan o'tgandan keyin esa uni normal holatga qaytarishi kerak. Bunday stansiyalarda svetoferning taqiq ko'rsatmasida poezdni qabul qilish yoki jo'natishta har qanday holatlarda mashinist pereezdga kelishda 20 km/soat dan ortiq bo'limgan tezlikda o'ta hushyorlik bilan harakatlanishi, to'siq uchrasa, poezdni darhol to'xtatishga tayyor holda bo'lishi lozim. Bunday stansiyalarning ro'yxati DATK bo'yicha buyruq bilan e'lon qilinishi lozim.

11. Stansiya navbatchisi poezd kelganidan (qaytganidan), jo'naganidan yoki o'tganidan so'ng bu to'g'rida darhol qo'shni stansiya navbatchisi va poezd dispetcheriga xabar qilishi shart.

Poezdning jo'nagani (o'tgani) to'g'risida quyidagi shaklda xabar beriladi:

"№ ... poezd ... soat minutda jo'nab ketdi (o'tdi)".

Poezdda temir yo'llar bo'ylab xavfli yuklarni tashish qoidalarida sanab o'tilgan 1 klassli xavfli yuk (portlovchi moddalar) (keyinchalik - 1 klassli (VM) xavfli yuklar) ortilgan vagonlar bo'lsa, xabar qilishda uning nomeriga "VM" harfi qo'shib aytildi (masalan, "2783VM"). Shuningdek, quyidagi turdag'i poezdlar jo'naganida (o'tganida) ham uning nomeriga tegishli harflar qo'shib xabar qilinadi: bir mashinist xizmat ko'rsatadigan yo'lovchi poezdlarga "M", og'ir yukliga "T", uzun tarkibliga "D", og'rligi oshirilganiga "PV", uzunligi oshirilganiga "PD", birlashtirilganiga "SP". Nogabartli yuk ortilgan poezdlar jo'nataliganida poezdning nomeriga "N" harfi va "--" belgisidan so'ng, temir yo'l iz eni 1520 mm bo'lgan temir yo'llar bo'ylab nogabart yuklarni tashish bo'yicha Yo'riqnomada belgilangan, yukning nogabartligi zonasi va darajasini tavsiflovchi raqamli indeks qo'shib xabar qilinadi (masalan, 2785N-0430).

Poezdning kelgani (qaytgani) to'g'risida quyidagi shaklda xabar qilinadi:

"№ ... poezd ... soat ... minutda keldi (qaytdi)".

Poezd suruvchi lokomotiv bilan harakatlanayotgan bo'lsa, jo'nashi va yetib kelishi to'g'risidagi xabarlarg'a "suruvchi bilan" so'zları qo'shib aytildi.

Avtoblokirovka bilan jihozlangan ikki yo'llik uchastkalarda to'g'ri yo'ldan harakatlangan poezdning qo'shni (ortda qolgan) stansiyaga kelgan vaqtini xabar qilmasa ham bo'ladi. Bu holda poezdlar harakati jurnalida qo'shni oldinda joylashgan stansiyaga poezdning kelishi vaqtini ko'rsatilmaydi.

Avtoblokirovka bilan jihozlangan jadal harakatli ikki yo'llik uchastkalarda faqatgina grafikdan chetga chiqib harakatlanayotgan poezdlarning yetib kelishi, jo'nashi va o'tishi xaqida stansiyadan stansiyaga xabar qilinishi, poezd dispetcheriga esa, bundan tashqari, uchastkada joylashgan har bir stansiyadan emas, faqat ayrimlaridan xabar berilishi belgilanishi mumkin. Ushbu tartib odamlarni tashish uchun mo'ljallangan (keyinchalik -

odamli poezdlar) yuk poezdlari va nomerlariga tegishli harf va raqamli indeks qo'hiladigan poezdlarga taaluqli emas.

Ijro etilgan harakat grafigini avtomatik yozish qurilmalari bilan jihozlangan ikki yo'llik va bir yo'llik uchastkalarda ham poezdlarni kelishi, jo'nashi va o'tishi to'g'risida poezd dispetcheriga xabar berishning yuqoridagi kabi tartibi joriy qilinishi mumkin. Bunday uchastkalarning ro'yxati va poezdlarni kelishi, jo'nashi va o'tishi xaqida xabar berish tartibi DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.

Har bir poezdning xaqiqatda jo'nagan, kelgan yoki o'tgan vaqtini stansiya navbatchisi (stansiya navbatchisi huzuridagi operator) poezdlar harakati jurnalida qayd etishi shart, bunda tegishli harf yoki indekslar qo'shilgan poezdlarning nomerlari, jurnalda ham shu harf va indekslar bilan yoziladi.

12. Yo'llar, strelkali o'tkazgichlar, SSB, aloqa va kontakt tarmog'i qurilmalarini nosozligini (shaxsan yoki xodimlar bergan ma'lumotlarga asosan) aniqlagan stansiya navbatchisi bu to'g'rida yo'llar, strelkali o'tkazgichlar, SSB, aloqa va kontakt tarmog'i qurilmalarini ko'rnikdan o'tkazish jurnali (keyinchalik - ko'rik jurnali)ga yozuv kiritishi va tegishli yo'l, signalizatsiya va aloqa distansiyasining ushbu qurilmalarga xizmat ko'rsatuvchi xodimiga (yo'l ustasi, elektromexanik va h.z.) va navbatchi muhandisiga (dispetcheriga) xabar berishi lozim.

Bundan tashqari, harakat xavfsizligiga tahdid solishi yoki poezdlar harakatini to'xtatib qolishi mumkin bo'lgan texnik qurilmalarning har qanday nosozligi xaqida stansiya navbatchisi poezd dispetcheriga ham xabar qilishi lozim.

Nosozlik tegishli xodim tomonidan bartaraf etilgani xususida ko'rik jurnalida ushbu xodim va stansiya navbatchisining imzosi bilan tasdiqlangan yozuv kiritiladi.

Poezd radio aloqasining nosozligi yuzaga kelgan holda lokomotiv (motorvagon poezdi), maxsus o'zi yurar harakat tarkibi mashinisti bu xaqda poezd dispetcheri yoki stansiya navbatchisiga eng yaqin joylashgan alohida punkt yoki pereezddan (mashinist yordamchisi, konduktor, yo'lovchi poezd boshlig'i (mekanik-brigadari) va boshqalar orqali) xabar berishi va peregonni chegaralovchi stansiya navbatchilari tomonidan uzatiladigan poezd dispetcheri buyrug'i bo'yicha, lokomotiv ajratilmasdan poezd radio aloqasi qurilmalari almashtirilishi (ta'miri) yoki lokomotiv almashtirilishi yoki yo'lovchi poezdi lokomotivi bir mashinist bilan boshqarilganda yordamchi lokomotiv talab etilishi amalga oshiriluvchi eng yaqin joylashgan stansiyagacha harakatlanishi kerak.

Agar SSB qurilmalarining nosozligi taklif signali knopkasidan plombani uzish bilan bog'liq bo'lsa, ko'rik jurnaliga kiritiladigan yozuvda taklif signalining plombasi uzilgani ham ko'rsatiladi, masalan:

"5-9 SP uchastka sohta bandlikni ko'rsatmoqda. "X" taklif signaling plombasi uzildi. DSP_____".

SSB qurilmalarining nosozligi oqibatida poezdlarni qabul qilish va jo'natish plombalanmaydigan knopkalarga ega (hisoblagich (schetchik)lar mavjud bo'lganda) taklif signallari bo'yicha amalga oshrilgan holatlarda ham stansiya navbatchisi jurnalga tegishli yozuvni kiritadi, bunda jurnaldagи qurilmalarning nosozligi va normal ish holati tiklanganligi xqidagi yozuvda hisoblagichning ko'rsatmalari ham qayd etiladi.

13. Signalizatsiya va aloqa vositalarining barcha turlarida peregon yoki yo'llarni yopish va ochish, bir yo'llik harakatni o'rnatish, shuningdek, signalizatsiya va aloqa vositalarining bir turidan ikkinchisiga o'tish poezd dispetcherining buyrug'iga asosan amalga oshiriladi.

Telefon aloqa vositalariga o'tishdan oldin peregonni chegaralovchi stansiyalarning navbatchilari, boshqaruv uskunalarini holatini peregonga chiqishni berkituvchi chiqish svetoforlarining taqiq ko'rsatmasiga mos holatga keltirishlari kerak.

Bir yo'llik, shuningdek, yo'llarining birida ikki yo'nalishda harakat tashkil etilgan holatlarda ikki (ko'p) yo'llik peregonlarda ham signalizatsiya va aloqaning asosiy vositalaridan telefon aloqa vositalariga o'tilganda stansiya navbatchilari o'rtasida telefonogrammalar bilan almashish poezd dispetcherlik aloqasi orqali poezd dispetcheri nazorati ostida amalga oshirilishi shart. Poezd dispetcherlik aloqasi nosozligida stansiya navbatchilari mazkur Yo'riqnomanning 44, 45 bandlariga muvofiq harakat qiladilar.

14. Navbatchilikka kirishishdan oldin stansiya navbatchisi quyidagilarni bajarishi lozim:

a) mo'ljallanayotgan ishlar rejasi, poezdlarni qabul qilish va jo'natish, manyovrlarga oid ko'rsatma va farmoyishlar, qabul qilish-jo'natish yo'llarida harakat tarkibining mavjudligi va joylashishi, stansiyaga tutash bo'lган peregon (blok-uchastkalar)dagи ahvol (bo'shligi yoki bandligi) bilan tanishishi;

b) SSB va aloqa qurilmalarini boshqarish asboblarining sozligi va ularda ro'yxatga muvofiq plombalarning mavjudligi, o'zi xizmat ko'rsatadigan strelkali o'tkazgichlarning sozligiga ishonch hosil qilishi;

v) ish joyida asbob-uskunalar, signal berish ashyolari va anjomlarning sozligi va butlagini tekshirish;

g) dispetcher farmoyishlari jurnali, poezdlar harakati jurnali, ogohlantirishlar kitobi, ko'rik jurnali, poezd telefonogrammalarini jurnali va stansiya navbatchisi tomonidan yuritiladigan poezdlar harakatiga aloqador boshqa kitob va jurnallardagi yozuvlar bilan tanishishi.

Navbatchilikka kirishish poezdlar harakati jurnalida quyidagi shakldagi yozuv bilan rasmiylashtiriladi:

"____" 20 y. soat ____ min ____ . Navbatchilikni qabul qildim.
DSP _____ (imzo).

"____" 20 y. soat ____ min ____ . Navbatchilikni topshirdim. DSP
_____ (imzo).

Navbatchilikni qabul qilish va topshirish to'g'risidagi matndan avval, hisoblagichlarning (poezdlar kelishini nazorat qiluvchi, taklif signallari yoki marshrutni sun'iy bo'lish qurilmalarini sun'iy ishlab ketishining hisoblagichlari mavjud holatda) ko'rsatmalari, shuningdek, stansiya navbatchisi postidagi qat'iy nazorat ro'yxatiga kiruvchi anjomlar mavjudligi yoziladi.

15. Navbatchilikni qabul qilgandan keyin stansiya navbatchisi quyidagilarni bajarishi shart:

a) poezd tuzuvchilari, stansiya markazlashtirish posti navbatchilari, markazlashtirish posti operatorlari, strelkali postlar navbatchilari, signalchilar va boshqalarni ishga chiqqanliklarini tekshirish;

b) ushbu xodimlar orqali ular xizmat ko'rsatayotgan ish joylarining ahvolini, ayniqsa, stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktiga muvofiq harakat tarkibi to'g'ri mahkamlanganligini tekshirish;

v) kamchiliklar mavjud bo'lsa, normal ishni va harakat xavfsizligini ta'minlash uchun zarur choralarini ko'rishi, zarurat hollarida bu xususda stansiya boshlig'iga xabar berishi.

16. DATK boshqaruvi raisi tomonidan ayrim alohida punktlarda tashishlarni tashkil qilish boshqarmasining navbatchi xodimlari shtati tugatilganda, SSB qurilmalarining mavjud tizimiga bog'liq holda bunday alohida punktlarda poezdlarni qabul qilish, jo'natish va manyovrlar bajarishning belgilangan tartibi o'rnatilishi lozim.

2-BO'LIM

POEZDLAR HARAKATI VA MANYOVR ISHLARI

1-bob. POEZDLARNING AVTOMATIK BLOKIROVKADA HARAKATI

17. Ikki yo'nalishda harakatlanish uchun avtoblokirovka bilan jihozlangan bir yo'llik peregonlarda, poezdlarning harakati ikkala yo'nalishda ham amalgga oshiriladi.

Har bir yo'l bo'y lab hoh bir tomonlama, hoh ikki tomonlama avtoblokirovka o'rnatilgan ikki yo'llik peregonlarda, juft poezdlarning harakati bir yo'ldan, toqlariniki esa boshqa asosiy yo'ldan amalgga oshirilib, ularning har biri shu yo'nalishdagi poezdlar uchun to'g'ri yo'l hisoblanadi.

Ikki tomonlama avtoblokirovka o'rnatilgan ikki yo'llik peregonlarda, agar yo'llarning har biri asosan bir yo'nalishda harakatlanadigan poezdlarni o'tkazishga mo'ljallanmagan bo'lsa, ushbu yo'llarning har biri bo'y lab bir yo'llik harakat qoidalariiga riosa etgan holda, ikki tomonga ham harakat amalgga oshirilishi mumkin.

Bunday va ko'p yo'llik peregonlarda har bir asosiy yo'l bo'y lab harakat tartibi temir yo'l hududida DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.

18. TFQ 259-bandiga muvofiq, avtomatik blokirovkada:

a) poezdnинг blok-uchastkani egallahiga ruxsat bo'lib, chiqish va o'tish svetoforining ruxsat beruvchi ko'rsatishi xizmat qiladi;

b) mustasno sifatida uzoqqa cho'zilgan ko'tarilishlarda joylashgan o'tish svetoforlarida (kirish svetoforlaridan oldin joylashganlaridan tashqari) har bir alohida vaziyat uchun DATK boshqaruvi raisining ruxsati bilan shartli ruxsat signali - T harfi shaklidagi belgi aks etgan shit o'rnatish mumkin.

Bu signal yuk poezdiga svetoforining qizil chirog'i yonib turganda to'xtamasdan o'tib ketishiga ruxsat bo'lib xizmat qiladi.

Bunda mashinist poezdni shunday boshqarishi kerakki, qizil chirog'i yonib turgan svetoforni 20 km/soat tezlikda ehtiyojkorlik bilan bosib o'tishi va keyingi harakatiga to'siq uchrab qolganda zudlik bilan poezdni to'xtatishga shay bo'lishi kerak;

v) poezd o'tish svetoforining qizil chirog'ida to'xtaganidan keyin, shuningdek, chirog'i o'chgan yoki noaniq bo'lsa, agarda mashinist oldindagi blok-uchastka boshqa poezd bilan egallanganini ko'rib yoki bilib tursa, blok-uchastka bo'hamaguncha harakatini davom ettirishi man qilinadi. Agarda mashinist oldindagi blok-uchastkada poezd bor-yo'qligini bilmasa, u to'xtagandan so'ng avtotormozni qo'yib yuborishi kerak, ana shu vaqt ichida svetoforining ruxsat beruvchi chirog'i yonmasa, poezdni keyingi svetoforgacha 20 km/soat tezlik bilan alohida e'tibor bilan boshqarishi va harakatida biron-bir to'siq uchraydigan bo'lsa, poezdni zudlik bilan to'xtatishga shay bo'lib turishi kerak.

Keyingi o'tish svetofori ham shu ahvolda bo'lsa, poezd harakati to'xtagandan keyin yana o'sha tartibda davom ettiriladi.

Belgilangan tartibda man etuvchi ko'rsatkichli o'tish svetofori o'tib bo'lingandan so'ng lokomotiv svetoforida ruxsat ko'rsatkichi paydo bo'lsa, mashinist lokomotiv

svetoforining ko'rsatkichiga amal qilib, lekin 40 km/soat tezlikdan oshmagan holda keyingi svetoforgacha borishi mumkin.

Lokomotiv svetoforida ruxsat chiroqlari yonib turganida lokomotiv svetofori ko'rsatkichiga amal qilib o'tish svetoforlarining o'chgan chiroqlarida to'xtamay o'tib ketishga ruxsat etiladi.

Poezd uchastka bo'ylab harakatlanganda mashinist va uning yordamchisi svetoforlarning ko'rsatmalarini kuzatib borishlari va ularning talablarini qat'iy ijro etishlari lozim, avtomatik lokomotiv signalizatsiya mavjudligida esa, yo'l va lokomotiv svetoforlarining ko'rsatmalarini kuzatishlari lozim.

Yo'l svetoforining signali ko'rinnmasa (uzoq masofa, yo'lning egriligi, tuman sababli va boshqa hollarda), yo'l svetoforiga ko'rinnadigan darajada yaqinlashguncha mashinist va uning yordamchisi lokomotiv svetoforining ko'rsatmalariga amal qilishlari lozim.

19. Agar yo'l va lokomotiv svetoforining ko'rsatmalarini bir-biriga mos bo'lmasa, mashinist faqat yo'l svetoforlarining ko'rsatmalariga amal qilishi lozim.

Qizil chiroqli yoki tushunarsiz ko'rsatmali o'tish svetoforlaridan harakatlanish lokomotiv svetoforining ko'rsatmalaridan qat'iy nazar Texnikaviy foydalanish qoidalari (TFQ) ning 259-bandida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Avtomatik lokomotiv signalizatsiya yo'l qurilmalari bilan jihozlangan peregon yoki stansiya yo'llari bo'ylab harakatlanganda lokomotiv svetoforida to'satdan oq chiroq yonsa, mashinist poezdni keyingi svetoforgacha (yoki lokomotiv svetoforida ruxsat ko'rsatmasi paydo bo'lguncha) o'ta hushyorlik bilan hamda 40 km/soat dan ortiq bo'limgan tezlikda boshqarishi lozim.

Avtomatik lokomotiv signalizatsiya qurilmalari ishdan chiqqan holatlarda mashinist quyidagilarga amal qilishi shart:

yo'lovchi yoki yuk poezdi lokomotivini boshqarganda radio aloqa sozligida, ushbu poezdni lokomotiv brigadalar navbatli almashadigan punktga olib borishi lozim, u yerda lokomotiv signalizatsiya qurilmalari lokomotivni uzmasdan ta'mirlanishi yoki lokomotiv almashtirilishi kerak;

shahar atrofiga qatnovchi motorvagon poezdlarni asosiy yoki aylanma deposi mavjud, yoki lokomotivlarga texnik xizmat ko'rsatish punkti mavjud eng yaqin stansiyagacha olib borish ruxsat etiladi.

Avtomatik lokomotiv signalizatsiyasi yoki xavfsizlik tizimlari qurilmalari nosoz poezdlarni ushbu punktlargacha olib borilishi, uchastkaning stansiya navbatchisi orqali beriladigan poezd dispetcherining buyrug'iga binoan amalga oshirilishi lozim.

20. Peregonda poezdlar ulanganda ulanish uchun harakatlanayotgan poezd mashinistiga ulanayotgan poezd band etgan blok-uchastkaga to'xtamasdan, harakatsiz poezdning oldida o'z vaqtida to'xtashni ta'minlovchi, ammo 20 km/soat dan oshmagan tezlikda harakatlanishga ruxsat etiladi.

21. Bir tomonlama avtoblokirovka bilan jihozlangan ikki yo'llik peregonlarda ikki yo'nalishda harakatni tashkil etish uchun avtomatik lokomotiv signalizatsiya qo'llanishi mumkin. Bunday peregonlarda poezdlarning to'g'ri yo'nalishdagi harakati avtoblokirovka signallari, noto'g'ri yo'nalishda esa - lokomotiv svetoforlarining ko'rsatmalariga binoan amalga oshiriladi. Poездни stansiyadan noto'g'ri yo'ldan jo'natilishi chiqish svetoforining ruxsat ko'rsatmasi bo'yicha amalga oshiriladi.

Lokomotiv svetofori ko'rsatmalariga binoan poezd noto'g'ri yo'ldan yuritilayotganda mashinist va uning yordamchisi quyidagilarga rioya qilishlari shart:

a) lokomotiv svetoforida yashil chiroq yonib turganda bunday holatlar uchun DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilangan tezlikda harakatlanish lozim;

b) sariq chiroq yonib turganda 50 km/soat dan ortiq bo'limgan tezlikda harakatlanish lozim;

v) lokomotiv svetoforida sariq chiroq bilan bir paytda qizili ham yonsa, tezlikni 20 km/soat gacha kamaytirish va poezdni qarama-qarshi yo'nalishdagi birinchi yo'l svetofori oldida to'xtatish lozim;

g) poezd sariq chiroq bilan bir paytda qizili yonib to'xtagandan so'ng, mashinist oldindagi blok-uchastkani poezd band etganligini ko'rsa yoki bilsa, blok-uchastkaning bo'shligini, ya'ni lokomotiv svetoforida sariq yoki yashil chiroq yonishini kutishi, so'ngra esa lokomotiv svetoferining signallariga binoan harakatni davom ettirishi lozim;

d) mashinist oldidagi blok-uchastkada poezd bor-yo'qligini bilmasa hamda to'xtash va tormozlarni bo'shatish davrida lokomotiv svetoforida sariq yoki yashil chiroq yonmasa, harakatni davom ettirishi va keyingi blok-uchastkaning oxirigacha poezdni o'ta hushyorlik bilan 20 km/soat dan ortiq bo'limgan tezlikda va harakatga to'siq uchrasa, poezdni darhol to'xtatishga tayyor holda boshqarishi lozim. Agar blok-uchastkada harakatlanayotgan vaqtda lokomotiv svetoforining qizil chiroq'i sariq bilan qizil chiroqqa almashsa, mashinist 20 km/soat dan ortiq bo'limgan tezlikda harakatni davom ettirishi, sariq yoki yashil chiroq yonganda esa tezlikni ko'pi bilan 40 km/soat gacha oshirishi mumkin;

e) blok-uchastkaning oxirida sariq yoki yashil chiroq yonayotganda ushbu signallarga binoan harakatni davom ettirishi lozim; qizil chiroq saqlanib qolsa yoki sariq chiroq bilan qizili yonsa, mashinist poezdni yana to'xtatishi va bundan so'ng "g" va "d" bandlarda ko'rsatilgan tartibga amal qilishi lozim;

j) lokomotiv svetoforida ruxsat ko'rsatmasining o'rnida to'satdan sariq chiroq bilan qizili, qizil yoki oq chiroq yonsa, yoki lokomotiv svetoforlarining chiroqlari o'chgan bo'lsa, mashinist tezlikni kamaytirish choralarini ko'rishi va poezdni blok-uchastkaning oxirigacha yoki lokomotiv svetoforida ruxsat ko'rsatmasi paydo bulgunicha o'ta hushyorlik bilan va harakatga to'siq uchrasa, o'z vaqtida to'xtash imkoniyatini ta'minlovchi tezlikda boshqarib borishi lozim.

Blok-uchastkani oxirida ham lokomotiv svetoforida sariq chiroq bilan qizili, qizil yoki oq chiroq saqlanib qolsa yoki chiroqlar yonmasa, keyingi harakat "g" va "d" bandlarda ko'rsatilgan tartib bilan amalgalga oshiriladi.

z) lokomotivdagi ALSN qurilmalari ishdan chiqqan hollarda, qarama-qarshi yo'nalishdagi eng yaqin svetofor oldida to'xtatishi, keyinchalik kirish svetofori ("Stansiya chegarasi" signal belgisi) gacha o'ta hushyorlik bilan 20 km/soat dan ortiq bo'limgan tezlikda va harakatga to'siq uchrasa, poezdni darhol to'xtatishga tayyor holda boshqarishi lozim.

Noto'g'ri yo'ldan ketayotan poezd stansiyaga maxsus o'rnatilgan kirish svetofori ko'rsatmalariga binoan qabul qilinadi, ushbu svetofor mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda harakat yo'nalishining chap tomonidan ham joylashtirilishi mumkin.

Kirish svetoforining ruxsat ko'rsatmasiga binoan noto'g'ri yo'ldan ketayotgan poezdni stansiyaga kirish tezligi yonlama yo'lga qabul qilish uchun belgilangan tezlikdan oshmasligi lozim.

POEZDLARNI QABUL QILISH VA JO'NATISH

22. Poezdlarni qabul qilish va jo'natishdan avval stansiya navbatchisi belgilangan tartibda qabul qilish yoki jo'natish marshrutini tayyorlaydi hamda kirish (chiqish) svetoforini ochadi.

Bir yo'llik peregonlarda, shuningdek, ikki tomonlama avtoblokirovkali ikki yo'llik peregonlarda yoki bir yo'lli harakat qoidalariiga binoan ikki tomonlama avtoblokirovka bilan jihozlangan ikki yo'lli (ko'p yo'lli) peregon yo'llari biridan poezdni noto'g'ri yo'ldan jo'natish zarur bo'lsa yoki lokomotiv svetoforlari signallari bo'yicha noto'g'ri yo'ldan harakat amalga oshirilganda, stansiya navbatchisi, bundan tashqari, navbatchi poezd dispetcheri bilan

(poezd dispatcher aloqasi nosoz bo'lgan hollarda esa qo'shni stansiya navbatchisi bilan) peregonni band etish xuquqini ilgaridan muvofiqlashtirishi lozim.

Poezd o'tganda kirish (chiqish) svetofori avtomatik tarzda yopiladi. Agar svetofor signal dastagi bilan boshqarilsa, stansiya navbatchisi uni normal holatga keltiradi.

Ikki yo'llik uchastkalarda stansianing asosiy yo'llarida joylashgan to'g'ri yo'nalishdagi kirish, marshrut va chiqish svetoforlari avtoharakatga o'tkazilishi mumkin. Bunday hollarda svetoforlar avtomatik rejimda ishlaydi.

23. Guruhga birlashtirilgan chiqish (marshrut) svetoforlarining mavjudligida, jo'natilish yo'llari takrorlovchi svetoforlar bilan jihozlanmagan bo'lsa, poezdlar chiqish svetoforining ruxsat ko'rsatmasiga hamda poezd jo'natilishi ruxsat berilgan yo'lning raqamini yashil rangli raqam bilan ko'rsatayotgan marshrut ko'rsatkichiga binoan jo'natiladi.

Agar jo'natish yo'lida guruh svetoforining takrorlovchi svetofori mavjud bo'lsa, ushbu yo'ldan poezdning guruh svetoforigacha jo'natilishi takrorlovchi svetoforining ko'rsatmasiga binoan amalga oshiriladi.

Marshrut ko'rsatkichlari yoki chiqish svetoforlari guruhining takrorlovchi svetoforlari nosoz bo'lsa yoki poezdning old tomoni takrorlovchi svetofordan tashqarida bo'lsa, chiqish guruh svetofori ochiq bo'lsa, poezdning jo'natishga ruxsat, qayd etiluvchi buyruq bilan radio aloqa orqali lokomotiv mashinistiga quyidagicha beriladi:

"_____ yo'lida turgan №_____ poezdning mashinisti. Guruh signali Siz uchun ochilgan. Jo'nashga ruxsat. DSP ____".

Chiqish guruh svetofori ochiq holda lokomotiv mashinistiga taqdim etiladigan, II punkti to'ldirilgan, yashil rangdagi ruxsatnomma blankasi bilan ham poezd jo'natilishi mumkin (DU-54 shaklidagi blank 38-betda keltirilgan).

24. Qoida bo'yicha, chiqish svetoforlari bo'limgan yo'llardan poezdlarni jo'natishga ruxsat etilmaydi. Istisno holatlarda bunday yo'llardan poezdlarning jo'natilishi, chiqish svetofori nosoz holatlardagi kabi, ushbu Yo'riqnomanning 30- va 31- bandlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Poezdning bosh tomoni chiqish svetoforidan tashqarida joylashgan holatlarda ham, shu jumladan, ushbu svetoforining o'z-o'zidan yopilishi natijasida poezd uning tashqarisida to'xtagan hollarda ham, qachonkim lokomotivning mashinisti yopilish signalini ilg'ab, poezd signalni bosib o'tgandan so'ng poezdni to'xtatsa, stansiyadan poezdlar shu tartibda jo'natiladi.

Agar poezdning yetakchi lokomotivi ruxsat ko'rsatmasi chiqish (marshrut) svetoforidan tashqarida bo'lsa, radio aloqa orqali mashinistga quyidagi shaklda qayd etiluvchi buyruq berilishi kerak:

"_____yo'ldagi №_____ poezdning mashinisti. _____ chiqish (marshrut) svetofori Siz uchun ochiq. Jo'nashga ruxsat beraman. DSP ____".

Bunday holatda mashinistga taqdim etiladigan, II punkti to'ldirilgan yashil ruxsatnomma blankasi (DU-54 shaklidagi blank) bilan ham poezd jo'natilishi mumkin.

Etakchi lokomotiv, teskari tomonida takrorlovchi kallak bilan jihozlangan chiqish svetoforidan tashqarida bo'lsa, poezd takrorlovchi kallakdagi ruxsat ko'rsatmasiga binoan jo'natiladi.

25. Agar chiqish (marshrut) svetoforining ruxsat ko'rsatmasida takrorlovchi svetoforda yashil chiroq yonmasa, bu holda takrorlovchi svetofor oldida turgan jo'nashga tayyor yo'lovchi poezdi lokomotivining mashinistiga stansiya navbatchisi (shaxsan yoki

poezd radio aloqasi yoki poezdlar harakati bilan bog'liq bo'lgan stansianing birorta xodimi orqali) takrorlovchi svetoforning nosozligi, poezdni harakatga keltirish imkoniyati, chiqish (marshrut) svetoforgacha harakatlanib, so'ngra uning ko'rsatmalariga rioya etishi to'g'risida xabar qilishi lozim.

Takrorlovchi svetoforning oldida turgan yo'lovchi poezdi chiqish (marshrut) svetoforining ta'qiq ko'rsatmasida jo'natilayotganda, mashinistga stansiyadan jo'natish uchun taqdim etilayotgan yoki radio aloqa orqali uzatilayotgan ruxsat, bir paytning o'zida yonmayotgan takrorlovchi svetofordan o'tib ketishga ham ruxsat deb hisoblanadi.

Poezd stansiyadan to'xtamasdan o'tganda, stansiya navbatchisi poezd bиринчи (eng yaqin) yaqinlashish uchastkasiga kirganda radio aloqa orqali mashinistni (marshrut yoki chiqish svetofori oldidagi) takrorlovchi svetoforning nosozligi to'g'risida ogohlantirishi lozim. Bunday xabarni qabul qilgandan so'ng mashinist harakatni lokomotiv va chiqish yoki marshrut svetoforining ko'rsatmalariga binoan davom ettiradi.

26. Peregonnning boshidan oxirigacha harakatlanadigan suruvchi lokomotivli poezdning jo'natilishi va harakatlanishi ushbu peregonda avtomatik blokirovka signallariga binoan amalga oshiriladi.

Peregondan qaytadigan suruvchi lokomotiv ulangan poezdning jo'natilishi va harakatlanishi avtomatik blokirovka signallariga binoan amalga oshiriladi, peregondan qaytish uchun esa suruvchi lokomotivning mashinistiga jo'nash stansiyasida jezl-kalit beriladi.

27. Jo'natilish stansiyasiga qaytadigan xo'jalik poezdini peregonga ish bajarish maqsadida jo'natish (peregon yopilmagan hollarda) avtomatik blokirovka signallariga binoan (ochiq chiqish svetofori bo'yicha) amalga oshiriladi.

Poezd orqaga jezl-kalit bo'yicha qaytadi, ushbu kalit stansiyadan jo'nash oldidan ishlar rahbari (bosh konduktor)ga, peregondan qaytish oldidan mashinistga topshirish uchun beriladi. Jezl-kalit, shuningdek, yordamchi post xizmat ko'rsatmaydigan peregonlardagi tutashmalarga vagonlarni kiritish va olib chiqishda ham qo'llanishi mumkin.

Lokomotiv svetoforlarining ko'rsatmalariga binoan poezdlarga noto'g'ri yo'ldan harakatlanishga imkon beruvchi qurilmalar bilan jihozlangan ikki yo'llik peregonlarda, poezdni jezl-kalit bilan faqat to'g'ri yo'ldan jo'natishga ruxsat etiladi.

O'ziyurar maxsus harakat tarkibining ikki va undan ortiq birligidan tashkil topgan xo'jalik poezdlarining kalit-jezl bilan jo'natilishiga, ular peregonda ajratilmagandagina yo'l qo'yiladi.

28. Jezl-kalit nosoz bo'lgan yoki umuman bo'lмаган istisno hollarda peregondan qaytadigan, suruvchi lokomotiv ulangan xo'jalik poezdlarini faqat telefon aloqa vositalariga o'tilganidan so'nggina jo'natish ruxsat etiladi.

Bunday hollarda yetakchi va suruvchi lokomotivlar mashinistlariga yo'l xatlari (qog'ozlari) beriladi (DU-50 shaklidagi blank __-betda keltirilgan).

29. Maxsus o'zi yurar harakat tarkibi peregonga avtoblokirovka signallari bo'yicha jo'natiladi, bu hollarda avtoblokirovka uchastkalarida harakatlanayotgan maxsus o'zi yurar harakat tarkibi rels zanjirini ishonchli tarzda shuntlashi lozim. Bu maxsus o'zi yurar harakat tarkibining pasportida ko'rsatilishi lozim.

Olib qo'yiladigan turdag'i harakat birliklari (drezinalar, ta'mirlovchi minoralar, yo'l vagonchalari va h.z.) g'ildirak juftlari izolyatsiyaga ega bo'lishi kerak.

AVTOBLOKIROVKA NOSOZLIGIDA ISHLASH TARTIBI

30. Agar to'g'ri o'rnatilgan marshrutda va birinchi blok-uchastka bo'shligida (bosqaruv asboblarning ko'rsatmalari bo'yicha) chiqish svetofori ochilmasa, poezd to'g'ri yo'l bo'ylab ikki yo'llik peregonga quyidagi tartibda jo'natilishi mumkin:

chiqish svetoforidagi taklif signaliga binoan;

jo'natilayotgan poezd mashinistiga radio aloqa orqali uzatiladigan qayd etiluvchi buyruq bilan:

"Buyruq № _____. Sana _____. Vaqt _____(soat, minut).

____ yo'ldagi № ____ poezdga chiqish (marshrut) svetoforining liter ____ taqiqlovchi ko'rsatmasida asosiy yo'ldan jo'nashga va birinchi o'tish (chiqish, marshrut) svetoforigacha liter ____ yurishga, so'ngra avtoblokirovka signallariga binoan harakatlanishga ruxsat beraman. DSP ____".

I-punkti to'ldirilgan yashil rangli blankdagi (DU-54 shaklidagi blank) ruxsatnomaga asosan.

31. Bir yo'llik peregonga yoki ikki tomonlama avtoblokirovkali ikki yo'llik peregonning noto'g'ri yo'lidan chiqish svetoforining taqiqlovchi ko'rsatmasida poezd quyidagi tartibda jo'natilishi mumkin:

a) ushbu Yo'riqnomaning 30-bandida ko'rsatilgan shaklda, poezd mashinistiga radio aloqa bo'yicha uzatiladigan stansiya navbatchisining qayd etiluvchi buyrug'i bo'yicha;

b) I-punkti to'ldirilgan yashil rangli blankdagi (DU-54 shaklidagi blank) ruxsatnomaga asosan.

Poezdni taklif signali bo'yicha bir yo'llik peregonga va ikki yo'llik peregonning noto'g'ri yo'li bo'ylab jo'natish taqiqlanadi.

Poezdni jo'natishdan oldin stansiya navbatchisi quyidagilarni bajarishi shart:

peregon (yo'l)ning qarama-qarshi yo'nalishdan harakatlanayotgan poezdlardan bo'shligini tasdiqlovchi, poezd dispetcherining buyrug'ini qabul qilishi:

"№____ poezdga ____ asosiy yo'l bo'yicha stansiyadan chiqish svetoforining taqiq ko'rsatmasida jo'nashga ruxsat beraman. Peregon (peregonning asosiy yo'li) qarama-qarshi yo'nalishdagi poezdlardan bo'sh. DNS ____".

Bunday buyruq chiqish svetoforining taqiq ko'rsatmasida bir yoki bir nechta (birin-ketin) bir yo'nalishda harakatlanayotgan poezdlarni jo'natish uchun ham berilishi mumkin;

jo'nab ketayotgan poezd yo'nalishida blok-tizimni o'rnatish;

apparatdan tegishli peregon (peregon yo'li) jezl-kalitini chiqarish. Chiqarilgan jezl-kalit jo'nayotgan poezd amalda peregonni egallagandan so'ng (u birinchi uzoqlashish blok-uchastkasiga kirganidan so'ng) apparatga qaytariladi.

O'tish svetoforlarisiz, yo'nalishni o'zgartirish qurilmalari bilan jihozlanmagan, bosqaruv apparatlarida jezl kalitlari bo'limgan bir yo'llik peregonlarga chiqish svetoforining taqiq ko'rsatmasida poezdlarni jo'natish tartibi DATK bosqaruvi raisi tomonidan belgilanadi. Bu hollarda poezdlar "a" va "b" bandlarda ko'rsatilgan ruxsatnomalar bo'yicha jo'natiladi.

Lokomotiv svetoforining ko'rsatmalari bo'yicha noto'g'ri yo'ldan harakatlanish avtoblokirovksi bilan jihozlangan ikki yo'llik peregonlarda, qachonkim noto'g'ri yo'lning chiqish svetofori ochilmagan yoki mavjud bo'limgan hollarda poezdlar avtoblokirovkaning amalda bo'lishi yakunlangandan so'ng jo'natiladi.

32. Birinchi blok-uchastkaning bo'sh ekanligiga ishonch hosil qilmasdan turib, avtoblokiroka bilan jihozlangan peregonga chiqish svetoforining taqiq ko'rsatmasida poezdni jo'natish stansiya navbatchisiga taqilanganadi.

Agar ilgari jo'natilgan poezd birinchi blok-uchastkani o'tib ketishiga zarur vaqtan so'ng ham boshqaruv asboblari uning bandligini ko'rsatsa, hamda to'g'ri tayyorlangan marshrutda chiqish svetofori ochilmasa, stansiya navbatchisi ixtiyorida bo'lgan boshqa vositalar bilan (ilgari jo'natilgan poezd mashinisti bilan radio aloqa orqali so'zlashib, pereezd navbatchilari va boshqa xodimlar xabarları bo'yicha) birinchi blok-uchastkaning bo'sh ekanligiga ishonch hosil qilishi lozim.

Agar stansiya navbatchisi 10 minut davomida ilgari jo'natilgan poezd qayerdaligini aniqlay olmasa, keyingi poezd chiqish svetoforining taqiq ko'rsatmasida jo'natilishi mumkin, ammo bu holda yetakchi lokomotivning mashinisti stansiyadan jo'nashdan oldin radio aloqa orqali yoki yashil rangdagi ruxsatnomalar blankasida qayd etilib, birinchi blok-uchastkaning bo'shligi xususida ma'lumot yo'qligi xaqida ogoshlantirilishi lozim.

Shu singari holatlarda o'tish svetoforlari bo'limgan, avtoblokirovkalik qisqa peregonlarga SSB qurilmalari tizimi va ish sharoitlariga bog'liq ravishda poezdlarni jo'natish tartibi, DATK tashishlarni tashkil qilish boshqarmasi boshlig'i tomonidan belgilanadi.

33. Jo'natilayotgan poezdning (bir yo'llik peregonga, shuningdek ikki yo'lli peregonga ham) taqiq ko'rsatmali marshrut svetofordan o'tishi, stansiya navbatchisi tomonidan svetofor chegaralovchi yo'l uchastkasining bo'shligini tekshirilgandan so'ng, ushbu Yo'riqnomaning 30-bandida ko'zda tutilgan ruxsatnomalarga asosan amalga oshiriladi.

34. Chiqish svetoforidagi taklif chirog'i, 1-punkti to'ldirilgan yashil blankdagi ruxsatnomalar (DU-54 shaklidagi blank) yoki radio aloqa orqali uzatilgan stansiya navbatchisining qayd etiluvchi buyrug'i mashinistga yopiq chiqish svetoforidan o'tish va poezdni birinchi o'tish svetoforigacha (o'tish svetofori bo'limgan peregonlarda esa, qo'shni stansiyaning kirish svetoforigacha) poezdni 20 km/soat dan oshmagan tezlikda o'ta ehtiyyotkorlik bilan hamda harakatga to'siq uchraganda darhol to'xtashga tayyor holda yuritish, so'ngra avtomatik blokirovka signallariga rioya qilish xuquqini beradi.

Ko'rsatilgan ruxsatlar marshrut svetoforining nosozligida mashinistga shu singari tartibda chiqish (yoki keyingi marshrut) svetoforgacha harakatlanish xuquqini beradi.

Stansiyadan yuqorida ko'rsatilgan ruxsatlar bo'yicha jo'natilgan poezdning avtostopli avtomatik lokomotiv signalizatsiya bilan jihozlangan uchastkalardan harakatlanganida, agar birinchi blok-uchastkaning bo'shligi xususida ma'lumot bo'lsa, poezd peregonga kirdigan so'ng, lokomotiv svetoforida yashil, sariq yoki sariq bilan qizil chiroq yonsa, mashinist birinchi o'tish svetoforigacha lokomotiv svetoforining signal ko'rsatmalariga binoan harakatlanishi mumkin.

Lokomotiv svetoforining oq chirog'i yonganda yoki birinchi blok-uchastkaning bo'sh ekanligi to'g'risida ma'lumotlar bo'limganda mashinist birinchi o'tish svetoforigacha 20 km/soat dan oshmagan tezlikda, so'ngra avtomatik blokirovka signallariga binoan harakatlanishi lozim.

35. Guruh svetoforining nosozligida poezdlar ushbu Yo'riqnomaning 30- va 31-bandalarida ko'zda tutilgan tartibda stansiya navbatchisining qayd etiluvchi buyrug'i yoki I-punkti to'ldirilgan yashil blankdagi ruxsatnomalar (DU-54 shaklidagi blank) bo'yicha jo'natiladi.

36. Chiqish svetoforida yo'nalishning marshrut (oq rang) ko'rsatkichi nosozligida poezdlar ochiq chiqish svetoforida jo'natiladi, ammo bunday holatda stansiya navbatchisi mashinistga shaxsan, poezd radio aloqasi yoki poezdlar harakatiga aloqador biron stansiya

xodimi orqali ko'rsatkichning nosozligi va poezd harakatlanayotgan yo'nalishda marshrutning tayyorligi xususida xabar qilishi lozim.

37. Svetoforlarning kallakkari yoki boshqaruv apparatida (tablo)da yaqinlashuv va uzoqlashuv uchastkalarining nosozligida, poezdlarni qabul qilish va jo'natish avtomatik blokirovka bo'yicha, stansiya navbatchisining (telefon yoki radio aloqa orqali) poezd dispetcheri, qo'shni stansiyalarning navbatchilari, lokomotivlarning mashinistlari va boshqa xodimlar bilan so'zlashuvlari asosida amalga oshiriladi. Poezdlarni qabul qilish va jo'natish marshrutlarini tayyorlash jarayonida stansiya navbatchisi stansiya SSB qurilmalari nazorat asboblarining nosozligida ushbu Yo'riqnomaning 13-bobida belgilangan tartibga rioya qilishi lozim.

38. Peregon xaqiqatda bo'sh bo'lib, nazorat asboblari uning bandligini ko'rsatganda va bu holda harakat yo'nalishini (bir yo'llik yoki ikki tomonlama avtoblokirovkali ikki va ko'p yo'llik peregonlarda) o'zgartirish talab etilsa, shuningdek asosiy rejim dastaklari (knopkalari) yordamida yo'nalishni o'zgartirish mumkin bo'lmannan boshqa holatlarda, yordamchi rejim dastaklari (knopkalari) mavjud bo'lsa, bunday o'zgarish ushbu dastaklar yordamida peregonning bo'shligini tekshirib ko'rgandan so'ng uni chegaralovchi stansiyalar navbatchilariga beriladigan poezd dispetcherining qayd etiluvchi buyrug'i bo'yicha amalga oshiriladi:

"____ peregonda (_____peregonning____yo'lida) avtoblokirovka bo'yicha yo'nalishni yordamchi rejim dastaklari (knopkalari) vositasida toqdan juftga o'zgartirishga ruxsat beraman. Peregon (peregonning____yo'li) poezdlardan bo'sh. DNS____".

Bunday buyruqni olgandan so'ng ikkala stansiyaning navbatchilari plombalarni uzadilar va yordamchi rejim dastaklarini (knopkalarini) yo'nalishni o'zgartirish uchun o'tkazadilar. Yo'nalishni o'zgartirgandan so'ng stansiya navbatchilari boshqaruv pultidagi nazorat asboblarining ko'rsatmasi bo'yicha o'zgarish sodir bo'lganiga ishonch hosil qilishlari, so'ngra yordamchi dastaklar (knopkalar)ni normal holatga keltirishlari lozim. Plombalar uzilgani to'g'risida ko'rik jurnaliga qayd kiritiladi.

Yo'nalish o'zgartirilgandan so'ng poezdlar ochiq chiqish svetofori bo'yicha jo'natiladi, tegishli signal ochilmagan holatlarda esa, ushbu Yo'riqnomaning 30-, 31-punktlariga muvofiq jo'natiladi.

39. Barcha turdaga telefon aloqasi uzilganda va radio aloqa orqali so'zlashuv imkoniyati bo'lmasa, ammo avtoblokirovka soz ishlaganda (nazorat asboblarining ko'rsatmalari bo'yicha uzoqlashuv uchastkalarning bo'shligida) ikki yo'llik peregonlarda poezdlarning harkati faqat to'g'ri yo'l bo'ylab avtoblokirovka signallariga binoan amalga oshiriladi. Bir yo'llik peregonlarda bunday holatlarda poezdlarni jo'natish uchun avtoblokirovkadan faqat ustun (toq) yo'nalishda jo'natayotgan stansiya foydalanishi mumkin bo'lib, bu stansiyadagi avtoblokirovkaning yo'nalishi aloqa uzilgan paytda poezdlarning shu yo'nalishdagi harakatiga mos bo'lishi shart.

Agar telefon aloqasi uzilgan paytda avtoblokirovka juft yo'nalishda o'rnatilgan bo'lsa, birinchi poezd ustun yo'nalishdagi stansiyadan juft poezd peregondan o'tishi uchun zarur bo'lgan davrga telefon aloqasi uzilgan paytdan boshlab yana 10 minut qo'shilgan miqdordagi vaqt o'tgandan so'ng jo'natilishi mumkin, shu vaqt davomida nazorat asboblari peregonning bo'sh ekanligini ko'rsatgan bo'lishi shart. Ustun yo'nalishdagi stansiyada yakka lokomotiv bo'lsa, u birinchi jo'natilishi lozim.

Birinchi poezd (lokomotiv, o'zi yurar maxsus harakat tarkibi) jo'natilishi uchun stansiya navbatchisi avtoblokirovkani toq yo'nalishga o'zgartirishi, apparatdan jezl-kalitni

chiqarishi va chiqish svetoforini ochishi lozim. Birinchi poezd (lokomotiv, o'zi yurar maxsus harakat tarkibi) bilan yozma xabarnoma yuboriladi va shu paytdan boshlab toki telefon aloqasi tiklangunga qadar poezdlarning harakati ushbu Yo'riqnomanning 6-bobida bir yo'llik peregonlar uchun belgilangan qoidalarga binoan amalga oshiriladi.

40. Avtoblokirovka amal qilishi to'xtatilishi zarur bo'lган nosozliklarga quyidagilar kiradi:

- a) lokomotiv svetoforidagi ko'rsatmalarga bog'liq bo'lмаган holda peregonda ketma-ket joylashgan ikki va undan ortiq svetoforlarda signal chiroqlarining o'chganligi;
- b) blok-uchastka bandligida chiqish yoki o'tish svetoforida ruxsat chirog'ining yonganligi;
- v) bir yo'llik yoki ikki tomonlama avtoblokirovkali ikki yo'llik peregonda noto'g'ri yo'ldan, shuningdek, ko'p yo'llik peregonlarda ikki tomonlama avtoblokirovkali bir tomonlama harakat qoidalari yo'ldan poezdni jo'natilishida yo'nalishni, shu jumladan, yordam rejim dastaklari (knopkalari) vositasida, o'zgartirish imkoniyatining yo'qligi. Belgilangan yo'nalishda avtoblokirovkadan foydalanish ruxsat etiladi.

Poezd lokomotivining mashinisti, "a" yoki "b" bandlarida ko'rsatilgan biron nosozlikni aniqlasa, bu to'g'rida eng yaqin stansiya navbatchisi (poezd dispetcheri) va ortidan kelayotgan poezdlarning mashinistlariga xabar berishi, "b" bandida ko'rsatilgan nosozlikni aniqlasa, bundan tashqari poezdni darhol to'xtatishi lozim.

Mashinist peregonda o'tish svetoforining signal chiroqlari o'chganda ("a" bandda keltirilgan nosozlik) harakatni Texnikaviy foydalanish qoidalaring 259-bandiga amal qilib davom ettiradi.

Ruxsat ko'rsatmasi mavjud bo'lган chiqish yoki o'tish svetoforining oldida poezd to'xtaganidan so'ng (yoki ulardan o'tib ketganidan keyin), blok-uchastkaning band holatida mashinist harakatni ushbu blok-uchastka poezddan bo'shagandan so'ng: stansiyada - DSP (DNS) ko'rsatmasiga binoan, peregonda – 20 km/soat dan ortiq bo'lмаган tezlikda o'ta ehtiyyotkorlik va to'siqqa uchrassa, darhol to'xtashga tayyor holda, keyinchalik svetofor ko'rsatishlari bo'yicha amalga oshirishi mumkin.

Stansiya navbatchisi avtoblokirovkaning peregondagi nosozligi to'g'risida xabar olganidan keyin yoki stansiyada uning nosozligini nazorat priborlari bilan aniqlanganidan so'ng quyidagilarni bajarishi shart:

- a) ushbu peregonga (ushbu yo'l bo'ylab) poezdlarni jo'natishni to'xtatishi, chiqish svetoforlarini taqiq holatiga o'tkazishi;
- b) radio aloqa orqali peregondagi poezdlarning mashinistlarini chaqirib, ularni nosozlik to'g'risida ogohlantirishi;
- v) poezd dispetcheriga avtoblokirovkaning nosozligi xaqida xabar qilishi;
- g) ko'rik jurnaliga tegishli yozuvni kiritishi va SSB elektromexanigi (signalizatsiya va aloqa distansiyasi navbatchisi)ga xabar qilishi.

Markazlashtirilgan dispetcherlik mavjud uchastkalarda yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni poezd dispetcheri bajaradi.

Avtoblokirovka amal qilishi poezd dispetcherining buyrug'i bilan to'xtatiladi va poezdlarning harakati telefon aloqa vositalari bo'yicha o'rnatiladi.

Poezdlar harakatini telefon aloqasiga o'tkazish, shuningdek, avtoblokirovka bo'yicha poezdlar harakatini davom ettirish to'g'risida buyruq berishdan oldin dispetcher stansiyalardagi navbatchilar orqali stansiyalararo peregonning bo'sh ekanligiga ishonch hosil qilishi lozim.

Avtoblokirovka bilan jihozlangan ikki yo'llik peregonlarda avtoblokirovkani tiklash xaqidagi buyruq stansiyalararo peregon to'g'ri yo'nalishidan jo'natilgan poezdlardan bo'hamasdan ilgari berilishi mumkin.

41. Avtomatik blokirovkadan foydalanish to'xtatilib, telefon aloqasiga o'tilgandan so'ng, lokomotivlar mashinistlariga yo'l xatlari (qog'ozlari) beriladi (DU-50 shaklidagi blank).

Yo'l xati (qog'ozi) bir paytning o'zida ushbu Yo'riqnomaning 259-bandida ko'zda tutilgan tartib bilan taqiq ko'rsatmali chiqish svetoforidan o'tishga ham ruxsat bo'ladi. Avtoblokirovka amal qilishi to'xtatilgandan so'ng taqiq ko'rsatmali marshrut svetoforlaridan ushbu Yo'riqnomaning 33-bandida ko'zda tutilgan tartibda o'tiladi.

42. Agar nosoz blokirovkali peregonni chegaralovchi alohida punktlardan biriga stansiya navbatchisi tomonidan xizmat ko'rsatilmasa, avtoblokirovka amal qilishi to'xtatilgandan so'ng, bunday alohida punktlardan bo'sh peregonga poezdlarni jo'natish, stansiya navbatchisi ishga tushgunga qadar, poezd dispetcheri yo'l va strelkalar holatini nazorat qilayotgan bo'lsa, lokomotiv mashinistiga quyidagi shaklda uzatiladigan poezd dispetcherining buyrug'i bo'yicha amalga oshiriladi:

"_____ peregondagagi avtoblokirovka ishlamayapti. №_____ poezd _____ stansiyasidan jo'nashi va _____ stansiyasining kirish svetoforigacha harakatlanishi, so'ng ushbu svetoforning ko'rsatmalariga binoan harakatlanishiga ruxsat etiladi. DNS _____".

Bunday holatlarda avtoblokirovkani yopish to'g'risidagi dispetcherning buyrug'i faqatgina navbatchisi bor stansiyalarga uzatiladi. Avtoblokirovka yopilgandan so'ng ushbu stansiyada poezdlar yo'l xatlari (qog'ozlari) bo'yicha jo'natiladi, bunda poezdlar bir yo'llik peregonlarga yoki ikki yo'lli peregonning ikki tomonlama blokirovkali noto'g'ri yo'liga jo'natilganida yo'l xati (qog'ozi) faqat stansiya navbatchisi tomonidan dispetcherning quyidagi shakldagi qayd etiluvchi buyrug'ini olgandan so'ng berilishi mumkin:

"_____ peregon (_____ peregonning asosiy yo'lli) poezdlardan bo'sh. №_____ poezdni jo'natishga ruxsat beraman. DNS _____".

Ushbu buyruq poezd telefonogrammalari jurnalida qayd etiladi.

43. Agar poezd bir necha ishchi lokomotivlar yoki peregonning boshidan oxirigacha boradigan suruvchi lokomotiv bilan harakatlanayotgan bo'lsa, yozma ruxsatnomalar faqat yetakchi lokomotivning mashinistiga taqdim etiladi. Boshqa lokomotivlarning mashinistlari yetakchi lokomotiv mashinistining signallariga amal qilishi shart.

AVTOBLOKIROVKA AMAL QILISHINI TO'XTATISH

44. Poezd dispetcherlik aloqasi uzilgan paytda nosozlik tufayli avtoblokirovka amal qilishini to'xtatish va telefon aloqasi vositalariga o'tish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

A. Bir yo'llik peregonlarda

Avtoblokirovka nosozligani aniqlagan stansiya navbatchisi, qo'shni stansiya bilan so'zlashuvlar natijasida va poezdlar harakati jurnalidagi yozuvlar bo'yicha peregonning bo'shligiga ishonch hosil qilib, qo'shni stansiyaga poezd telefonogrammasini uzatadi:

"_____ stansiyalar orasidagi avtoblokirovka ishlamayapti. Siz tomonдан oxirgi bo'lib №_____ poezd keldi. Siz tomonga oxirgi bo'lib №_____ poezd jo'natildi. Telefon aloqasiga o'tishingizni so'rayman. DSP _____".

Qo'shni stansiya navbatchisi ham o'z navbatida peregonning bo'shligiga ishonch hosil qilib quyidagicha javob beradi:

"Siz tomondan oxirgi bo'lib № poezd yetib keldi. Siz tomonga oxirgi bo'lib № poezd jo'natildi. Peregon bo'sh. Telefon aloqasiga o'taman. DSP ".

Ko'p yo'lli peregonlarda bir yo'lli harakat qoidalari bo'yicha yo'llarning biri bo'ylab harakat amalga oshirilganda, stansiya navbatchilari shunga o'xshash telefonogrammalar bilan almashadilar.

B. Ikki yo'llik peregonlarda

Ushbu yo'nalihsdagi yo'l to'g'ri hisoblangan stansyaning navbatchisi, avtoblokirovkaning nosozligini aniqlagandan so'ng, qo'shni stansiya navbatchisidan avtomatik blokirovka bo'yicha jo'natilgan so'nggi poezdning yetib borganligi to'g'risida poezd telefonogrammasi bilan xabarnoma berishini talab qiladi va xabarnomani olgandan so'ng, bu stansiyaga quyidagi mazmunda telefonogramma jo'natadi:

" peregonda yo'ldagi avtoblokirovka ishlamayapti. Poezd larning ushbu yo'ldagi harakati telefon aloqasi orqali o'rnatiladi. DSP ".

Ikki yo'llik peregonning ikkinchi yo'li bo'ylab avtoblokirovkaning amal qilishi to'xtagan holatlarda ham telefon aloqasiga o'tish shu singari amalga oshiriladi.

AVTOBLOKIROVKA BO'YICHA HARAKATNI TIKLASH

45. Poezd dispetcherlik aloqasi uzilganda avtomatik blokirovka bo'yicha harakatni tiklash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

A. Bir yo'llik peregonlarda

Avtoblokirovkaning nosozligi bartaraf etilib, ko'rik jurnalida bu to'g'rida yozuv bo'lsa, stansiya navbatchisi qo'shni stansiyaga quyidagi telefonogrammani jo'natadi:

" stansiyalar orasidagi avtoblokirovka nosozligi bartaraf etildi. Siz tomondan oxirgi bo'lib № poezd yetib keldi. Siz tomonga oxirgi bo'lib № poezd jo'natildi. Avtoblokirovka bo'yicha poezdlar harakatini tiklashni so'rayman. DSP ".

Qo'shni stansyaning navbatchisi, peregonning bo'shligini tekshirgandan so'ng quyidagicha javob beradi:

"Siz tomondan oxirgi bo'lib № poezd yetib keldi. Siz tomonga oxirgi bo'lib № poezd jo'natildi. Peregon bo'sh. Avtomatik blokirovka bo'yicha poezdlar harakatini tiklayman. DSP ".

Ko'p yo'lli peregonlarda bir yo'lli harakat qoidalari bo'yicha yo'llarning biri bo'ylab harakat amalga oshirilganda, stansiya navbatchilari shunga o'xshash telefonogrammalar bilan almashadilar.

B. Ikki yo'llik peregonlarda

Ushbu yo'nalishdagi yo'l to'g'ri hisoblangan stansiyaning navbatchisi ko'rrik jurnalidagi avtoblokirovkaning nosozligi bartaraf etilganligi to'g'risidagi yozuvga yoki qo'shni stansiya navbatchisidan olingan tegishli xabarnomaga asoslanib, yo'lida qarama-qarshi poezdlar bo'limganda, quyidagi telefonogrammani uzatadi:

"peregonning yo'lida*gi* avtoblokirovkaning nosozligi bartaraf etildi. Avtomatik blokirovka bo'yicha poezdlar harakati tiklandi. DSP__".

46. Agar ikki yo'lllik peregon har bir yo'l bo'ylab ikki yo'nalishda harakat uchun avtoblokirovka bilan jihozlanmagan bo'lsa, shu jumladan lokomotiv svetoforlari signallari bilan ham boshqarilmasa, poezdlarni noto'g'ri yo'l bo'ylab jo'natishdan avval ushbu yo'lida iki avtoblokirovkaning amal qilishi to'xtatiladi va mashinistlarga yo'l xatlari (qog'ozlari) berilib, poezdlar harakati telefon aloqasi vositasida o'rnatiladi.

MUSTAQIL SIGNALIZATSIYA VA ALOQA VOSITASI SIFATIDA QO'LLANADIGAN AVTOMATIK LOKOMOTIV SIGNALIZATSIYASIDA POEZDLARNING HARAKATLANISH TARTIBI

47. Texnikaviy foydalanish qoidalarining 257-bandiga binoan, ayrim uchastkalarda mustaqil signalizatsiya va aloqa vositasi sifatida avtomatik lokomotiv signalizatsiya qo'llanishi mumkin.

Temir yo'llarning mustaqil signalizatsiya va aloqa vositasi sifatida avtomatik lokomotiv signalizatsiyasi bilan jihozlangan uchastkalarida poezdlarning ikki yo'nalishda harakati (shu jumladan, ikki yo'lllik peregonning har bir yo'l bo'ylab) lokomotiv svetoforlarining signallariga binoan amalgalashiriladi.

Peregonlarda blok-uchastkalarning chegaralari sifatida yorug'lik qaytargichli va blok-uchastka nomeri aks etgan raqamli, literli ko'rsatkichi bo'lgan "Blok-uchastka chegarasi" yozuvli belgilari xizmat qiladi.

Bunday uchastkalarda harakatni tashkil qilish prinsipi avtomatik blokirovkadagi harakat singaridir.

48. Poezd uchun lokomotiv svetoforida tegishli ko'rsatma mavjud bo'lganda chiqish svetoforining ruxsat ko'rsatmasi birinchi blok-uchastkani band etishga, lokomotiv svetoforining ruxsat ko'rsatmasi esa keyingi blok-uchastkalarni band etishga ruxsat bo'lib xizmat qiladi.

49. Poezdnii peregonda yuritish tartibi ushbu Yo'riqnomaning 21-bandida belgilangan singari amalgalashiriladi. Chiroqlari o'chgan ogohlantirish (kirish oldi) svetoforidan lokomotiv svetoforining ko'rsatmalariga binoan to'xtamasdan o'tishga ruxsat etiladi.

50. Stansiyalar bo'yicha poezdlarni qabul qilish, jo'natish va o'tkazish ushbu bobda bayon etilgan tartibda amalgalashiriladi. Bunda quyidagi qo'shimcha shartlar bajarilishi lozim:

a) bir yo'lllik peregonda va ikki yo'lllik peregonning har bir yo'l bo'ylab harakat yo'nalishini o'zgartirish asosiy rejimda poezd dispetcherining og'zaki ko'rsatmasi, yordamchi rejimda esa poezd dispetcherining har ikkala stansiya navbatchilariga beradigan qayd etiluvchi buyrug'i asosida amalgalashiriladi;

b) chiqish guruh svetoforlarining marshrut ko'rsatkichlari yoki takrorlovchilarini nosozligida, yohud poezdning oldi takrorlovchi svetofordan tashqarida bo'lsa, chiqish guruh svetofori ochiq hollarda poezdni jo'nashiga ruxsat lokomotiv mashinistiga radio aloqa orqali quyidagi shaklda qayd etiluvchi buyruq bilan uzatiladi:

Buyruq №_____. Vaqt _____ (soat, daqiqa).
"____yo'ldagi №____poezdning mashinisti. _____ guruh signali Siz uchun ochiq.
Lokomotiv signalizatsiyasi soz bo'lsa jo'nashga ruxsat beraman. DSP_____".

v) chiqish guruh svetoforining taqiq ko'rsatmasida poezdni jo'nashiga ruxsat lokomotiv mashinistiga radio aloqa orqali quyidagi shaklda qayd etiluvchi buyruq bilan uzatiladi:

Buyruq №_____. Vaqt _____ (soat, daqiqa).
"____ yo'lda turgan №____poezdga ____ asosiy yo'l bo'ylab chiqish svetoforining taqiq ko'rsatmasida jo'nashga va peregonga chiqqunga qadar 20 km/soat dan ortiq bo'lman tezlikda harakatlanishga, shundan so'ng lokomotiv svetofori signallariga binoan harakatlanishga ruxsat beraman. DSP____".

51. Avtomatik lokomotiv signalizatsiyasi amal qilishini to'xtatishni taqazo qiladigan nosozliklarga quyidagilar kiradi:

- a) ketma-ket uchta va undan ortiq blok-uchastkaning sohta bandligi;
- b) bir yo'llik va ikki yo'llik peregonda, agar harakat yo'nalishi noto'g'ri yo'nalish bo'yicha o'rnatilgan bo'lsa, yo'nalishni o'zgartirishga imkoniyat yo'qligi, jumladan, yordamchi rejim dastaklari (knopkalari) vositasida ham;
- v) blok-uchastka amalda poezd bilan band etilgan holda nazorat asboblari uni bo'shligini ko'rsatsa (lokomotiv svetoforida ruxsat ko'rsatmasi bo'lsa).

Ko'rsatilgan hollarda, shuningdek, poezdning stansiyadan yoki belgilanmagan yo'ldan jo'natilishi oldidan lokomotiv svetoforining har qanday nosozligi aniqlangan hollarda avtomatik lokomotiv signalizatsiyaning amal qilishi to'xtatiladi va poezdlarning harakati telefon aloqa vositalari orqali o'rnatiladi.

52. Telefon aloqa vositalariga o'tish va avtomatik lokomotiv signalizatsiyasini tiklash tartibi ushbu Yo'riqnomaning 41-46-bandlarida bayon etilgan.

Bunda dispetcher buyruqlari va poezd telefonogrammalari matnida "avtoblokirovka" so'zi "avtomatik lokomotiv signalizatsiyasi" so'zlariga almashtiriladi.

53. Poezdlar harakatida mustaqil signalizatsiya va aloqa vositasi sifatida avtomatik lokomotiv signalizatsiyasi qurilmalari bilan jihozlangan uchastkalarda harakatni tashkil etishning ushbu Yo'riqnomada talablariga muvofiq konkret tartibi DATK boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlanadigan mahalliy Yo'riqnomalarda belgilanadi.

RUXSATNOMA KORESHOGI

№ _____

Stansiya (shtempel)

«____» _____ 20____ y.

Ruxsatnoma № _____

poezdga _____

Punkti to'ldirib berildi

Stansiya navbatchisi

RUXSATNOMA

№ _____

Stansiya (shtempel)

«____» _____ 20____ y.

I

№ _____ poezdga _____ yo'ldan
_____ yo'l bo'ylab chiqish
_____(marshrut) sfetoforining taqiq
ko'rsatmasida jo'nashga va 20 km/soat dan
ortiq bo'lImagan tezlikda va harakatda to'siq
uchrasa darhol to'htashga tayor holda
birinchi o'tish (chiqish, marshrut)
sfetoforigacha harakatlanib, shundan so'ng
avtoblokirovka signallariga binoan
harakatlanishga ruxsat beraman.

II

№ _____ poezdga _____ yo'ldan ochiq
turgan _____ chiqish (marshrut) guruh
svetofori bo'yicha jo'nashga va shundan
so'ng signallarga rioya qilib harakatlanishga
ruxsat beraman.

Stansiya navbatchisi
(keraksizi o'chirilsin)

(yashil rangda)

2-bob. MARKAZLASHTIRILGAN DISPETCHERLIK BILAN JIHOZLANGAN UCHASTKALarda POEZDLAR HARAKATI

54. Markazlashtirilgan dispetcherlik bilan jihozlangan uchastkalarda poezdlar harakatida avtomatik blokirovka signalizatsiya va aloqaning asosiy vositasidir.

Uchastkalardagi barcha stansiya svetoforlari va strelkalar bevosita poezd dispetcheri tomonidan boshqariladi. Elektr izolyatsiya bilan jihozlangan strelkalar, svetoforlar, stansiya yo'llarining, strelkali uchastkalar va peregonlarning ahvoli boshqaruv apparati asboblari bo'yicha poezd dispetcheri tomonidan nazorat qilinadi.

Poezdlar harakati va manyovr ishiga taaluqli barcha farmoyishlarni poezd dispetcheri telefon yoki radio aloqa orqali bevosita mashinistga yoki alohida punktda poezdlarni qabul qilish va jo'natish, manyovrlarni amalga oshirish vazifalari yuklatilgan xodimga uzatadi.

55. Ushbu Yo'riqnomada ko'zda tutilgan zarur hollarda poezd dispetcheri stansiyalarning rezerv boshqaruvga topshirishi mumkin, shundan so'ng poezdlarni qabul qilish va jo'natish, manyovr ishlari, shuningdek, signallarni ochish va yopish stansiya boshlig'i yoki ushbu alohida punktda bu vazifalarni bajarish yuklatilgan stansianing boshqa xodimi tomonidan amalga oshiriladi. Stansianing rezerv boshqaruvga topshirishdan oldin poezd dispetcheri bu xodimni peregonga tutash yo'llardagi poezdlar to'g'risida xabardor qilishi shart.

Stansiyani rezerv boshqaruvga topshirishdan oldin poezd dispetcheri stansiya yo'llarida kuchlanishni o'chirib, kontakt tarmog'ida ish bajarishga ruxsat bergen bo'lsa, dispetcher bu to'g'rida navbatchilikka tushayotgan xodimga dispetcherlik buyrug'i bilan xabar qilishi lozim.

Stansianing alohida strelkalari yoki bo'g'izlari poezd dispetcheri tomonidan mahalliy boshqaruvga topshirilishi mumkin. Bunday hollarda strelkalar stansianing ushbu hududida manyovr ishlariga rahbarlik qilayotgan xodim tomonidan o'tkaziladi. Mahalliy boshqaruvga topshirish xususiyatlari ko'ra SSB qurilmalarining ko'rik jurnalida avvaldan yozuv kiritilishi talab qilmaydigan ta'miri bilan bog'liq bo'lsa, to'g'ri ishlashini tekshirish maqsadida, mahalliy boshqaruvga topshirilgan strelkalarni o'tkazish elektrmexanikka ruxsat etiladi.

POEZDLARNI QABUL QILISH VA JO'NATISH

56. Poezdni stansiyaga qabul qilishdan oldin dispetcher, nazorat asboblarining ko'rsatmalari bo'yicha qabul qilish yo'li va strelkali uchastkalarning bo'sh ekanligiga ishonch hosil qilib, qabul qilish marshrutini belgilaydi.

Avvaldan marshrutlarni belgilash imkonini beruvchi markazlashtirilgan dispetcherlik bilan jihozlangan uchastkalarda marshrut yo'l va strelkali uchastkalarning bandligida ham (yo'l va strelkalar maxsus o'zi yurar harakat tarkiblari bilan band etilgan hollar mustasno) qabul qilish marshruti belgilanishi mumkin.

Xaqiqatda strelkalarning o'tkazilganligi va kirish svetoforining ochilgani tegishli nazorat asboblarining ko'rsatmalari bo'yicha tekshiriladi.

57. Poezdni jo'natishdan oldin poezd dispetcheri markaziy apparatidagi nazorat asboblarining ko'rsatmalari bo'yicha strelkali uchastkalar, yo'nalish o'zgarganda esa, peregonning ham bo'sh ekanligiga ishonch hosil qilib, jo'natish marshrutini belgilaydi.

Avvaldan yo'nalishlarni belgilash imkoniyatini beruvchi markazlashtirilgan dispetcherlik qurilmalari bilan jihozlangan uchastkalarda jo'natish marshrutlari strelkali uchastkalarning bandligida ham (maxsus o'zi yurar harakat tarkiblari bilan band etilgan hollar mustasno) jo'natish marshruti belgilanishi mumkin.

Xaqiqatdan strelkalarning o'tkazilganligi va chiqish svetoforining ochilganligi tegishli nazorat asboblarining ko'rsatmalari bo'yicha tekshiriladi.

58. Agar kirish yoki chiqish svetofori ochilganidan so'ng marshrutni o'zgartirish sururati tug'ilsa, dispatcher tegishli svetoforni yopib va bu xaqda mashinistga xabar berib, poezd chiqish svetofori oldida yoki jo'natish yo'lida to'xtatilganiga ishonch hosil qilgandan so'ng, yangi marshrutni tayyorlashga kirishishi va svetoforni ikkinchi bora ochishi mumkin.

59. Peregonga xo'jalik poezdlarini ish bilan jo'natish va stansiyaga kelishi, shuningdek, peregonning boshidan oxirigacha boradigan suruvchi lokomotivli poezdlarni jo'natish avtoblokirovka signallari bo'yicha odatdag'i tartibda amalga oshiriladi.

60. Orqaga qaytadigan xo'jalik poezdini yoki jo'natish stansiyasiga qaytadigan suruvchi lokomotivli poezdni peregonga jo'natish avtoblokirovka signallari bo'yicha, ishlar rahbari (bosh konduktorga) yoki suruvchi lokomotivning mashinistiga peregon bo'ylab orqaga qaytish xuquqini beradigan jezl-kalitni taqdim etish bilan amalga oshiriladi.

Ishlar rahbari yoki suruvchi lokomotivning mashinistiga jezl-kalitni taqdim etish uchun dispatcher stansiya boshlig'ini yoki ushbu alohida punktda stansiyaning rezerv boshqaruvgaga topshirganda poezdlarni qabul qilish va jo'natish vazifasi yuklatilgan boshqa xodimni chaqiradi. Jezl-kalit nosozligida yoki xo'jalik poezdini yoki jo'natilgan stansiyasiga qaytadigan suruvchi lokomotivli poezdni jo'natish uchun jezl-kalitlar bilan jihozlanmagan stansiya apparatlari mayjud istisno holatlarda avtoblokirovkadan foydalanish to'xtatilib, poezdlar harakati telefon aloqa vositalari amal qilishi o'rnatilishi lozim.

Bunday holatlarda telefon aloqa vositalariga o'tishdan avval xo'jalik poezdi jo'natilayotgan peregonni chegaralovchi stansiya rezerv boshqaruvgaga topshiriladi.

61. Tiklash yoki shu kabi ishlar bajarilishi lozim bo'lган peregonni chegaralovchi stansiyalardan tiklash, o't o'chirish va yordamchi lokomotivlarni jo'natish ushbu stansiyalarda stansiya boshliqlari yoki poezdlarni qabul qilish va jo'natish va peregonni yopish vazifalari yuklatilgan boshqa xodimlar navbatchilikka kirishganlaridan so'ng va peregon yopilgandan so'ng amalga oshiriladi. Bunday holatlarda mashinistlarga diagonali bo'yicha qizil tasma tortilgan oq rangli blankada ruxsatnomalar beriladi. Yordamchi lokomotiv tegishli xodimlar navbatchilikka kirishishlaridan ilgari lokomotiv mashinistiga bevosita uzatiladigan dispetcherning qayd etiluvchi buyrug'i bilan peregonga jo'natilishi mumkin:

"№____ poezd mashinistiga____ stansiyasining____yo'lidan ____ peregonga
____ yo'l bo'ylab ____ km ga qadar №____ poezdga yordam ko'rsatish uchun ____
stansiyaga kelish (qaytish) bilan jo'nashga ruxsat beraman. DNS ____".

MANYOVR LARNI AMALGA OSHIRISH

62. Manyovrlar paytida strelkalar quyidagi xodimlar tomonidan o'tkazilishi mumkin:

a) markaziy pultdan turib tegishli xodimlarga radio aloqa yoki stansiyalar bo'g'izlarida o'rnatiladigan telefonlar bo'yicha dispetcherlik aloqasi orqali marshrutni manyovr harakatlariga tayyor ekanligi to'g'risida ko'rsatmalar berish yo'li bilan poezd dispetcheri tomonidan;

b) stansiya boshlig'i yoki stansiya rezerv boshqaruvgaga topshirilgan paytda poezdlarni qabul qilish va jo'natish vazifalarini bajarish yuklatilgan boshqa xodim tomonidan;

v) stansiyaning alohida strelkalari mahalliy boshqaruvgaga topshirilganda, DATK boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlanadigan poezdlar harakati va manyovr ishlarini

dispatcherlik markazlashuvida tashkil qilish bo'yicha mahalliy Yo'riqnomaga muvofiq poezd tuzuvchisi yoki stansianing boshqa xodimi tomonidan.

Stansiya yo'llarida yakka lokomotiv va o'zi yurar harakat tarkibi harakatlanganda, mahalliy boshqaruvga topshirilgan strelkalar lokomotiv brigadasi xodimlaridan biri (haydovchi) tomonidan o'tkazilishi mumkin.

Strelkalarni o'tkazayotgan xodim har safar, strelkalar o'tkazilgandan so'ng, mahalliy boshqaruv pultidagi nazorat asboblari yoki ostryaklarning holati bo'yicha ostryaklarning to'g'ri o'rnatilganiga ishonch hosil qilishi lozim.

63. Ajratilgan strelkali uchastka bo'shanguncha, strelkaning izolyatsiyasi bog'liqlikka qo'shilmagan joylarda esa, strelka harakat tarkibidan bo'shanguncha mahalliy boshqaruv pultidan turib mahalliy boshqaruv kaliti bilan strelkani o'tkazish taqilanganadi.

64. Manyovrlar yakunlangandan so'ng strelka va manyovr dastaklari, shuningdek, mahalliy boshqaruv kaliti normal holatga keltiriladi, manyovrlar rahbari ish tugagani xaqida poezd dispetcheriga axborot beradi, o'z navbatida poezd dispetcheri tegishli knopkalarni normal holatga keltiradi.

65. Mahalliy boshqaruv pultlari doimo yopiq bo'lishi shart. Foydalanish yoki ko'rik uchun mahalliy boshqaruv pultiga kirish ruxsat etilgan xodimlarning ro'yxati, shuningdek, pultlarni kalitini berish va saqlash tartibi DATK mintaqaviy temir yo'l uzeli boshlig'i tomonidan belgilanadi.

(65-band "*O'zdavtemiryo 'Inazorat'* DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko'rsatmasiga muvofiq o'zgartirildi).

MARKAZLASHTIRILGAN DISPETCHERLIK QURILMALARI NOSOZLIGIDA ISHLASH TARTIBI

66. Agar to'g'ri belgilangan marshrutda va qabul qilish yo'lining (boshqaruv asboblari ko'rsatmalari bo'yicha) bo'sh holatida kirish svetofori ochilmasa, poezd uning taqiq ko'rsatmasida poezd dispetcherining lokomotiv mashinistiga beradigan quyidagi shakldagi qayd etiluvchi buyrug'i bo'yicha kiritiladi:

"№ ____ poezdni ____ stansianing ____ yo'liga kirish svetoforining taqiq ko'rsatmasida kirishiga ruxsat beraman. DNS ____".

Poezd dispetcherining buyrug'i bo'yicha stansiyaga kirganida mashinist poezdni 20 km/soat dan ortiq bo'limgan tezlikda, o'ta ehtiyyotkorlik bilan va harakatga to'siq uchrasa darhol to'xtatishga tayyor holda yuritishi lozim.

Agar stansiya rezerv boshqaruvda bo'lsa va kirish svetoforining nosoz holatida poezd ushbu Yo'riqnomanining 265-bandida ko'zda tutilgan tartib bo'yicha qabul qilinadi.

67. Chiqish svetoforining nosozligida poezd faqat peregon qarama-qarshi kelayotgan poezdlardan bo'sh holda va poezd dispetcherining mashinistga uzatadigan quyidagi shakldagi buyrug'i bilan jo'natilayotgan poezd uchun harakat yo'nalishi belgilanganida jo'natiladi:

"№ ____ poezdga ____ stansiyadan ____ yo'l bo'ylab ____ chiqish svetoforining taqiq ko'rsatmasida jo'nashga ruxsat beraman. DNS ____".

Bunday buyruqni olgandan so'ng mashinist stansiyadan jo'nab, birinchi o'tish svetoforigacha poezdni 20 km/soat dan ortiq bo'limgan tezlikda o'ta ehtiyyotkorlik bilan va

harakatga to'siq uchrasa, darhol to'xtashga tayyor holda yuritish, so'ngra avtoblokirovka signalari bo'yicha harakatlanish xuquqiga ega.

Avtomatik lokomotiv signalizatsiyasi bilan jihozlangan uchastkalarda poezd peregonga kirganidan so'ng mashinist ushbu Yo'riqnomaning 34-bandida ko'zda tutilgan tartibda harakatlanadi.

Stansiya rezerv boshqaruvida bo'lganda, nosoz chiqish svetoforida poezdni jo'natish ushbu Yo'riqnomaning 30 va 31-bandlarida ko'zda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

68. Strelkani markaziy pultdan o'tkazishning iloji bo'lmasa, poezd dispetcheri strelkalarni tozalovchi xodimni yoki stansianing boshqa xodimini chaqirib, strelkani ko'rikdan o'tkazishni va imkon bo'lsa, boshqaruv buzilishi sababini bartaraf etishni (masalan, ostryak va rom relsi orasiga tushgan yot jismni olib tashlashni) talab qiladi. Agar tegishli xodim tashqi ko'rik natijasida strelkani o'tmasligi sababini aniqlay olmasa va bartaraf etolmasa, dispetcher ushbu strelka boshqa holatga o'tkazilishi lozim bo'lgan marshrutlar bo'yicha poezdlarni o'tkazishni to'xtatadi, uni ko'rikdan o'tkazish va ta'mirlash uchun elektrmexanikni chaqirtiradi, ushbu strelka esa mahalliy boshqaruv pultidan o'tkaziladi yoki stansiya rezerv boshqaruvga o'tkaziladi.

Strelkani mahalliy boshqaruv pultidan o'tkazishning iloji bo'lmasa, strelka ushbu Yo'riqnomaning 389-bandida belgilangan tartibda qo'lda boshqaruvga topshiriladi, bu holat poezd dispetcherining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Navbatchi xodimlar xizmat ko'rsatmaydigan alohida punktlarda strelkalarni ko'rikdan o'tkazish, zarur hollarda ularni o'tkazish uchun ham DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilangan tartibda o'tayotgan poezdlarning lokomotiv brigadalari jalb etilishi mumkin.

69. Strelkali ajratilgan uchastka nosozligi sababli soxta bandlikni ko'rsatsa, strelkalarning tegishli guruhi mahalliy boshqaruv pultidan o'tkaziladi yoki stansiya rezerv boshqaruvga topshiriladi.

70. Tablo qabul qilish yo'lining sohta bandligini ko'rsatayotganda, shikast tuzatilgunga qadar poezd dispetcheri, odatda, poezdlarni ushbu yo'lga qabul qilmasligi kerak. Zarur holatda, stansiya boshlig'i yoki poezdlarni qabul qilish va jo'natish vazifalari yuklatilgan o'zga xodim orqali qabul qilish yo'lining bo'shligini poezd dispetcheri tekshirgandan so'ng, uning qayd etiluvchi buyrug'iga binoan, poezd ushbu yo'lga yopiq kirish svetoforida qabul qilinadi yoki stansiya rezerv boshqaruvga topshiriladi.

Tashishlarni tashkil qilish boshqarmasi navbatchi xodimlari tomonidan xizmat ko'rsatilmaydigan alohida punktlarda, qabul qilish yo'lining bo'shligini tekshirish DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilangan tartibda lokomotiv brigadasiga yuklatilishi mumkin.

71. Bir yoki bir necha stansianing kodli boshqaruvi nosozligida poezd dispetcheri ushbu stansiyalarni rezerv boshqaruvga o'tkazishi lozim. Bunday hollarda ushbu stansiyalarning yo'llari, strelkalari va svetoforlari holatini nazorat qiluvchi asboblarining ko'rsatmalariga tayanish taqilanganadi.

72. Peregonni chegaralovchi stansiyalardagi avtoblokirovkaning nosozligida, dispetcherning ko'rsatmasi bo'yicha navbatchilikka stansiya boshliqlari yoki poezdlarni qabul qilish va jo'natish vazifalari yuklatilgan o'zga xodimlar kirishadilar.

Poezd dispetcherining buyrug'iga binoan avtoblokirovka amal qilishi to'xtatiladi va poezdlar harakati telefon aloqa vositalari orqali o'rnatiladi. Telefon aloqaga o'tishni rasmiylashtirishdan avval poezd dispetcheri stansiyalararo peregonning bo'shligini aniqlashi, stansiyalarni esa rezerv boshqaruvga topshirishi kerak.

Agar, nosoz avtoblokirovkali peregonlar poezdlarni qabul qilish va jo'natish vazifalarini bajaruvchi navbatchi xodimlar shtati bo'limgan alohida punktlar bilan

chegaralangan bo'lsa, toki stansiyaga tegishli xodimlar chaqirtirilgunga qadar, poezd dispetcheri yo'l va strelkalar holatini nazorat qilayotgan bo'lsa, alohida poezdlarni bo'sh peregonga bevosita lokomotiv mashinistiga ushbu Yo'riqnomaning 42-bandida belgilangan shaklda uzatiladigan poezd dispetcherining qayd etiluvchi buyrug'iga binoan jo'natalishi mumkin. Bunday tartibni qo'llash ruxsat etilgan peregonlar va poezdlar harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha talablar DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.

73. Avtoblokirovkani boshqarish asboblari yordamchi rejim dastaklari yoki knopkalari bilan jihozlangan bir yo'llik peregonlarda, xaqiqatda bo'sh peregon band deb ko'rsatilishi oqibatida poezd dispetcheri harakat yo'nalistini o'zgartira olmasa va chiqish svetoforini ocholmasa, avtoblokirovka amal qilishini to'xtatish talab etilmaydi. Bu holatda peregonning bandligini aniqlagandan so'ng poezd dispetcheri chegaralovchi alohida punktlarga stansiya boshliqlarini yoki poezdlarni qabul qilish va jo'nalistish vazifalari yuklatilgan boshqa xodimlarni chaqirib, maxsus dastak (knopka) lar yordamida avtoblokirovka yo'nalistini o'zgartirishga ko'rsatma beradi. Chaqirtirilgan xodimlar plombalarni yechadilar, avtoblokirovka yo'nalistini o'zgartiradilar va nazorat asboblarning ko'rsatmalari bo'yicha yo'nalist o'zgarganligiga ishonch hosil qilgandan so'ng, yordamchi dastak (knopka)larni normal holatga keltiradilar. Shundan so'ng poezdlar avtoblokirovka bo'yicha poezd dispetcheri tomonidan jo'nataladi.

Stansiyaga harakat yo'nalistini o'zgartirish bilan bog'liq vazifalarni bajarish uchun chaqirtirishi mumkin bo'lgan xodimlar shtati mavjud bo'limgan alohida punktlar bilan chegaralangan ayrim peregonlarda avtoblokirovka bo'yicha yo'nalistini o'zgartirish yordamchi dastak (knopka) lari bevosita poezd dispetcherining pultida o'rnatilishi mumkin. Bunday peregonlar ro'yxati va harakat yo'nalistini o'zgartirish bo'yicha poezd dispetcheri bajaradigan amallar tartibi DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.

Yo'nalistini o'zgartirish imkonni bo'limgan hollarda avtoblokirovkadan foydalanish to'xtatiladi.

74. Ushbu bobda ko'rsatilgan tartib markazlashtirilgan dispetcherlikda poezdlar harakati va manyovr ishlarini tashkil etishning asosiy qoidalarini belgilaydi.

Ushbu qoidalarga muvofiq har bir uchastka (yo'nalist) uchun konkret sharoitlarni hisobga olib DATK boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlanadigan Yo'riqnomada ishlab chiqiladi.

3-bob. YARIM AVTOMATIK BLOKIROVKADA POEZDLAR HARAKATI

POEZDLARNI QABUL QILISH VA JO'NATISH

**75. TFQ 260-bandiga muvofiq, yarim avtomatik blokirovkada:
poezdning peregonni egallashiga ruxsat bo'lib, chiqish va o'tish svetoforlarining ruxsat beruvchi ko'rsatkichlari xizmat qiladi;**

bir yo'lli uchastkalarda chiqish svetoforini ochish uchun poezd jo'natalayotgan qo'shni stansiya navbatchisidan blok-apparat orqali blokirovka rozilik signali olinishi kerak yoki blok-tizimni tegishli harakat yo'nalistiga o'zgartirish kerak.

Poezdni qabul qilishdan avval stansiya navbatchisi qabul qilish marshrutini ilgaridan tayyorlab qo'yadi va kirish svetoforini (semaforini) ochadi yoki uni ochish to'g'risida ijro postiga farmoyish beradi.

Kelayotgan poezd kirish svetoforini o'tgandan so'ng, u avtomatik tarzda yopiladi. yo'l va strelkalari elektr izolyatsiyalangan stansiyalarda poezd kirish svetoforidan o'tgandan so'ng stansiya navbatchisi (markazlashtirish posti operatori) signal-knopka (dastak)ni signalning yopiq bo'lgandagi holatiga keltiradi.

Poezd stansiyaga to'liq tarkibda kelganiga ishonch hosil qilib, stansiya navbatchisi jo'natish stansiyasiga kelishning blokirovka signalini beradi, telefon orqali esa, poezd kelgan vaqt xaqida xabar yetkazadi. Agar poezd suruvchi lokomotiv bilan harakatlangan bo'lsa, kelish xaqidagi xabarni va kelishning blokirovka signalini stansiya navbatchisi suruvchini yetib kelganiga ishonch hosil qilgandan so'ng, jo'natish stansiyasiga uzatadi.

76. Poezd peregondan to'liq tarkibda kelganiga ishonch hosil qilmasdan turib, stansiya navbatchisiga poezd jo'natilgan stansiyaga poezdni yetib kelganligi xaqidagi xabar va yetib kelish blokirovka signalini uzatish taqiqlanadi.

Poezd stansiyaga to'liq tarkibda yetib kelganligiga stansiya navbatchisi shaxsan yoki strelkali post navbatchisining axboroti, strelkali post navbatchilar bo'limgan strelkalari markazlashtirilgan stansiyalarda esa faoliyati poezdlar harakati bilan bog'liq stansianing boshqa xodimlari yoki pereezdlar navbatchilarining axboroti bo'yicha, DATK tashishlarni tashkil qilish boshqarmasi boshlig'i tomonidan belgilangan va stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatilgan tartibda poezdning so'nggi vagonida poezd signali mavjudligiga ishonch hosil qiladi.

Poezd stansiyaga to'liq tarkibda yetib kelganligini avtomatik nazorat qilish qurilmalari mavjud bo'lsa, stansiya navbatchisi poezd kelganidan so'ng peregonning bo'shligiga nazorat asboblari ko'rsatmalariga asosan ishonch hosil qiladi.

Agar stansiyaga kelayotgan yuk poezdi o'z-o'zidan tormozlash va tormoz magistrali uzilish signalizatsiyasining ishlab ketishi natijasida peregonda kutilmagan to'xtashi ro'y bergan bo'lsa, lokomotiv mashinisti TFQ ning 250-bandida ko'zda tutilgan talablarga rioya etish bilan birga, ushbu to'xtash xaqida stansiya navbatchisiga radio aloqa orqali xabar qilishi, bunday xabarni peregondan uzatishning iloji bo'limgan taqdirda ushbu xabarni stansiya navbatchisiga shaxsan yetkazish uchun stansiyada to'xtashi lozim. Bunday holatlarda poezdning to'la tarkibda harakatlanishini nazorat qilish stansiya xodimlari singari, lokomotiv brigadasiga ham yuklatiladi.

77. Poezd stansiyaga qabul qilingandan so'ng kelishni nazorat qiluvchi qurilmalar ishlab ketmasa, poezdni to'liq tarzda yetib kelganligiga ishonch hosil qilgan stansiya navbatchisi bu xaqda poezd dispetcheriga xabar qiladi. Peregonni chegaralovchi stansiyalarning navbatchilar bilan so'zlashuv orqali uning bo'shligiga ishonch hosil qilgan poezd dispetcheri, ikkala stansiyaga ham bir paytda kelish blok-signalini berishga ruxsat etadi, shundan so'ng stansiya navbatchisi yordamchi knopkani bosish, elektrmexanik blokirovkada esa, pedal-zamichkasini sun'iy ishlatib yuborish yo'li bilan ushbu amalni bajaradi.

Ruxsat quyidagi shaklda beriladi:

"_____stansiya navbatchisiga №_____poezd uchun stansiyaga kelishning blokirovka signalini yordamchi knopkani bosish (pedal-zamichkasini sun'iy ishlatib yuborish) usuli bilan berishga ruxsat beraman. DNS_____".

Poezd stansiyaga kirish svetoforining taqiq ko'rsatmasida qabul qilinganda ham xuddi shu tartibga rioya etilishi kerak. Kelish yordamchi knopkasi yoki pedal-zamichkadan plomba uzilganligi xaqida stansiya navbatchisi ko'rrik jurnaliga yozuv kiritadi.

Agar yo'l blokirovka qurilmalarini boshqarish apparati kelish yordamchi knopkalari bositganini va pedal-zamichkalar ishlab ketganini qayd etuvchi hisoblagich (schyotchik) bilan jihozlangan bo'lsa, bu knopkalar plombalanmaydi. Bunday holatlarda kelishning blokirovka signali sun'iy ravishda berilganda stansiya navbatchisi poezdlar harakati jurnalidagi tegishli poezd raqamining to'g'risiga hisoblagich-ko'rsatkichning ko'rsatmasini yozib qo'yadi.

Agar sun'iy ishlab ketish signalizatsiya, markazlashtirish va blokirovka (keyinchalik-SSB) qurilmalari nosozligining oqibati bo'lsa, bu nosozlik to'g'risida ko'rik jurnaliga yozuv kiritiladi.

78. Poezdnio jo'natishdan oldin marshrutni tayyorlagan stansiya navbatchisi chiqish svetoforini (semaforini) ochadi yoki uni ochish to'g'risida ijro postiga farmoyish beradi.

Chiqish svetofori ochilishi bilan bir paytda qo'shni stansiyaga avtomatik ravishda poezd jo'nagani xaqida blokirovka signali uzatiladi (ijro postlari bo'lman elektromexanik blokirovkada poezd jo'nagani to'g'risidagi blokirovka signali qo'shni stansiyaga alohida chiqish svetofori yopilgandan so'ng uzatiladi).

Poezd chiqish svetoforidan o'tgandan so'ng signal knopka (dastak) signal yopiq holatiga keltiriladi va stansiya navbatchisi poezdning xaqiqiy jo'nagan vaqtini qo'shni stansiyaga telefon orqali aytadi. Kelish blokirovka signali mavjudligidan qat'iy nazar, stansiya navbatchisi faqat qo'shni stansiyadan telefon orqali ilgari jo'natilgan poezd yetib borganligi xaqida axborot olgandan so'ng chiqish svetoforini ochish xuquqiga ega.

Ilgari jo'natilgan poezdning yetib kelganligi xaqida qo'shni stansiyadan xabar olmasdan turib, stansiya navbatchisiga bir yo'llik peregonlarda qarama-qarshi yo'nalishdan kelayotgan poezdni qabul qilish uchun rozilik blokirovka signalini uzatish taqiqlanadi.

79. Peregon bo'sh va marshrut to'g'ri belgilangan holatda chiqish svetofori ajratilgan strelka uchastkasining sohta bandligi oqibatida ochilmasa, ushbu uchastkaning xaqiqatda bo'sh ekanligiga ishonch hosil qilgan stansiya navbatchisi poezd dispatcherining roziligi bilan "Jo'natish marshrutlarida ajratilgan strelkali uchastkalarning bo'shligi nazoratini o'chirish" knopkasini (bunday knopka mavjud stansiyalarda) bosgandan so'ng chiqish svetoforini ochish mumkin.

80. Agar chiqish svetofori ochilgandan so'ng poezd biron sabab bilan jo'natilmasa, stansiya navbatchisi chiqish svetoforini yopishi, bu xaqda poezdlar harakat jurnaliga yozuv kiritishi va poezdning ushlanib qolishi to'g'risida qo'shni alohida punkt va poezd dispatcheriga xabar qilishi lozim.

Ushlanib qolgan yoki shu yo'nalishda harakatlanayotgan o'zga poezd yopiq chiqish svetoforida I punkti to'ldirilgan yashil blankdagi ruxsatnama (DU-52 shaklidagi blank 62-betda keltirilgan) bilan jo'natiladi. Qo'shni alohida punktga poezdning xaqiqiy jo'natilgan vaqt telefon orqali xabar qilinadi. Ijro postlarisiz elektrmexanik blokirovkada ushlanib qolgan yoki shu yo'nalishda harakatlanayotgan boshqa poezd xaqiqatda jo'nab ketgandan so'ng qo'shni alohida punktga blokirovka signali uzatiladi. Keyingi poezdlar blokirovka bo'yicha odatdagi tartibda jo'natiladi.

Blokirovkaning sozligida chiqish svetofori o'z-o'zidan (ajratilgan seksiyaning soxta bandligi, svetofor lampasining kuyishi yoki chiqish svetoforining xato yopilishi oqibatida) yopilgan holatlarda ham yetakchi lokomotivning mashinistiga ushbu Yo'riqnomani Umumiy qoidalari 9-bandi talablariga rioya etgan holda I punkti to'ldirilgan yashil rangdagi blankada ruxsatnama (DU-52 shaklidagi blank) taqdim etiladi.

Poezd radio aloqasi qurilmalari so'zlashuvlarni avtomatik qayd etish tizimi bilan jihozlangan stansiyalarda yashil rangdagi yozma ruxsatnama o'rniga poezd lokomotivi mashinistiga radio aloqa orqali qayd etgichda qayd etiluvchi jo'natish buyrug'i quyidagi shaklda berilishi mumkin:

"Buyruq №____, vaqt (soat, minut)".

"№____poezdga____yo'ldan____asosiy yo'l bo'ylab jo'nashga va____ stansiyasi (blok-posti) gacha harakatlanishga ruxsat beraman. Peregon bo'sh. DSP ____".

Peregon bo'shligida chiqish svetoforini takroran ochishga imkon beruvchi qurilmalar mavjud stansiyalarda poezdlar qaytadan ochilgan chiqish svetofori bo'yicha jo'natiladi. Stansiya navbatchisi faqat poezd dispatcherining roziligi bilan chiqish svetoforini qaytadan ochish qurilmalaridan foydalanishi mumkin.

81. Bir yo'llik peregonni chegaralovchi stansiyada chiqish svetofori ochilgandan so'ng poezdni to'xtatish va ushbu peregonga qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanayotgan poezdni jo'natish zarurati tug'ilsa, yarim avtomatik blokirovkadan foydalanish to'xtatiladi va poezdlar harakati telefon aloqasi orqali o'rnatiladi. Bunday holatda qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanayotgan poezdlarga peregonni band etish xuquqini beruvchi yo'l xatlari (qog'ozlari) beriladi.

Keyinchalik peregonga avval ushlab qolingan yoki shu yo'nalishda harakatlanayotgan boshqa poezd jo'natilganda yarim avtomatik blokirovkaning amal qilishi tiklanadi, bu holatda poezd ushbu Yo'riqnomanining 80-bandiida ko'rsatilgan ruxsatnomalardan biriga asosan jo'natiladi.

82. Guruh chiqish svetoforlari mavjudligida poezdlar chiqish svetoforining ruxsat ko'rsatmasi va undagi poezd jo'nashiga ruxsat berilgan yo'lning raqami yashil sonlar bilan aks etgan marshrut ko'rsatkich bo'yicha jo'natiladi.

Guruh svetoforlarining marshrut ko'rsatkichlari nosozligida poezdlar stansiyadan ochiq guruh svetoforida, ushbu Yo'riqnomanining 23-bandida ko'rsatilgan shakldagi stansiya navbatchisining qayd etiluvchi buyrug'ini mashinistga berib yoki lokomotiv mashinistiga ikkinchi punkti to'ldirilgan yashil blankdagi ruxsatnoma (DU-52 shaklidagi blank) taqdim etilib, jo'natiladi.

Chiqish svetoforida yo'nalishning (oq rangli) marshrut ko'rsatkichi nosozligida poezdlar ushbu Yo'riqnomanining 36-bandida belgilangan tartibda jo'natiladi.

83. Agar jo'nashga tayyor poezdning yetakchi lokomotivi ruxsat ko'rsatmali chiqish svetoforidan tashqarida bo'lib, uning ko'rsatmasi mashinistga ko'rinsama, poezd ushbu Yo'riqnomanining 24-bandida ko'rsatilgan shakldagi stansiya navbatchisining lokomotiv mashinistiga uzatiladigan qayd etiluvchi buyrug'i yoki II punkti to'ldirilgan yashil blankdagi ruxsatnoma (DU-52 shaklidagi blank) bo'yicha jo'natiladi.

Bunda ajratilgan strelkali uchastka nosozligida yoki jo'natilayotgan poezdning boshi band etganda, chiqish svetoforini ochish uchun "Jo'natish marshrutlarida ajratilgan strelkali uchastkalar bo'shligi nazoratini o'chirish" knopkasidan foydalanish mumkin.

Agar jo'natilayotgan poezdning boshi chiqish svetoforidan tashqarida bo'lib, svetoforni ochishning iloji bo'lmasa, blokirovka amal qilishi to'xtatiladi; mashinistga yo'l xati (qog'oz) berilib, poezd telefon aloqa vositalari orqali jo'natiladi. Belgilangan jo'natish marshrutlari bo'limgan yo'llardan ham poezdlar shu kabi tartibda jo'natiladi.

84. Bir yo'llik va (to'g'ri yo'l bo'ylab) ikki yo'llik peregonlarda jo'natilgan stansiyaga peregondan qaytadigan poezdlar yopiq chiqish svetoforida, mashinistga yopiq chiqish svetoforidan o'tish va orqaga qaytish xuquqini beruvchi jezl-kalit taqdim etilib, jo'natiladi.

Bunda bir yo'llik peregonlarda orqaga qaytuvchi poezdni peregonga jo'natishdan avval qo'shni stansiyadan belgilangan tartibda blok-apparat bo'yicha poezdni jo'natishga rozilik olinishi yoki blok-tizim tegishli harakat yo'nalishiga o'tkazilishi lozim.

Ikki va undan ortiq o'zi yurar harakat tarkibi birligini qo'shilgan holda, qachonki ularni peregonda ajratilish ko'zda tutilgan bo'lsa, jezl-kalit bo'yicha jo'natish taqiplanadi.

85. Agar poezd boradigan joy birinchi (harakat yo'nalishi bo'ylab) yo'l postidan (blok-postidan) tashqarida bo'lsa, ushbu post navbatchisi oldindagi peregon bo'sh bo'lganda, mashinistga yopiq o'tish svetoforini bosib o'tish va orqaga qaytish xuquqini beruvchi 1 punkti

to'ldirilgan yashil blankdagi ruxsatnomasi (DU-52 shaklidagi blank) beradi. Poezd harakatlanish yo'lida joylashgan boshqa blok-postlar navbatchilari ham shunday qiladilar.

Jo'natilgan stansiyaga qaytayotganda poezd ko'rsatilgan barcha blok-postlardan to'xtamasdan o'tadi va stansiyaga ochiq kirish svetofori yoki kirish svetoforining taqiq ko'rsatmasida stansiyaga kirish xuquqini beruvchi belgilangan ruxsatnomasi bo'yicha qabul qilinadi.

Yo'l postlari (blok-postlar) navbatchilari barcha holatlarda qo'shni alohida punktlar navbatchilariga xaqiqatda poezdning o'tgani to'g'risida telefon orqali xabar qiladilar.

Poezd stansiyaga kelganidan so'ng jezl-kalit stansiya navbatchisiga qaytariladi. Stansiya navbatchisi jezl-kalitni apparatga joylab, qo'shni alohida punkt navbatchisiga poezd qaytganligini telefon orqali yetkazadi.

86. Jezl-kalit nosozligida, shuningdek, blok-apparat jezl-kalit bilan jihozlanmagan holatlarda, jo'natilgan stansiyaga qaytadigan poezd, blokirovka amal qilishi to'xtatilib, telefon aloqasi bo'yicha jo'natiladi.

Bunday holatda poezdlar chiqish svetoforining taqiq ko'rsatmasida mashinistga yo'l xati (qog'ozi) (DU-50 shaklidagi blank 87-betda keltirilgan) berilib jo'natiladi.

Agar ikki yo'llik peregonda poezd boradigan manzil oldindagi blok-postdan keyin joylashgan bo'lsa, jo'natish stansiyasi blok-postgacha yo'l xati (qog'ozi) beradi, blok-post navbatchisi esa postlararo peregonning bo'shligida harakatni davom ettirishga yo'l xati (qog'ozi) beradi. Poezd ushbu Yo'riqnomaning 85-bandida ko'rsatilgan tartibda orqaga qaytadi.

Poezdlar vaziyatiga bog'liq ravishda blokirovka amal qilishi poezd o'tishi kerak bo'lgan postlararo peregonlarda bir paytning o'zida barchasida yoki avval peregon stansiyasiga tutashgan birinchi, so'ngra har bir keyingi bo'sh peregonda to'xtatiladi.

Poezd peregondan qaytgandan so'ng blokirovka amal qilishi tiklanadi.

87. Qo'shni stansiyagacha boradigan suruvchi lokomotivli poezd blokirovkasi bo'yicha odatdagisi tartibda, ushbu stansiyani suruvchi lokomotivli poezd jo'natilganligi xaqida telefon orqali ogoshlantirib, jo'natiladi.

Peregondan jo'natilgan stansiyaga qaytadigan suruvchi lokomotivli poezd blokirovka bo'yicha (ochiq chiqish svetoforida) jo'natiladi. Suruvchi lokomotiv mashinistiga jo'natilgan stansiyada orqaga qaytish xuquqini beruvchi jezl-kalit taqdim etiladi.

88. Jezl-kalit nosozligida, shuningdek, blok-apparat suruvchi lokomotiv uchun jezl-kalit bilan jihozlanmagan holatlarda, jo'natilgan stansiyaga qaytuvchi suruvchi lokomotivli poezd blokirovka amal qilishi to'xtatilib, telefon aloqasi bo'yicha jo'natiladi. Yetakchi va suruvchi lokomotivlarning mashinistlariga yo'l xatlari (qog'ozlari) beriladi.

Peregonda blok-postlar mavjud bo'lganda ruxsatnomalar berish va suruvchi lokomotivni jo'natilgan stansiyaga qaytishi ushbu Yo'riqnomaning 85-bandida ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi. Poezd qarshi stansiyaga kelganligi to'g'risida xabar olinib, suruvchi lokomotiv qaytganidan so'ng, blokirovka amal qilishi tiklanadi.

89. Maxsus o'zi yurar harakat tarkibi peregonga (shu jumladan, orqaga qaytadigan bo'lib) odatdagisi tartibda poezdlar singari jo'natiladi.

YO'L POSTLARI (BLOK-POSTLARI)GA EGA PEREGONLARDA POEZDLAR HARAKATI

90. Qo'shni alohida punktdan poezd jo'natilganligi xaqida blokirovka signalini qabul qilib, post navbatchisi oldindagi peregonning bo'shligida o'tish svetoforini ochadi. O'tish svetofori ochilishi bilan bir paytda qo'shni alohida punktga avtomatik ravishda boshqaruv

blokirovka signali uzatiladi (elektromexanik blokirovkada o'tish svetofori yopilgandan so'ng blokirovka signali alohida uzatiladi).

Poezd o'tish svetoforini bosib o'tgandan so'ng, signal knopka (dastak) post navbatchisi tomonidan signal yopiq holatiga o'matiladi. Poezd to'liq tarkibda o'tganiga ishonch hosil qilgandan so'ng, post navbatchisi qo'shni stansiyalarga poezdning xaqiqatda o'tgan vaqtin to'g'risida xabar qiladi, orqada qolgan alohida punktga esa, bundan tashqari, o'tish blokirovka signalini uzatadi (elektromexanik blokirovkada o'tish blokirovka signali bir paytning o'zida oldindagi alohida punktga ham uzatiladi).

91. Agar poezd suruvchi lokomotiv bilan harakatlangan bo'lsa, post navbatchisi suruvchi lokomotiv o'tganiga ishonch hosil qilgandan keyingina orqada qolgan alohida punktga o'tish blokirovka signalini uzatadi.

Poezd suruvchi lokomotivsiz o'tib ketsa, post navbatchisi bu to'g'rida darhol qo'shni alohida punktlarga xabar qiladi, ammo blokirovka signalini uzatmaydi (elektromexanik blokirovkada o'tish svetoforini ham yopmaydi).

Oldindagi post navbatchilari ham shu kabi tartibda harakat qiladilar. Elektromexanik blokirovkada oldindagi post navbatchilari poezdni bo'sh peregonga yopiq o'tish svetoforida, mashinistga I punkti to'ldirilgan yashil blankdagi ruxsatnama (DU-52 shaklidagi blank) berib o'tkazadilar.

Har bir blok-post navbatchisi faqat qolib ketgan suruvchi lokomotiv blok-postdan o'tgandan so'ng, yopish blokirovka signalini uzatadi.

Oldinda ketayotgan poezd o'tish svetoforini avtomatik tarzda yopib ketsa, suruvchi lokomotiv qo'shni blok-uchastkaga o'tish svetoforining taqiq ko'rsatmasida kiradi.

92. Avtomatik blok-postlar; tutashuv punktlariga xizmat ko'rsatuvchi blok-postlar; yo'l rivojlanishiga ega (sutkada to'liq ishlagaganida) alohida punktlari o'rniga davriy ochiladigan blok-postlar bilan jihozlangan peregonlarda poezdlar harakati tashkil etilishi qurilmalar tizimiga bog'liq ravishda DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.

YARIM AVTOMATIK BLOKIROVKA NOSOZLIGIDA POEZDLAR HARAKATI

93. Quyidagi nosozliklarda yarim avtomatik blokirovka amal qilishi to'xtatiladi:

- a) chiqish yoki o'tish svetoforini yopishning iloji yo'qligi;
- b) peregon bo'shligida chiqish yoki o'tish svetoforini ochishni iloji yo'qligi (jumladan, chiqish svetoforida ajratilgan uchastkalar bo'shligi nazoratini o'chirish yordamchi knopkalarni qo'llab);
- v) blokirovka signallari o'z-o'zidan qabul qilinishi;
- g) blokirovka signallarini uzatish yoki qabul qilishning iloji yo'qligi;
- d) blok-apparatda plombalar yo'qligi (pedal-zamichkadagi yoki yordamchi knopkadagi plombalar mustasno).

Ko'rsatilgan barcha holatlarda, shuningdek, blokirovka qurilmalari amal qilishini vaqtincha to'xtatadigan ushbu qurilmalarni qayta jishozlash, ko'chirish, ta'mirlash, sinash, almashtirish va boshqa ishlar paytida blokirovka bo'yicha poezdlar harakati to'xtatilib, telefon aloqasi orqali o'matiladi.

94. Elektromexanik yarim avtomatik blokirovka apparatini (stansiya navbatchisining boshqaruvi apparatini) ko'zdan kechirayotganda blokirovka amal qilishi to'xtatilmaydi. Bunda blok-apparat ochiq paytida stansiya navbatchisi va elektromexanik blokirovka qurilmalari to'g'ri ishlashini o'ta diqqat bilan kuzatishlari shart.

Yarim avtomatik blokirovka qurilmalarni ko'zdan kechirish, rostlash va moylash yakunlangandan so'ng, plomba qo'yishdan avval elektromexanik stansiya navbatchisi bilan

birgalikda nazorat asboblarning ko'rsatmalari bo'yicha blok-apparat ko'rsatmalarining peregonlar holatiga muvofiqligini (poezdlar harakati jurnalidagi yozuvlar va qo'shni alohida punktlar navbatchilari bilan so'zlashuvlar bo'yicha) tekshiradilar.

Blok-apparatni ko'zdan kechirish yoki ta'mirlash uchun ochilgan har bir holat, shuningdek, bu ishning yakunlanganligi xaqida elektromexanik ko'rik jurnaliga tegishli yozuvni kiritadi.

95. Telefon aloqaga o'tish, shuningdek, blokirovka bo'yicha poezdlar harakatini tiklash, stansiya navbatchilari orqali peregonning bo'shligi tekshirilgandan so'ng, poezd dispatcheri buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

Dispatcherlik aloqasi nosozligida, poezdlar harakatida telefon aloqasiga o'tish va blokirovka harakatini tiklash ushbu Yo'riqnomaning 44 va 45-bandlarida ko'rsatilgan tartibda telefonogramma matnida "avtoblokirovka" so'zini "blokirovka" so'ziga almashtirish bilan amalga oshiriladi.

96. Blokirovka amal qilishi to'xtatilib, telefon aloqasiga o'tilgandan so'ng, poezdlar mashinistlariga qo'shni alohida punktgacha harakatlanish uchun yo'l xati (qog'ozi) (DU-50 shaklidagi blank) beriladi.

97. Taqiq ko'rsatmali marshrut svetoforidan (chiqish svetoforigacha) poezdlar quyidagilarga asosan o'tishi mumkin:

taklif signali bo'yicha;

jo'natilayotgan poezd mashinistiga radio aloqa orqali uzatiladigan stansiya navbatchisining qayd etiluvchi buyrug'i bo'yicha;

I punkti to'ldirilgan yashil blankdagi ruxsatnama (matn qo'lda muvofiq ravishda o'zgartirilganda) bo'yicha.

98. Poezd ikki lokomotiv yoki peregonning oxirigacha boradigan suruvchi lokomotiv bilan harakatlanganda, peregonni band etish xuquqini beruvchi ruxsatnama faqat yetakchi lokomotiv mashinistiga taqdim etiladi. Ikkinci (lokomotiv ikkita bo'lganda) va suruvchi lokomotivlarning mashinistlari signallar yoki radio aloqa orqali uzatiladigan, yetakchi lokomotiv mashinistining xabarlariga binoan harakatlanishi lozim.

99. Blokirovka telefon aloqasining nosozligida stansiya navbatchisi boshqaruva apparatlaridagi nazorat asboblari ko'rsatmalarining o'zgarishini o'ta diqqat bilan kuzatishi lozim. Bu holatda poezdlar harakati to'g'risida xabarlar poezd dispatcheri orqali yoki stansiya navbatchisining ihmivorida bo'lgan boshqa aloqa vositalari bo'yicha uzatiladi.

100. Bir yo'nalishda harakatlanish uchun yarim avtomatik blokirovka bilan jihozlangan ikki yo'llik (ko'p yo'llik) peregonlarda poezdlarni (regulirovka-rostlash maqsadida) noto'g'ri yo'ldan jo'natish poezd dispatcherining buyrug'iga binoan, bir yo'llik harakat qoidalari bo'yicha, telefon aloqasiga o'tish bilan amalga oshiriladi.

101. Yarim avtomatik blokirovka tizimi va u yoki bu uchastkadagi konkret ish holatiga bog'liq ravishda qurilmalardan foydalanish tartibi, shuningdek, poezdlarni qabul qilish, jo'natish va o'tkazishda xodimlarning harakat tartibi zarur holda temir yo'lida ishlab chiqiladigan Yo'riqnomalarda belgilanadi.

RUXSATNOMA KORESHOGI

№ _____

Stansiya (shtempel)

«____» _____ 20 ____ y.

Ruxsatnoma № _____

poezdga _____

punkti to'ldirib berildi

blok-post navbatchisi
stansiya

RUXSATNOMA

№ _____

Stansiya (shtempel)

«____» _____ 20 ____ y.

I

№ ____ poezdga (poezd suruvchisiga)
____ yo'ldan ____ yo'l bo'ylab chiqish
(o'tish, marshrut) signalining taqiq
ko'rsatmasida jo'nashga va blok-post
stansiya
kirish (o'tish, chiqish) signaligacha ____ km
gacha harakatlanib, orqaga qaytishga ruxsat
beraman.

II

№ ____ poezdga ____ yo'ldan ochiq
____ chiqish (guruh, marshrut) signali bo'yicha
jo'nashga ruxsat beraman.

blok-post navbatchisi
stansiya

(keraksizi o'chirilsin)

(yashil rangda)

4-bob. ELEKTR JEZL TIZIMIDA POEZDLAR HARAKATI

102. TFQ ning 257-bandiga muvofiq, kam faoliyatli uchastkalarda va shahobcha yo'llarda poezdlar harakatida aloqa vositalari sifatida elektr-jezl tizimi va telefondan foydalanishga yo'l qo'yiladi.

Elektr jezl tizimida mashinistga taqdim etiladigan peregonning jezli peregonni egallash uchun ruxsat bo'lib xizmat qiladi.

103. Elektr jezl tizimi qurilmalari bir paytning o'zida jezl apparatlaridan bittadan ortiq jezlni olishga imkon bermasligi kerak. Strelka posti xonalarida o'rnatiladigan jezl apparatlari ushbu stansiya navbatchisining ruxsatisiz apparatdan jezlni olishga imkon bermasligi lozim.

104. Har bir jezlda tartib nomeri, seriyasi va peregonni chegaralovchi stansiyalarning nomi bo'lishi lozim. Har bir peregonga o'zining jezllar seriyasi to'g'ri kelishi kerak. Bir seriyadagi jezl apparatlarini kamida uch, uzellarga yaqin kelishda esa, kamida ikki peregondan so'ng o'rnatishga ruxsat beriladi. Peregonni chegaralovchi ikkala stansianing jezl apparatlarida peregonda poezdlar bo'lmasa, qo'shib hisoblaganda juft sonda jezllar bo'lishi lozim.

105. Peregondan stansiyaga qaytadigan suruvchi lokomotivli poezdlar jo'natiladigan stansiyalarning jezl apparatlari jezl-kalit asboblari bilan to'ldirilishi kerak.

Jezl-kalit asbobi bilan to'ldirilgan jezl apparatining tuzilishi jezl-kalit olingunga qadar asosiy jezlni olish yoki jezl-kalit olingan holatda asosiy jezlni olish imkonini bermasligi lozim.

106. Qo'shni stansiyagacha boradigan suruvchi lokomotivli poezdlar jo'natiladigan stansiyalarning jezl apparatlarida burab ochiladigan jezllar bo'lishi kerak. Har bir burab ochiladigan jezl ikki qismdan: "jezl" va "bilet" dan iborat bo'lishi lozim. Poezdlar harakati vaqtini taqsimlash sharoitida tashkil etilganida ham burab ochiladigan jezllarga ega jezl apparatlari qo'llanadi.

107. Stansiya navbatchisi peregondan kelgan poezddan olingan jezlni jezl apparatdan o'tkazmasdan turib shu peregonga jo'natilayotgan poezdga berishi mumkin; bunday holatda avval poezd yo'l olayotgan qo'shni stansiya navbatchisining roziligini olish zarur. Jezl apparatlari jezl-kalitlarga ega stansiyalarda jezllarni jezl apparatdan o'tkazmasdan topshirish taqiqlanadi.

108. Jezllar mexanik jezl almashtirgichlar yordamida yoki qo'lда, qoida bo'yicha stansiya navbatchisining xonasi oldida almashtiriladi. Qo'lда almashtirganda jezllar jezl uzatgichlarga solingen bo'lishi kerak.

Poezdlar to'xtamasdan o'tkazilganda chiqish bo'g'izlarida jezllarni almashtirish taqiqlanadi.

109. Quyidagilar taqiqlanadi:

a) poezd jo'nashga tayyor bo'lmasdan ilgari jezlni chiqarishga ruxsat so'rash, ammo poezdlarni to'xtatmasdan o'tkazish yoki jadval bo'yicha 5 minutdan ko'p to'xtamagan holatlar bundan mustasno;

b) ishlatilayotgan jezllarni apparatga solmasdan saqlash;

v) jezllarni qo'shni peregonga olib o'tish.

POEZDDARNI QABUL QILISH VA JO'NATISH

110. Poezd kelishidan oldin stansiya navbatchisi uni qabul qilish uchun avvaldan marshrut tayyorlaydi va kirish signalini ochadi. Poezd stansiyaga kelganidan so'ng jezl stansiya navbatchisiga topshiriladi. Stansiya navbatchisi poezd to'liq tarkibda kelganligiga ishonch hosil qilib va jezlni bosib o'tilgan peregonga tegishli ekanligini tekshirgandan so'ng, jezl nomerini poezdlar harakati jurnaliga yozib qo'yadi, jezlni jezl apparatiga soladi va poezd yetib kelganligi xaqida jo'natgan stansiyaga telefon orqali xabar qiladi.

Jezl apparatlari strelkali post xonalarida o'rnatilgan stansiyalarda kelgan poezdnинг jezli strelkali post navbatchisiga beriladi. Strelkali post navbatchisi poezd to'liq tarkibda yetib kelganligiga ishonch hosil qilib, uni apparatga soladi va uning nomerini poezdlar harakati jurnaliga yozilishi uchun stansiya navbatchisiga yetkazadi.

111. Suruvchi lokomotivli poezd yetib kelganidan so'ng stansiya navbatchisi jezlning birinchi qismini poezd lokomotivi mashinistidan, ikkinchi qismini suruvchi lokomotiv mashinistidan olib, ikkala qismini burab biriktirishi va jezlni shundan so'ng jezl apparatiga solib qo'yishi shart.

112. Poezdni jo'natish uchun stansiya navbatchisi poezd jo'nab ketayotgan stansiya navbatchisining rozilagini telefon orqali quyidagi shaklda so'raydi:

"№ ____ poezdni jo'natishim mumkinmi?"

Poezdni qabul qilishga to'siq bo'lmasa stansiya navbatchisi telefon orqali o'z rozilagini quyidagi shaklda ma'lum qiladi:

"№ ____ poezdni kutyapman", -

va jezlni chiqarishga ruxsat beradi.

Jo'natish stansiyasining navbatchisi jezlni apparatdan chiqorganidan so'ng uning nomerini poezdlar harakati jurnaliga yozib olishi va jo'nab ketayotgan poezd mashinistiga taqdim etishi lozim.

Jezl apparatlari strelkali postlarga chiqarilgan stansiyalarda strelkali postning navbatchisi chiqarilgan jezl nomerini stansiya navbatchisiga yetkazadi.

Agar stansiya navbatchilar yetib kelgan poezdnинг jezli bilan (jezl apparatidan o'tkazmasdan) qarama-qarshi yo'nalishda ketayotgan poezdni jo'natishga avvaldan kelishib olgan bo'lsalar, har ikki stansianing poezdlar harakati jurnalida ushbu poezdnинг nomeri to'g'risida quyidagi belgi kiritilishi kerak:

"№ ____ poezd jezli bo'yicha jo'natish kelihilgan. DSP ____".

113. Poezd chiqish svetofori mavjud yo'ldan elektr jezl tizimi bilan jihozlangan peregonga jo'natilayotganda, jezl mavjudligida bu svetoforning taqiq ko'rsatmasidan o'tish unda oydin-oq chiroq yonayotganda qizil chiroq'ining o'chiq holatida ruxsat beriladi.

Oydin-oq chiroqni yoqishning iloji bo'lmasa, poezd jezl bo'yicha jo'natiladi. Bu holda stansiya navbatchisi mashinistga (shaxsan, strelkali post navbatchisi yoki signalchi orqali, radio aloqa bo'yicha) oydin-oq chiroqni yoqishni iloji yo'qligi va jo'natish marshruti tayyorligi xaqida xabar qilishi lozim.

Poezd chiqish svetofori mavjud yo'ldan jo'natilayotganda jezl bir paytning o'zida chiqish svetoforining taqiq ko'rsatmasini o'tish xuquqini beradi.

114. Agar jo'natish uchun jezl chiqarilganidan so'ng poezd biron sabab oqibatida jo'natilmasa, stansiya navbatchisi jezlni apparatga solishi, bu xaqda qo'shni stansiya navbatchisiga xabar qilishi va poezdlar harakati jurnalida bu to'g'rida quyidagi yozuvni kiritishi lozim:

"№ _____ poezd ushlanib qoldi".

115. Peregondan jo'natilgan stansiyaga qaytadigan poezd jo'natilayotganda lokomotiv mashinistiga jezl odatdag'i tartibda beriladi. Qo'shni stansiya navbatchisiga poezd jo'natilganligi xaqida ham, peregondan qaytgani xaqida ham xabar qilinadi.

116. Pregonning boshidan oxirigacha boradigan suruvchi lokomotivli poezd jo'natilganda yetakchi lokomotivning mashinistiga jezlning "Bilet" yozuvli, suruvchi mashinistiga esa "Jezl" yozuvli qismi taqdim etiladi.

Jo'natish stansiyasi navbatchisi yo'lni so'roqlaganda qo'shni stansianing navbatchisini u tomonga suruvchi lokomotivli poezd ketayotgani xaqida ogohlantiradi.

Suruvchi lokomotiv butun peregon bo'ylab poezd tarkibiga ulangan holda harakatlansa, jezl faqat etakchi lokomotiv mashinistiga taqdim etiladi.

117. Agar jezl apparatlari burab ochiladigan jezllar bilan jihozlanmagan bo'lsa, tarkibga ulanmasdan butun peregon bo'ylab harakatlanuvchi suruvchi lokomotivli poezdni jo'natish zarurati tug'ilsa, jezl tizimining amal qilishi to'xtatiladi va poezdlar harakati telefon aloqasi orqali amalga oshiriladi.

118. Peregondan jo'natilgan stansiyaga qaytadigan poezdlar jo'natilayotganda yetakchi lokomotiv mashinistiga jezl, suruvchi lokomotiv mashinistiga - jezl-kalit beriladi.

Jezl-kalitlar shuningdek peregonlarda tutashuvchi shahobcha yo'llariga vagonlarni berish (olish)ni tashkil qilishda hamda jo'natilgan poezd orqasidan DATK tashishlarni tashkil qilish boshqarmasi boshlig'i tomonidan belgilanadigan harakat xavfsizligi talablariga rioya qilib, keyinchalik jo'natilish stansiyaga qaytib keladigan xo'jalik poezdlarini jo'natishda foydalaniladi.

119. Poezd peregondan jo'nagan stansiyasiga suruvchi lokomotiv bilan qaytayotganda, jezl apparatlari jezl-kalitlar bilan jihozlanmagan bo'lsa, jezl tarmog'i faoliyati to'xtatilib, poezd harakati telefon aloqasi orqali amalga oshiriladi.

PEREGONDA TUTASHUVLAR MAVJUDLIGIDA POEZDLAR HARAKATI

120. Peregonda yordamchi post xizmat ko'rsatmaydigan tutashuv mavjud bo'lganda, tutashuv strelkasi holati jezl yoki jezl-kalit bilan qattiq birikuvchi tutashuv strelkasining nazorat qulfi kaliti yordamida nazorat qilinadi.

121. Yordamchi post xizmat ko'rsatmaydigan tutashuvga vagonlarni qo'yish (tozalash) zarurati tug'ilganda, lokomotiv jo'nagan stansiyasiga qaytsa yoki qo'shni stansiyaga yo'nalsa, mashinistga jezl bilan tutashuv strelkasining nazorat qulfi kaliti ham beriladi. Qo'shni stansiya navbatchisi lokomotiv vagonlarni tutashuvga qo'yish (olish) uchun jo'nagani hamda stansiyaga qaytgani xaqida ham xabar beradi.

122. Peregonda yordamchi post xizmat ko'rsatadigan tutashuv bo'lgan hollarda, ushbu post peregonning biron-bir stansiyasi bilan qo'shimcha jezl aloqasi orqali bog'lanadi.

Qo'shimcha aloqaning apparat va jezllaridagi seriya va yozuvlari peregon apparatiniki bilan bir hil bo'lishi kerak.

Peregonda poezdlar mavjud bo'lmasa, peregon stansiyalarini bog'lovchi apparat juftliklarida - juft, stansiyani post bilan bog'lovchi apparatlarda esa - toq sonli jezllar bo'ladi.

Poezdlarning stansiyalar oralig'idagi harakatida yordamchi postlar ishtirok etmaydi. Tutashuv strelkalari quyidagilarni istisno qiladigan tegishli bog'liqlik bilan jihozlanadi:

post navbatchisida olingan jezl mavjud bo'limganda strelkalarni o'tkazish;

tutashuv strelkasi normal holatta - asosiy yo'l bo'yicha o'rnatilguncha, jezlni postga o'rnatilgan apparatga solish.

123. Yordamchi post xizmat ko'rsatayotgan tutashuvga poezd jo'natilayotganda, stansiya navbatchisi o'zi tomonga poezd jo'natilayotganini post bilan kelishib, qo'shni stansiyaga so'rov yuboradi va qo'shni stansiya navbatchisi roziligi bilan, ushbu stansiyaga jo'natilayotgan poezd mashinistiga berish uchun jezlni oladi. Poezd jo'nagani xaqida post va qo'shni stansiya navbatchilariga telefon orqali xabar beriladi.

124. Poezd yordamchi postga yetib kelib, tutashuvga olingandan so'ng, strelka normal holatga keltiriladi, post navbatchisi apparatga tutashuvga yetib kelgan poezd jezlni joylaydi va ikkala stansiya navbatchilariga poezdning yetib kelgan va asosiy yo'lni bo'shatgan vaqtini aytadi. Shundan so'ng, post jezl aloqasi bilan bog'langan stansiya navbatchisiga jezlni qo'shimcha apparatdan asosiysiga o'tkazish uchun olishga ruxsat beradi.

125. Poezd postdan biron-bir stansiyaga post jezl aloqasi bilan bog'langan stansiya navbatchisining ruxsati bilan olingan jezl bo'yicha jo'natiladi.

Ushbu stansiya navbatchisi poezdni jo'natish eshtimolini qo'shni stansiya navbatchisi bilan kelishadi va jezlni asosiy apparatdan qo'shimchasiga olib qo'yadi.

126. O'tkazish qobiliyatini ko'paytirish maqsadida yo'l postlari ochilgan peregonlarda poezdlarning jezl tizimi bo'yicha harakatlanishi DATK boshqaruvi raisi tasdiqlagan Yo'riqnomaga bo'yicha amalga oshiriladi.

ELEKTR JEZLLAR TIZIMI NOSOZLIGIDA POEZDLAR HARAKATI VA JEZL APPARATLARIDA JEZLLAR MIQDORINI BOSHQARISHNI TARTIBGA SOLISH

127. Elektr jezl tizimi quyidagi holatlarda nosoz hisoblanadi:

- peregon bo'sh bo'lgan holatda jezlni apparatga kiritish yoki apparatdan chiqarishning iloji bo'lmasa;
- yo'qotilganligi oqibatida peregonga tegishli jezl bo'lmasa;
- jezl apparatida yoki induktorda plombalar bo'lmasa;
- induktor dastagi teskari tomonga (yakor bilan birga) aylanish ehtimoli bo'lsa;
- qo'shni stansiya tok yubormaganda ham jezl apparati ampermetrining strelkasi o'ynasa yoki qo'ng'iroq jiringlasa.

128. Barcha ko'rsatilgan holatlarda, shuningdek, jezl apparatlarini ta'mirlash, ko'chirish, almashtirish paytlarida elektr jezl tarmog'idan foydalanish taqiqilanadi va poezdlar harakati telefon aloqasi orqali amalga oshiriladi.

Poezdlar harakat vaqtida aloqaning boshqa turiga o'tish, shuningdek, aloqaning asosiy turini tiklash, poezd dispetcherining oldindan boshqa stansiyalar navbatchilari orqali peregonning bo'shligi va apparatlarda jezllarning mavjudligini tekshirgandan so'ng amalga oshiriladi.

Jezl telefon aloqasi nosoz bo'lib, jezl apparatlarining sozligida, poezdlar harakati elektr jezl tarmog'i bo'yicha, so'zlashuvlar esa poezd dispetcherlik aloqasi orqali amalga oshiriladi.

SSB elektromexanigi jezl apparatlarini ko'rikdan o'tkazayotganda, elektr jezl tarmog'i faoliyatini to'xtatish talab etilmaydi.

129. Poezd dispetcherlik aloqasi buzilganda, stansiya navbatchisi, elektr jezl tarmog'ining nosozligini aniqlab, bu xaqda ko'rik jurnaliga yozuv kiritadi va qo'shni stansiya navbatchisiga quyidagi poezd telefonogrammasini uzatadi:

"Jezl tarmog'i buzuq. Sizlardan oxirgi bo'lib №_____ poezd yetib keldi. Sizlarga oxirgi bo'lib №_____ poezd jo'natilgan. Menda _____ dona jezl bor. Telefon aloqasiga o'tishingizni so'rayman (imzo)".

Qo'shni stansiya navbatchisi xabar qilingan va o'zidagi ma'lumotlarga ko'ra jezllar miqdorini tekshiradi va ikkala apparatdagi jezllar yig'indisi juft bo'lsa, javob beradi:

"Sizlardan oxirga bo'lib №_____ poezd yetib keldi. Sizlardan oxirgi bo'lib №_____ poezd jo'natilgan. Menda _____ dona jezl bor. Peregon bo'sh. Telefon aloqasiga o'taman (imzo)".

130. Elektr-jezl tarmog'i tuzatilgandan so'ng va bu xaqda elektromexanik ko'rik jurnaliga yozuv kiritgandan so'ng, ammo poezd dispetcherlik aloqasi tuzatilmaganda, stansiya navbatchisi qo'shni stansiyaga quyidagi poezd telefonogrammasini uzatadi:

"Elektr-jezl tarmog'i faoliyati soat _____ minutda tiklandi. Sizlardan oxirgi bo'lib №_____ poezd yetib keldi. Sizlarga oxirgi bo'lib №_____ poezd jo'natildi. Jezllar bo'yicha harakatlanishga o'tishingizni so'rayman (imzo)".

Qo'shni stansiya navbatchisi, peregonning bo'shligiga ishonch hosil qillib, javob beradi:

"Sizlardan oxirgi bo'lib №_____ poezd yetib keldi. Sizlarga oxirgi bo'lib №_____ poezd jo'natildi. Peregon ochiq. Jezllar bo'yicha harakatlanishga o'taman (imzo)".

131. Jezl yo'qolganda, shuningdek, yetib kelgan yoki o'tib ketgan poezddan olinmay qolganda, stansiya navbatchisi ko'rik jurnaliga yozuv kiritadi va poezd dispetcheriga axborot beradi. Peregonning bo'shligi va stansiya apparatlarida uni cheklaydigan jezllar xaqiqatdan ham borligini tekshirib, poezd dispetcheri telefon aloqaga o'tishga buyruq beradi.

Elektr jezl tarmog'i faoliyatini tiklash uchun stansiya navbatchisi SSB elektromexanigidan apparatdan yana bitta jezlni olishni talab qiladi. Apparatdan olingan jezl elektromexanikda saqlanishi kerak.

Jezlning olinganligi xaqida elektromexanik va stansiya navbatchisi ko'rik jurnaliga yozuv kiritishlari shart. Bu xaqda poezd dispetcheriga axborot berilgandan so'ng, elektr jezl tizim tiklanadi.

Yo'qolgan jezl topilganda, stansiya navbatchisi elektromexanikka xabar beradi, jezlni esa, to elektromexanik ilgari olingan jezl bilan birga jezl aptaratiga joylashtirgunicha o'zida saqlab turadi va bu xaqda ko'rik jurnaliga yozuv kiritiladi.

132. Biron stansiyadagi apparatda jezllar soni peregondagi ikkala apparatdagi jezllarning umumiy miqdorining to'rtdan biridan kamaysa, ushbu stansiya navbatchisi jezllar sonini regulirovka qilish zarurligi to'g'risida elektromexanikka xabar beradi.

Elektromexanik peregonni chegaralovchi stansiya navbatchisiga uchrab, uning huzurida jezl apparatini ochishi va juft sondagi miqdorda jezllardan olishi, bu xaqda stansiya navbatchisi bilan birgalikda ko'rik jurnaliga olingan jezllar sonini ko'rsatib yozuv kiritishi shart.

Olingan jezllarni elektromexanik jezllar miqdorini regulirovka qilish zarurati to'g'risida xabar qilgan stansiya navbatchisiga yetkazadi. Jezllar stansiya navbatchisi huzurida jezl apparatiga solinishi lozim, bu xaqda elektromexanik ko'rik jurnaliga apparatga solingan jezllar miqdorini ko'rsatib, yozuv kiritadi.

SSB elektromexanigining jezllarni regulirovka qilish xaqidagi yozuvlari stansiya navbatchilarining imzolari bilan tasdiqlanishi shart.

133. Yo'l blokirovkasi bilan jihozlangan ayrim bir yo'llik peregonlarda ulardan foydalanish to'xtatilgan davrda, poezdlar harakatini elektr jezl aloqasi bo'yicha o'rnatishga ruxsat etiladi.

DATK boshqaruvi raisining ko'rsatmasiga binoan bunday peregonlar rezerv sifatida elektr jezl aloqasi bilan jihozlanadi. Asosiy aloqa vositalaridan rezerv aloqaga va qaytadan asosiy aloqaga o'tish belgilangan tartibda - poezd dispetcherining buyrug'iga binoan amalga oshiriladi.

5-bob. TELEFON ALOQA VOSITALARIDA POEZDLARNING HARAKATI

134. Telefon aloqa vositalarida poezd peregonni egallash uchun lokomotiv mashinistiga taqdim etiladigan yo'l xati (qog'oz) (DU-50 shaklidagi blank 87-betda keltirilgan) pyxcatnoma bo'lib xizmat qiladi.

Yo'l xati (qog'oz)ni berishdan oldin stansiya navbatchisi quyidagi xabarlarni qabul qilishi shart: bir yo'llik peregonlarda poezdni qabul qilishga roziligi xususida qo'shni stansiya navbatchisining poezd telefonogrammasini, ikki yo'llik peregonlarda esa, ushbu stansiyaga avval jo'natilgan poezdning yetib kelganligi to'g'risida poezd telefonogrammasini.

135. Qo'shni stansiyalar o'rtasida poezd telefonogrammalarini bilan shaxsan stansiya navbatchilari yoki ularning ko'rsatmasi bo'yicha operatorlar almashadilar.

136. Poezdlar harakati xaqidagi barcha so'zlashuvlar stansiyalararo poezd telefon aloqasi yoki poezd dispetcherlik aloqasi orqali olib borilishi lozim.

Stansiyalararo poezd aloqasi va poezd dispetcher aloqasi nosoz bo'lgan favqulodda holatlarda poezdlar harakati to'g'risida so'zlashuvlar stansiya navbatchisining ixtiyorida bo'lgan boshqa aloqa vositalari bo'yicha ham olib borilishi mumkin.

137. Yo'l xat (qog'oz)lari blankalari stansiya navbatchisi yoki operator tomonidan shaxsan to'ldiriladi.

Stansiya navbatchisi yoki operator yo'l xat (qog'oz)i blankalarini faqat poezd telefonogrammalarini jurnalida tegishli yozuvlar: bir yo'llik peregonlarda - qo'shni stansiyadan poezdni qabul qilishga roziligi xaqida poezd telefonogrammasi, ikki yo'lli peregonlarda - qo'shni stansiyaga avval jo'natilgan poezdning yetib borganligi to'g'risida poezd telefonogrammasi mavjud bo'lsagina to'ldirish xuquqiga egadirlar.

Operator tomonidan to'ldirilgan yo'l xati (qog'oz) blankasini stansiya navbatchisi poezd telefonogrammalarini jurnalidagi yozuvlar bo'yicha tekshirishi hamda stansiya shtempeli va o'z imzosi bilan tasdiqlashi lozim.

Jo'natish yo'llari stansiya navbatchisi postidan yiroqlashgan, xizmat so'zlashuvlari qayd etgichlarda qayd etiladigan stansiyalar uchun bu xuquq park navbatchisiga, stansiya texnikaviy-boshqaruv aktida ko'zda tutilgan, stansiya navbatchisi va park navbatchisi oldida maxsus jurnallarda ro'yxatga olinuvchi buyruq asosida taqdim etilishi mumkin. Bu holda yo'l xati (qog'ozi)ni park navbatchisi imzolaydi va mashinistga taqdim etadi.

138. Quyidagilar taqiqlanadi:

- a) peregonni boshqa poezd band etib turgan paytda poezdni jo'natish to'g'risida so'rov yuborish;
- b) qo'shni stansiyadan poezdni qabul qilishga roziligi to'g'risida (bir yo'llik peregonlarda) yoki avval jo'natilgan poezd yetib borganligi to'g'risida (ikki yo'llik peregonlarda) poezd telefonogrammalarini qabul qilmasdan turib, yo'l xati (qog'ozi) blankalarini to'ldirish;
- v) chiqish telefonogrammalarini poezd telefonogrammalari jurnaliga yozishdan ilgari va stansiya navbatchisining imzoisiz uzatish.

139. Yo'l xati (qog'ozi) mashinistga qo'shni stansiyaning kirish signaligacha, poezd noto'g'ri yo'ldan jo'natilganda va kirish signali mavjud bo'limganda - "Stansiyaning chegarasi" signal belgisigacha harakatlanish xuquqini beradi.

Poezdlarning to'xtovsiz harakatida yo'l xat (qog'oz)lari lokomotivga qo'lda uzatkichga solinib va odatda, stansiya navbatchisi xonasi tomonidan uzatilishi mumkin.

140. Poezd chiqish signali mavjud yo'ldan jo'natilganda, yo'l xati (qog'ozi) bo'lgan taqdirda, yopiq signalni o'tishga yozma ruxsatnoma berish talab qilinmaydi. Bunday holatda poezdlar ushbu Yo'riqnomaning 259-bandida belgilangan tartibda jo'natiladi.

141. Poezd ikki lokomotiv yoki peregonning boshdan oxirigacha suruvchi lokomotiv bilan harakatlanganda, yo'l xati (qog'ozi) yetakchi lokomotiv mashinistiga taqdim etiladi.

Poezd peregonning bir qismida suruvchi lokomotiv bilan harakatlanganda, yo'l xati (qog'ozi) suruvchi lokomotiv mashinistiga ham taqdim etiladi.

POEZD TELEFONOGRAMMALARI JURNALINI YURITISH TARTIBI

142. Poezdlar telefon aloqasi bo'yicha harakatlanganda, har bir stansiyada poezd telefonogrammalarini jurnali yuritiladi.

Poezd telefonogrammalarini jurnali bo'yicha istalgan har bir paytda tegishli peregonning (yoki peregonning yo'li) bo'sh yoki band ekanligi yaqqol ko'rinishi kerak.

143. Bir yo'llik peregonlarni chegaralovchi stansiyalarda bitta jurnal tutiladi. Jurnalning chap betlarida bir peregonga, o'ng betlarida esa - ikkinchi peregonga taaluqli bo'lgan telefonogrammalar yoziladi.

Bir yo'llik peregonlarni chegaralovchi berk yo'ldagi stansiyalarda poezd telefonogrammalarini betlarga bo'linmasdan ketma-ket tartibda yoziladi.

144. Ikki yo'llik peregonlarni chegaralovchi stansiyalarda har bir peregon uchun alohida, ikkita poezd telefonogrammalarini jurnali yuritiladi: har bir jurnalning chap betlarida toq yo'nalishdagi poezdlar, o'ng betlarida esa - juft yo'nalishdagi poezdlar uchun telefonogrammalar yoziladi.

Poezd ikki yo'llik peregonda noto'g'ri yo'ldan jo'natilsa, toq yo'nalishdagi poezdlar uchun telefonogrammalar jurnalining o'ng betlarida, juft yo'nalishdagi poezdlar uchun esa, jurnalning chap betlarida yoziladi.

Ikki yo'lning peregonninig asosiy yo'llaridan birida harakatlanuvchi poezdlar xaqidagi barcha telefonogrammalar hamma hollarda jurnalning peregonning ushbu asosiy yo'liga tegishli bo'lgan bir varag'ida yoziladi.

Stansiyaga uch yoki undan ortiq yo'naliш tutashgan bo'lsa, ushbu yo'naliшlardagi tutashgan har bir peregon uchun poezd telefonogrammalarining alohida jurnali yuritiladi.

145. Barcha poezd telefonogrammalari jurnalda shaxsan stansiya navbatchisi yoki operator tomonidan faqat siyoh bilan yozilishi shart.

Chiqish telefonogrammalari shaxsan stansiya navbatchisi tomonidan imzolanishi lozim.

Operator har bir kirish telefonogrammasini yozgandan so'ng, o'qishi va imzolashi uchun darhol stansiya navbatchisiga taqdim qilishi kerak.

Poezd telefonogrammalari jurnaliga yozuv vaqtini qisqartirish maqsadida, DATK tashishlarni tashkil qilish boshqarmasi boshlig'ining farmoyishi bilan poezd telefonogrammalari matni tushirilgan maxsus shtamplar qo'llanishi mumkin.

146. Chiqish poezd telefonogrammalari Toshkent vaqtি bo'yicha nol soatdan boshlab sutka mobaynida (birinchi nomerdan boshlab) har bir peregon uchun alohida olib boriladi. Signalizatsiya va aloqaning asosiy vositalari amal qilishi to'xtashi natijasida telefon aloqasiga o'tilgan paytdan boshlab, chiqish telefonogrammalari birinchi nomerdan yuritiladi. Asosiy aloqa va signalizatsiya vositalarining sutka mobaynida takroran uzilishlari va telefon aloqasiga o'tish paytida, birinchi o'tishda boshlangan jo'natilayotgan telefonogrammaning ketma-ketlik nomerlanishi saqlanib qoladi.

Kirish telefonogrammalari jurnalga ularni jo'natgan stansiya qo'ygan nomer bo'yicha yoziladi.

147. Poezd telefonogrammalarida tuzatish va qo'shimchalar kiritish, ularni bo'yash man etiladi. Hato yozilgan chiqish poezd telefonogrammasi ustidan xoch shaklida chiziladi va tagiga "Xaqiqiy emas" deb yoziladi. Ushbu telefonogramma nomerlanmaydi va qo'shni stansiyaga jo'natilmaydi.

148. Stansiya navbatchilari va operatorlari navbatchilikni qabul qilib, topshirayotganlarida poezd telefonogrammalari jurnalida quyidagi shaklda qayd kiritadi:

"Sana, oy, soat, minut.

Navbatchilikni qabul qildim DSP (imzo)

Operator (imzo)

Navbatchilikni toshpirdim DSP (imzo)

Operator (imzo)".

Signalizatsiya va aloqaning asosiy vositalari ishdan chiqishi oqibatida, telefon aloqasiga o'tilganda va ularning faoliyati qayta tiklanganda, navbatchilikni qabul qilish va topshirish jurnalidagi yozuvlar poezd dispatcherining bu xaqdagi buyrug'i olingandan so'ng, quyidagi shaklda rasmiylashtiriladi:

"Sana, oy, soat, minut.

Nº ____ dispetcherlik buyrug'i bilan ____ peregonda poezdlar harakati telefon aloqasi bo'yicha o'rnatildi. Telefon aloqasi bo'yicha navbatchilikni qabul qildim:

DSP... (imzo)

Operator (imzo)".

"Sana, oy, soat, minut.

Nº_____ dispatcherlik buyrug'i bilan _____ peregonda poezdlar harakati (aloqa turi ko'rsatiladi) bo'yicha tiklandi. Telefon aloqasi bo'yicha navbatchilikni toshpirdim:

DSP (imzo)

Operator (imzo)".

Navbatchilikka kirishgan stansiya navbatchisi va operatorning familiyalari qo'shni stansiyaga xabar qilinadi, u yerda bu familiyalar poezd telefonogrammalari jurnaliga navbatchilikni qabul qilish va topshirish xaqidagi yozuvdan so'ng yozib qo'yiladi.

149. Bir tomondan stansiya navbatchisi bo'lмаган alohida punkt bilan chegaralangan peregonda telefon aloqa vositalariga o'tilgan bo'lsa, stansiya navbatchisi bor bo'lган qo'shni stansiyaning poezd telefonogrammalari jurnalida poezdlar harakati to'g'risidagi poezd dispetcheri bilan so'zlashuvlar poezd telefonogrammalari uchun belgilangan shakllarda qayd etiladi, ushbu Yo'riqnomaning 152-bandida ko'zda tutilgan dispetcherning buyrug'i bilan almashtiriladigan 2- shakl bundan mustasno, u ushbu Yo'riqnomaning 42-bandida ko'zda tutilgan poezd dispetcheri buyrug'i matni bilan almashtiriladi, buyruq matnidagi "Avtoblokirovka" so'zi "Blokirovka" so'ziga almashishi bilan.

150. Poezd telefonogrammasini uzatishdan avval stansiya navbatchilari yoki operatorlar o'zlarining lavozim va familiyalarini o'zaro xabar qilishlari lozim.

Familiyalar poezd telefonogrammalari jurnaliga avvaldan yozilganlariga mos kelgan taqdirdagina telefonogrammalar uzatish va qabul qilishga ruxsat etiladi.

151. Poezd telefonogrammasi jo'natilgandan so'ng uning matni telefonogrammani qabul qilgan xodim tomonidan so'zma-so'z qaytarish yo'li bilan to'g'riliqi tekshiriladi. Takroriy uzatilgan matn jo'natilgan telefonogrammaga mos bo'lsa, telefonogrammani uzatgan stansiya navbatchisi yoki operator buni "To'g'ri" so'zi bilan tasdiqlaydi, shundan keyin ikkala stansiyaning poezd telefonogrammalar jurnalida telefonogrammani uzatish va qabul qilish vaqt qayd etilib, stansiya navbatchisi yoki operatorning imzosi bilan tasdiqlanadi.

BIR YO'LLIK UCHASTKALARDAGI POEZDLAR HARAKATIDA TELEFONOGRAMMALAR SHAKLLARI

152. Poezdlarni bir yo'llik peregonlarda qabul qilish va jo'natishda poezd telefonogrammalarining quyidagi asosiy shakllari qo'llanadi:

Chiqish telefonogrammalarini yo'llash quyidagi shaklda amalga oshiriladi:

**"_____ stansiyasiga _____ stansiyasidan",
masalan: "Shodiyonaga Nurlidan".**

Jo'natish stansiyasi

Qabul qilish stansiyasi

1- shakl.

**«Nº____ poezdni jo'natishim
mumkinmi. DSP (imzo)».**

2- shakl.

**«Nº____ poezdnini kutyapman.
DSP (imzo)».**

3- shakl.

**«__ poezd soat __ minut __ da
jo'nab ketdi. DSP (imzo)».**

4- шакл.

**«__ poezd soat __ minut __ da yetib
keldi. DSP (imzo)».**

153. Peregondan jo'natilgan stansiyaga qaytadigan, shuningdek, suruvchi lokomotivli poezdlar jo'natilganda, matni tegishlicha o'zgartirilib, poezd telefonogrammalar uzatishning xuddi o'sha ketma-ketligiga rioya qilinadi:

a) poezd peregondan orqaga qaytganda:

5-shakl.

«__ km gacha harakatlanib, orqaga qaytadigan №____ poezdni jo'natishim mumkinmi?

DSP (imzo)».

6-shakl.

«__ km gacha harakatlanib, Siz tomonga qaytadigan №____ poezdni jo'natishingiz mumkin.

DSP (imzo)».

Poezdni jo'natish to'g'risidagi xabar 3-shakl, orqaga qaytishi to'g'risida esa-7-shakl bo'yicha uzatiladi:

7-shakl.

"№ ____ poezd ____ soat ____ minutda qaytib keldi. DSP ____ (imzo)".

Yordamchi post xizmat kursatmaydigan tutashmaga vagonlarni yetkazish uchun poezd peregonga xuddi shu singari shakllar bo'yicha jo'natiladi;

b) suruvchi lokomotivli poezdlar harakatida:

8-shakl.

«__ km dan ortga qaytadigan suruvchili №____ poezdni jo'natishim mumkinmi?
DSP (imzo)».

9-shakl.

«__ km dan ortiga qaytadigan suruvchili №____ poezdni kutyapman.
DSP (imzo)».

Poezdni jo'natilganligi to'g'risida xabar 3-shakl bo'yicha "____ km dan ortga qaytuvchi suruvchili" so'zları qo'shib uzatiladi. Poezd yetib kelganligi to'g'risida xabar 4-shakl, suruvchini qaytgani to'g'risida esa, 10-shakl bo'yicha uzatiladi.

10-shakl.

"№ ____ poezdning suruvchisi ____ soat ____ minutda qaytib keldi.
DSP (imzo)".

Qo'shni stansiyagacha harakatlanadigan suruvchi lokomotivli poezd jo'natilganda telefonogrammalar 1, 2, 3 va 4-shakllar bo'yicha "suruvchili" so'zi qo'shib uzatiladi.

154. Stansiyadan to'xtamasdan o'tuvchi poezdlar to'g'risida telefonogrammalar bilan odatdagи tartibda 1 va 2-shakllar bo'yicha almashiniladi, poezdning o'tishi (kelishi va ketishi) to'g'risida qo'shni stansiyalarga xabar esa 11-shakl bo'yicha uzatiladi:

11-shakl.

"№ ____ poezd ____ soat ____ minutda o'tdi. DSP (imzo)".

155. Qarama-qarshi yo'nalihsdagи poezdlar stansiyada kesishganda, qarshi yo'nalihsda jo'natiladigan poezd mavjud stansiya navbatchisi qo'shni stansiya navbatchisiga u tomondan

poezd yetib kelganligi xaqida xabar qiladi va bir vaqtning o'zida, 4 va 1-shakllar yoki 11 va 1-shakllar matnini birlashtirib, qarshi yo'nalishdagi poezdni jo'natish uchun so'rov yuboradi.

156. Tutashuvga xizmat ko'rsatish uchun peregonda yordamchi post tashkil etilganda ushbu post faqat tutashuvga qarab borayotgan va tutashuvdan qaytayotgan poezdlar harakati to'g'risidagi so'zlashuvlarda ishtirot etadi.

157. Yordamchi post xizmat ko'rsatuvchi tutashuvga qo'shni stansiyalarning biridan poezd jo'natilishidan avval poezdni jo'natayotgan stansiya navbatchisi post navbatchisi va oldindagi stansiya navbatchisidan 12-shakl bo'yicha ruxsat so'raydi:

12-shakl.

"№____ poezdni ____km dagi postga jo'natishim mumkinmi? DSP (imzo)".

Oldindagi stansiya navbatchisi poezdni jo'natayotgan stansiya va postga 13-shakl bo'yicha javob qaytaradi:

13-shakl.

"№____ poezdni ____km dagi postga jo'natishingiz mumkin. DSP (imzo)".

Ushbu ruxsatni qabul qilgandan so'ng post navbatchisi jo'natish stansiyasiga 2-shakl bo'yicha rozilik beradi.

Poezd postga jo'natilgani to'g'risida jo'natish stansiyasi navbatchisi post va qo'shni stansiya navbatchilariga 3-shakl bo'yicha xabar beradi. Poezd tutashuvga yetib kelib, tutashuv strelkasi normal holatga o'tkazilgandan so'ng post navbatchisi ikkala stansiya navbatchilariga 4-shakl bo'yicha xabar beradi.

158. Tutashuvdan qo'shni stansiyalardan birontasiga poezd jo'natilganda post navbatchisi ikkala stansiya navbatchilaridan 14-shakl bo'yicha ruxsat so'raydi:

14-shakl.

"№_____ poezdni _____ stansiyasiga jo'natishim mumkinmi? DSP (imzo)".

Ortdagi stansiya navbatchisi postga va oldindagi stansiyaga 15-shakl bo'yicha javob qaytaradi:

15-shakl.

"№____ poezdni _____ stansiyasiga jo'natishingiz mumkin. DSP (imzo)".

Ushbu ruxsatni olgandan so'ng oldindagi stansiya navbatchisi 2-shakl bo'yicha post navbatchisiga poezdni qabul qilishga rozilik beradi. Rozilikni olib, post navbatchisi poezdni jo'natadi, tutashuv strelkasini normal holatga o'tkazadi va ikkala stansiya navbatchisini poezd jo'natilganligi to'g'risida 3-shakl bo'yicha ogohlantiradi.

Poezd yetib kelganligi to'g'risida qabul qilish stansiyasining navbatchisi 4-shakl bo'yicha post va qo'shni stansiya navbatchisiga xabar beradi.

159. Keyinchalik tutashuvga qaytish uchun harakat tarkibi bilan tutashuvdan asosiy yo'lga chiqish zarurati tug'ilsa, peregon poezd dispatcherining buyrug'i bilan barcha poezdlar harakati uchun yopiladi.

Poezd dispetcherining peregon yopilgani xususida buyrug'i uzatilgandan so'ng asosiy yo'lga stansiya navbatchisining signali bo'yicha chiqiladi.

Peregon bo'shatilib, tutashuv strelkasi normal holatga o'tkazilgandan so'ng harakat uchun ochiladi.

IKKI YO'LLIK UCHASTKALARDAGI POEZDLAR HARAKATIDA TELEFONOGRAMMALAR SHAKLI

160. Ikki yo'llik peregonlarda poezdlar qabul qilinganda va jo'natilganda telefonogrammalar 3 va 4-shakllarda jo'natiladi, bunda qabul qilish stansiyasidan 4-shakl bo'yicha olingen xabar shu yo'nalihsda keyingi poezdni jo'natishga xuquq beradi. Poezdlar suruvchi lokomotivlar bilan harakatlanganda 3 va 4-shakllarga bunday holatlar uchun ushbu Yo'riqnomaning 153-bandida ko'rsatilgan matn qo'shiladi.

161. Poezd xabar uzatish stansiyasidan to'xtamasdan o'tganda, uning kelishi va jo'nashi to'g'risida qo'shni stansiyalarga 11-shakl bo'yicha xabar yuboriladi.

162. Ikki yo'llik peregondagagi yo'l postlari mavjud bo'lsa, jo'natish stansiyasining navbatchisi poezd jo'natilganligi xaqida post navbatchisini 3-shakl bo'yicha ogohlantiradi.

Post navbatchisi postlararo keyingi peregon poezdlardan bo'sh bo'lsa, kirish signalini olib, mashinistga yo'l xati (qog'ozi)ni harakat vaqtida taqdim etgan holda poezdni to'xtatmasdan o'tkazib yuboradi.

Poezd o'tgandan so'ng post navbatchisi kirish signalini yopadi va ikkala qo'shni stansiya navbatchilarini poezd o'tgani to'g'risida 11-shakl bo'yicha xabar yetkazadi.

Oldindagi postlararo peregon band bo'lganda, kelayotgan poezd yopiq kirish svetofori oldida peregon bo'shanguncha to'xtatiladi. Ushbu poezd jo'natilganligi to'g'risidagi telefonogramma orqadagi stansiyaga, u postdan jo'natilgandan so'nggina uzatiladi.

Poezd kelganligi to'g'risida kelish stansiyasining navbatchisi post navbatchisiga 4-shakl bo'yicha xabar beradi.

Yo'l postidagi kirish signalining nosozligida oldindagi peregon bo'sh bo'lganda, post navbatchisi poezdni bevosita kirish signali oldida kutib oladi va harakatni davom ettirish xuquqini beruvchi yo'l xati (qog'ozi)ni mashinistga taqdim etadi. Yo'l xati (qog'ozi)ning tepasida "Kirish signali nosoz" degan belgi qo'yiladi.

163. Poezd ortiga qaytadigan bo'lib to'g'ri yo'ldan jo'natilganda jo'natish stansiyasining navbatchisi qo'shni stansiya (yo'l posti) ga "**___ km dan ortiga qaytadigan bo'lib**" so'zlari qo'shilgan 3-shakldagi telefonogramma bilan xabar yetkazadi, poezdning qaytishi to'g'risida esa qo'shni stansiya (yo'l posti)ga 7-shakl bo'yicha xabar qilinadi.

Jo'natilayotgan poezd mashinistiga matni "**___ km dan ortiga qaytadigan bo'lib**" so'zlari bilan to'ldirilgan yo'l xati (qog'ozi) taqdim etiladi.

Jo'natilgan stansiyaga qaytayotgan poezdlar peregonda yo'l postlari mavjud bo'lsa ularni to'xtamasdan bosib o'tadilar. Qaytayotgan poezd o'tgani to'g'risida ham post navbatchisi oldindagi post yoki stansiyaga 7-shakl bo'yicha xabar beradi.

164. Stansiyalararo peregoning alohida punkti bo'lган postda tutashuv mavjud bo'lsa, poezdlar to'g'ri yo'l bo'ylab stansiyadan tutashuvga va tutashuvdan stansiyaga odatdagи tartibda jo'natiladi. Poezd jo'natilganligi to'g'risida stansiya yoki post navbatchisi 3-shakl bo'yicha, kelganligi to'g'risida 4-shakl bo'yicha telefonogramma uzatadi.

Tutashuvga yordamchi post xizmat ko'rsatsa, u faqat tutashuvga borayotgan yoki tutashuvdan qaytayotgan poezdlar harakati to'g'risidagi so'zlashuvlarda ishtirok etadi. Poezd tutashuvga jo'natilgani to'g'risida qo'shni stansiya va postga 3-shakl bo'yicha "**___ km dagi postga**" so'zlarini qo'shib xabar qilinadi.

Tutashuv strelkasi normal holatga o'tkazilgandan so'ng poezd kelganligi to'g'risida post navbatchisi ikkala stansiya navbatchilariga 4-shakl bo'yicha xabar yetkazadi. Yordamchi post xizmat ko'rsatadigan tutashuvdan qo'shni stansiyalardan biriga poezd ushbu Yo'riqnomaning 158-bandida ko'zda tutilgan tartibda jo'natiladi.

165. Poezd regulirovka tartibida (poezd dispatcherining buyrug'i olingandan so'ng) noto'g'ri yo'ldan jo'natilganda stansiyalar o'rtasida quyidagi shakldagi telefonogrammalar bilan almashinadi:

16-shakl.

"**Nº____ poezdni ____ noto'g'ri yo'ldan jo'natishim
mumkinmi? DSP (imzo)".**

17-shakl.

"**____ noto'g'ri yo'ldan Nº____ poezdni kutyapman.
DSP (imzo)".**

Har ikkala holatda "**____ noto'g'ri yo'ldan**" so'zlari qo'shilib poezd jo'natilganligi to'g'risida 3-shakl bo'yicha, yetib kelganligi to'g'risida 4-shakl bo'yicha xabar qilinadi.

Noto'g'ri yo'ldan jo'natilgan stansiyaga qaytadigan poezd jo'natilganda 16 va 17-shakldagi telefonogrammalarga "**____ km dan ortiga qaytadigan**" so'zlari qo'shiladi, 17-shaklda esa, bundan tashqari, "**kutyapman**" so'zi "**jo'natishingiz mumkin**" ga almashtiriladi.

Mashinistga beriladigan yo'l xati (qog'ozi)ning yuqorisida "**Noto'g'ri yo'ldan**" belgisi qo'yiladi.

166. Temir yo'lning ikki yo'llik uchastkasida yo'llardan biri yopilib, ochiq qolgani bo'ylab bir yo'llik harakat o'rnatilsa, poezdlarning jo'natilishi va kelishi to'g'risidagi telefonogrammalar 1, 2, 3, 4 va bir yo'llik uchastkalar uchun belgilangan boshqa shakllar bo'yicha uzatiladi. Yo'l xati (qog'ozi) blankasining yuqorisida bunday holatda "**____ yo'l harakat uchun yopiq**" belgisi qo'yiladi.

YO'L QOG'OZI KORESHOGI

Stansiya (shtempel)

«____» _____ 20 ____ y.

_____ soat ____ minut

№ ____ poezdga (№ ____ poezd
suruvchisiga)
berildi

Stansiya navbatchisi

YO'L QOG'OZI

Stansiya (shtempel)

«____» _____ 20 ____ y.

_____ soat ____ minut

№ ____ poezdga (№ ____ poezd
suruvchisiga) ____ yo'ldan _____ yo'l
bo'ylab va _____ stansiyasining kirish
signaligacha (____ km gacha)
harakatlanib, ortiga qaytishga ruxsat
beraman.
Blokirovka ishlamayapti.

Stansiya navbatchisi

(keraksizi o'chirilsin)

(yashil rangda)

6-bob. BARCHA TURDAGI SIGNALIZATSIYA VA ALOQA VOSITALARI ISHLAMAGANDA POEZDLARNING HARAKATI

167. TFQ ning 261-bandiga muvofiq, signalizatsiya va aloqa barcha vositalari ishining tanaffus (to'xtash) paytida poezdlar harakati bir yo'lli uchastkalarda yozma xabarnomalar orqali, ikki yo'lli uchastkalarda - stansiyalar orasidagi peregonda poezdning o'tishiga ketadigan vaqt bilan chegaralash orqali amalga oshiriladi.

Yozma xabarnomalar orqali yoki poezd peregonni bosib o'tishi uchun tayinlangan vaqtini taqsimlash usuli bilan poezdlar harakati, peregonni chegaralovchi stansiyalar navbatchilari o'rtasida poezdlar harakati to'g'risidagi so'zlashuvlarni ularning ixtiyorida bo'lган biron bir aloqa vositasi orqali amalga oshirishning iloji bo'lmasa, belgilanadi.

168. Barcha turdagи signalizatsiya va aloqa vositalari ishlamaganda stansiya navbatchisi tomonidan mashinistga beriladigan, diagonali bo'y lab ikki qizil tasmali oq blankdagi ruxsatnomasi (DU-56 shaklidagi blank 98-betda keltirilgan) poezdga peregonni egallash xuquqini beradi.

Bunda, agar ilgari jo'natilgan poezdning qo'shni stansiyaga yetib borganligi to'g'risida ma'lumot bo'lmasa, avval jo'natilgan poezdning ort qismi muhofazalanmagan bo'lishi mumkinligi sababli mashinist peregon bo'y lab o'ta ehtiyyotkorlik va darhol to'xtashga tayyor holda harakatlanishi lozim.

169. Barcha turdagи signalizatsiya va aloqa vositalari ishlamaganda quyidagi poezdlarni jo'natish taqiqilanadi:

- a) 1 klassli xavfli yuklar (VM), nogabarit yuk ortilgan, birlashtirilgan, og'irligi va uzunligi oshirilgan, shuningdek bir mashinist tomonidan xizmat ko'rsatiladigan poezdlar;
- b) peregonda ishlash uchun to'xtaydigan, tiklash va o't o'chirish poezdlari va yordamchi lokomotivlar bundan mustasno;
- v) peregondagi tutash yo'lga borayotgan.

Suruvchi lokomotivlar peregonning boshidan oxirigacha harakatlanib qo'shni stansiyagacha borishi shart.

BIR YO'LLIK PEREGONLARDA POEZDLARNING HARAKATLANISH TARTIBI

170. Barcha turdagи signalizatsiya va aloqa vositalari ishlamaganda toki yozma xabarnomalar bo'yicha harakat o'rnatilguncha, o'rtasida aloqa uzilgan stansiyalar bilan chegaralangan peregonga faqat bir yo'llik peregonlar uchun ustun hisoblangan toq yo'naliishda poezdlar jo'natilishi mumkin. Ustun yo'naliishga qarama-qarshi hisoblangan yo'naliish bo'yicha toki yozma xabarnomalar bo'yicha aloqa o'rnatilmaguncha poezdlarning birortasi jo'natilishi mumkin emas, quyidagi poezdlar bundan mustasno:

a) jo'natilishiga aloqa uzilishidan avval ustun yo'naliish stansiyasidan ruxsat (yarm avtomatik blokirovkada rozilik blok-signal, telefon aloqasida poezd telefonogrammasi, elektrjezl tizimida peregonning chiqarilgan jezli) olingan poezdlar. Bu istisno ikki tomonlama blokirovkali bir yo'lli peregonlarga tatbiq etilmaydi;

b) yordam yuborish to'g'risida peregondan qabul qilingan talab asosida jo'natilayotgan tiklash, o't o'chirish poezdlari yoki yordamchi lokomotiv.

Ustun yo'naliishli va shuningdek ustun yo'naliishga qarama-qarshi yo'naliishli stansiya navbatchisi, peregondan yordam ko'rsatish xaqida talabni qabul qilganidan so'ng, tiklash, o't o'chirish poezdlari yoki yordamchi lokomotivni jo'natishni, mashinistga ushbu Yo'riqnomaning 7-bobi talablariga muvofiq, oq rangdagi dioganali bo'yicha qizil tasmali ruxsatnomani taqdim etish bilan tashkil qiladi.

Yo'llarining biri aloqa uzilgunicha yopilgan ikki yo'llik peregonda toki yozma xabarnomalar bo'yicha harakat o'rnatilmaguncha birinchi bo'lib faqat, qolgan amaldagi yo'l uchun ikki yo'llik harakatda to'g'ri hisoblangan yo'nalishdagi poezd jo'natilishi mumkin.

171. Peregon ikki tomonlama avtoblokirovka bilan jihozlanmagan bo'lsa, ustun yo'nalishdagi birinchi poezdni jo'natish uchun qo'shni stansiya navbatchisining ruxsati talab qilinmaydi.

Ikki tomonlama avtoblokirovka bilan jihozlangan bir yo'llik peregonda stansiya navbatchisi peregon qo'shni stansiyagacha masofada bo'sh ekanligiga ishonch hosil qilganidan va bir vaqtning o'zida qo'shni stansiya navbatchisiga poezdlar harakati keyingi tartibi to'g'risidagi xabarnomani yetkazgandan so'nggina ustun yo'nalishdagi birinchi poezd jo'natilishi mumkin. Peregonning bo'shligini tekshirish xaqida poezdlar harakati jurnaliga tekshiruvni amalga oshirgan xodimning familiyasi va tekshirish usuli ko'rsatilgan qayd kiritiladi.

172. Signalizatsiya va aloqaning barcha turlari ishlaganda peregonga tiklash poezdi (o'zi yurar maxsus harakat tarkibi), o't o'chirish poezdi yoki yordamchi lokomotivni ustun yo'nalishda ham, qarama-qarshi yo'nalishda ham jo'natishga ruxsat etiladi, ammo bundan avval peregonda to'xtab qolgan poezdnинг mashinistidan yoki yo'l, signalizatsiya va aloqa, elektr ta'minoti xizmati xodimidan tegishli talab qabul qilinishi shart. Bunda, peregon avtomatik blokirovka bilan jihozlangan bo'lsa, yordam to'g'risida talab qabul qilgan stansiya navbatchisi tiklash poezdi yoki lokomotivni yuborishdan avval stansiya bilan yordam jo'natilayotgan joy orasida boshqa poezdlar yo'qligiga ishonch hosil qilishi kerak.

173. Stansiyalar o'rtasida yozma xabarnomalarni jo'natish signalizatsiya va aloqaning barcha turlari ishlagandan so'ng peregonga jo'natiladigan birinchi poezd bilan boshlanadi.

Bunda yetakchi lokomotivning mashinistiga peregonni egallash xuquqini beruvchi diagonali bo'ylab ikki qizil tasmali oq blankdagi ruxsatnomalar beriladi. Bundan tashqari, ushbu poezd mashinisti bilan qo'shni stansiyaga poezdlarning keyingi harakat tartibi to'g'risida oq rangda maxsus blankdagi (DU-55 shaklidagi blank 97-betda keltirilgan), quyidagi shakklardan biri bo'yicha to'ldirilgan yozma xabarnoma yuboriladi:

A shakli. "Sizga ____ soat ____ minutda № ____ poezdni jo'natdim. Yetib borganidan so'ng Siz tomondan poezdni kutaman. DSP ____".

B shakli. "Sizga ____ soat ____ minutda № ____ poezdni jo'natdim, shundan so'ng ____ soat ____ minutda yana № ____ poezdni jo'nataman. DSP ____".

174. Signalizatsiya va aloqaning barcha turlari ishlagay qolgan paytda o'rtasida aloqa uzilgan stansiyalar chegaralab turgan peregonga jo'natish uchun stansiyada toq yo'nalishdagi poezdlar bo'lmasa, u holda birinchi poezdni jo'natish xuquqiga ega bo'lgan stansiya navbatchisi, qo'shni stansiyada peregonga jo'natish uchun poezd borligini bilsa, u stansiyaga V shaklda to'ldirilgan xabarnoma yuboradi:

V shakl. "Siz tomondan poezd kutyapman. DSP ____".

Ikki tomonlama avtoblokirovka bilan jihozlanmagan peregonlarda V shakldagi yozma xabarnomalarni yuborish uchun olinmaydigan turdagilardan, yakka lokomotivlardan, shuningdek, boshqa transport vositalaridan foydalanishga ruxsat etiladi.

175. Stansiya navbatchisi A, B yoki V shakldagi xabarnomani olganidan so'ng yozma xabarnomalar bo'yicha poezdlar harakati o'rnatilgan xisoblanadi.

176. Bir yo'nalishda jo'naydigan poezdlar ilgari jo'natilgan poezd stansiyalararo peregonni bosib o'tishi uchun zarur vaqtga 3 minut qo'shilgan vaqt oralig'idan so'ng jo'natilishi lozim.

Aloqa uzilguniga qadar alohida punktlar sifatida ish yuritgan yo'l postlari poezdlar harakatida ishtirok etmaydilar.

Barcha turdag'i signalizatsiya va aloqa vositalari ishlamay qolgan paytgacha stansiyadan ustun yo'nalish bo'y lab peregondagi tutash yo'lga poezd jo'natilgan bo'lib, yordamchi post navbatchisidan poezdning yetib kelganligi va tutash yo'lga o'tkazilgani to'g'risida xabar olinmagan bo'lsa, peregon poezd yordamchi postga yetib borishi va tutash yo'lga o'tkazilishi uchun zarur vaqtga 3 minut qo'shilgan vaqtgacha band hisoblanadi.

Yordamchi post navbatchisi poezd tutash yo'lga o'tkazilganidan so'ng, tutashuv strelkasini normal holatga (asosiy yo'l bo'y lab) o'tkazishi va qo'shni stansiyalar navbatchilari bilan aloqa tiklangunga qadar asosiy yo'lga harakat tarkibi chiqishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

177. Barcha turdag'i signalizatsiya va aloqa vositalari ishlamagan davr mobaynida poezdlar diagonali bo'y lab ikki qizil tasmali oq blankadagi ruxsatnomaga bo'yicha jo'natiladilar.

O'zaro aloqa uzilmasligi uchun stansiyalar navbatchilari toki qurilmalarning normal ish holati tiklangunga qadar, ikkala yo'nalish bo'y lab har bir poezdning yetakchi lokomotivi mashinisti orqali poezdlarning keyingi harakati to'g'risidagi A yoki B shakldagi yozma xabarnomalar yuborishlari shart.

A, B yoki V shakldagi xabarnomalar har ikkala stansiyada poezd telefonogrammalari jurnaliga yoziladi.

Poezdlar harakatini yozma xabarnomalar vositasida amalga oshirishga o'tkazishda poezd telefonogrammalari jurnaliga quyidagi yozuv kiritiladi:

"Sana _____, ____ soat ____ minut. Barcha turdag'i signalizatsiya va aloqa vositalari ishlamayotgani sababli _____ peregonida poezdlar harakatini yozma xabarnomalar vositasida amalga oshirish o'rnatildi.

DSP _____ (stansiya nomi va imzo)".

178. Barcha turdag'i signalizatsiya va aloqa vositalari ishlamay qolgunga qadar aloqa to'xtashi bilan poezdlarni jo'natishga ustunlik xuquqini qo'lga kirituvchi stansiya navbatchisi tomonidan o'rtalaridagi aloqa uzilgan stansiyalar chegaralovchi peregonga ustun bo'lman (juft) yo'nalishdagi poezdni jo'natishga rozilik berilgan bo'lsa, peregon ushbu poezdning yetib kelishi yoki qo'shni stansiya (post)dan poezdning jo'natilmasligi to'g'risida xabar olinmaguncha peregon band hisoblanadi.

Rozilik juft yo'nalishdagi poezdni tutashuv postiga jo'natish uchun berilgan bo'lsa, peregon poezdning yetib borganligi va tutash yo'lga o'tkazilganligi to'g'risida xabar kelguncha band hisoblanadi.

179. Barcha turdag'i signalizatsiya va aloqa vositalari ishlamay qolgunga qadar yordamchi post navbatchisiga tutash yo'ldan toq yo'nalishdagi poezdni jo'natishga ruxsat berilgan bo'lib, navbatchidan ushbu poezd jo'natilganligi to'g'risida xabar olingan bo'lsa, aloqa uzilganidan so'ng, peregonga ustun yo'nalishda poezdlarni jo'natadigan stansiya navbatchisi peregonning postdan stansiyagacha bo'lgan qismini jo'natilgan poezd bosib o'tishi uchun zarur bo'lgan vaqtga uch minut qo'shib hisoblangan vaqt oralig'idan so'ng, qo'shni stansiyaga shu yo'nalishda birinchi poezdni yuborishga ruxsat etiladi.

Tutashuv postidan toq yo'nalishda poezd jo'natilgani to'g'risida xabar olinmagan bo'lsa, peregon post navbatchisidan poezd jo'natilganligi va tutashuv strelkasi asosiy yo'l bo'y lab o'rnatilganligi yoki poezdning jo'natilishi kechiktirilganligi to'g'risida xabar olingunga qadar band hisoblanadi.

Aloqa uzilgunga qadar tutashuv postidan yana tutashuvga qaytadigan poezdning jo'natilishi kelihilgan holatlarda ham, postdan tegishli xabar olingunga qadar, peregonga poezdlarni jo'natish taqiqlanadi.

180. Aloqa uzilishi bilan ustun yo'nalishda birinchi poezdni jo'natish xuquqini oladigan stansiya navbatchisiga aloqa uzilgunga qadar poezdni jo'natishga ruxsat berilgan bo'lsa, ushbu yo'nalishda poezdni jo'natish bilan bir paytning o'zida u qo'shni stansiya navbatchisi bilan yozma aloqa o'rnatishi shart.

181. Signalizatsiya va aloqani tegishli vositalarining amal qilishi tiklangandan so'ng, ushbu aloqa turlari bo'yicha poezdlarning harakati avvaldan peregonning bo'shligini tekshirib ko'rishi lozim bo'lgan poezd dispatcherining buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

182. Signalizatsiya va aloqa vositalarining faoliyati dispatcherlik aloqasidan oldin tiklansa, ustun yo'nalishda poezdlarni jo'natish xuquqiga ega stansiya navbatchisi qo'shni stansiyaga quyidagi shaklda telefonogramma uzatadi:

"____ stansiyalar o'rtasidagi peregonda poezdlar harakati aloqaning _____ turi bo'yicha o'rnatiladi.

Siz tomondan oxirgi bo'lib №_____ poezd keldi. Siz tomonga №_____ poezd jo'natildi. DSP _____".

Peregonning bo'sh ekanligiga ishonch hosil qilgan qo'shni stansiya navbatchisi quyidagacha javob qaytaradi:

"Siz tomondan oxirgi bo'lib №_____ poezd keldi. Siz tomonga №_____ poezd jo'natildi, peregon bo'sh. DSP _____".

Ushbu telefonogrammalar bilan almashgandan so'ng ikkala stansiya navbatchilar asosiy signalizatsiya va aloqa vositalari bo'yicha poezdlar harakatiga rahbarlik qilishga kirishadilar.

IKKI YO'LLIK PEREGONLARDA POEZDLARNING HARAKATLANISH TARTIBI

183. Ikki yo'llik peregonlarda signalizatsiya va aloqaning barcha turlari ishlamaganda, poezdlar to'g'ri yo'ldan ular peregonni bosib o'tishi uchun zarur bo'lган jadvaldagи vaqtga uch minut qo'shib hisoblangan vaqt bo'yicha taqsimlab, yuboriladi, agar aloqa ishlamagan vaqtda blokirovka tegishli yo'nalishga o'rnatilgan bo'lsa.

Agar stansiya navbatchisi aloqa va signalizatsiyaning barcha turlari ishlamay qolgan vaqtdan oldin qo'shni stansiyadan noto'g'ri yo'l bo'ylab poezd jo'natilishiga ruxsat bergen bo'lsa, bu poezd stansiyaga yetib kelganidan so'ng, to'g'ri yo'l bo'ylab birinchi poezdni jo'natishdan ilgari stansiya navbatchisi peregon qarama-qarshi yo'nalishdagi poezdlardan bo'sh ekanligiga ishonch hosil qilishi lozim.

184. Stansiyalar o'rtasida aloqa uzilgunga qadar peregonning alohida punktlari sifatida faoliyat yuritgan yo'l postlari mavjud bo'lsa, ushbu postlar aloqa uzilganda ham faoliyat yuritaveradilar.

Bunday holatda poezdni jo'natishda stansiya navbatchisi ilgari jo'natilgan poezd jadval bo'yicha yo'l postiga yetib borishi uchun zarur vaqtga uch minut qo'shib hisoblangan vaqt o'tgunicha kutadi va poezdga faqat birinchi yo'l postigacha harakatlanish xuquqini beruvchi ruxsatnomasi taqdim etadi.

185. Tiklash poezdi (o'zi yurar maxsus harakat tarkibi), o't o'chirish poezdi yoki yordamchi lokomotivni yuborish xaqida talab qabul qilinib, uni noto'g'ri yo'nalishdan jo'natish zarur bo'lsa, stansiya navbatchisi ushbu yo'lning (stansiyadan yordam jo'natilayotgan joyga qadar) bo'sh ekanligiga ishonch hosil qilishi shart.

186. Tegishli signalizatsiya va aloqa vositalarning faoliyati tiklangandan so'ng, poezdlarning ushbu aloqa turlari bo'yicha harakati poezd dispatcherining buyrug'i, dispatcherlik aloqasi bo'lмаган holda esa, har bir stansiya tomonidan unga to'g'ri hisoblangan yo'l bo'ylab tiklanadi.

187. Ushbu Yo'riqnomaning 171, 172, 174, 183, 185-bandlarida ko'zda tutilgan peregonnining bo'shligi holatlarini aniqlash uchun, stansiya navbatchisiga har qanday imkoniyat (qo'shni stansiya navbatchisi bilan shahar aloqasi bo'yicha, radio aloqa bo'yicha so'zlashuvlar, avtotransport vositalari, olib qo'yiladigan drezinalar bilan va h.z.)dan, ushbu Yo'riqnomaning 174-bandida ko'zda tutilgan holatlarda esa yakka lokomotivlardan ham foydalanishga ruxsat etiladi.

XABARNOMA KORESHOGI

№ _____

Stansiya (shtempel)

«___» ____ 20__ y.

Signalizatsiya va aloqaning barcha turlari ishlaganda poezdning bir yo'llik peregonlarda harakatlanishi to'g'risida

_____ stansiya navbatchisiga

Stansiya navbatchisi _____

XABARNOMA

№ _____

Stansiya (shtempel)

«___» ____ 20__ y.

Signalizatsiya va aloqaning barcha turlari ishlaganda poezdning bir yo'llik peregonlarda harakatlanishi to'g'risida
_____ stansiya navbatchisiga

Stansiya navbatchisi _____

(oq rangda)

RUXSATNOMA KORESHOGI

Nº _____

«___» ____ 20___ y.

Stansiya (shtempel)

Nº ___ poezdga berildi

Stansiya navbatshisi

Post

RUXSATNOMA

Nº _____

«___» ____ 20___ y.

Stansiya (shtempel)

Nº ___ poezdga chiqish (o'tish) svetoforining
yopiq holatida

_____ stansiya dan
post

jo'nashga va _____ stansiya ning
post

kirish signaligacha harakatlanishga ruxsat
beraman. Signalizatsiya va aloqaning barcha
vositalari ishlamayapti.

OGOHLANTIRISH

Avval jo'natilgan poezdnинг qo'shni stansiyaga
yetib borganligi to'g'risida ma'lumot
bor
yo'q

Stansiya navbatchisi
Post

(keraksizi o'chirilsin)

*(dioganali bo'ylab ikkita qizil tasmali
oq rangda)*

7-bob. TIKLASH, O'T O'CHIRISH POEZDLARI, MAXSUS O'ZI YURAR HARAKAT TARKIBI VA YORDAMCHI LOKOMOTIVLARNING HARAKATI

188. Tiklash, o't o'chirish poezdlari, maxsus o'zi yurar harakat tarkibi va yordamchi lokomotivlar, yo'lida to'xtab qolgan poezd yetakchi lokomotivining mashinisti (mashinist yordamchisi)ning yordam so'rab (yozma ravishda, telefon yoki radio aloqa orqali uzatilgan) qilgan talabi, shuningdek, yo'l, elektr ta'minoti, signalizatsiya va aloqa xizmati xodimlarining talabi asosida tayinlanadi.

Tiklash va o't o'chirish poezdlari bu poezdlar to'g'risida amal qilayotgan tegishli qoidalar asosida chaqiriladi. Tiklash, o't o'chirish poezdlari, maxsus o'zi yurar harakat tarkibi va yordamchi lokomotivlarni jo'natish va ularni belgilangan manziliga harakatlanishi poezd dispatcherining buyrug'iga asosan amalga oshiriladi.

189. Yordam talab qilganda peregonda to'xtab qolgan poezdning mashinisti (mashinist yordamchisi) stansiya navbatchisi yoki poezd dispatcheriga poezdning boshi qaysi kilometrda joylashganligini, nima sababdan va qaysi vaqtida yordam zarurligini xabar qilishi shart. Stansiya navbatchisi yoki poezd dispatcheri bilan telefon va radio aloqasi bo'limgan favqulodda holatlarda stansiyaga yozma talabnomani yetkazish uchun poezd lokomotividan foydalanish mumkin. Vagon g'ildiraklari ostiga tormoz boshmoqlari qo'yilib va qo'l tormozlari ishga tushirilib, vagonlarni o'z-o'zidan ketib qolishidan mahkamlangandan so'nggina lokomotivni tarkibdan uzishga ruxsat etiladi. Lokomotiv tarkibdan ajratilishidan avval qoldirilayotgan vagonlarning avtotormozlari ham (so'nggi kranni to'liq ochish yo'li bilan) ishga tushirilishi kerak. Stansiyaga talabnomani yetkazish uchun yo'lovchi poezdi lokomotividan foydalanishga ruxsat berilmaydi.

To'xtab qolgan poezd tarkibi joylashgan yo'lning profiliga ko'ra vagonlarni mahkamlash uchun mavjud vositalar yetarli bo'lmasa, vagonni lokomotivdan ajratish taqiqanadi. Zarur hollarda ikki yo'llik peregonlarda stansiya navbatchisiga yordam to'g'risida yozma talabnomani yetkazish uchun qarama-qarshi yo'nalishdagi poezdning lokomotiv brigadasidan foydalanishga ruxsat etiladi.

190. Tiklash, o't o'chirish poezdi, maxsus o'zi yurar harakat tarkibi yoki yordamchi lokomotivni yuborish xaqidagi talabni qabul qilgandan so'ng stansiya navbatchisi bu to'g'rida darhol poezd dispatcheriga xabar beradi. Telefon yoki radio aloqa orqali qabul qilingan talab poezdlar harakati jurnaliga yoziladi.

191. Yordam to'g'risida talab qabul qilgan poezd dispatcheri bu xaqda darhol YaDM ning yo'nalish bo'yicha navbatchisiga xabar qiladi.

YaDMning yo'nalish bo'yicha navbatchisi va poezd dispatcheri peregonni chegaralovchi qaysi stansiyadan yordam ko'rsatilishi va zarurat tug'ilganda vagonlar qaysi stansiyaga olib chiqilishini birgalikda aniqlaydilar.

Poezd radio aloqasi mayjudligida yordam ko'rsatishning belgilangan tartibini poezd dispatcheri (bevosita yoki stansiya navbatchisi orqali) to'xtab qolgan poezd mashinistiga yetkazishi lozim.

Poezd dispatcheri tiklash, o't o'chirish poezdlari va yordamchi lokomotivlarning jadal harakatlanishini ta'minlashi va tegishli ma'lumotlar mavjud bo'lsa, poezdni ishga tayyorlab borish uchun hodisa sodir bo'lgan joydagи vaziyatni tiklash (o't o'chirish) poezdlari boshliqlariga ma'lum qilishi shart.

192. Boshqa poezdlar harakati uchun yopiladigan peregonga tiklash, o't o'chirish poezdlari, maxsus o'zi yurar harakat tarkibi va yordamchi lokomotivlar barcha holatlarda ushbu Yo'riqnomaning 282-bandida belgilangan tartibda jo'naydilar. Lokomotiv mashinistiga

diagonali bo'ylab qizil tasmali oq blankada ruxsatnoma (DU-64 aklidagi blank 114-betda keltirilgan) beriladi. Unda talabnomaga asosan va poezdning qaysi tomonidan (oldidan yoki ortidan) yordam ko'rsatilishiga bog'liq ravishda tiklash, o't o'chirish poezdi yoki yordamchi lokomotiv yetib borishi lozim bo'lgan joy (kilometr) ko'rsatiladi.

Yordam poezdning ortidan ko'rsatilsa, unda talabnomada ko'rsatilgan kilometr poezdning uzunligini hisobga olib o'zgartiriladi.

To'siq joyida peregonda poezdlarning harakati uchun yordamchi post ochilgan holatlarda ham mashinistga diagonali bo'ylab qizil tasmali oq blankadagi ruxsatnoma beriladi. Bunda tiklash, o't o'chirish poezdlari va yordamchi lokomotivlarning harakati peregonni chegaralovchi stansiya navbatchilarining post navbatchisi bilan ilgaridan kelishuviga asosan amalga oshiriladi.

Markazlashtirilgan dispetcherlik bilan jihozlangan uchastkalarga yordamchi lokomotivlarni jo'natish tartibi ushbu Yo'riqnomaning 61-bandida belgilangan.

193. Peregonga yordam ko'rsatish uchun jo'natilayotgan tiklash, o't o'chirish poezdi lokomotivi, maxsus o'zi yurar harakat tarkibi yoki yordamchi lokomotivning mashinisti, diagonali bo'ylab qizil tasmali oq blankadagi ruxsatnomada ko'rsatilgan joyga ikki kilometr qolganda tezlikni kamaytirishi va shundan so'ng o'ta ehtiyojkorlik va to'siq oldida darhol to'xtashga tayyor holda harakatlanishi shart.

Yordam talab qilingan poezdga yoki harakatni tiklash (o't o'chirish, uyumni tozalash va h.z.) uchun ishlarni bajarish zarur joyga yetmasdan mashinist poezdni to'xtatishi va shundan so'ng normal harakatni tiklash bo'yicha ishlarni boshqarayotgan shaxsnинг ko'rsatmalariga binoan harakatlanishi lozim. Yordamchi lokomotiv mashinisti belgilangan manzilga yetib kelgandan so'ng, o'z harkatlarini to'xtab qolgan poezd mashinisti bilan muvofiqlashtiradi.

194. Tiklash, o't o'chirish poezdi, yordamchi lokomotiv, maxsus o'zi yurar harakat tarkibini peregonga jo'nagan va peregondan qaytgan vaqtini stansiya navbatchisi poezdlar harakati jurnalida qayd etishi va bu to'g'rida darhol peregonni chegaralovchi qo'shni stansiya navbatchisi va poezd dispetcheriga xabar qilishi lozim.

195. Vujudga kelgan to'siqlarni bartaraf qilish ishlarida ishtirok etgan yo'l xizmati (lavozimi yo'l ustasidan kichik bo'limgan) katta xodimining peregon bo'ylab harakatni tiklash mumkinligi to'g'risidagi (yozma, telefon yoki radio aloqa orqali uzatilgan) xabarnomasi asosida poezd dispetcheri bergen buyruqqa ko'ra peregon yoki tegishli yo'l poezdlar harakati uchun ochiladi.

Kontakt tarmog'i shikasti bartaraf qilingani to'g'risida xabarnoma tiklash ishlariga rahbarlik qilgan elektr ta'minoti distansiyasi xodimining xabarnomasiga asosan energodispetcher tomonidan uzatiladi.

Avtoblokirovka bilan jihozlangan peregonlarda blokirovka qurilmalari ishdan chiqqanda, avtomatik blokirovka bo'yicha poezdlar harakatini tiklash uchun SSB elektromexanigining tegishli xabarnomasini olishi lozim.

Harakat tarkibi izdan chiqmagan va peregonda biron-bir qurilmaning shikastlanishi bo'limgan bo'lsa, yordamchi lokomotiv mashinistining ma'lumoti yoki yordam ko'rsatish ishlariga rahbarlik qilgan xodimning peregondan tarkib chiqarilib, peregon bo'shaganligi xaqidagi ma'lumotidan so'ng poezdlar harakati ochiladi.

Avtoblokirovka bilan jihozlangan ikki yo'llik peregonlarda ushbu peregonning tegishli yo'lli, to'xtab qolgan poezd tarkibini to'g'ri yo'ldan olib chiqish boshlangani xaqidagi yordamchi lokomotiv mashinistidan radio aloqa orqali xabar olinganidan so'ng ochilishi mumkin.

196. Peregonda poezd ajrab ketganda (uzilganda) mashinist quyidagilarni bajarishi shart:

sodir bo'lgan voqea xususida radio aloqa orqali peregonda harakatlanayotgan poezdlar mashinistlari va peregonni chegaralovchi stansiyalar navbatchilariga xabar berishi lozim, ular esa o'z navbatida bu to'g'rida poezd dispetcheriga xabar qiladilar. Radio aloqa bo'limganda xabar TFQ ning 275-bandida belgalangan tartibda aloqaning boshqa vositalari orqali uzatiladi;

mashinist o'z yordamchisi orqali tarkibning va ajrab ketgan vagonlarning biriktirish asboblarining holatini tekshirib ko'rishi va ular soz bo'lsa, poezd tarkibini biriktirishi lozim. Birlashtirish maqsadida tarkibning ajrab ketgan qismlarini o'ta ehtiyyotkorlik bilan to'xtatish lozim, bunda vagonlar urilishidagi tezlik 3 km/soat dan oshmasligi lozim;

shikastlangan tormoz yenglarini zahirada mavjudlari yoki oxirgi vagondan yoki lokomotivning oldingi brusidan yechib olinganlari bilan almashtirish kerak.

Poezd tarkibining ajrab ketgan qismlarini 20 minut va undan ortiq vaqtida biriktirishni iloji bo'limgan barcha holatlarda lokomotivning mashinisti, poezdning lokomotivsiz qolgan qismi tormoz boshmoqlari va qo'l tormozlari bilan mahkamlanishi uchun choralar ko'rishi shart.

Ajrab ketgan qismlar birlashtirilgandan so'ng mashinist yordamchisi so'nggi vagonning nomeri va unda poezd signaling mavjudligi bo'yicha tarkibning butligiga ishonch hosil qiladi. Harakat boshlanishidan avval vagon g'ildiraklari ostidan tormoz boshmoqlari chiqarilishi, qo'l tormozlari qo'yib yuborilishi va tormozlarning qisqa sinovi o'tkazilishi lozim.

197. Quyidagi holatlarda peregonda poezd qismlarini biriktirish taqiqlanadi:

- signalarni farqlash qiyin bo'lgan tuman, qor bo'roni va boshqa noqulay sharoitlarda;
- uzilgan qism 0,0025 dan tikroq qiyalikda joylashgan bo'lib, birlashtirish zarbidan poezd harakatiga qarama-qarshi tomonga ketib qolishi mumkin bo'lsa.

Favqulodda holatlarda tarkibning ajrab qolgan qismi bilan birlashtirish uchun ushbu Yo'riqnomaning 209-bandida ko'zda tutilgan tartibda orqadan kelayotgan poezd lokomotividan foydalanish mumkin.

198. Poezdni biriktirish mumkin bo'lmasa, mashinist ushbu Yo'riqnomaning 189-bandida belgilangan tartibda tiklash poezdini yoki yordamchi lokomotivni talab qilishi kerak, bunda u qo'shimcha talabnomada poezdning ajrab ketgan qismlari orasidagi taxminiy masofani ham ko'rsatishi lozim.

Ushbu Yo'riqnomaning 189-bandida belgilangan favqulodda holatlarda yordam talabnomasini stansiyaga yetkazish uchun poezd lokomotividan (vagonlar bilan yoki yakka o'zidan) foydalanish mumkin. Bunday lokomotivning orti signalizatsiya to'g'risidagi Yo'riqnomaning 86 bandida ko'zda tutilgan tartibda belgilanishi lozim.

Odamlari bo'lgan va 1 klass xavfli yuk ortilgan (VM) vagonli tarkiblarni peregonda qo'riqlashsiz qoldirish taqiqlanadi.

199. Stansiyaga yordam so'rab ketayotgan poezdning mashinisti quyidagilarga amal qilishi shart:

avtomatik blokirovka bilan jihozlangan peregonlarda uning signallariga amal qilishi; yo'l postlari (blokpostlar)ga ega yarim avtomatik blokirovkali peregonlarda yo'ldagi birinchi blokpostda to'xtab, sodir bo'lgan voqea to'g'risida poezd dispetcheriga xabar berishi. Blokpost navbatchisi bunday lokomotivni o'tish signaling ruxsat ko'rsatmasiga binoan jo'natadi, ammo o'tish blokirovka signalini bermaydi. Peregondagi boshqa blok-post navbatchilarini ushbu Yo'riqnomaning 91-bandida ko'zda tutilgan tartibda harakat qiladilar. Elektr jezl tizimi bilan jihozlangan peregonlarda poezd tarkibi qoldirilgan peregonning jezlini

stansiyaga yordam talab qilib kelgan mashinist stansiya navbatchisiga beradi. Peregondan bo'shatilib, normal harakat tiklanguniga qadar stansiya navbatchisi jezlni apparatga solmasdan saqlashi shart.

200. Peregonni yopish va peregonda to'xtab qolgan poezdga yordam ko'rsatish uchun lokomotiv yoki poezdni jo'natish ushbu Yo'riqnomaning 192-bandida ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi. Poezdga ort tomongan yordam ko'rsatilib, ort qismi joylashgan yer ma'lum bo'lmasa, yordamchi lokomotiv (tiklash poezdi) mashinistiga diagonali bo'yab qizil tasmali oq rangdagi blankadagi ruxsatnomadan tashqari, quyidagicha ogohlantirish beriladi:

"Peregonda ajrab qolgan vagonlarning turgan joyi ma'lum emas".

Bunday ogohlantirish olgan yordam ko'rsatuvchi lokomotiv mashinisti peregonda o'ta ehtiyotkorlik bilan va to'siq uchrasa darhol to'xtashga tayyor holda harakatlanishi kerak.

POEZDNI PEREGONDAN JO'NATILGAN STANSIYAGA QAYTISHI

201. Peregonda to'xtab qolgan poezdning oldinga qarab harakatlanish imkoniyati bo'lmasa va uni jo'natilgan stansiyaga qaytishi zarur bo'lsa, mashinist shaxsan, bosh konduktor yoki lokomotiv brigadasi xodimi orqali bu to'g'rida (yozma, telefon yoki radio aloqa orqali) stansiya navbatchisi yoki poezd dispetcheriga xabar qilishi lozim.

Bunday xabarni olgandan so'ng poezd dispetcheri peregonni (peregonning tegishli yo'llini) yopadi va poezdni jo'natilgan stansiyaga qaytish tartibini belgilaydi.

202. Odatda, poezd peregondan yordamchi lokomotiv bilan qaytishi kerak.

Favqulodda holatlarda to'xtab qolgan poezd (yo'lovchi poezdidan tashqari) stansianing kirish signaligacha yoki "**Stansiya chegarasi**" signal belgisigacha tisarilishi mumkin. Bunday tisarilish poezd dispetcherining buyrug'i bilan peregon (yoki yo'l) barcha poezdlar harakati uchun yopilib, to'xtab qolgan poezd mashinistiga stansiya navbatchisining quyidagi shakldagi qayd etiluvchi buyrug'i uzatilgandan so'ng amalga oshiriladi:

**"_____ peregon (peregonning yo'li) barcha poezdlar harakati uchun yopiq.
№_____ poezdni kirish signaligacha (yoki "Stansiya chegarasi" signal belgisigacha)
tisarishga ruxsat etiladi. DSP _____ (stansianing nomi va imzo)".**

Radio aloqa yoki telefon aloqasi bo'lmanan hollarda poezd, peregon poezd dispetcherining buyrug'iga ko'ra yopilgandan so'ng, to'xtab qolgan poezd mashinistiga diagonali bo'yab qizil tasmali oq rangli blankadagi ruxsatnoma (tashuvchi orqali) taqdim etilgandan so'ng to'xtatiladi.

Avtoblokirovka bilan jihozlangan peregondarda poezdni to'xtatish mumkinligi xaqidagi buyruq yoki diagonali bo'yab qizil tasmali oq blankadagi ruxsatnoma to'xtab qolgan poezdning mashinistiga, yo'lning to'xtab qolgan poezd bilan kirish signaligacha (yoki "Stansiya chegarasi" signal belgisigacha) bo'lган uchastkasi boshqa poezdlardan bo'sh bo'lsagina uzatilishi mumkin.

Avtoblokirovka bilan jihozlangan peregonda jo'nab ketgan poezd birinchi blok-uchastkani bo'shatmasdan to'xtab qolgan bo'lsa, poezd stansiya navbatchisining quyidagi ruxsatnomasiga binoan kirish signaligacha yoki "Stansiya chegarasi" signal belgisigacha peregonni yopmasdan tisarilishi mumkin:

"№_____ poezd mashinistiga poezdni kirish signali ("Stansiya chegarasi" signal belgisi) gacha tisarishga ruxsat beraman.

DSP _____ (stansianing nomi va imzo)".

203. Peregonda to'xtab qolgan poezdni jo'natilgan stansiyaning kirish signali ("Stansiya chegarasi" signal belgisi)gacha tisarish tezligi 5 km/soat dan oshmasligi lozim. Peregonda to'xtatilayotgan poezdning oldida (o'tish maydonchasida yoki vagonning maxsus zinapoyasida) lokomotiv brigadasining xodimi, konduktor yoki mashinistning ko'rsatmasiga binoan boshqa xodim bo'lishi kerak.

Peregondagi motorvagon poezdlar, maxsus o'zi yurar harakat tarkiblari va yakka lokomotivlarni tisarish signallar va harakat tarkibini ko'rish chegarasida to'xtash imkonini beruvchi tezlikda amalga oshiriladi; motorvagon poezd mashinisti boshqa (tisarish yo'nalihi bo'yicha old) boshqaruv kabinasiga o'tadi.

Jo'natilgan poezdning ort qismi stansiya chegarasidan chiqmagan bo'lsa, zarur hollarda bunday poezdni tisarish stansiya navbatchisining og'zaki ko'rsatmasiga binoan manyovr tartibida 5 km/soat dan ortiq bo'lмаган tezlikda amalga oshiriladi. Tisarilayotgan poezdning harakat yo'nalihi bo'yicha birinchi vagon maxsus zinapoyasida yoki o'tish maydonchasida lokomotiv brigadasi xodimi yoki konduktor, stansiya navbatchisi ko'rsatmasiga muvofiq boshqa xodim bo'lishi kerak.

204. Peregondan qaytayotgan poezdlar stansiyaga ochiq kirish svetofori bo'yicha yoki ushbu Yo'riqnomaning 265-bandida belgilangan tartibda svetoferining taqiq ko'rsatmasida qabul qilinadi.

Tisarilayotgan poezdni stansiyaga qabul qilish marshruti tayyor bo'lsa, ushbu Yo'riqnomaning 202-bandida ko'rsatilgan peregondagi poezdni to'xtatishga beriladigan ruxsat poezdni stansiyaga qabul qilish to'g'risidagi buyruq bilan birlashtirilishi mumkin. Bunday holatda kirish svetoforining mavjudligi va qabul qilish sharoitlaridan kelib chiqib, ruxsatnomalar matni quyidagi so'zlar bilan to'ldiriladi: "**va ____ yo'lga harakat qilishga ruxsat beraman. Kirish svetofori ochiq**"; "**va kirish svetoforining taqiq ko'rsatmasida ____ yo'lga harakat qilishga ruxsat beraman. Qabul qilish marshruti tayyor**"; "**va ____ yo'lga harakat qilishga ruxsat beraman. Qabul qilish marshruti tayyor**".

PEREGONDA TO'XTAB QOLGAN POEZDGA ORTIDAN KELAYOTGAN POEZD LOKOMOTIVI TOMONIDAN YORDAM KO'RSATILISHI

205. Avtoblokirovka va poezd radio aloqasi bilan jihozlangan uchastkalarda, ko'rinish yaxshi bo'lgan sharoitda, peregonda to'xtab qolgan poezdga yordam ko'rsatish uchun quyidagilardan foydalanish mumkin:

peregonda to'xtab qolgan poezddan keyin borayotgan yakka lokomotiv;

peregonda to'xtab qolgan poezddan keyin borayotgan yuk poezdi tarkibidan ajratilgan lokomotiv;

lokomotivini uzmasdan ortdan kelayotgan yuk poezdi.

Yordam ko'rsatishning u yoki bu usuli poezd dispetcheri tomonidan yuzaga kelgan vaziyat har tomonlama baholangandan so'ng ikkala lokomotivning mashinistiga beradigan qayd etiluvchi buyrug'i asosida amalga oshiriladi.

Yordam ko'rsatish uchun lokomotivni odamli poezddan va 1 klassli xavfli yuk (VM) ortilgan poezddan ajratish taqiqlanadi. Bunday poezdlardan, lokomotivni tarkibdan uzmasdan yordam ko'rsatish uchun ham foydalanish taqiqlanadi.

206. Yordam peregonda to'xtab qolgan poezddan keyin borayotgan yakka lokomotiv tomonidan ko'rsatsila, buyruq quyidagi shaklda uzatiladi:

"**Nº_____ poezdi lokomotivi mashinisti. Oldinda to'xtab qolgan №_____ poezdga yordam ko'rsating. DNS _____**".

Yordam ortdan kelayotgan yuk poezdidan ajratiladigan lokomotiv tomonidan ko'rsatilsa, buyruq quyidagi shaklda uzatiladi:

"№_____poezd mashinistiga. Poezd tarkibini mahkamlang, undan ajraling va oldinda to'xtab qolgan №_____poezdga yordam ko'rsating. DNS ____".

Bunday buyruqni berishdan avval poezd dispatcheri lokomotiv uzilishi lozim bo'lган poezd tarkibi qulay profilda joylashganini, uni tormoz boshmoqlari va qo'l tormozlari bilan ushbu Yo'riqnomaning 189-bandida ko'zda tutilgan tartibda ketib qolishidan mahkamlash mumkinligiga ishonch hosil qilishi shart. Vagonlarni ketib qolishdan mahkamlamasdan turib lokomotiv mashinistiga lokomotivni poezd tarkibidan ajratish taqiqlanadi.

207. Yordam ko'rsatish uchun foydalaniladigan lokomotiv mashinistlariga poezd dispatcherining buyrug'ini olgandan so'ng band blok-uchastkaga kirib, oldinda turgan poezd oldida to'xtash imkonini beruvchi tezlikda harakatlanishga ruxsat etiladi. Ushbu poezd tarkibiga yetmasdan turib machinist to'xtashi, oxirgi vagonning avtoulagichini shaxsan ko'zdan kechirishi, lokomotiv avtoulagichini "buferga" holatiga mahkamlashi, shundan keyingina ehtiyyotkorlik bilan tarkibga yurib borishi lozim. Surish birinchi poezdning mashinisti beradigan signal (ko'rsatma)ga asosan boshlanadi, shundan so'ng ikkala lokomotivning mashinistlari o'zaro radio orqali aloqa qilib, harakatlarini muvofiqlashtirishlari shart. Yordam ko'rsatishga ehtiyoj qolmagandan so'ng ikkinchi lokomotiv, yetakchi lokomotivning signali (ko'rsatmasi)ga binoan surishni to'xtatadi. Yordam to'xtab qolgan poezdning ortidan kelayotgan yakka lokomotiv tomonidan ko'rsatilgan bo'lsa, surishni to'xtatgandan so'ng u avtoblokirovka signallari bo'yicha harakatni mustaqil davom ettiradi.

Yordam orqadan kelayotgan poezddan ajratilgan lokomotiv tomonidan ko'rsatilgan bo'lsa, ushbu lokomotiv surishni to'xtatgandan so'ng ortda qolgan tarkibga qaytadi, bunda, yordam ko'rsatish jarayonida poezd bilan birlashtirishda oldindagi stansiyaga yetib kelgan bo'lsa, peregonda qolgan tarkibga stansiya navbatchisining ko'rsatmasiga binoan, peregonni egallashi uchun qo'shimcha ruxsatsiz qaytadi. Ortda qolgan tarkibga yetib bormasdan turib mashinist lokomotivni to'xtatadi va avtoulagichni biriktirishga tayyor ekanligiga shaxsan ishonch hosil qiladi. Lokomotivni tarkibga ulanish uchun keyingi harakati alohida extiyotkorlik bilan amalga oshiriladi.

Lokomotiv ulanib, tormozlash havo magistrali belgilangan bosimgacha to'ldirilgandan so'ng avtotormozlarning qisqa sinovi o'tkaziladi, shundan so'ng lokomotiv brigadasi xodimlari yoki bosh konduktor vagon g'ildiraklari ostidan tormoz boshmoqlarini chiqarib oladilar va qo'l tormozlari qo'yib yuboriladi.

208. Peregonda to'xtab qolgan poezdga orqadan kelayotgan poezd tomonidan yetakchi lokomotivini ajratmasdan yordam ko'rsatilishiga favqulorra holatlarda, faqat DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilangan uchastkalarda hamda yordam ko'rsatishda foydalaniladigan poezdning uzunligi va og'irligi belgilangan me'yorlardan oshmagan holatlardagina ruxsat beriladi. Shu usulda yordam ko'rsatish ruxsat etilgan peregon va uchastkalarni belgilash bilan bir vaqtning o'zida DATK boshqaruvi raisi tomonidan ushbu jarayonni amalga oshirishda xodimlarning (poezd dispatcherlari, poezd lokomotivlarining mashinistlari, stansiya navbatchilari va h.z.) bajaradigan ishlari ham tayin etilishi lozim.

209. Peregonda ajrab ketgan yuk poezdi qismlarini birlashtirishda ushbu Yo'riqnomaning 197-bandida ko'zda tutilgan holatlarda faqat uzilish ro'y bergan tarkib mashinistining iltimosiga ko'ra yordam ko'rsatiladi. Yordam yakka lokomotiv tomonidan yoki uzilib ketgan poezddan keyin borayotgan yuk poezdi tomonidan lokomotivini ajratmasdan turib ko'rsatilishi mumkin.

Bunday holatlarda yordam ko'rsatish to'g'risidagi dispetcherning buyrug'i quyidagi shaklda uzatiladi:

"№____ poezd lokomotivi mashinisti. Oldinda to'xtab qolgan №____ poezdnинг ajralib ketgan oxirgi vagonlariga ulaning va ushbu vagonlarni tarkibning bosh qismi bilan ulanishiga yordam ko'rsating. DNS ____".

Yordam yakka lokomotiv tomonidan yoki orqadan kelayotgan poezdnинг lokomotivini ajratmasdan ko'rsatilishidan qat'iy nazar, yordam ko'rsatayotgan lokomotiv poezdni ajrab qolgan qismining so'nggi vagoni bilan birikishi shart. Keyingi harakatlar ushbu Yo'riqnomaning 196-bandida belgilangan talablarni bajarganidan so'ng birinchi lokomotiv mashinistining ko'rsatmalariga binoan amalga oshiriladi. Bunda ajrab ketgan vagonlar orasidagi masofa, tarkibning bosh va ajrab qolgan qismidagi vagonlar soni, yo'l profili va hakazolarga bog'liq ravishda birinchi poezdnig bosh qismini surib kelish yoki uzilib qolgan vagonlarni birinchi poezdnинг bosh qismi bilan qo'shilguncha surib borish yo'l bilan amalga oshiriladi. Ajratilgan qismlar qo'shilganidan so'ng ikkinchi poezd mashinistining yordamchisi lokomotivni ortdagи vagonidan ajratadi va ikkala poezd avtoblokirovka signallariga amal qilib harakatini mustaqil davom ettiradi.

210. Avtoblokirovka bilan jihozlangan peregonda yakka lokomotiv yoki maxsus o'zi yurar harakat tarkibi to'xtab qolib, mustaqil harakatlanishiga imkon bo'lmasa, ularni orqadan kelayotgan poezd, lokomotivini ajratmasdan turib, eng yaqin stansiyagacha surib borish usuli bilan peregondan olishi mumkin. Bu ham poezd dispetcherining ikkala lokomotiv mashinistiga va oldindagi stansiya navbatchisiga beradigan buyrug'iga asosan amalga oshiriladi. Bunday holatda to'xtab qolgan lokomotiv (maxsus o'zi yurar harakat tarkibi) orqadan kelayotgan poezd lokomotivi bilan ulanadi. Eng yaqin stansiyagacha keyingi harakatlanish tezligi 25 km/soat dan oshmasligi lozim.

Uchastkalarda bunday tartibni qo'llash imkoniyati yo'lning plani va profilidan kelib chiqib DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.

211. Avtoblokirovka bilan jihozlangan peregonda harakatlangan yuk poezdi qiya ko'tarilishda to'xtab qolgan bo'lsa va harakatni davom ettirish uchun uni yo'lning yengilroq profili (qiyaligi pastroq qismi)ga surib to'xtatish zarur bo'lsa, ushbu harakat faqat yo'lning poezd ortidan stansiyagacha bo'lган uchastkasi poezdlardan bo'sh bo'lган taqdirda, poezd dispetcherining lokomotiv mashinisti va orqadagi stansiya navbatchisiga beradigan qayd etiluvchi buyrug'i aeosida amalga oshirilishi mumkin:

"№____ poezd mashinistiga tarkibni yengilroq profilga surib to'xtatishga ruxsat beraman, ____ stansiyaning kirish signali ("Stansiya chegarasi" signal belgisi) gacha bo'lган yo'l uchastkasi poezdlardan bo'sh. DNS ____".

212. Peregonda motorvagon poezdi majburan to'xtab qolib, uning keyinchalik mustaqil harakatlanishiga iloji bo'lmasa, unga ortidan kelayotgan motorvagon poezdini, peregondan yo'nalishdagi birinchi stansiyaga ikkilangan tarkibda chiqarish uchun ulash ruxsat etiladi. Ikkala poezdning avtotormozlari umumiy magistralga qo'shilishi lozim.

Ikkala poezdning mashinistlariga (bu maqsadda mayjud barcha aloqa vositalaridan foydalanib) quyidagi shaklda uzatiladigan poezd dispetcherining qayd etiluvchi buyrug'iga binoan tarkiblar birlashtiriladi:

"№____ va №____ poezdlarining mashinistlari. Poezdlarni birlashtirib, ikkilangan tarkib bilan _____ stansiyasigacha harakatlaninglar. DNS ____".

Birlashtirilgan poezdni birinchi poezdning boshqaruv kabinasidan boshqarishning iloji bo'lmasa, poezd va tormozlar ikkinchi poezdning boshqaruv kabinasidan boshqariladi, bunda harakatlanish tezligi 25 km/soat dan oshmasligi lozim. Birinchi poezdning boshqaruv kabinasida mashinist bo'lib, harakatni kuzatib borishi va zarurat tug'ilganda shoshilinch tormozlash bilan to'xtash choralarini ko'rishi shart.

Birlashtirish va ikkilangan tarkib bilan harakatlanishda ikkala poezd lokomotiv brigadalarining ish tartibi mahalliy sharoitlardan kelib chiqib, DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.

213. Peregonda yo'lovchi poezdining majburiy to'xtab qolishida, uning keyinchalik mustaqil harakatlanish imkonи bo'lmasa, bu poezdga yordam, yordamchi lokomotiv bilan poezdning bosh tomonidan ham va poezdning ort tomonidan ham, yo'lovchi poezdini muvofiq ravishda oldinda yoki orqada joylashgan stansiyaga olib chiqish yo'li bilan ko'rsatilishi mumkin. Yordamchi lokomotiv mashinisti kutilayotgan harakat yo'nalishi xaqida yo'lovchi poezd mashinistini, u o'z navbatida bu xaqda yo'lovchi poezdi boshlig'i (mexanik-brigadir)ni ogohlantirishi kerak.

RUXSATNOMA KORESHOGI

Stansiya (shtempel)

«____» ____ 20 ____ y.

№____ poezdga №____
lokomotiv bilan ____ peregonga
____ yo'l bo'ylab ____ km gacha
____ maqsadda harakatlanishga
ruxsat beraman.

Ushbu ruxsatnomma stansiya chiqish
svetoforini ta'qiq ko'rsatmasida
bosib o'tishga va peregon bo'ylab
avtoblokirovka o'tish
svetoforlarining ko'rsatmasidan
qat'iy nazar harakatlanishga ruxsat
beradi.

Stansiya navbatchisi

(imzo)

RUXSATNOMA

Stansiya (shtempel)

«____» ____ 20 ____ y.

№____ poezdga №____ lokomotiv bilan
____ peregonga ____ yo'l bo'ylab ____ km
gacha ____ maqsadda harakatlanishga ruxsat
beraman.

Ushbu ruxsatnomma stansiya chiqish svetoforini
ta'qiq ko'rsatmasida bosib o'tishga va peregon
bo'ylab avtoblokirovka o'tish svetoforlarining
ko'rsatmasidan qat'iy nazar harakatlanishga ruxsat
beradi.

Stansiya navbatchisi _____
(imzo)

(oq rangda, dioganali bo'ylab qizil tasmali)

Izoh. Ruxsatnomada poezd yopiq peregonga nima maqsadda jo'natilayotgani ko'rsatilishi kerak, masalan: "№____ poezd tarkibini peregondan _____ stansiyasiga chiqarish uchun", "peregonda to'xtab qolgan №____ poezdni surish, surishdan so'ng _____ stansiyasiga qaytish uchun", "yo'lni ta'mirlash ishlarini bajarish va keyinchalik ishlar rahbarining ko'rsatmasiga binoan peregondan qaytish uchun" va h.z.

**8-bob. TEMIR YO'LLARDA VA INSHOOTLARDA
ISHLAR BAJARILAYOTGANDA XO'JALIK POEZDLARI,
MAXSUS O'ZI YURAR HARAKAT TARKIBINING HARAKATI**

214. TFQ ning 133-bandiga muvofiq, inshoot va qurilmalarni ta'mirlash harakat xavfsizligi va texnika xavfsizligini ta'minlagan holda, odatda, poezdlar harakat grafigini buzmasdan amalga oshirilishi kerak.

Hajm jihatidan katta bo'lgan ta'mirlash va qurilish ishlarni amalga oshirish uchun poezdlar harakat grafigida "okno"lar ko'zda tutilishi va bu ishlarni uchun tezliklarni chegarashlar hisobga olinishi kerak.

Yo'l, sun'iy inshootlar, kontakt tarmoqlari va SSB qurilmalarini joriy saqlash bo'yicha ishlarni bajarish uchun DATK boshqaruvi raisi belgilagan tartibga ko'ra, poezdlar harakat grafigida ko'zda tutilgan, davomiyligi 1-2 soat bo'lgan "okno"lar, bu ishlarni kompleks mashinalar, maxsus brigada va mexanizatsiyalashgan kolonnalar bilan bajarishda esa 3-4 soatl "okno"lar ajratilishi kerak.

Poezdlar harakat grafigida ko'zda tutilmagan vaqt ichida bajariladigan yo'l, kontakt tarmog'i, SSB va aloqa qurilmalari hamda boshqa inshoot va qurilmalarning ta'mir ishlari, odatda, peregonni berkitmasdan amalga oshirilishi kerak.

Agar bu ishlarni bajarish uchun harakatlarni to'xtatish kerak bo'lsa, bu ishlarning boshlanish va tamom bo'lish aniq muddatlari DATK YaDM boshlig'i tomonidan ishlarni rahbari bilan birgalikda va tashishlarni tashkil qilish boshqarmasi boshlig'i bilan kelihilib, belgilanadi.

Harakatni to'xtatuvchi ishlarni, shuningdek, ishlab chiqarish uchun harakat grafigida "okno"lar ko'zda tutilgan ishlarni bajarish uchun ketadigan vaqt davomida ishlarni rahbari poezd dispetcheri bilan doimiy (telefon yoki radio) aloqani o'rnatishi kerak.

Poezdlar harakat grafigida "okno"lar kunning qorong'i vaqtlariga to'g'ri kelgan uchastkalarda, ishlarni rahbari ish joyining yoritilishini ta'minlashi kerak.

TFQ ning 138-bandiga muvofiq, ishlarni bajarish uchun bir yo'lli uchastkalarda peregonni va ikki yo'lli uchastkalarda bir yoki bir nechta yo'llarni yopish, agar bu qo'shni temir yo'llar bilan belgilangan harakat o'lchamlarining o'zgarishiga olib kelmasa, DATK tashishlarni tashkil qilish boshqarmasi boshlig'i bilan kelihilgan holda DATK YaDM ruxsati bilan amalga oshiriladi. Agar yo'llarni yopish qo'shni temir yo'llar bilan belgilangan harakat o'lchamlarini o'zgartirishga olib kelsa, bu qo'shni temir yo'l rahbariyati bilan kelihilgan holda DATK boshqaruvi raisi ruxsati bilan bajariladi.

Poezdlarning kompaniya boshqa uchastkalari bo'ylab aylanma yo'llardan harakatlanishiga olib keladigan peregon va yo'llarni yopish DATK ruxsati bilan amalga oshiriladi.

O'z xususiyatlari bo'yicha peregonni, peregonning asosiy yo'lini yoki stansiyani yopilishini talab qiladigan ta'mirlash va qurilish ishlarni bajarish uchun DATK YaDM boshlig'ining ruxsati olinishi kerak. Shunday ruxsatning mavjudligida peregonning (peregon yoki stansiya yo'lining) ishlarni boshlangunga qadar va ular tamomlangandan so'ng berkitilishi va ochilishi poezd dispetcheri buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

215. Ishlarni amalga oshirish ruxsatnomasida peregon yoki alohida yo'lning kelihilgan berkitilish vaqtini, bu ishlarga umumiylarlik qiluvchi shaxsning familiyasi ko'rsatilishi kerak. Ishlar rahbari familiyasi va lavozimini poezd dispetcheri peregonni chegaralovchi stansiyalar navbatchilariga etkazishi kerak.

Peregon va stansiyada ishlarni amalga oshirish uchun DATK mintaqaviy temir yo'l uzeli boshlig'i ruxsatnomasida ko'rsatilgan ushbu ishlarga rahbarlik qiluvchi mavjud bo'limganda, "okno"larni taqdim qilish taqiqlanandi.

(215-bandning 2-xatboshisi “O’zdavtemiryo’lnazorat” DI boshlig’ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko’rsatmasiga muvofiq o’zgartirildi).

216. Peregon yopilishidan avval ishlar rahbari peregonni chegaralovchi stansiyaning navbatchisi va poezd dispetcheriga yopilgan peregonga xo’jalik poezdlarini jo’natish ketma-ketligini, har bir poezd uchun yopiq peregonda (yoki asosiy yo’lda) dastlabki to’xtash kilometri va ishlar yakunlangandan so’ng qaytishi lozim bo’lgan stansiyani ko’rsatib talabnama taqdim etishi va dispetcherlik ko’rsatmalari jurnalida qayd kiritishi lozim.

217. Peregon (yo’l) yopilishi bilan bog’liq ishlarni boshlash fursati yetgach, poezd dispetcheri peregonni poezdlardan bo’shligini yoki ikki va ko’p yo’llik uchastkalarda tegishli yo’lni bo’shligini aniqlab, peregonni yoki asosiy yo’lni chegaralovchi stansiyalarning navbatchilariga va ishlar rahbariga yopish to’g’risida buyruq beradi.

Ish bajarilayotgan joyda poezd dispetcheri bilan telefon yoki radio aloqasi mavjud bo’lmagan favqulodda holatlarda peregonni yoki yo’lni xaqiqatda yopilgani xususida buyruq ish joyiga eng yaqin bo’lgan stansiya navbatchisi tomonidan (telefon yoki ish joyidan yuboriladigan tashuvchi orqali) ishlar rahbariga yetkaziladi.

Ishlar rahbari poezd dispetcherining (yozma, telefon yoki radio aloqa orqali uzatilgan) buyrug’ini olgunicha va ishlar bajariladigan joy belgilangan signallar bilan to’silmaguncha ishni boshlash taqiqlanadi.

218. Inshoot va qurilmalarni ta’mirlash uchun yopilgan peregon (yoki peregonning yo’li)ga xo’jalik poezdlari, shu jumladan o’zi yurar harakat tarkibining alohida birliklari (keyinchalik ushbu Yo’riqnomaning 8-bobida peregonga jo’natilganda - xo’jalik poezdlari deb yuritiladi)ni jo’natish diagonali bo’ylab qizil tasmali oq blankadagi ruxsatnomada (DU-64 shaklidagi blank 114-betda keltirilgan) bo’yicha ushbu Yo’riqnomaning 259-bandi talablarini bajarish bilan jo’natiladi. Ishlar rahbarining talabnomasiga muvofiq ruxsatnomada har bir poezdning peregondagi dastlabki to’xtash joyi (kilometri) ko’rsatiladi.

219. Yopiq peregonda (yo’lda) bir paytning o’zida bir necha, shu jumladan turli tashkilotlarga tegishli, ammo ushbu Yo’riqnomaning 215-bandiga muvofiq DATK mintaqaviy temir yo’l uzeli boshlig’ining ruxsatnomasida qayd etilgan bir xodimning rahbarligi ostida bo’lgan xo’jalik poezdlari ishlashi mumkin.

(219-bandning 1-xatboshisi “O’zdavtemiryo’lnazorat” DI boshlig’ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko’rsatmasiga muvofiq o’zgartirildi).

Har bir xo’jalik poezdi lokomotivi mashinisti diagonali bo’ylab qizil tasmali oq blankdagi ruxsatnomada ko’rsatilgan joygacha borishi lozim. Dastlabki poezd belgilangan tezlik bilan yuradi, keyingilarining tezligi 20 km/soat dan oshmasligi lozim, bunda poezdlar orasidagi masofa 1 km dan kam bo’lmasligi kerak. Jo’nash stansiyasidan ishlar amalga oshirishi joyigacha bo’lgan masofa yo’ldosh xo’jalik poezdlari orasidagi 1 km lik intervalni ta’milmasa, har bir xo’jalik poezdiga beriladigan oq rangdagi qizil tasmali ruxsatnomada ishlar rahbari talabnomasiga binoan, dastlabki to’xtash joylarining piketi va kilometrlari ko’rsatilishi kerak.

Yopiq peregonga turli alohida punktlardan bir-biriga qarab xo’jalik poezdlari jo’natilganida, ikkala stansiya navbatchilari poezd dispetcheri ko’rsatmasiga binoan oq rangdagi qizil tasmali blankdagi ruxsatnomalarda jo’natilish sabablari yozuvidan keyin quyidagi shakldagi yozuvni kiritadilar:

**“Peregonga qarama-qarshi №_____ xo’jalik poezdi jo’natilgan.
O’ta hushyorlikka rioya qiling”.**

Yopiq peregonga turli alohida punktlardan bir-biriga qarab jo'natiladigan xo'jalik poezdlari ham ruxsatnomada ko'rsatilgan joygacha, ya'ni ishlar rahbari ko'rsatmasiga asosan qizil qo'l signali bilan signalist qo'riqlayotgan olib yuriluvchi to'xtash signaligacha borishlari kerak. Ushbu poezdlarning to'xtash joylari orasidagi masofa 1 km dan kam bo'lmasligi lozim. Xo'jalik poezdi (o'zi yurar maxsus harakat tarkibi) mashinisti ruxsatnomada ko'rsatilgan joyda to'xtagandan so'ng, radio aloqa orqali qarama-qarshi xo'jalik poezdi mashinistiga va orqasidan kelayotgan xo'jalik poezdi hamda o'zi yurar maxsus harakat tarkibi mashinistlariga o'zining turgan joyi xaqida xabar beradi.

To'xtagandan so'ng xo'jalik poezdlari (o'zi yurar maxsus harakat tarkibi)ning peregon bo'ylab keyingi harakati ishlar rahbarining ko'rsatmasi bo'yicha 20 km/soat dan ortiq bo'limgan tezlikda o'ta hushyorlik bilan amalga oshiriladi. Ishlar amalga oshiriladigan joygacha o'zlarining keyinchalik harakatlari xaqida xo'jalik poezdlari (o'zi yurar harakat tarkibi) mashinistlari bir-birlarini radio aloqa orqali xabarlaydilar.

220. Ishlar avtoblokirovka bilan jihozlangan peregonda amalga oshirilayotgan bo'lsa, poezd dispetcheri bilan kelishuvga muvofiq xo'jalik poezdlarini ishlar bajarilayotgan joyga peregonni yopilishini kutmasdan, avtoblokirovka signallari bo'yicha jo'natishga ruxsat etiladi.

Har bir poezdning mashinistiga peregonning ishlar rahbarining talabnomasida qayd etilgan joyida to'xtash uchun ogohlantirish beriladi.

Bunday poezdlarni yopilishi lozim bo'lgan peregonga jo'natish uchun diagonali bo'ylab qizil tasmali oq blankdag'i ruxsatnomasi (DU-64 shaklidagi blank) ishlar rahbari yoki u vakolat bergen xodimga taqdim etiladi. Bu xodim poezd peregonning belgilangan joyida to'xtab, poezd dispetcherining peregon yopilganligi to'g'risidagi buyrug'i olingandan so'ng ruxsatnomani lokomotiv mashinistiga topshiradi.

Peregon yoki tegishli yo'l xo'jalik poezdlaridan ilgari jo'natilgan poezdlardan bo'shatilganidan so'ng poezd dispetcherining buyrug'iga binoan ta'mirlash ishlarini bajarish uchun yopiladi.

221. Avtomatik blokirovka bilan jihozlanmagan yo'li qulay plan va profilga ega o'tish vaqtiga uzoq bo'lgan peregonlarda poezd dispetcherining ko'rsatmasiga binoan xo'jalik poezdlarini ishlar joyiga peregon yopilishini kutmasdan, ilgari jo'natilgan poezd ortidan, ammo u jo'nagandan so'ng kamida 5 minut vaqt oralatib jo'natishga ruxsat etiladi. Ruxsatnomasi peregonni chegaralovchi stansiyalarga va ishlar rahbariga poezd dispetcherining quyidagi shakldagi qayd etiluvchi buyrug'i bilan uzatiladi:

**"Ishlarni bajarish uchun _____ peregon (peregonning _____ yo'li)
yopilishi munosabati bilan ushbu peregonga _____ yo'l bo'ylab xo'jalik poezdlarini
_____ stansiyadan №_____ poezd ortidan jo'natishga ruxsat beraman.
DNS _____(imzo)".**

Bunday holatda har bir xo'jalik poezdi diagonali bo'ylab qizil tasmali oq blankadagi ruxsatnomasi bo'yicha jo'natiladi. Ishlar rahbarining talabnomasiga muvofiq ruxsatnomada har bir poezdning peregondagi dastlabki to'xtash joyi (kilometri) ko'rsatiladi. Shuningdek, dastlabki xo'jalik poezdining mashinistiga quyidagi shakldagi ogohlantirish taqdim etiladi:

"Sizdan ilgari _____ soat _____ minutda №_____ poezd jo'natilgan bo'lib, uning yetib kelganligi to'g'risida xabar olingani yo'q".

Peregon bo'ylab xo'jalik poezdlarining harakatlanishida ushbu Yo'riqnomaning 219-bandida belgilangan tartibga rioya etilishi shart.

222. Stansiyadan peregonda bir paytda ishlash uchun yagona poezd tarkibida jo'natilgan xo'jalik poezdlari, maxsus o'zi yurar harakat tarkibi ishlar rahbarining ko'rsatmasiga muvofiq peregonda ajratilishi yoki birlashtirilishi mumkin.

Bunday poezdlarda maxsus o'zi yurar harakat tarkibining mumkin bo'lgan tarkibi va joylashtirilish tartibi ishlar rahbari tomonidan yo'l ishlarini bajarishda poezdlar harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha Yo'rinqomaga muvofiq belgilanadi.

Stansiyadan bir necha xo'jalik poezdlari birlashtirilib, peregonda ishlash uchun jo'natilganda, rahbarning ko'rsatmasiga muvofiq har poezd mashinistiga diagonali bo'ylab qizil tasmali oq blankadagi alohida ruxsatnoma (DU-64 shaklidagi blank) har bir xo'jalik poezdiga alohida nomer berilishi bilan taqdim etilishi lozim.

223. Peregonda yoki stansiyalar hududida ishlar bajarilgan paytda xo'jalik poezdlari, maxsus o'zi yurar harakat tarkibi ishlar rahbari yoki uning vakolatini olgan xodim tomonidan kuzatib borilishi shart.

DATK mintaqaviy temir yo'l uzeli boshlig'ining ko'rsatmasiga binoan zarur hollarda xo'jalik poezdlariga bosh konduktorlar tayinlanishi mumkin.

(223-bandning 2-xatboshisi "O'zdavtemirov Inazorat" DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko'rsatmasiga muvofiq o'zgartirildi).

224. Ishlar bajarilishi uchun poezdlar harakatida belgilangan tanaffusning tugash vaqtiga kelib ishlar to'liq yakunlanishi, inshoot va qurilmalar poezdlarning bexatar harakatini ta'minlaydigan holatga keltirilishi hamda zarur bo'lsa, tezlikni kamaytirish signallari va tegishli signal belgilari qoldirilib, o'zga to'xtash signallari olinishi lozim.

225. Peregondan xo'jalik poezdlari poezd dispatcheri bilan avvaldan muvofiqlashtirilgan ishlar rahbarining ko'rsatmasiga binoan jo'natiladi.

Xo'jalik poezdlarining peregondan qaytishining rejalashtirilgan tartibini poezd dispatcheri peregonni chegaralovchi stansiyalar navbatchilariga ma'lum qiladi.

Xo'jalik poezdlari, o'zi yurar harakat tarkibining ishi yakunlanganidan so'ng ishlar rahbari shaxsan yoki qo'l ostidagi xodimlardan biri orqali ish uchastkasining butun hududi bo'ylab yo'lni yoki ta'mirlanayotgan qurilmalarni ko'rikdan o'tkazishi, normal harakatga to'sqinlik qiluvchi aniqlangan kamchiliklarni darhol bartaraf etilishini ta'minlashi, shuningdek, yuklar belgilangan gabaritlar chegarasidan chiqmaganligini tekshirib ko'rishi shart.

226. Avtoblokirovka bilan jihozlangan ikki yo'llik peregonlarda xo'jalik poezdlari ishlar yakunlanganidan so'ng stansiyaga to'g'ri yo'lidan jo'natilsa, ularning harakati mashinislarda diagonali bo'ylab qizil tasmali oq blankdagi ruxsatnoma (DU-64 shaklidagi blank) mavjudligidan qat'iy nazar belgilangan tezlikda avtoblokirovka signallari bo'yicha amalga oshiriladi.

Boshqa holatlarda peregondan ishlab qaytayotgan xo'jalik poezdlarining (birinchisidan mustasno) tezligi 20 km/soat dan oshmasligi, ular orasidagi masofa esa kamida 1 km bo'lishi lozim.

227. Peregon (yo'l) poezd dispatcherining buyrug'iga ko'ra, ishlarni qaysi tashkilot bajarganidan qat'iy nazar, yo'l distansiyasi boshlig'i yoki uning vakolatini olgan (lavozimi yo'l ustasidan past bo'limgan) xodimdan (yozma shaklda, telefon yoki radio aloqa orqali), yo'l yoki sun'iy inshootlarda ishlar yakunlanganligi, peregonda xo'jalik poezdlari, maxsus o'zi yurar harakat tarkibining yo'qligi (yoki ular ikki yo'llik peregonni to'g'ri yo'lidan jo'natilganligi), shuningdek, poezdlarning xavfsiz harakatiga boshqa to'siqlar yo'qligi to'g'risida xabarnoma olinganidan so'ng ochiladi. Xabarnoma poezd dispatcheriga bevosita

yoki yaqin stansiyaning navbatchisi orqali yetkaziladi. Telefon yoki radio aloqa orqali olingan xabarnomani poezd dispetcheri dispetcherlik farmoyishlari jurnaliga yozib qo'yadi.

Mavjud signalizatsiya va aloqa yoki elektr ta'minoti (agar ularning ishi buzilgan bo'lsa) qurilmalarining ishi SSB va aloqa katta elektrmexanigi yoki energodispetcherdan tegishli xabarnoma olinganidan so'ng tiklanadi.

228. Avtoblokirovka bilan jihozlangan ikki yo'llik peregonlarda ta'mir va qurilish ishlari yakunlanganligi, poezdlar harakatiga to'siq yo'qligi, avtoblokirovkaning sozligi va ish joyidan barcha xo'jalik poezdlari (maxsus o'zi yurar harakat tarkibi) to'g'ri yo'ldan jo'natilganligi xaqida xabar olinganidan so'ng, barcha xo'jalik poezdlari (maxsus o'zi yurar harakat tarkibi) qo'shni stansiyaga yetib kelishini kutmasdan, poezd dispetcheriga peregonni avtoblokirovka bo'yicha poezdlar harakati uchun ochishga ruxsat etiladi.

229. Peregonda ishni yakunlab ketma-ket qaytayotgan xo'jalik poezdlari va o'zi yurar harakat tarkibini stansiyaning bitta yo'liga yoki harakat tarkibi egallagan boshqa yo'lning bo'sh uchastkasiga qabul qilishga ruxsat etiladi. Bunda peregondan qaytayotgan poezdlar stansiya yo'lining bo'sh uchastkasiga kirish svetoforining taqiq ko'rsatmasida ushbu Yo'riqnomaning 265-bandida belgilangan tartibda kiritiladi.

Poezdni stansiyaga kiritishda mashinist o'ta ehtiyotkor bo'lishi va harakatga to'siq uchragan holda darhol to'xtashga tayyor bo'lishi lozim.

230. Ikki va ko'p yo'llik peregonlarda yo'llardan biri ta'mir ishlari uchun yopilganda qolgan bitta yo'l bo'ylab, o'tkazish qobiliyati samaraliroq foydalanish uchun choralarни (birlashtirilgan poezdlarni o'tkazish, poezdlarni vaqtini taqsimlash usuli bilan harakatlanishi, vaqtinchalik avtoblokirovka qurilmalarini qo'llash, vaqtinchalik postlarni ochish va h.z.) amalga oshirishni hisobga olgan holda poezdlarning harakatlanish tartibi DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.

231. Xususiyatlariga ko'ra yo'lni yopilishini talab etmaydigan yo'l, inshoot va qurilmalarni ta'mirlash ishlari, odatda, poezdlar o'tadigan vaqt oraliqlarida bajariladi. Bunday ishlar paytida xavfsizlikni ta'minlash tartibi DATK ning yo'riqnomalarida belgilanadi.

232. Inshoot va qurilmalarni ta'mirlash ishlari olib borilmayotgan yoki ishlarning xususiyati peregon (yo'l)ni yopilishini talab etmaydigan peregonlar (peregonlarning yo'llari)ga xo'jalik poezdlari poezd dispetcherining og'zaki ko'rsatmasiga binoan jo'natiladi.

Ushbu poezdlar peregonga tegishli signalizatsiya va aloqa vositalari uchun ko'zda tutilgan ruxsatnomalar bo'yicha jo'natiladi.

Ishlar rahbari va mashinistga poezdning stansiyaga kelish (qaytish) vaqtি to'g'risida ogohlantirish taqdim etiladi. Peregonni ogohlantirishda qayd etilgan vaqtdan ortiq muddatga band etish taqiplanadi.

Xo'jalik poezdi peregondan chiqishidan avval ishlar rahbari poezdlarning normal harakati uchun to'siq yo'qligiga ishonch hosil qilishi lozim.

233. Ikki yoki ko'p yo'llik peregonlarning yo'llaridan birida, shuningdek, stansiyaning qabul qilish-jo'natish yoki asosiy yo'llarida maxsus o'zi yurar harakat tarkibi ishlaganda qo'shni yo'l, yo'l ishlarini bajarishda poezdlar harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha Yo'riqnomada ko'rsatilgan holat va tartibda to'siladi. Ushbu yo'ldan harakatlanadigan poezdlarga ishlar rahbarining talabnomasiga muvofiq ogohlantirishlar taqdim etiladi.

234. Ikki yoki ko'p yo'llik uchastkalarda, shuningdek, stansiyaning qabul qilish-jo'natish yoki asosiy yo'llarida vagon turidagi qor tozalagich yoki struglar, ballaster,

puteukladchik, ko'tarma kran, shag'al tozalovchi va boshqa mashinalar ishlaganda qo'shni yo'ldan o'tadigan poezd mashinistlariga quyidagi mazmunda ogohlantirishlar taqdim etiladi:

"_____ peregonning _____ yo'lida strug (qor tozalagich) ishlamoqda. Peregonda (stansiyada) o'ta ehtiyyotkorlik bilan harakatlanilsin; ko'rish darajasi yomon joylar oldidan ogohlantiruvchi cho'ziq hushtak chalinsin".

Ushbu ogohlantirishlar poezd dispetcherining ko'rsatmasiga binoan stansiya navbatchilari tomonidan beriladi.

235. Stansiya yo'llarida ishlar Texnikaviy foydalanish qoidalarining 137-bandni va signallashtirish bo'yicha Yo'riqnomaning 39, 40-bandlari talablariga rioya etilib amalga oshiriladi.

Ishlar rahbarining ko'rik jurnalidagi yozuvi mazmuni bilan tanishib chiqqan stansiya navbatchisi post navbatchilariga, signalchilarga, strelkali post navbatchilariga, tuzuvchilarga, ular orqali esa stansiyada ishlayotgan lokomotivlarning mashinistlariga u yoki bu yo'llar yohud yo'llarning uchastkalariga kirish mumkin emasligini, ishlar bajarilayotgan yo'llardan harakatlanish tezligini kamaytirish yoki o'ta ehtiyyotkor bo'lish to'g'risida ko'rsatmalar beradi, poezdlarning kelgusida o'tishi va manyovr harakatlari xaqida esa park aloqasi orqali stansiya yo'llaridagi xodimlarni oldindan xabardor qiladi yoki so'zlashuv informatorini yoqadi.

Bunday ishlar bajarilayotgan yo'llarga poezdlar qabul qilinganda, zarur holatlarda mashinistlarga tezlikni kamaytirish yoki boshqa ehtiyyot choralarini ko'rish to'g'risida ogohlantirish taqdim etiladi.

Kontakt tarmog'ida ishlar bajarilgan holatlarda ko'rik jurnalida qaysi yo'llar, strelkalar yoki kontakt tarmog'ining seksiyalari barcha turdag'i poezdlar yoki faqat elektr bilan harakatlanuvchi tarkiblar uchun yopilishi ko'rsatilishi shart.

9-bob. POEZDLARNI QABUL QILISH VA JO'NATISH

UMUMIY QOIDALAR

236. TFQning 184-bandiga muvofiq, stansianing texnikaviy vositalaridan foydalanish tartibi texnikaviy-boshqaruv akti bilan belgilanib, ushbu hujjat poezdlarning stansiyaga beto'siq qabul qilinishi, jo'natalishi va o'tishini, stansiya hududidagi manyovr ishlarining xavfsizligi hamda xavfsizlik texnikasiga rioya qilinishini aniqlaydi.

(236-bandning 1-xatboshisi "O'zdavtemiryo 'Inazorat" DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko'rsatmasiga muvofiq o'zgartirildi).

Texnikaviy-boshqaruv aktida belgilangan tartibga, DATK barcha bo'linmalarining xodimlari rivoja etishga majbur.

Har bir poezdni qabul qilish va jo'nish marshruti oldindan tayyorlangan bo'lishi shart va kirish (chiqish) svetofori, qabul qilinayotgan (jo'natalayotgan) poezd mashinisti signaling ochiq holatini o'z vaqtida ilg'ab, stansiyaga kirishda poezdning belgilangan tezligini pasayib ketishiga yoki stansiyadan jo'nashda poezdni kechikishiga yo'il qo'ymasligini hisobga olib, ochilishi lozim.

Har bir poezdni qabul qilish va jo'nishdan oldin stansiya navbatchisi qabul qilish (jo'nish) yo'li va marshrutiga chiqish bilan bog'liq manyovrlarni, harakat tarkibini poezdni harakatlanish marshrutiga chiqib ketishini istisno qilib bo'lmaydigan yo'llarda strelkalarni muhofaza holatiga o'tkazish bilan manyovrlarni to'xtatishi shart.

Stansiya navbatchisi manyovrlar xaqiqatda to'xtatilganiga ishonch hosil qilmasdan turib poezdni jo'nishga signalni ochishi yoki boshqa usulda ruxsat berishi taqilanganadi.

Manyovrlarni to'xtatish, stansiya navbatchisining farmoyishlar berish va ijro etilganiga ishonch hosil qilish tartibi stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktida belgilanadi.

Poezdlarni jo'natishda stansiyalarning saralash-jo'natish parklarida manyovrlarni amalga oshirish tartibi DATK tashishlarni boshqarish boshqarmasi boshlig'i tomonidan belgilanadi va stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatiladi.

237. Strelka va signallarni markazlashtirish bilan jihozlangan stansiyalarda poezdlarni qabul qilish va jo'natish marshrutlarini tayyorlash bo'yicha barcha operatsiyalar shaxsan stansiya navbatchisi yoki uning ko'rsatmasiga binoan markazlashtirish posti operatori tomonidan bajariladi. Markazlashtirilgan strelkalar ijo postlaridan boshqarilganda poezdlarni qabul qilish yoki jo'natish marshrutlarini tayyorlash xususidagi barcha farmoyishlarni stansiya navbatchisi markazlashtirish ijo postlarining operatorlariga uzatadi va farmoyishni boshqaruv apparatidagi tegishli harakatlар bilan tasdiqlaydi. Berilgan farmoyishlarning to'g'ri bajarilganligi markaziy apparat boshqaruv asboblarining ko'rsatmalari bo'yicha nazorat qilinadi.

Strelka va signallarni markazlashtirish qurilmalaridan foydalanish, shuningdek, stansiya navbatchilari va markazlashtirish posti operatorlarining poezdlarni qabul qilish, jo'natish va o'tkazish marshrutlarini tayyorlashda amalga oshiradigan harakatlari SSB qurilmalaridan foydalanish tartibi xaqidagi Yo'riqnomada va stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktida belgilanadi. Markazlashtirilgan va shu bilan birga markazlashtirilmagan strelkalarga ega stansiyalarda xodimlarning harakat tartibi ham shu hujjalarda belgilanadi.

238. Markazlashtirilmagan strelkali stansiyalarda poezdni qabul qilish yoki jo'natish marshrutini tayyorlash to'g'risidagi farmoyishni stansiya navbatchisi marshrutni tayyorlashda ishtirot etayotgan barcha strelkali postlarning katta navbatchilariga aniq va ravshan, so'zlashuvlarning belgilangan reglamentiga rioya qilgan holda bir paytning o'zida uzatishi lozim. Strelkali postlar katta navbatchilarining navbatchiligi tashkil etilmagan bo'lsa, marshrut tayyorlash to'g'risidagi farmoyishlar bevosita strelkali post navbatchilariga beriladi.

Poezdlarni qabul qilish va jo'natish marshrutlari tayyorlashda kirish (chiqish) bo'g'izida, qabul qilish yo'lining qarama-qarshi tomonida joylashgan strelkali postlar, shuningdek harakat tarkibi poezdni qabul qilish yoki jo'natish marshrutiga chiqib ketishi mumkin bo'lган boshqa postlar ishtirot etishi lozim.

239. Strelkali postlarga yoki markazlashtirish ijo postlariga marshrutni tayyorlash xaqidagi farmoyishni stansiya navbatchisi tegishli signalni o'z vaqtida ochilishini ta'minlovchi barcha operatsiyalarni yakunlash vaqtini hisobga olib uzatishi kerak.

240. Marshrutni to'g'ri tayyorlanganligini stansiya navbatchisi boshqaruv apparatidagi asboblarining ko'rsatmalari bo'yicha tekshiradi.

Bunday asboblar bo'lмаган stansiyalarda stansiya navbatchisi marshrutning to'g'ri tayyorlanganligini strelkali postlar katta navbatchilarining xabarları bo'yicha tekshirishi shart.

241. Stansiyadagi ayrim strelkalar strelkali postdan ancha uzoq masofada joylashgan bo'lib, odatda ularni normal holatidan chiqarishmasa (asosiy yo'llar orasidagi tushish yo'llari, asosiy va qabul qilish-jo'natish yo'llariga tutashmalar va h.z.) bunda ularning holatini va sozligini har bir poezdni qabul qilish va jo'natishdan oldin emas, faqatgina navbatchilikka kirishish vaqtida davriy ravishda tekshirish tartibi joriy etilishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu strelkalarning holati va sozligi, ular marshrutni tayyorlashdan oldin manyovr harakatlari, ko'rik, ta'mir va hakazolar uchun o'tkazilgan bo'lsa, albatta tekshirilishi shart. Bunday strelkalar nazorat qulflari bilan jihozlangan bo'lishi, ularning kalitlari boshqaruv apparatida, kalitli bog'liqlik bo'lмаганда esa, stansiya navbatchisida saqlanishi shart.

Bunday tartibni qo'llash ruxsat etilgan stansiyalarning strelkalar nomerlari qayd etilgan ro'yxati DATK mintaqaviy temir yo'l uzeli boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

(241-bandning 2-xatboshisi "O'zdavtemiro 'Inazorat" DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko'rsatmasiga muvofiq o'zgartirildi).

Bunday strelkalar holatini tekshirish tartibi stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatiladi.

242. Poezdn qabul qilish yoki jo'natish uchun marshrut tayyorligi to'g'risida xabar bergenlaridan so'ng, marshruti tayyorlangan poezd stansiyaga kelmasdan yoki jo'namesdan turib strelkali post navbatchilari, signalchilar va stansiya navbatchilarining boshqa xodimlarga navbatchilikni topshirishi taqiqlanadi. Poezd kelishi yoki jo'nashidan avval navbatchilar almashtirilgan taqdirda, yangitdan navbatchilikka kirishgan xodim marshrutni navbatchilikni topshirayotgan xodim o'rnatganiga qaramasdan, ushbu operatsiyaning to'g'ri bajarilganligiga shaxsan o'zi ishonch hosil qilishi shart.

243. Odatda yuk poezdlarini yo'lovchi poezd turgan yo'l bilan yo'lovchi binosi oralig'idagi yo'lida to'xtatish taqiqlanadi. Yuk poezdi yo'lovchi binosi va yo'lovchi poezdi oralig'idagi yo'lida to'xtatilgan favqulodda holatlarda yuk poezdi ajratilib, yo'lovchilar uchun o'tish joyi qilinishi kerak (o'tish ko'prigi yoki tonnelli mavjud bo'lmasa). Bunda tuzuvchi brigadalari bo'lмаган stansiyalarda DATK mintaqaviy temir yo'l uzeli boshlig'i tomonidan ushbu operatsiyalarni amalga oshirish uchun jalg etiladigan xodimlar ro'yxati ko'rsatilgan tartib belgilanadi.

(243-bandning 1-xatboshisi "O'zdavtemiro 'Inazorat" DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko'rsatmasiga muvofiq o'zgartirildi).

Yo'lovchi poezd turgan yo'l va yo'lovchi binosi oralig'idan poezdni, manyovr tarkibini yoki lokomotivni o'tkazish zarur bo'lsa, stansiya va vokzal navbatchilari yo'lovchilarning chiqish-tushish xavfsizligini ta'minlaydigan choralarini ko'rishi shart.

Yo'lovchi binosi va yo'lovchi poezdi turgan yo'l oralig'idan poezdlar va manyovr tarkiblarini o'tkazish tartibi stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktida ko'zda tutilishi lozim.

244. Qabul qilish-jo'natish yo'llarining elektr izolyatsiyasi bo'lмаган oralig stansiyalarning navbatchilari yo'lovchi, pochta-bagaj va odam tashuvchi poezdni qabul qilishdan oldin, uni qaysi yo'lga qabul qilinishini poezd dispetcheriga xabar qilishi shart.

245. Stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktida ko'zda tutilmagan yo'lida poezdni qabul qilish yoki jo'natish poezd dispetcherining ruxsatiga binoan favqulodda hollarda ruxsat etiladi. Bunday yo'llarga yo'lovchi, pochta-bagaj, yo'lovchi-yuk va odam tashuvchi poezdlarni qabul qilishga ruxsat berishdan oldin poezd dispetcheri o'z harakatlarini YaDM ning yo'nalish bo'yicha navbatchisi bilan muvofiqlashtirishi lozim. Bunday holatlarda stansiya navbatchisida marshrutdagi strelkalar holatini nazorat qilish imkonini beruvchi boshqaruv apparatlari mavjud bo'lmasa, yo'lovchi, pochta-bagaj, yo'lovchi-yuk va odam tashuvchi poezdlarni qabul qilish va jo'natish marshrutlaridagi strelkalarning o'rnatilanligi stansiya boshlig'i yoki uning o'rinnbosari, stansiya, post yoki park navbatchisi tomonidan tekshirilishi lozim.

Texnikaviy-boshqaruv aktida belgilanmagan yo'lga yo'lovchi poezdi qabul qilinganligi, shuningdek, yo'lovchi poezdning jadvalda ko'zda tutilmagan stansiyada to'xtatilganligi xaqida stansiya navbatchisi lokomotiv mashinistini radio aloqa orqali xabardor qilishi lozim.

Bir mashinist tomonidan xizmat ko'rsatiladigan yo'lovchi poezdini qabul qilish, jo'natishdan oldin, stansiya navbatchisi, markazlashtirilgan dispetcherlik bilan jihozlangan uchastkalarda esa – poezd dispetcheri, mashinistni marshrut tayyorligi va signallarning ochiqligi yoki poezdning majburiy ushlanib qolinishi zarurati to'g'risida xabarlashi kerak.

Mahalliy sharoitlardan va poezdlar harakati hajmlaridan kelib chiqib, stansiya navbatchisi bunday xabarni mashinistga o'z vaqtida etkaza olmaydigan stansiyalar ro'yxati va bunda poezdlar harakati xavfsizligini ta'minlash tartibi DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.

246. Markazlashtirilgan strelkali stansiyalarda elektr tortishli poezdlarni qabul qilish yoki jo'natishning variantli marshrutlaridan foydalanish zarurati tug'ilsa, stansiya navbatchisi bunday poezdning harakatlanish marshrutida kontakt tarmog'ining mavjud ekanligiga ishonch hosil qilishi shart.

POEZDLARNI QABUL QILISH

247. TFQning 238-bandiga muvofiq, poezdlar stansiyaga texnikaviy-boshqaruv akti bilan bu maqsadlar uchun mo'ljallangan bo'sh yo'llarga, faqat ochiq kirish signalida, yo'lovchi poezdlar esa, bundan tashqari, yo'l avtomatik lokomotiv signalizatsiyasi bilan jihozlangan yo'llarga qabul qilinishi lozim. Bunday qurilmalar bilan jihozlanmagan yo'llarga yo'lovchi poezdlarini, harakat xavfsizligini ta'minlab, qabul qilish tartibi DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.

TFQning 236-bandiga muvofiq, stansiya navbatchisi poezdlarni vaqtida qabul qilinishi uchun bo'sh yo'llar mavjud bo'lishini ta'minlashi shart. Poezdning berk kirish signali oldida zaruratsiz har bir to'xtashi uchun stansiya navbatchisi javobgardir.

Poezdlarni qabul qilish xavfsizligini ta'minlash uchun stansiya navbatchisi quyidagilarga amal qilishi shart:

- a) stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida belgilangan ixtisoslashishga muvofiq, poezdlarni harakat tarkibidan bo'sh yo'llarga qabul qilish;
- b) yo'llarni kelayotgan poezdlar bilan band etilish ketma-ketligini oldindan rejalashtirish va shunga muvofiq ravishda har bir poezdni tayyorlash uchun yo'lni tayyorlash;
- v) qabul qilish-jo'natish yo'llari holati (bo'sh yoki bandligi) hisobini yuritish (boshqaruv asboblarining ko'rsatmalari, ijro etilgan harakat grafigi bo'yicha va boshqa usullar bilan).

248. Markazlashtirilmagan strelkali stansiyalarda stansiya navbatchisi, strelkali postlar katta navbatchilarini va strelkali post navbatchilarini poezdlarni qabul qilishdan oldin marshrutni tayyorlashning quyidagi tartibiga rioya etishlari shart:

a) poezdni qabul qilish uchun bo'sh yo'l bo'lsa, stansiya navbatchisi qabul qilish marshrutiga kiruvchi barcha strelkali postlar katta navbatchilarini (kattalarning navbatchiligi tashkil etilmagan bo'lsa, strelkali post navbatchilarini) chaqirib, ularga marshrutni tayyorlash xaqida farmoyish beradi.

Stansiya navbatchisining ko'rsatmasiga binoan strelkali post navbatchilaridan biri, boshqalarning telefon oldida xozirligida ushbu farmoyishni takrorlaydi, boshqa barchalar esa uning to'g'riligini "**To'g'ri**" deb tasdiqlaydilar. Farmoyish to'g'ri tushunilganiga ishonch hosil qilib, stansiya navbatchisi uni "**Bajarilsin**" so'zi bilan tasdiqlaydi;

b) marshrutni tayyorlash xaqidagi farmoyishni qabul qilib, strelkali postlarning katta navbatchilarini uni ijro etish uchun darhol o'z hududidagi strelkali postlar navbatchilariga uzatishlari va to'g'ri qabul qilinganligiga ishonch hosil qilishlari shart.

Marshrutni tayyorlashda ishtirot etayotgan barcha xodimlar farmoyishni ijro etishga darhol kirishmoqlari lozim.

Agar marshrutni tayyorlashda ishtirot etayotgan post hududida manyovr ishlari amalga oshirilayotgan bo'lsa, darhol to'xtatilishi, manyovr tarkibi qabul qilinayottan poezd harakatiga halal bermaydigan yo'lda joylashtirilishi, bu xaqda stansiya navbatchisi mazkur Yo'riqnomanining 236-bandiga muvofiq stansiya texnikaviy-boshqaruv aktida ko'zda tutilgan tartibda ishonch hosil qilishi kerak.

Manyovrlar stansianing qarama-qarshi chetida amalga oshirilayotgan bo'lsa, tegishli strelkali post navbatchisi strelkalarni manyovr tarkibi qabul qilish yo'liga chiqib keta olmaydigan qilib o'rnatishi va ularni yopishi lozim.

Marshrutni tayyorlash mobaynida strelkali postlar navbatchilar stansiyada belgilangan tartibda qabul qilish yo'li bo'shligini tekshirishi, strelkalarni kerakli holatga o'tkazishi, marshrutga kiruvchi har bir strelkada ostryaklarning romli reoslarga jips tutashganini tekshirishi hamda ularni zakladka va nazorat strelka qulfi bilan berki'tishi lozim.

Hududlarda ishni strelkali post katta navbatchilar boshqarayotgan bo'lsa, ular o'z hududida strelkali post navbatchilar tomonidan marshrutni to'g'ri tayyorlanganini shaxsan tekshirishlari shart, yo'lning bo'shligi tekshirilganiga ishonch hosil qilib, yopilgan strelkalarning kalitlarini olib qo'yishlari lozim;

v) marshrutni tayyorlash bilan bog'liq barcha operatsiyalar yakunlanib, ularning to'g'ri bajarilganiga to'liq ishonch hosil qilganidan so'ng marshrutni tayyorlashga topshiriq olgan har bir strelkali post katta navbatchisi (yoki strelkali post navbatchisi) marshrutni tayyorligi va yo'lning bo'shligini xabar qilish uchun stansiya navbatchisini chaqiradi.

Marshrutni tayyorligi to'g'risidagi xabarni stansiya navbatchisi marshrutni tayyorlash topshirig'i berilgan barcha strelkali postlar navbatchilar telefonda hozirligida qabul qilishi shart. Ular marshrutning tayyorligi xususida navbatma-navbat xabar beradilar.

Belgilangan marshrutda strelkalar holatini nazorat qilishga imkon beruvchi boshqaruv apparatlari mavjud stansiyalarda stansiya navbatchisi marshrutni tayyorlash xaqidagi topshiriq to'g'ri bajarilganligiga asboblarning ko'rsatmalari bo'yicha ham ishonch hosil qiladi;

g) marshrutning to'g'ri tayyorlanganligi, yo'lning bo'shligi, marshrutga tutash yo'l va strelkalarda manyovrlar ushbu Yo'riqnomaning 236-bandiga muvofiq to'xtatilganiga ishonch hosil qilgandan so'ng, stansiya navbatchisi kirish svetoforini ochadi yoki signalni boshqarish amalga oshiriladigan strelkali post navbatchisiga uni ochish to'g'risida farmoyish beradi;

d) strelkali post navbatchilar tayyorlangan marshrutni muhofaza qilishlari va yondosh yo'llarda o'tish mavjudligini diqqat bilan kuzatishlari shart, signallari o'rnatilgan poezdlarni strelkali postlar navbatchilar stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatilgan joylarda kutib olishlari lozim;

e) poezdnинг harakati mobaynida strelkali post navbatchilar vagonlarning holatiga, ochiq harakat tarkibida yukning to'g'ri joylashganligiga, ko'zda tutilgan signallarning mavjudligiga va hakazolarga e'tibor qilishlari shart. Aniqlangan barcha me'yordan chetlashuvlar xususida darhol strelkali post katta navbatchisiga yoki stansiya navbatchisiga xabar qilishlari, harakat xavfsizligiga yoki odamlar hayotiga tahdid qiluvchi holatlarda esa, poezdni to'xtatish choralarini ko'rishlari shart.

Tarkibiga qabul qilish yo'lini chegaralovchi strelka kirgan strelkali post navbatchisi ortidagi signallarning mavjudligi bo'yicha poezdning to'liq tarkibda yetib kelganligiga ishonch hosil qilishi, uni chegara ustunchalari oralig'ida joylashganligini tekshirishi va bu xususda stansiya navbatchisiga xabar berishi shart.

Poezd kelganidan (o'tganidan) so'ng strelkali post navbatchilar, alohida farmoyishni kutmasdan strelkalarni normal holatga, yo'l band bo'lsa, bo'sh yo'l yo'nalishiga o'rnatishlari lozim.

Strelkali postning bir navbatchisi ikkita postga xizmat ko'rsatadigan stansiyalarda poezdlarni qabul qilish marshrutini tayyorlash, shuningdek, kelayotgan poezdlarni kutib olish tartibi stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida belgilanadi.

249. Kirish svetofori ochilib ulgurgan bo'lsa, stansiya navbatchisi qabul qilish marshrutini o'zgartirish xaqida ko'rsatma berish xuquqiga ega emas.

Poezdni boshqa bo'sh yo'lga qabul qilish uchun marshrutni o'zgartirish zarur bo'lган favqulodda hollarda stansiya navbatchisi kirish svetoforini yopishi, mashinistni ogohlantirishi, belgilangan marshrutni bekor qilishi va shundan so'nggina marshrutni tayyorlashga yangi topshiriqni belgilangan tartibda berishi shart.

250. Stansiyaga ketma-ket bir nechta poezdni qabul qilish zarur bo'lsa, ulardan biri uchun marshrut tayyorligi xaqidagi xabarni olgan stansiya navbatchisi keyingi poezd uchun marshrutni tayyorlash to'g'risida strelkali postlar navbatchilariga ko'rsatma berishiga ruxsat etiladi. Bunday holatlarda birinchi poezd to'liq tarkibda yetib kelib, kirish svetofori yopilgandan so'ng, darhol ikkinchi poezdni qabul qilish marshruti tayyorlanadi. Birinchi poezd marshrutiga kirmaydigan strelkalar avvaldan o'rnatilib, yopilishi mumkin.

Ikkinci poezdning marshruti tayyor ekanligi to'g'risida xabar stansiya navbatchisiga birinchi poezdning kelganligi xaqidagi ma'lumot bilan bir paytda uzatiladi.

251. Poezdni qabul qilishdan avval yo'lning bo'shligini tekshirish tartibi stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktida belgilanadi. Bunda quyidagi tekshirish usullari qo'llanishi mumkin:

qabul qilish-jo'natish yo'llari elektr izolyatsiya bilan jihozlangan stansiyalarda boshqaruv apparatlardagi nazorat asboblari bo'yicha;

yo'lning ma'lum qismi bo'shligini texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatilgan stansiya xodimining (bir yoki bir nechta, ularning ishlash hududlariga bog'liq) tekshirilayotgan hudud yaxshi ko'rindigan joygacha borib kelish usuli bilan aniqlanadi;

sutkaning qorong'i vaqtida va kunduzi ko'rinish yomon bo'lganda - strelkali post navbatchisi yoki shu maqsadda maxsus ajratilgan xodim qabul qilish yo'lini boshdan oyoq yurib o'tish usuli bilan;

stansiyadan to'xtamasdan o'tadigan poezdlarning ortidagi signali bo'yicha (yo'lning butun qismi yaxshi ko'rindib turganda).

Zarur holatlarda stansiya navbatchisining farmoyishi bilan bir yoki bir necha yo'llarning bo'shligi oldindan tekshirilishi mumkin. Bunda poezdni qabul qilish marshruti tayyorlangandan so'ng, olib qo'yiladigan, ko'chiriladigan qizil signallar bilan har bir tekshirilgan yo'lni ikkala tomonidan to'sish usuli qo'llanadi.

Texnikaviy qurilmalar, ish sharoitlari va yo'llarning joylashuviga bog'liq ravishda tekshiruvning boshqa usullari ham qo'llanishi mumkin, ammo bu holda belgilangan tartibga aniq rioya qilish bilan poezdni band yo'lga qabul qilinishi istisno qilinishi kerak.

252. Stansiyaga qabul qilish yo'lining foydali uzunligiga joylashmaydigan poezd kelayotgan bo'lsa, stansiya navbatchisi radio aloqa orqali ushbu poezd mashinistiga qabul qilish yo'lining chiqish (marshrut) svetoforidagi oydin-oq chiroq bo'yicha qizil chiroq'i o'chgan holatda to'xtamasdan (komanda yoki to'xtash signalini olgunicha) o'tishga ruxsat berishi mumkin.

Kelayotgan poezdning mashinisti bunday ruxsatni olmasa, chiqish (marshrut) svetoforining oydin-oq chiroq'ida, ushbu svetofordan o'tmasdan to'xtashi lozim.

Chiqish svetoforining ruxsat ko'rsatmasi bo'yicha jo'natish uchun ushbu poezdni zarur hollarda tisarish signal bo'yicha yoki stansiya navbatchisi tisarish marshrutini avvaldan tayyorlagandan so'ng, radio aloqa orqali mashinistga uzatadigan ko'rsatma bo'yicha amalgaloshiriladi.

253. 1 klassli xavfli yuk (VM)li va nogabarit yukli poezdlar stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatilgan yo'llarga qabul qilinishi lozim.

Nogabarit va 1 klassli xavfli yuk (VM)lar ortilgan poezdlarni qabul qilish va jo'natishda rioya etilishi lozim bo'lgan xavfsizlik choraları DATK ning maxsus yo'riqnomalari bilan belgilanadi.

POEZDLARNI JO'NATISH

254. TFQning 249-bandiga muvofiq, stansiya navbatchisiga, markazlashtirilgan dispetcherlik bilan jihozlangan uchastkalarda esa poezd dispetcheriga poezd jo'natish marshruti tayyorligi, strelkalar yopiqligi, jo'natish marshruti strelkalarida manyovrlar to'xtatilgani, tarkibning tijorat ko'rige va texnik xizmatdan o'tganiga ishonch hosil qilmasdan chiqish svetoforlarini ochish yoki peregonni egallahga boshqa ruxsat berishi taqiplanadi. Poezdlarni ularni tuzish stansiyalaridan, poezd tarkibiga vagonlar ulangan yoki uzilgan stansiyalardan yoki poezd oxirgi qismini belgilovchi signal disklarini almashtirish ko'zda utilgan stansiyalardan jo'natilishida stansiya navbatchisi chiqish svetoforni ochishdan yoki lokomotiv, maxsus o'zi yurar tarkib mashinistiga peregonni egallahga ruxsatnoma berishdan avval so'nggi vagonda poezd signaling mavjudligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Lokomotiv yo'lovchi poezd uchun berilganda yoki lokomotiv brigadasi almashganda depo (brigadalar almashish punkti) bo'yicha navbatchi stansiya navbatchisiga lokomotivga bir mashinist xizmat ko'rsatayotgani xaqida lokomotiv raqami, mashinist familyasi va uning ishga kelgan vaqtini qo'shib xabar qiladi.

Stansiya navbatchisi ushbu ma'lumotlarni poezdlar harakati jurnaliga kiritadi va ularni poezd dispetcheriga xabar qiladi.

Poezd dispetcheri ushbu xabarni qabul qilgach, o'z uchastkasi stansiyasiga qayd etiluvchi buyruq uzatadi va ketib borish marshrutidagi qo'shni uchastka poezd dispetcheriga quyidagi shaklda xabar beradi:

"_____ stansiyasidan jo'natilayotgan № _____ poezdga bir mashinist tomonidan xizmat ko'rsatilmoqda. Xavfsiz o'tishini ta'minlang. DNS _____".

Stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida ushbu poezdlarning qabul qilish va o'tkazish yo'llari ko'rsatiladi.

Markazlashtirilmagan strelkali stansiyalarda poezdlarni jo'natishda stansiya navbatchisi, strelkali postlarning katta navbatchilarini va strelkali postlar navbatchilarini marshrutlarni tayyorlashning quyidagi tartibiga rioya qilishlari shart.

Stansiya navbatchisi jo'natish marshrutiga kiruvchi barcha strelkali postlar katta navbatchilarini (kattalarining navbatchiligi tashkil etilmagan bo'lsa, strelkali post navbatchilarini) chaqirib, ularga marshrutni tayyorlash xaqida farmoyish beradi.

Stansiya navbatchisining ko'rsatmasiga binoan strelkali post navbatchilaridan biri, boshqalarining telefon oldida hozirligida ushbu farmoyishni takrorlaydi, boshqa barchalar esa uning to'g'riligini "To'g'ri" deb tasdiqlaydilar. Farmoyish to'g'ri tushunilganiga ishonch hosil qilib, stansiya navbatchisi uni "Bajarilsin" so'zi bilan tasdiqlaydi.

Marshrutni tayyorlash xaqidagi farmoyishni qabul qilib, strelkali postlarning katta navbatchilarini uni ijro etish uchun darhol o'z hududidagi strelkali postlar navbatchilariga uzatishlari va to'g'ri qabul qilinganligiga ishonch hosil qilishlari shart.

Jo'natish marshrutini tayyorlash va stansiya navbatchisiga marshrutning tayyorligini xabar qilish bilan bog'liq barcha operatsiyalar qabul qilish marshruti uchun belgilangan tartibdagi kabi amalga oshiriladi.

Stansiya navbatchisi jo'natish marshruti to'g'ri tayyorlanganligiga ishonch hosil qilib, peregon bo'shligida va zarur holatlarda qo'shni stansiya navbatchisining roziligin olib, chiqish svetoforini ochadi yoki mashinistga peregonni egallah uchun boshqa usul (radio aloqa orqali buyruq, yozma ruxsatnoma yoki jezl) bilan ruxsat beradi.

Signali o'nataligan poezdlarni stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida ko'zda utilgan joylarida strelkali post navbatchilarini poezdlarni qabul qilishdagi kabi tartibda jo'nashini kuzatishlari shart. Tarkibiga marshrutning oxirgi chiqish strelkasi kirgan strelkali

post navbatchisi poezdni kuzatib, oxirgi vagonda signallar mavjudligiga ishonch hosil qilgandan so'ng, stansiya navbatchisiga poezd to'liq tarkibda jo'natilganligini xabar qiladi.

Poezd jo'natilgandan so'ng strelkalar normal holatga, yo'l band bo'lsa, bo'sh yo'l yo'nalishida o'rnatiladi.

255. Poezdni jo'natish uchun chiqish svetofori ochilgandan so'ng stansiya navbatchisi marshrutni o'zgartirish va boshqa poezdni jo'natish uchun marshrut tayyorlash xaqida ko'rsatma berish xuquqiga ega emas.

Bunday harakat favqulodda holatlarda chiqish svetofori yopilib, chiqish signali ochilgan poezd lokomotivining mashinisti ogoshlantirilganida va belgilangan marshrut bekor qilinganidan so'ng amalga oshirilishi mumkin.

256. Stansiyadan bir yo'nalishda harakatlanuvchi bir necha poezd ketma-ket jo'natilganda stansiya navbatchisiga, poezdlardan biri uchun marshrut tayyorligi to'g'risidagi xabarni qabul qilganidan so'ng strelkali postlar navbatchilariga keyingi poezd uchun marshrutni tayyorlash xaqida ko'rsatma berishga ruxsat etiladi. Bunday holatda birinchi poezd to'liq tarkibda jo'natilgandan so'ng darhol ikkinchisini jo'natish uchun marshrut tayyorlanadi. Birinchi poezd marshrutiga kirmaydigan strelkalar oldindan o'rnatilishi va yopilishi mumkin. Ikkinchi poezdga marshrut tayyorligi xaqidagi xabar stansiya navbatchisiga birinchi poezd jo'natilganligi to'g'risidagi ma'lumot bilan bir paytda uzatiladi.

257. Qarama-qarshi yo'nalishdagi poezdlar yo'li kesishgan hollarda poezdni qabul qilish marshruti tayyorligi to'g'risidagi xabarni olgan stansiya navbatchisiga qarama-qarshi yo'nalishdagi poezd marshrutini (poezd kelganidan so'ng) tayyorlash to'g'risida strelkali postlar navbatchilariga ko'rsatma berishga ruxsat etiladi. Bunday holatda poezd to'liq tarkibda yetib kelganidan so'ng qarama-qarshi yo'nalishda jo'naydigan poezd uchun marshrut tayyorlanadi. Kelayotgan poezd marshrutiga kirmaydigan strelkalar oldindan o'rnatilib, yopilishi mumkin. Jo'natish marshruti tayyorligi xaqida xabar stansiya navbatchisiga poezd kelganligi to'g'risidagi ma'lumot bilan bir paytda uzatiladi.

258. Faqat poezd qabul qilinganida strelkalar holatini nazorat qilinishini ta'minlaydigan marshrut-nazorat qurilmalari mavjud stansiyalarda ushbu qurilmalar imkonи boricha jo'natish marshrutlarida ham strelkalar holatini nazorat qilish uchun qo'llanilishi lozim. Bunday holatlarda stansiya navbatchisi strelkali postlarga jo'natish marshrutini tayyorlash xususidagi farmoyishni uzatgandan va farmoyish ijro etilgandan so'ng tayyor marshrutda blok-ochkolar va marshrut dastaklar bo'yicha strelkalar to'g'ri o'rnatilganligini poezdni ushbu yo'lga qabul qilinishi uchun tekshiradi.

Marshrut-nazorat qurilmalari imkonи boricha noto'g'ri yo'ldan harakatlanayotgan poezdlarni qabul qilishda ham (teskari marshrutlarni blokirovka qilish bilan) strelkalar to'g'ri o'rnatilganligini nazorat qilish uchun qo'llanishi lozim.

259. Poезд stansiya yo'llaridan chiqish svetoforining taqiq ko'rsatmasida, shuningdek, chiqish svetofori bo'limgan yo'llardan jo'natilganda peregonni egallash uchun yozma ruxsatnomaga ega yetakchi lokomotiv mashinistiga: stansiya navbatchisining radio aloqa orqali uzatgan ko'rsatmasi; stansiya navbatchisi tomonidan yoki uning ko'rsatmasi bo'yicha post, park navbatchisi, markazlashtirish posti operatori, strelkali post navbatchisi yoki bosh konduktor (poezd tuzuvchisi) tomonidan berilgan jo'nash signalisiz poezdni harakatga keltirish taqiqlanadi. Jo'nash signalini berish tartibi stansiyaning texnikaviy-boshqaruв aktida ko'rsatiladi.

Marshrutni tayyor ekanligiga belgilangan tartibda ishonch hosil qilmasdan turib, stansiya navbatchisiga poezdni jo'nashi uchun mashinistga radio aloqa orqali qayd etiluvchi buyruq berish yoki poezd jo'nashiga yozma ruxsatnomasi taqdim etish taqiqlanadi.

Stansiya navbatchisi (stansiya xodimi) mashinistga yozma ruxsatnoma taqdim etilganidan so'ng unga radio aloqa orqali jo'nash to'g'risida ko'rsatma uzatishi (jo'nash signali berishi) lozim.

Chiqish svetoforida taklif chirog'i yonganidan yoki radio aloqa orqali qayd etiluvchi buyruq berilganidan so'ng stansiya navbatchisining poezdni jo'nashi uchun qo'shimcha ko'rsatma va signal berishi talab qilinmaydi.

Poezd yo'l xati (qog'ozi) yoki diagonali bo'ylab bir yoki ikki qizil tasmali oq rangli blankadagi ruxsatnoma (muvofig ravishda DU-50, DU-64, DU-56 shakllaridagi blanklar) bo'yicha jo'natilganida jo'natish marshrutini tutashtirish uchun stansiya navbatchisi chiqish svetoforida ruxsat ko'rsatmasini ochishi mumkin. Bunday holatda chiqish svetoforini ochishdan avval stansiya navbatchisi radio aloqa orqali yoki boshqa usul bilan mashinistda peregonni egallah uchun yozma ruxsatnoma borligiga ishonch hosil qilishi lozim.

260. Strelkalari markazlashtirilmagan stansiyadan poezd to'xtamasdan to'g'ri o'tkazilganida stansiya navbatchisi va strelkali post navbatchilar poezdni qabul qilish va jo'natishda belgilangani kabi marshrurlarni tayyorlash va ularning tayyorligi xaqida xabar berish tartibiga rioya qilishlari shart.

Bunday holatda marshrutni tayyorlash va uni tayyorligi xaqida xabar berish paytida poezdni harakat marshrutiga kiruvchi barcha strelkali postlar katta navbatchilar (kattalari tayinlanmagan bo'lsa, navbatchilar) telefonda hozir bo'ladilar.

261. Jadal harakatli uchastkalarda stansiyadan bir yo'nalishda harakatlanayotgan bir necha poezd bir marshrut bo'ylab qisqa vaqt oralig'ida o'tganda, bиринчи poezdni o'tishi uchun marshrut tayyorligi to'g'risida xabarni olgan stansiya navbatchisi ushbu marshrutga kiradigan strelkalarni o'tkazishni taqiqlash va ularni yopish xaqida ko'rsatma beradi.

Bunday holatda strelkali post navbatchilariga bиринчи poezd o'tganidan so'ng harakat marshrutiga kiradigan strelkalarni o'tkazish taqiqilanadi. Har bir keyingi poezdga kirish va chiqish svetoforini ochilishi to'g'risida stansiya navbatchisi strelkali post navbatchilarini xabardor qilishi, ular esa poezdlarni belgilangan tartibda kutib olishlari va kuzatib qo'yishlari shart.

Qabul qilish yo'lining bo'shligiga stansiya navbatchisi shaxsan yoki poezd ortidagi signallari bilan to'liq tarkibda yetib kelganligi va jo'naganligini xabar qiluvchi kirish va chiqishdagi strelkali post navbatchilarining xabari orqali ishonch hosil qiladi.

262. Avtomatik blokirovka bilan jihozlangan uchastkalarda poezdlarni stansiya orqali to'xtamasdan to'g'ri o'tishi uchun kirish, chiqish va marshrut svetoforlari avtomatik ishlashga o'tkazilganda ularning ruxsat ko'rsatmasi normal hisoblanadi. Kirish, marshrut va chiqish svetoforlari avtomatik ishga o'tkazilganligi xaqida stansiya navbatchisi markazlashtirish ijro posti operatorlarini, signalchilarni va strelkali postlar navbatchilarini xabardor qilishi lozim. Bunday holatda ushbu xodimlar stansiya navbatchisining alohida ko'rsatmasini kutmasdan har bir poezdni belgilangan joyda kutib olishlari va kuzatib qo'yishlari shart va barcha aniqlangan me'yordan chetlashuvlar xaqida darhol stansiya navbatchisiga xabar qilishlari, harakat xavfsizligi yoki odamlar xayotiga xavf soluvchi nosozliklar aniqlanganda esa poezdni to'xtatish choralarini ko'rishlari lozim.

263. Vagonlar qolayotgan yo'ldan poezd jo'natilayotgan har bir holatda poezd tarkibi va ushbu vagonlar orasida kamida 5 m masofa qoldirilishi lozim. Joyida qolayotgan vagonlar ketib qolishini oldini olib ishonchli mahkamlanishi kerak.

Bu operatsiyalarni bajarish tartibi stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatiladi.

KIRISH SVETOFORINING TAQIQ KO'RSATMASIDA POEZDLARNI STANSIYAGA QABUL QILISH

264. TFQning 240-bandiga muvofiq, kirish svetoforining asosiy chiroqlari o'chgan vaqtida yoki taqiq ko'rsatkichida poezdni stansiyaga qabul qilish man etiladi. Kirish svetoforining asosiy chiroqlari o'chgan vaqtida yoki taqiqlovchi ko'rsatgichida poezdni stansiyaga qabul qilish poezdlar harakati va manyovr ishlari bo'yicha Yo'riqnomada ko'zda tutilgan tartibga ko'ra va alohida holatlardagina taklif signali, stansiya navbatchisining maxsus ruxsatnomasi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Taklif signali yoki stansiya navbatchisining maxsus ruxsatnomasi bilan stansiyaga qabul qilinayotgan poezdning harakat tezligi 20 km/soat dan oshmasligi kerak, bunda mashinist poezdni e'tiborlik bilan haydashi va harakat qilishga to'siq paydo bo'lsa, darhol to'xtashga shay turishi kerak.

Kirish (marshrut) svetoforining taqiq ko'rsatmasida poezdni stansiyaga quyidagi holatlarda qabul qilishga ruxsat etiladi:

- a) nosozligi sababli kirish svetoforini ochishni iloji bo'lmasa;
- b) poezd stansiyaga texnikaviy-boshqaruv aktida ko'zda tutilmagan yo'lga qabul qilinayotgan bo'lib, kirish svetoforini ochishni imkon bo'lmasa;
- v) yo'lning ma'lum qismlariga suruvchi lokomotivlar, stansiya hududida joylashgan depoga ketayotgan lokomotivlar, depodan poezd tarkiblariga qarab ketayotgan lokomotivlar qabul qilinganida;
- g) stansiya yo'llarining bo'sh uchastkalariga (yo'lovchi poezdlar band etgan yo'llar bundan istisno) tiklash va o't o'chirish poezdlari, yordamchi lokomotivlar, vagonsiz lokomotivlar, qor tozalagichlar, maxsus o'zi yurar harakat tarkibi, shuningdek, xo'jalik poezdlari (peregon yopilib ishlar bajarilganda) qabul qilinganida.

265. Kirish (marshrut) svetoforining taqiq ko'rsatmasida poezdlar stansiyaga quyidagilarga asosan qabul qilinadi:

- a) mashinistga radio aloqa orqali uzatiladigan stansiya navbatchisining qayd etiluvchi buyrug'i bo'yicha;
- b) kirish svetofori yonida o'rnatilgan maxsus telefon orqali uzatiladigan stansiya navbatchisining qayd etiluvchi buyrug'i bo'yicha;
- v) taklif signali bo'yicha;
- g) stansiya navbatchisining yozma ruxsatnomasi bo'yicha;
- d) poezd dispatcherining qayd etiluvchi buyrug'i bo'yicha (markazlashtirilgan dispatcherlikda);
- e) kirish svetoforining machtasida o'rnatilgan maxsus manyovr svetoforining ko'rsatmasi bo'yicha.

Kirish svetoforining taqiq ko'rsatmasida (yoki kirish svetofori bo'limganda) noto'g'ri yo'ldan harakatlanayotgan poezdlar ham stansiyaga xuddi shu tartibda qabul qilinadi. Kirish (marshrut) svetofori to'satdan taqiq ko'rsatmasiga o'tganida buni ilg'agan mashinist poezdni kirish svetoforidan o'tilgandan so'ng to'xtatganida ham mazkur ruxsatlar qo'llanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan ruxsatnomalardan istalgan biri faqat stansiya navbatchisi qabul qilish marshruti tayyorligiga ishonch hosil qilganidan so'nggina mashinistga uzatilishi mumkin.

Kirish svetoforining taqiq ko'rsatmasida poezdni stansiyaga qabul qilish to'g'risida mashinistga uzatiladigan buyruqlar ushbu Yo'riqnomaning umumiy qoidalari 8-bandida belgilangan tartibda qayd etiladi.

Kirish (marshrut) svetoforining taqiq ko'rsatmasida va noto'g'ri yo'l bo'ylab poezdlarni stansiyaga qabul qilishda xodimlarning harakat tartibi stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatiladi.

266. Kirish (marshrut) svetoforida (qabul qilish parki yoki yo'lining) marshrut ko'rsatkichini yoqishning imkonini bo'lmasa, poezd stansiyaga kirish (marshrut) svetoforining taqiq ko'rsatmasida, mashinistga nosoz marshrut ko'rsatkichidan o'tish uchun qo'shimcha ruxsatnomalar bermasdan qabul qilinadi. Bunday holatlarla mashinist stansiyaga o'ta ehtiyyotkorlik bilan harakatlanishi lozim.

O'zgaruvchan va doimiy tokdagi elektr tortishlar tutashgan, shuningdek, yo'l kengligi turlicha bo'lган yo'llar birikkan stansiyalarda nosoz kirish (marshrut) svetoforidan o'tish tartibi DATK boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlanadigan yo'riqnomalarda belgilanadi.

267. Kirish svetoforining taqiq ko'rsatmasida poezdni qabul qilish to'g'risidagi stansiya navbatchisining radio aloqa orqali qayd etiluvchi buyrug'i quyidagi shaklda uzatiladi:

"Buyruq № _____. Vaqt: soat, minut".
"№ _____. poezdnинг mashinisti. Men, _____ stansiyasining navbatchisi _____ yo'l bo'ylab kirish svetoforining taqiq ko'rsatmasida harakatlanishga ruxsat beraman. qabul qilish marshruti tayyor. DSP _____ (familiya)".

Poezd noto'g'ri yo'ldan harakatlanib, ushbu yo'lda kirish svetofori bo'limganda qayd etiluvchi buyruq quyidagi shaklda uzatiladi:

"Buyruq № _____. Vaqt: soat, minut".
"№ _____. poezdnинг mashinisti. Men, _____ stansiyasining navbatchisi _____ noto'g'ri yo'ldan _____ yo'l bo'ylab harakatlanishga ruxsat beraman. qabul qilish marshruti tayyor. DSP _____ (familiya)".

Buyruqni takrorlab va uni to'g'ri tushunilgani xususida stansiya navbatchisidan tasdiq olganidan so'ng, mashinist poezdni stansiyaga kiritadi.

Kirish svetoforining taqiq ko'rsatmasida poezdni stansiyaga harakatlanishi to'g'risidagi stansiya navbatchisining mashinistga buyrug'i kirish svetofori ("Stansiya chegarasi" signal belgisi) yonida o'rnatilgan maxsus telefon orqali ham xuddi shu kabi shakllarda uzatiladi. Bunday telefonlardan faqat lokomotiv brigadalari foydalanishi mumkin.

Odatda, radio aloqa orqali buyruq mashinistga oldindan, poezd stansiyaga yaqinlashganda uzatiladi. Maxsus telefon orqali buyruq mashinistga poezd kirish svetofori ("Stansiya chegarasi" signal belgisi) oldida to'xtaganidan so'ng uzatiladi.

268. Markazlashtirilgan dispatcherlik uchastkalarida kirish svetoforining taqiq ko'rsatmasida poezd stansiyaga ushbu Yo'riqnomaning 66-bandida ko'zda tutilgan tartib bo'yicha qabul qilinadi.

269. Kirish svetoforining taqiq ko'rsatmasida stansiya navbatchisining yozma ruxsatnomasi bo'yicha poezd stansiyaga faqat favqulodda holatlarda, bu maqsad uchun ushbu Yo'riqnomaning 265-bandida ko'zda tutilgan ruxsatnomalarining boshqa shakllaridan foydalanish imkonini bo'limganda qabul qilinadi. Yozma ruxsatnomalar quyidagi shaklda to'ldiriladi:

"№ _____. poezdnинг mashinistiga stansiyaning _____ yo'liga harakatlanishga ruxsat beriladi. Qabul qilish marshruti tayyor. DSP (imzo)".

Ruxsatnomalar to'ldirilgan kun, oy, vaqt (soat, minut) ko'rsatilib, stansiyaning shtempeli va stansiya navbatchisining imzosi bilan tasdiqlanadi.

Kelayotgan poezd mashinistiga yozma ruxsatnomani taqdim etish uchun stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktida ko'zda tutilgan tartibda strelkali postlar navbatchilar, signalchilar, markazlashtirilgan postlar operatorlari, tuzuvchi brigada ishchilari va boshqa xodimlar jalg' etilishi mumkin.

270. Mashinistga yozma ruxsatnomani taqdim etish uchun tayinlangan xodimlar poezdning kirish (marshrut) svetofori, noto'g'ri yo'l bo'ylab esa (ushbu yo'lda kirish svetofori bo'lmasganda), "Stansiya chegarasi" signal belgisi oldida, kirib kelayotgan poezd to'monga kunduzi yoyilgan qizil bayroqni, kechasi esa qo'l signal fonaarning qizil chirog'ini ko'rsatib kutib oladilar. Poezd to'xtagandan so'ng yozma ruxsatnomasi mashinistga taqdim etiladi.

271. Stansiya yo'llarining bo'sh uchastkalariga (yo'lovchi, odamlar tashiydigan va 1-klassli xavfli yuk (VM) ortilgan poezdlar band etganlaridan istisno) tiklash, o't o'chirish poezdlari, yordamchi lokomotivlar, vagonsiz lokomotivlar, qor tozalagichlar, maxsus o'zi yurar harakat tarkibi, shuningdek, xo'jalik poezdlari (peregonni berkitilishi bilan ishlar amalga oshirilganda) zarur holatlarda faqat kirish signalingning taqiq ko'rsatmasida, ushbu Yo'riqnomanining 265-bandida ko'rsatilgan ruxsatnomalar bo'yicha qabul qilinadi. Bunda lokomotiv (maxsus o'zi yurar harakat tarkibi) mashinistlari stansiyaga qabul qilish to'g'risidagi ruxsatnomasi uzatilishi (jumladan, kirish svetoforida taklif chirog'i yonishidan avval) bilan bir paytda to'xtash zarur bo'lgan joy xaqida ogoshlanirishi lozim.

Bunday holatda kirish svetoforining taqiq ko'rsatmasida stansiyaga harakatlanayotgan lokomotiv mashinistlari (maxsus o'zi yurar harakat tarkibi haydovchilari) xabarda ko'rsatilgan joyda to'xtashlari, so'ngra signallar yoki stansiya navbatchisining, markazlashtirish posti operatorining, strelkali post navbatchisining yoki signalchining ko'rsatmalariga binoan harakatlanishlari lozim.

272. Texnikaviy foydalanish qoidalaring 238-bandiga muvofiq ishlab chiqiladigan stansiya yo'llariiing ma'lum uchastkalariga suruvchi lokomotivlar, stansiyada joylashgan depoga yoki qo'shni stansiyada joylashgan depadan poezdlar tarkibiga qarab harakatlanayotgan lokomotivlarni qabul qilish tartibi, ularni stansiya chegarasidan belgilangan joygacha - manyovr svetoforigacha yoki "Suruvchi lokomotivning to'xtash joyi", "Poezd tarkibiga harakatlanayotgan lokomotivning to'xtash joyi", "Depoga qarab harakatlanayotgan lokomotiv (motorwagon poezd)ning to'xtash joyi" maxsus ko'rsatkichgacha harakatlanishini, shuningdek, ushbu lokomotivlarni stansiya yo'llari bo'ylab keyingi harakatlanish tartibini ko'zda tutishi lozim.

Ushbu harakatchan birliklarni stansiyaga kirishi uchun maxsus manyovr signalingning ruxsat ko'rsatmasida yoki kirish svetoforining taqiq ko'rsatmasida poezdni stansiyaga qabul qilish uchun ushbu Yo'riqnomanining 265-bandida ko'zda tutilgan ruxsatnomalardan biri xizmat qilishi mumkin. Belgilangan tartib stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatiladi va depoga kelayotgan barcha suruvchi lokomotivlar va lokomotiv (motorwagon poezdlar) mashinistlariga e'lon qilinadi.

10-bob. POEZD DISPETCHERINING ISHI

273. TFQ ning 233-bandiga muvofiq, uchastkada poezdlarning harakatiga faqat bir xodim – xizmat ko'rsatayotgan uchastkasida poezdlar harakati grafigining bajarilishiga javobgar poezd dispetcheri rahbarlik qilishi shart.

Poezd dispetcherining buyruqlari, faoliyati uchastkada poezdlar harakati bilan bevosita bog'liq xodimlar tomonidan bajarilishi shart.

Poezd dispetcheridan tashqari, uchastkada poezdlar harakati to'g'risida tezkor ko'rsatmalar berish taqiqlanadi.

Poezd dispetcheri quyidagilarga amal qilishi shart:

- a) harakatning belgilangan hajmini ta'minlash, poezdlar harakatini jadallashtirish, ularni stansiyalarda ishlanish vaqtini qisqartirish uchun texnika vositalaridan maksimal ravishda foydalanishi, vagon parkidan, lokomotivlardan va o'tkazish qobiliyatidan imkonи boricha samarali foydalanishi;
- b) stansiyalar faoliyatini nazorat qilishi, harakat grafigi va poezdlarni tuzish rejalariga muvofiq poezdlarni tuzish va jo'natish bo'yicha topshiriqlar bajarilishi choralarini ko'rishi;
- v) stansiya navbatchilariga, zarurat tug'ilganda poezdlar lokomotivlari mashinistlariga ham poezdlar harakati to'g'risida ko'rsatmalarini o'z vaqtida berishi;
- g) poezdlarni peregonlarda harakatlanishini, stansiyalar tomonidan poezdlar o'z vaqtida qabul qilinishi, jo'natilishi va o'tkazilishi, ayniqsa, SSB va aloqa qurilmalarining normal ishi buzilganda, yo'lovchi, pochta-bagaj, yuk-yo'lovchi, odamlar tashiydigan, og'irligi va uzunligi orttirilgan, uzun tarkibli, og'ir yukli, 1 klassli xavfli yuklar (VM) va nogabarit yukli poezdlar boshqa poezdlar bilan kesishganda va o'zib o'tganda kuzatib borishi;
- d) harakat grafigini bajarilishi, xavfsizlikni ta'minlash, lokomotiv brigadalarining belgilangan to'xtovsiz ishslash davri buzilmasligi uchun choralar ko'rishi.

Stansiya navbatchilari navbatchiligi bekor qilingan dispetcherlik markazlashtirish bilan jihozlangan hamda kam faoliyatli uchastkalarda, bir mashinist bilan xizmat ko'rsatiladigan poezdlar harakati tartibi va bunday uchastkalarning ro'yxati DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.

Dispetcherlik markazlashtirish bilan jihozlanmagan, poezdlar o'ta jadal va jadal harakatlanadigan uchastkalarda poezdning bir mashinist bilan boshqarilishiga stansiya bo'yicha navbatchilar mayjud bo'lgan hollarda yo'l qo'yiladi.

274. Navbatchilikka kirishgan poezd dispetcheri poezdlar holati bilan tanishishi, barcha stansiya navbatchilarining navbatchilikka kirishganligini tekshirishi, soatlarni sozlash uchun ularga aniq vaqtini aytishi, stansiyalardagi holat, uchastkada amal qilayotgan ogohlantirishlar bilan tanishishi, sharoitdan kelib chiqib stansiyalarga kelgusidagi ishlar, jumladan, harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar berishi lozim.

Markazlashtirilgan dispetcherlik bilan jihozlangan yo'llarda navbatchilikka kirishayotgan poezd dispetcheri texnik qurilmalarning sozligini tekshirishi va stansiya boshliqlari yoki poezdlarni qabul qilish va jo'natish yuklatilgan boshqa xodimlar orqali stansiya uchastkalaridagi holat bilan tanishishi shart.

275. Ijro etilgan harakat grafigini avtomatik yozib boradigan qurilmalar (poezdograflar) bilan jihozlanmagan uchastkalarda poezd dispetcheri uchastkada joylashgan stansiyalardan har bir poezdning kelgan, jo'nagan yoki o'tgan vaqtini to'g'risida ma'lumot olishi shart. Bunday ma'lumotlarni olganda stansiyalar tomonidan poezdlarni, ayniqsa, 1 klassli xavfli (VM) yukli va nogabarit yukli, og'ir yukli va uzun tarkibli, uzunligi va og'irligi orttirilgan poezdlarni belgilangan tartibda nomerlanishi va indekslanishiga alohida e'tibor berishi kerak.

Jadal harakatli, shuningdek, ijro etilgan harakat grafigini avtomatik yozib boradigan qurilmalar (poezdograflar) bilan jihozlangan uchastkalarda ma'lumotlarni uzatish tartibi ushbu Yo'riqnomaning umumiyligini qoidalari 11-bandiga muvofiq DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.

276. Poezd dispetcheri ijro etilgan harakat grafigini yuritib, unda poezdlar harakati, shuningdek, uchastkadagi normal faoliyatning buzilishining barcha holatlari va ularning sabablarini qayd etib boradi.

Ijro etilgan harakat grafigida quyidagilar qayd etiladi:

- a) poezdlar va poezd lokomotivlarining nomerlari, mashinistlarning familiyalari, poezdlarning og'irligi va shartli uzunligi, o'tkazishning alohida sharoitlarini talab qiluvchi

poezdlar. Tegishli harf va indekslar qo'shilgan poezd nomerlari ijro etilgan harakat grafigida ushbu harf va indekslar bilan qayd etiladi;

- b) uchastka stansiyalari bo'y lab poezdlarning jo'nash, kelish va o'tish vaqtleri;
- v) lokomotivlardan foydalanish xaqidagi ma'lumotlar;
- g) sutkaning belgilangan davrlarida stansiyalarining poezd va yuk ishi xaqidagi ma'lumotlar;
- d) oraliq stansiyalarda qabul qilish-jo'natish yo'llarining alohida vagonlar yoki tarkiblar bilan band etilishi;
- e) uchastka va peregon stansiyalarining asosiy va qabul qilish-jo'natish yo'llari kontakt tarmog'ida kuchlanishning o'chirilishi;
- j) tezlikni pasaytirishni talab etadigan amaldagi ogohlantirishlar;
- z) poezdlarning noto'g'ri yo'l bo'y lab harakati;
- i) harakatni ta'minlovchi peregonlar, yo'llar va boshqa qurilmalarning yopilishi.

Poezdlar jadal harakatlanadigan ayrim uchastkalarda poezdlar harakati va yuk ishiga taaluqli, poezd dispetcheri uchun zarur ma'lumotlarni yozish maqsadida avtomatlashtirilgan ish joyi asboblari va apparaturasidan foydalanish, shuningdek, dispetcherga yordam ko'rsatish uchun operatorlar yoki DATK YaDM boshlig'i ko'rsatmasi bo'yicha tashishlarni tashkil qilish boshqarmasi boshqa xodimlari tayinlash mumkin.

277. Uchastkadagi poezdlar harakatiga taaluqli barcha farmoyishlarni poezd dispetcheri stansiya navbatchilariga va poezdlar harakati bilan bog'liq boshqa xodimlarga, zarur holatlarda dispetcherlik farmoyishlari jurnalida qayd etiladigan (yo'ziladigan) buyruqlar shaklida uzatadi.

Poezd dispetcherining dispetcherlik aloqa vositalari orqali so'zlashuvlari so'zlashuvlarni qayd etish magnitofon lentasida yozilishi lozim.

278. Quyidagi buyruqlar dispetcherlik farmoyishlari jurnalida qayd etilishi shart:

- a) peregonlarning yoki alohida yo'llarning (jumladan, elektropoezdlar harakatlanadiganlarni kuchlanish o'chirilishi sababli) ochilishi va yopilishi to'g'risida;
 - b) ikki yo'llikdan bir yo'llik harakatga o'tish va ikki yo'llik harakatni tiklash to'g'risidagi;
 - v) poezdlar harakatida signalizatsiya va aloqa vositarining bir turidan ikkinchisiga o'tkazilishi;
 - g) poezdlarni ikki tomonlama avtoblokirovka bilan jihozlanmagan noto'g'ri yo'ldan jo'natilishi;
 - d) poezdlarni vaqtini taqsimlash usuli bilan jo'natilishi to'g'risida (ushbu Yo'riqnomanining 14-bobida ko'zda tutilgan holatlarda va tartibda);
 - e) 1 klassli xavfli (VM) yukli va nogabarit yukli poezdlarning jo'natilishi to'g'risida;
 - jj) yo'lovchi, pochta-bagaj, yo'lovchi-yuk va odamlar tashiydigan poezdlarni stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida bu maqsadlar uchun ko'zda tutilmagan yo'llarga qabul qilinishi va shunday yo'llardan jo'natilishi to'g'risida;
 - z) grafikda ko'zda tutilmagan poezdlarni tayinlash, ularning harakatlanish tartibi va bekor qilinishi to'g'risida. Uchastka bo'y lab yakka lokomotivlar, maxsus o'zi yuradigan harakat tarkibi va xo'jalik poezdlarini o'tkazish to'g'risidagi buyruqlar qayd etilmasligi mumkin;
 - i) avtomatik lokomotiv signalizatsiyasining nosozligida poezdlarning harakati to'g'risida;
 - k) kechikayotgan yo'lovchi poezdlarning o'tish tartibi to'g'risida;
 - l) bir mashinist xizmat ko'rsatadigan yo'lovchi poezdlarning jo'natilishi to'g'risida;
 - m) ushbu Yo'riqnomanining 31, 38-bandlarida ko'zda tutilgan holatlarda.
- Uchastkada poezdlar harakati bilan bog'liq boshqa buyruqlar dispetcherlar ixtiyoriga havola etiladi.

Dispatcherlik farmoyishlari jurnalida, shuningdek, poezd lokomotivlari mashinistlariga yo'llangan barcha qayd etiluvchi buyruqlar hamda ushbu uchastka poezd dispatcheriga qo'shni uchastkalar poezd dispatcherlari tomonidan yo'llangan barcha buyruqlar yozilishi lozim.

Dispatcherlik buyruqlarini yozish vaqtini qisqartirish maqsadida DATK tashishlarni tashkil qilish boshqarmasi boshlig'i ruxsati bilan eng ko'p beriladigan buyruqlar matnlari tushirilgan maxsus shtamplar qo'llanishi mumkin. Dispatcherlik buyruqlari shaxsiy kompyuterlardan foydalaniib, ushbu Yo'riqnomada ko'zda tutilgan shakllar bo'yicha buyruq matnlarini yozish bilan qayd etilishi mumkin.

Dispatcherlik farmoyishlari jurnalida poezd dispatcherlari tomonidan navbatchilik qabul qilinganligi va topshirilganligi ham qayd etiladi.

279. Qayd etiluvchi dispatcherlik buyruqlarini stansiya navbatchilari yoki operatorlar dispatcherlik farmoyishlari jurnaliga yozib qo'yadilar.

Dispatcherlik buyrug'ini yozgandan so'ng stansiya navbatchisi yoki operator uning mazmunini dispatcherga so'zma-so'z takrorlaydi va o'zining familyyasini aytadi. Buyruq to'g'ri qabul qilinganligiga ishonch hosil qilgan dispatcher uni "Bajaring" so'zlari bilan tasdiqlaydi.

Buyruqni tekshirish vaqt va uni qabul qilgan shaxsning familyasi poezd dispatcheri va stansiya jurnallarida qayd etiladi.

Poezd dispatcheri buyrug'ini operator qabul qilib, yozib olganda, tanishishi va o'qib, imzo chekishi uchun uni darhol stansiya navbatchisiga taqdim etadi.

Mashinistga yo'llangan buyruq shaxsan poezd dispatcheri tomonidan stansiya navbatchisi orqali uzatiladi.

Dispatcher yoki stansiya navbatchisi uzatilgan buyruqni to'g'ri tushunganligiga ishonch hosil qilishi lozim. Mashinistning familyasi va buyruqni uzatish vaqtida mos ravishda poezd dispatcheri yoki stansiya jurnalida qayd etiladi.

280. Dispatcherlik buyrug'i bir nechta stansiyaga yo'llanganda, tekshirish maqsadida buyruq matni poezd dispatcherining ko'rsatmasiga binoan biron stansiya navbatchisi tomonidan uzatiladi, boshqa stansiyalarning navbatchilari esa bu vaqtida buyruqning to'g'ri yozib olinganligini tekshiradilar.

281. Bir yo'llik peregon yoki ikki va ko'p yo'llik peregonlarda bir yoki bir nechta asosiy yo'llar poezd dispatcheri tomonidan quyidagilarga asoslanib yopiladi:

a) rejada ko'zda tutilgan yo'l-ta'mir yoki qurilish ishlari, shuningdek, kontakt tarmog'ida ta'mir ishlari bajarilganda, DATK YaDM boshlig'inining farmoyishi bilan;

b) yo'lda to'xtab qolgan poezd mashinistidan olingan talab yoki yo'lning, inshoot va qurilmalarning harakat xavfsizligiga tahdid soluvchi kutilmagan nosozligi paydo bo'lganda yo'l, signalizatsiya va aloqa, elektr ta'minoti distansiyasi xodimlarining va boshqalarning talabiga ko'ra.

Poezd dispatcheri dispatcherlik farmoyishlari jurnaliga qabul qilingan talabni kelib tushgan vaqt va kimdan kelib tushganini qayd etib yozishi shart.

Barcha yozma talablar, xabarnomalar, telegrammalar va telefonogrammalar dispatcherlik farmoyishlari jurnalni bilan birga saqlanishi lozim.

282. Peregon (yo'lni) yopilishi to'g'risidagi buyruqni poezd dispatcheri peregonni chegaralovchi stansiyalarga va peregonda mavjud yo'l postlariga quyidagi (namunaviy) shakllardan biri bo'yicha uzatadi:

**"Falon ishlarni amalga oshirish maqsadida _____ peregonning _____ yo'li
soat _____ minutdan boshlab harakat uchun yopiladi, yopiq peregonga ishlar**

rahbari _____ (lavozim va familiyasi ko'rsatiladi)ning talabnomasiga binoan jo'natiladigan №№ _____ xo'jalik poezdlari bundan mustasno".

"____ km da to'xtab qolgan №____ poezdga yordam ko'rsatish uchun ____ peregonning ____ yo'li ____ soat ____ minutdan boshlab barcha poezdlar harakati uchun yopiladi, to'xtab qolgan poezdni chiqarish uchun _____ stansiyasidan jo'natiladigan yordamchi lokomotiv bundan mustasno" yoki "to'xtab qolgan poezdni surib, so'ng _____ stansiyasiga qaytdigan yordamchi lokomotiv bundan mustasno".

"____ km da tiklash ishlarini bajarish uchun _____ peregonning ____ yo'li ____ soat ____ minutdan boshlab barcha poezdlar harakati uchun yopiladi, tiklash poezdlari bundan mustasno".

Ikki va ko'p yo'llik peregonlarda yo'llardan biri yopiq bo'lganda, qolgan yo'l bo'y lab to'g'ri yo'lda, ikki tomonlama avtoblokirovka esa har ikkala yo'nalishda jo'natiladigan poezdlar uchun mavjud signalizatsiya va aloqa vositalari saqlanib qolinadi. Qolgan yo'l bo'y lab poezdlarni noto'g'ri yo'nalishda (ikki tomonlama avtoblokirovka bo'limasa) jo'natish zarurligida ushbu yo'ldagi mavjud signalizatsiya va aloqa vositalari yopiladi hamda poezdlar harakati telefon aloqa vositalari orqali quyidagi shakldagi buyruq uzatilib o'rnatiladi:

"_____ peregonning ____ yo'lida ____ soat ____ minutdan boshlab blokirovka ishi to'xtatiladi va poezdlar harakati telefon aloqasi orqali bir yo'llik harakat qoidalariga asosan o'rnatiladi".

Poezdlar holatiga bog'liq ravishda qolgan yo'l bo'y lab poezdlar harakatini telefon aloqasi orqali o'rnatish xaqidagi buyruq yo'l yopilishi to'g'risidagi buyruq bilan birlashtirilishi mumkin.

283. Yopilayotgan peregonni chegaralovchi stansiyalardan biri boshqa yo'nalish poezd dispetcheri tasarrufida bo'lsa, yo'lni yopish xaqidagi buyruq shu poezd dispetcheri bilan muvofiqlashtiriladi va unga nusxasi uzatiladi.

284. Peregon yoki alohida yo'lni yopish to'g'risidagi buyruqni uzatishdan oldin poezd dispetcheri peregonni chegaralovchi stansiyalar navbatchilarini shaxsan chaqirib, ularni peregon yopilayotganligi xaqida ogohlantirishi, ishlar rahbarining familiyasi va lavozimini, qolayotgan yo'l bo'y lab poezdlarning mo'ljallanayotgan o'tkazish tartibini va boshqa zarur ma'lumotlarni aytishi shart.

285. Peregon yoki yo'l poezd dispetcheri tomonidan ushbu Yo'riqnomada ko'zda tutilgan tartibda, paydo bo'lgan to'siqlar bartaraf etilgani, ishlar yakunlangani va peregon bo'shatilgani xaqida xabarnoma olinganidan so'ng ochiladi.

Poezd dispetcheri dispetcherlik farmoyishlari jurnaliga olingan xabarnomaning kelib tushgan vaqt, yo'llagan shaxsnинг lavozimi va familiyasini ko'rsatib yozib qo'yishi shart. Ishlar yakulanganligi va poezdlar harakatlanishi mumkinligi xaqidagi yozma xabarnoma yoki telefonogramma dispetcherlik farmoyishlari jurnali bilan birga saqlanishi lozim.

286. Peregon yoki yo'lni ochilishi xaqidagi buyruqni poezd dispetcheri peregonni chegaralovchi stansiyalarga va peregonda mavjud yo'l postlariga quyidagi shaklda uzatadi:

"_____ sanadagi №_____ buyruq bekor qilinadi. Peregonning yo'li bo'ylab poezdlar harakati _____ soat _____ minutdan boshlab (signalizatsiya va aloqa vositasi ko'rsatiladi) orqali tiklanadi".

287. Har bir yo'l bo'ylab blokirovkali (jumladan, lokomotiv svetoforining ko'rsatmalari bo'yicha) ikki tomonlama harakat uchun qurilmalar bilan jihozlangan ikki yo'llik peregonda poezd dispatcheri regulirovka tartibida poezdni noto'g'ri yo'ldan jo'natsa, ushbu yo'l bo'shligi tekshirilgandan so'ng peregonni chegaralovchi stansiyalarga va peregonda mavjud yo'l postlariga quyidagi shaklda buyruq beriladi:

"_____ soat _____ minutdan boshlab peregonning _____ yo'li bo'ylab _____ (juft yoki toqligi ko'rsatiladi) poezdlarning harakati to'xtatiladi. № _____ poezdni _____ stansiyasidan bir yo'llik harakat qoidalari bo'yicha jo'nating".

Noto'g'ri yo'l bo'ylab yo'lovchi poezdini jo'natish to'g'risida shunday buyruqni uzatishdan avval dispatcherlik farmoyishlari jurnalida YaDM yo'nalish bo'yicha navbatchisining quyidagi buyrug'i yozilishi shart:

"№ _____ poezdni stansiyadan noto'g'ri yo'l bo'ylab jo'nating".

Noto'g'ri yo'l bo'ylab birin-ketin ikkita yoki undan ko'p poezd o'tkazilganda buyruq matni shunga muvofiq o'zgartiriladi. Peregonda yo'l postlari mavjud bo'lsa, zarur holatda ulardan noto'g'ri yo'l bo'ylab bir yo'nalishda harakatlanayotgan poezdlarni chegaralash uchun foydalanish mumkin, bu ham poezd dispatcherining buyrug'ida ko'rsatiladi.

Noto'g'ri yo'ldan poezdni o'tkazish xaqidagi buyruqni olganidan so'ng stansiyalar navbatchilari dispetcherning nazorati ostida ushbu Yo'riqnomaning 165-bandida ko'rsatilgan shakllar bo'yicha telefonogrammalar bilan almashadilar.

Yo'l postlari navbatchilari (bir yo'llik peregondarda ikki yo'llik tutashma postlar va uzel oldi postlar bundan mustasno) noto'g'ri yo'l bo'ylab poezdlar harakati to'g'risidagi so'zlashuvlarda ishtirok etmaydilar, ammo poezdning jo'natilganligi xaqida telefon orqali xabardor qiladilar va uning o'tish vaqtini poezdlar harakati jurnalida qayd etadilar.

Yo'l postlarida chegaralash usuli bilan noto'g'ri yo'ldan birin-ketin bir nechta poezd jo'natilganda ushbu postlarning navbatchilari qo'shni stansiyalarga poezdlar o'tgani xaqida quyidagi shaklda xabar beradilar:

"№ _____ poezd noto'g'ri yo'l bo'ylab _____ soat _____ minutda o'tdi. Post DSP si ____ ".

Olib qo'yiladigan harakat birliklarini bir tomonlama to'siq qo'llanadigan, bir tomonlama blokirovkalik ikki yo'llik elektrlashtirilgan uchastkalarda regulirovka tartibida noto'g'ri yo'ldan poezd jo'natilishini poezd dispatcheri oldinroq energodispatcher bilan kelishishi shart. Bunday uchastkalarning ro'yxati DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.

Ikki tomonlama blokirovka bilan, shuningdek, lokomotiv svetoforlari signallariga asosan noto'g'ri yo'ldan poezdlarning harakatini ta'minlaydigan qurilmalar bilan jihozlangan ikki yo'llik peregondarda poezdlar noto'g'ri yo'ldan poezd dispatcherining og'zaki ko'rsatmasi va blokirovka tegishli yo'nalishga o'tkazilgandan so'ng jo'natiladi.

288. Faqat to'g'ri yo'l bo'ylab harakatlanayotgan poezdlar uchun avtomatik qurilmalari bo'lgan pereezdlar, shuningdek, tutuvchi berk yo'llarga ega bo'lgan peregonlarning ro'yxati DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi, bunda ushbu peregonlarga poezdlar noto'g'ri yo'ldan jo'natilganda harakat xavfsizligini ta'minlash uchun ko'rildigan zarur choralar ham ko'rsatiladi. Ushbu buyruqda har bir jo'natilgan poezd

to'g'risida pereezd navbatchilarini xabardor qilish tartibi ko'zda tutilishi lozim. Poezd lokomotivlari, maxsus o'zi yurar harakat tarkibining mashinistlari va boshqa aloqador xodimlar buyruq bilan tanishtirilishlari kerak.

Regulirovka tartibida noto'g'ri yo'ldan jo'natilayotgan poezd mashinistlari bir tomonlama avtomatik qurilmalar bilan jihozlangan pereezdlardan: bitta navbatchi xodim xizmat ko'rsatadiganlaridan - 40 km/soat dan ortiq bo'limgan, navbatchi xodim xizmat ko'rsatmaydiganlaridan esa - 25 km/soat dan ortiq bo'limgan tezlikda o'tishlari shart. Pereezddan yetakchi lokomotiv o'tganidan keyin, machinist harakat tezligini oshirish, hattoki ushbu peregon uchun belgilangan miqdorgacha oshirish xuquqiga ega.

289. Poezd noto'g'ri yo'ldan yetib kelganligi xaqida stansiyadan xabar olingandan so'ng poezd dispetcheri peregondagi normal harakatni quyidagi shaklda buyruq uzatib tiklaydi:

"_____ sanadagi № _____ buyruq bekor qilinadi. Peregonnning _____ yo'li bo'ylab
_____ soat _____ minutdan boshlab _____ (juft yoki toqligi ko'rsatiladi) poezdlar harakati
(signalizatsiya va aloqa vositasi ko'rsatiladi) orqali tiklanadi".

290. Harakat grafigida ko'zda tutilmagan ravishda (odamlarni tushirish va chiqarish, yuklarni ortish va tushirish uchun) peregonda to'xtaydigan poezdni stansiyadan jo'natish zarurligida, ushbu poezd qo'shni stansiyaga boradigan yoki jo'natilgan stansiyasiga qaytadigan bo'lsa, poezd holatidan kelib chiqib poezd dispetcheri peregonni chegaralovchi stansiyalarga poezdning jo'nash va peregonni egallah vaqtini ko'rsatib, ruxsat beradi.

Bunday poezdlar jo'natilganda lokomotiv mashinistlariga, shuningdek, odamlarni chiqarish va tushirish, yuklarni ortish va tushirishga rahbarlik qilayotgan xodimlarga tegishli ogohlantirishlar taqdim etiladi. Peregonda to'xtagandan so'ng ushbu poezdlarning mashinistlari harakatni yuqorida ko'rsatilgan xodimlarning signallariga asosan davom ettiradilar.

Poezd dispetcheri yoki uning ko'rsatmasiga binoan stansiyalar navbatchilari, peregonga keyingi yo'ldosh poezdlar jo'natilganda, bu poezdlar mashinistlarini radio aloqa orqali poezdning grafikda belgilanmagan to'xtash joyi xaqida kilometr va piketni ko'rsatib xabarlashlari kerak.

Yopilgan peregonlar (yo'llar)ga xo'jalik poezdlari, maxsus o'zi yurar harakat tarkibi ushbu Yo'riqnomaning 8-bobida belgilangan tartibda jo'natiladi.

291. Poezdlar harakatida u yoki bu peregon (yo'lda) signalizatsiya va aloqa vositalarining nosozligi to'g'risida xabar olgan poezd dispetcheri uni dispetcherlik farmoyishlari jurnaliga yozib qo'yadi va stansiyalar navbatchilari orqali peregon (yo'l)ning bo'shligini tekshirib, harakatni telefon aloqa vositalari orqali o'rnatilishi to'g'risida quyidagi shaklda buyruq beradi:

"Peregonda (yoki peregonnning _____ yo'lida) falon aloqa vositalarining nosozligi tufayli _____ soat _____ minutdan boshlab poezdlar harakati _____ (bir yoki ikki yo'llik) harakat qoidalariga binoan telefon aloqa vositalariga o'tkaziladi, peregon poezdlardan bo'sh. DNS _____ imzo".

292. Peregonda yo'l postlari mavjud bo'lganda poezd dispetcherining aloqaning bir turidan ikkinchisiga o'tilishi xaqidagi buyrug'i postlar navbatchilariga ham uzatiladi, bunda sharoitdan kelib chiqib aloqaning boshqa turiga butun stansiyalararo peregonda yoki har bir bo'sh postlararo peregonda alohida o'tilishi mumkin.

293. Signalizatsiya va aloqa vositalarining faoliyati tiklanganligi to'g'risida xabarnoma olgan poezd dispetcheri uni dispetcherlik farmoyishlari jurnaliga yozib qo'yadi va stansiyalar navbatchilari orqali peregon (yo'l)ning bo'shligiga ishonch hosil qilganidan so'ng peregonni chegaralovchi stansiyalarga quyidagi shaklda buyruq beradi:

"№ ____ buyruq bekor qilinadi. ____ soat ____ minutdan boshlab _____ peregonda (peregonning ____ yo'lida) poezdlar harakati _____ (signalizatsiya va aloqa vositasi ko'rsatiladi) orqali tiklanadi".

Ko'rsatilgan vaqtidan boshlab stansiyalar poezd dispetcherining buyrug'ida ko'zda tutilgan aloqa turiga o'tadilar.

Bir yo'nalishda harakatlanish uchun avtoblokirovka bilan jihozlangan ikki yo'llik peregonlarda avtoblokirovka faoliyatini tiklash xaqidagi buyruq peregon to'g'ri yo'nalishda jo'natilgan poezdlardan bo'shatilmasdan berilishi mumkin.

294. To'liq sutka davomida ishlamaydigan alohida punktlar yoki yordamchi postlarni ochilishi yoki yopilishi DATK tashishlarni tashkil qilish boshqarmasi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadigan tartibga binoan amalga oshiriladi va peregonni chegaralovchi stansiyalarga uzatiladigan poezd dispetcherining quyidagi shakldagi buyrug'i bilan rasmiy lashgiriladi:

"____ km da post faoliyati ____ soat ____ minutdan boshlab ochiladi (yopiladi)".

295. Elektr tortishli uchastkalarda poezd dispetcheri energo-dispetcher bilan hamkorlikda ish yuritishi va elektr ta'minoti qurilmalarini normal ishini ta'minlash choralarini ko'rishi lozim.

Kontakt tarmog'i shikastlanganda, tortish podstansiyalari o'chirilganda yoki ularning quvvati kamayganida energodispetcher bilan birgalikda poezdlarni uchastkalardan o'tkazishni eng maqbul tartibini belgilash lozim.

Yaxvonlik davrida energodispetchnering talabnomasi bo'yicha kontakt tarmog'idagi muzni yuqori kuchlanishli tok bilan eritish uchun poezd dispetcheri harakat grafigida "okno"lar taqdim etadi.

296. Poezd dispetcherlik aloqasining nosozligida poezdlar harakati poezd dispetcherining ishtirokisiz amalga oshiriladi. Poezdlar harakati to'g'risida aloqa bevosita stansiyalar navbatchilari o'rtasida amalga oshiriladi.

Poezd dispetcherlik aloqasining nosozligida poezd dispetcheri va stansiya navbatchilari dispetcherlik farmoyishlari jurnaliga tegishli yozuvlarni kiritadilar.

Poezd dispetcherlik aloqasi tiklanganini poezd dispetcheri barcha stansiyalar umumiy sirkulyar buyruq bilan ma'lum qiladi.

297. Tashishlarni tashkil qilish boshqarmasi xodimlarining lavozimi shtatlar jadvalida belgilanmagan kam faoliyatli uchastkalarda poezd dispetcherlarining ish tartibi DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.

11-bob. STANSIYALARDA MANYOVR ISHLARI

UMUMIY QOIDALAR

298. Manyovr ishlari stansiya ishining texnologik jarayoni va quyidagilar ko'zda tutilgan reja asosida amalga oshirilishi lozim:

poezdlarni o'z vaqtida tuzilishi va jo'natilishi;

vagonlarni o'z vaqtida yuk operatsiyalari uchun uzatilishi va yuk operatsiyalari tugagandan so'ng olinishi;

vagonlarni ishslash uchun eng kam vaqt sarflanishi;

barcha manyovr vositalardan va texnikaviy qurilmalardan ratsional foydalanish;

stansiyaga poezdlarni uzlusiz qabul qilinishi;

harakat xavfsizligi hamda manyovrlar bilan bog'liq xodimlar xavfsizligi va harakat tarkibining butligi.

299. Yo'llarning rivojlanganligi, manyovr ishlarining xususiyati va hajmiga bog'liq ravishda stansiyadagi yo'llar manyovr hududlariga bo'linadilar. Manyovr hududlarining chegaralari va ularning har biridagi ish xususiyatlari stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida belgilanadi.

Har bir manyovr hududida odatda bitta manyovr lokomotivi ishlaydi. Ayrim hududlarda ikki va undan ortiq manyovr lokomotivi ishlashi zarur bo'lsa, harakat xavfsizligi ta'minlanadigan ularni ishslash tartibi stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatiladi.

Manyovr ishlari uchun beriladigan lokomotivlar soz bo'lishi, yaxshi ishlaydigan radiostansiyalarga, belgilangan signallar va inventarga ega bo'lishi lozim.

300. Manyovr harakatlarida markazlashtirilmagan strelkalar manyovrlarga rahbarlik qilayotgan shaxsning farmoyishiga binoan strelkali post navbatchilari tomonidan o'tkaziladi. Elektr markazlashtirish bo'lgan stansiyalarda strelkalar stansiya navbatchisi yoki markazlashtirish posti operatori tomonidan o'tkaziladi. Strelkalar markaziydan mahalliy boshqaruvga topshirilganda, shuningdek, strelkali post navbatchisi xizmat ko'rsatmaydigan markazlashtirilmagan strelkalarda manyovrlar amalga oshirilganda strelkalarni lokomotiv yoki tuzish brigadalarining xodimlari, konduktorlar, park navbatchilari, stansiya navbatchilari, stansiya boshliqlari, yuk va bagajni qabul qilib-topshiruvchilar, lokomotiv, vagon depolari xodimlari va boshqa xodimlar tomonidan o'tkazilishiga ruxsat etiladi.

Manyovrlar paytida ko'rsatilgan xodimlarga strelkalarni o'tkazishga ruxsat etilgan stansiyalar ro'yxati DATK mintaqaviy temir yo'l uzeli boshlig'i tomonidan belgilanadi.

(*300-bandning 2-xatboshisi "O'zdavtemirov Inazorat" DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko'rsatmasiga muvofiq o'zgartirildi*).

Markazlashtirilgan strelkani o'tkazishdan avval unga xizmat ko'rsatuvchi xodim (shaxsan yoki boshqa xodimning ma'lumotiga asosan) strelka tarkib bilan band etilmaganligiga, shuningdek, yondosh yo'llardan o'tishlar mavjudligiga ishonch hosil qilishi lozim. Elektr markazlashtirishda strelka o'tkazgichning harakat tarkibidan bo'shligi boshqaruv apparatidagi nazorat asboblarinnng ko'rsatmasi bo'yicha aniqlanadi. Ushbu asboblar nosoz bo'lganida yoki vaqtincha o'chirilganida yohud strelkalar manyovr kolonkalaridan o'tkazilganida strelkali o'tkazgichning harakat tarkibidan bo'shligini aniqlash tartibi stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida belgilanadi.

Markazlashtirilmagan strelkalar (saralash yo'llarida joylashgan, manyovr ishlari har doim ketma-ket turkilar bilan amalga oshiriladigan, sharnir-tirsakli tutashtirgichlar bilan jihozlangan strelkalardan tashqari) manyovrlar paytida zakladkalar bilan berkitlishi lozim.

301. TFQ ning 197-bandiga muvofiq, manyovr ishlarida ko'rsatmalarni uzatishning asosiy vositasi sifatida radio aloqa, zarur hollarda esa ikki tomonlama park aloqasi qurilmalari ishlatilishi lozim.

Manyovr ishlarida qo'l signal asboblari bilan signal berishga ruxsat etiladi.

Poezd tuzuvchisi olib yuriladigan soz radiostansiyaga ega bo'lishi lozim. Stansiyalarda mavjud radio aloqa va ikki tomonlama park aloqasi qurilmalaridan manyovr ishlarini tashkil etish va harakat xavfsizligini ta'minlash uchun foydalanilishi lozim.

Radio aloqa va ikki tomonlama park aloqasi orqali uzatiladigan ko'rsatma va ma'lumotlar qisqa bo'lishi lozim; ko'rsatma bergen kishi uni manyovr lokomotivining

mashinisti va boshqa xodimlar tomonidan to'g'ri tushunilganiga (ko'rsatmaning qisqacha takrorini tinglab, belgilangan tovushli javob signalini olib) ishonch hosil qilishi lozim.

Radio aloqa va ikki tomonlama park aloqasi orqali uzatiladigan, manyovr ishlariiga xos bo'lган ko'п qaytariladigan ko'rsatmalar uchun zarur holatlarda so'zlashuvlarning namunaviy reglamenti o'rnatiladi.

Radio aloqa va ikki tomonlama park aloqasining konkret maqsadi ulardan foydalanish xuquqi berilgan xodimlar ro'yxati va har bir manyovr hududida foydalanish tartibi stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktida belgilanadi.

Stansiyalarda radio aloqa va ikki tomonlama park aloqasidan foydalanish tartibi DATK ning maxsus Yo'riqnomasi bilan belgilanadi.

302. Stansiya navbatchisi manyovr marshrutlarini manyovr ishlari rejasiga muvofiq tayyorlashi lozim.

Harakatlanish yo'nalishi o'zgarmaydigan manyovr marshruti odatda manyovr tarkibining to'liq harakatlanish yo'liga mo'ljallab tuziladi. Bunday marshrutni tayyorlashning imkonи bo'lмагanda stansiya navbatchisi mashinistni (manyovrlar rahbarini) marshrutni qismi qaysi yo'lga yoki qaysi svetoforgacha tayyorligini xabardor qilishi shart.

Marshrut tayyor bo'lsa, taqiq ko'rsatmali yoki chiroqlari o'chgan manyovr svetoforini, stansiya (post) navbatchisi manyovr lokomotivi mashinistiga radio aloqa, ikki tomonlama park aloqasi yoki manyovrlar rahbari orqali uzatadigan ko'rsatmasiga binoan bosib o'tish ruxsat etiladi.

303. Birlashtirish yoki tortish yo'llari bo'ylab tarkiblarni parkdan parkka o'tkazishda xavfsizlikni ta'minlash tartibi va shartlari stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatiladi, bunda manyovr tarkiblarini vagonlari oldinga qarab harakatlanganda xavfsizlikni ta'minlashga alohida e'tibor berilishi kerak.

Ayrim holatlarda mahalliy sharoitlardan kelib chiqib (parklar ketma-ket joylashganda, machinist kabinasidan turib manyovr lokomotivlarini vagonlardan ajratish qurilmasi bilan jihozlanganda va h.z.), tarkiblar tuzuvchi brigada xodimlarining kuzatuvisiz parkdan parkka o'tkazilishi mumkin.

304. O'ta ehtiyyotkorlikni talab etuvchi ayrim toifadagi yuklar ortilgan vagonlar (yuklarni tashish qoidalari, shuningdek, xavfli yuklarni tashish qoidalari muvofiq), manyovrlar paytida qattiq yonilg'ida ishlaydigan parovozdan kamida bitta tez o't olmaydigan xavfsiz yuk ortilgan yoki bo'sh vagon bilan to'silishi (ajratilishi) lozim.

Poezdlarda va manyovrlar paytida ayrim toifadagi o'ta xavfli yuk ortilgan vagonlarni to'sish me'yorlari tashish hujjatlarida maxsus shtempel bosish usuli bilan ko'rsatilib, undagi raqamlar to'siladigan vagonlarning eng kam sonini belgilaydi, masalan, me'yorda 3/0-0-3-1 deb qayd etilgan bo'lsa, bunda:

birinchi raqam - poezdnинг yetakchi lokomotivdan to'silish vagonlari soni (surati - qattiq yonilg'ida ishlaydigan parovozdan, mashraj - neft yonilg'isida ishlaydigan parovozdan, elektrovozdan yoki teplovozdan);

ikkinchi raqam - poezdddagi suruvchi lokomotivdan;

uchinchi raqam - poezddagi odamlar ketayotgan vagonlardan;

to'rtinchi raqam - manyovrlar paytida qattiq yonilg'ida ishlaydigan parovozdan to'silish vagonlari soni;

"0" (nol) belgisi to'sish talab etilmasligini bildiradi.

Odamlari bilan vagonlar, shuningdek, yuklarni kuzatib borish uchun maxsus ajratilgan xodimlari, kuzatuvchilari, qorovullari, qo'riqlash naryadlari bilan vagonlar, jonivorlar bilan vagonlar, 1 klassli xavfli yuk (VM) li vagonlarning oldi tomonidan ham, orqa tomonidan ham qo'yillishi mumkin, lekin tashish hujjatlarida quyidagi shtamplar mavjud bo'lган: "Zaharli"

va "To'siq" (bir paytning o'zida ikki shtamp) xavfli yuklar ortilgan vagonlarning doimo oldida qo'yiladi.

Tez alangalanuvchi suyuqliklar ortilgan vagonlar tuzish stansiyalarida poezdlarga VM vagonli poezdlarning orqasidan (poezd boshidan hisoblaganda) qo'yillishi kerak.

305. Vagon va lokomotiv depolarining ta'mir yo'llarida manyovr harakatlar DATK ning tegishli tarkibiy bo'linmasi mas'ul xodimining kuzatuvi ostida va shaxsiy ko'rsatmalariga asosan amalga oshiriladi.

(305-band "O'zdavtemiryo'l nazorat" DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko'rsatmasiga muvofiq o'zgartirildi).

306. Texnikaviy yoki yuk operatsiyalari amalga oshirilayotgan vagonlar mavjud yo'llarda turtish usuli bilan manyovrlar bajarishga yo'l qo'yilmaydi.

Ob-havoning noqulay sharoitlarida (kuchli shamol, tuman, bo'ron), shuningdek, yoritilmaydigan yo'llarda manyovr ishlari o'ta ehtiyyotkorlik bilan, zarur holatlarda esa, tezlikni pasaytirib amalga oshiriladi.

307. Xo'jalik poezdlari va yo'l mashinalarini stansiya yo'llaridagi ishi DATK ning tegishli tarkibiy bo'linmasi (yo'l, signalizatsiya va aloqa va h.z. xo'jaliklari) mas'ul xodimining rahbarligida amalga oshiriladi.

(307-bandning 1-xatboshisi "O'zdavtemiryo'l nazorat" DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko'rsatmasiga muvofiq o'zgartirildi).

Ko'rsatilgan poezd va mashinalarning bir yo'ldan ikkinchisiga yoki stansianing boshqa hududiga harakati faqat manyovrlarga rahbarlik qilayotgan shaxs yoki stansiya rahbarining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Zarur holatlarda bunday poezdlar va yo'l mashinalari harakatiga rahbarlik qilish uchun stansiya boshlig'ining ko'rsatmasiga binoan stansianing tegishli xodimi tayinlanishi mumkin.

308. Stansiyalarda tormoz yenglarini ajratish va qo'shish vagonlarga texnikaviy xizmat ko'rsatish punkti xodimlari yoki mahalliy sharoitlardan kelib chiqib, texnologik jarayon yoki stansiya texnikaviy-boshqaruv akti bilan belgilangan boshqa xodimlar tomonidan amalga oshiriladi.

Manyovrlarni amalga oshirish paytida tormoz yenglarini ajratish va qo'shish tuzish brigadasi yoki konduktorlar tomonidan amalga oshiriladi.

Tarkibga tirkash va undan uzishda tormoz yenglarini lokomotiv brigadasi ajratadi va qo'shadi, lokomotivga bir mashinist xizmat ko'rsatganda esa bu operatsiyalarni vagon ko'rvchisi amalga oshiradi.

309. Ayrim vagonlarni favqulodda holatlarda va faqat gorizontal sathli yo'llarda qo'l bilan surishga ruxsat etiladi.

Stansianing asosiy, qabul qilish-jo'natish va saralash yo'llarida vagonlarni qo'l bilan surish taqiqlanadi.

Faqat tegishli yo'l bo'linmasi boshlig'i tomonidan belgilangan mas'ul xodimning rahbarligida, ko'pi bilan bitta yuk ortilgan yoki ikkita bo'sh vagonni qo'l bilan surishga ruxsat etiladi.

Vagonlarni qo'l bilan surganda quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

ularni 3 km/soat dan ortiq tezlik bilan surish, bunda vagonlar albatta tirkalgan bo'lishi shart;

asosiy va qabul qilish-jo'natish yo'llari yo'nalishida chegara ustunchasidan chetga surib chiqarish;

tormoz boshmoqlari yo'q bo'lsa, harakatni boshlash;

tormozlash maqsadida g'ildiraklar tagiga shpal, tosh, lom va boshqa buyumlarni qo'yish.

Odamlari bor va xavfli yuk ortilgan vagonlarni qo'l bilan surish taqiqlanadi.

Vagonlarni kabestan, elektr shpil va boshqa mexanik vositalar bilan surish tartibi mahalliy sharoitlardan kelib chiqib, DATK mintaqaviy temir yo'l uzeli boshlig'i tomonidan tasdiqlangan maxsus yo'riqnomalar bilan belgilanadi.

(309-bandning 10-xatboshisi "O'zdavtemiro 'Inazorat" DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko'rsatmasiga muvofiq o'zgartirildi).

MANYOVR ISHLARIGA RAHBARLIK QILISH

310. TFQ ning 196-bandiga muvofiq, stansiya yo'llaridagi manyovrlar faqat bir xodim, ya'ni stansiya navbatchisi, manyovrlar dispetcheri, saralash tepachasi yoki park navbatchisi, dispetcherlik markazlashtirish bilan jihozlangan uchastkalarda esa - poezd dispetcherining ko'rsatmasiga binoan amalga oshirilishi shart. Manyovrlarni boshqarish bo'yicha vazifalarning taqsimlanishi stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatiladi.

Manyovr qilayotgan lokomotiv harakatiga faqat bir xodim - ularning to'g'ri bajarilishi uchun mas'ul bo'lgan manyovrlar rahbari (poezd tuzuvchi yoki bosh konduktor) rahbarlik qilishi lozim.

Saralash tepachalarida manyovr qilayotgan lokomotiv harakatiga saralash tepachasi navbatchisi rahbarlik qilishi mumkin.

Oraliq stansiyalarda manyovr ishlariga bosh konduktor rahbarlik qilishi mumkin. Tuzuvchi brigada yoki bosh konduktor xizmat ko'rsatmaydigan lokomotiv (maxsus o'zi yurar harakat tarkibi)ning manyovr harakatlariga ushbu hududda manyovr ishlariga rahbarlik qilish xuquqiga ega xodim yoki uning ko'rsatmasi bo'yicha signalchi (strelkali post navbatchisi) rahbarlik qiladi. Bunday sharoitlarda manyovr ishlariga rahbarlik qilishga, shuningdek, stansiya boshliqlari, ularning o'rribosarlari va boshqa xodimlar DATK mintaqaviy temir yo'l uzeli boshlig'i tomonidan belgilangan tartibga muvofiq jalb etilishi mumkin.

(310-bandning 4-xatboshisi "O'zdavtemiro 'Inazorat" DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko'rsatmasiga muvofiq o'zgartirildi).

311. Manyovr ishlari tuzuvchi yoki tuzuvchilar brigadasi (tuzuvchi va uning yordamchisi), shuningdek, bosh konduktor yoki konduktorlik brigadasi tomonidan amalga oshiriladi. Mahalliy sharoitlardan kelib chiqib manyovrlarni amalga oshirish uchun tuzuvchilar brigadasi yoki yakka tuzuvchini tayinlash DATK mintaqaviy temir yo'l uzeli boshlig'i tomonidan belgilanadi.

(311-bandning 1-xatboshisi "O'zdavtemiro 'Inazorat" DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko'rsatmasiga muvofiq o'zgartirildi).

Manyovr harakatlarini bajarish uchun tuzuvchilar brigadasi xodimlari tuzuvchi tomonidan joylashtiriladi.

Manyovr lokomotiviga yakka mashinist tomonidan xizmat ko'rsatilishi lokomotiv turi va mahalliy sharoitlarga bog'liq ravishda DATK boshqaruvi raisining ruxsati bilan amalga oshirilishi mumkin.

312. Poezd tuzuvchi yoki bosh konduktor manyovr ishlariga topshiriqni faqat manyovrlarni boshqarayotgan bir shaxsdan olishi lozim.

Manyovr ishiga topshiriq aniq va ravshan berilib, manyovrlar rahbari tomonidan har bir aloqador xodimga yetkazilishi lozim.

Manyovrlarni bajarish jarayonida ishlarning belgilangan rejasini o'zgartirish zarurati paydo bo'lsa, ushbu o'zgartirish mazmuni bilan manyovrlarda ishtiroy etayotgan barcha xodimlar oldindan tanishtirilishi lozim.

313. Manyovr lokomotivining (vagonlar bilan yoki vagonlarsiz) bir manyovr hududidan ikkinchisiga harakatlanishiga faqat stansiya navbatchisi (tepacha navbatchisi) yoki manyovr dispetcherining ruxsati bilan, harakat yo'nalgan hududning post (park) navbatchisi yoki ushbu hududda ishlayotgan poezd tuzuvchisi bilan avvaldan kelihilgandan so'ng ruxsat beriladi.

MANYOVR LARNI AMALGA OSHIRISHDA XODIMLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

314. TFQ ning 206-bandiga muvofiq, manyovrlar rahbarining majburiyatları quyidagilardir:

manyovr ishlariga berilgan topshiriqlarni aniq va o'z vaqtida bajarish;

kelgusidagi manyovr ishlarini bajarishning rejasi va usullari bilan tanishtirish asosida manyovr ishlarida ishtirok etayotgan xodimlarning to'g'ri joylashtirilishi va harakatlarining muvofiqligini ta'minlash;

poezdlarni ushbu qoidalar, DATK ning tegishli yo'riqnomalari va ko'rsatmalariga aniq amal qilgan holda tuzish;

manyovr ishlarini, harakat xavfsizligi, manyovrlarda band bo'lган xodimlarning shaxsiy xavfsizligi, harakat tarkibi va yuklarning butligini ta'min etib tashkillashtirish. Odamlari bor, nogabarit va xavfli yuklar ortilgan vagonlar bilan manyovrlarni o'ta ehtiyyotkorlik bilan amalga oshirish.

Navbatchilikka kirishayotgan tuzuvchi (bosh konduktor) o'z hududidagi yo'llarda harakat tarkibining mavjudligi va joylashishi bilan tanishishi, uni ishonchli mahkamlanganligini tekshirishi, hudud uchun belgilangan mahkamlash vositalarning mavjudligiga ishonch hosil qilishi lozim. Tekshiruv natijalari xaqida stansiya navbatchisiga xabar beriladi.

315. Manyovr ishlarini boshlashdan avval manyovrlar rahbari quyidagilarni bajarishi shart:

a) manyovrlarda ishtirok etayotgan barcha xodimlar, jumladan, lokomotiv brigadasi ham to'liq tarkibda o'z joyida ekanligiga ishonch hosil qilishi;

b) mashinistni va manyovrlarda ishtirok etayotgan stansiya xodimlarini mo'ljallanayotgan manyovrlar rejasi va uni bajarish tartibi bilan tanishtirishi;

v) vagonlar harakatlanishi uchun to'siqlar (masalan, g'ildiraklar ostida tormoz boshmoqlari) yo'qligini tekshirishi lozim.

316. Manyovrlar rahbari u yoki bu yo'lga manyovr marshrutini tayyorlash to'g'risidagi topshiriqnini strelkali post navbatchisi yoki markazlashtirish posti operatoriga shaxsan, radio aloqa, ikki tomonlama park aloqasi orqali, lokomotiv hushtagi, qo'l hushtagi yoki stansiyaning texnikaviy jixozlanganligiga bog'liq ravishda texnikaviy-boshqaruv aktida belgilangan boshqa vositalar bilan berishi mumkin.

317. Ish jarayonida manyovrlar rahbari quyidagilarga amal qilishi shart:

a) manyovr harakatlariga taaluqli signal va ko'rsatmalarni aniq va o'z vaqtida berishi lozim;

b) manyovr harakatlari uchun strelkalar vaqtida tayyor bo'lishi, markazlashtirish posti operatorlari, strelkali postlar navbatchilari va lokomotivlar mashinistlari tomonidan signallar o'z vaqtida va to'g'ri berilishini kuzatib borishi;

v) manyovr qilayotgan tarkib signallari va uning harakatlanish marshruti yaxshi ko'rindigan joyda turishi; lokomotiv mashinisti bilan radio aloqa bo'lмаган (nosozlik yoki lokomotiv manyovr radio aloqasi bilan jihozlanmaganligi sababli) holatlarda mashinist yoki uning yordamchisi uzatilayotgan qo'l signallarini yaxshi ko'radigan joyda turishi;

g) stansiya yo'llarida vagonlarni oldinga qaratib harakatlanganda, odatda harakat bo'yicha birinchi maxsus zina (o'tish maydonchasi, tambur)da turishi, imkon bo'limganda esa, to'xtatilayotgan vagonlarning oldida yo'llar oralig'ida yoki yo'l chetida yurishi; manyovr svetoforlarining ko'rsatmalari, uzatilayotgan signallar, marshrutdagi strelkalar holatini, yo'lda to'siqlar va odamlar yo'qligini kuzatishi; zarurat tug'ilganda manyovr tarkibini to'xtatish choralarini ko'rishi. Radio aloqa bo'limganda, zarur holatlarda signallarni uzatish uchun markazlashtirish posti operatorlari, strelkali post navbatchilari va stansianing boshqa xodimlarini jalg etishi;

d) katta tarkiblar bilan yo'lning egri uchastkalarida yoki ko'rinish yomon (tuman, bo'ron, qor yoqqanda va h.z.) sharoitlarda xavfsizlikni ta'miilash uchun qo'shimcha choralar ko'rishi - signallar va radio aloqa yoki ikki tomonlama park aloqasi orqali ko'rsatmalarni tez-tez uzatishi;

e) kesilgan strelka ko'rikdan o'tkazilib, ta'mirlanmaguncha undan harakat tarkibi o'tkazilishiga yo'l qo'ymasligi;

j) tarkibga yaqinlashishdan avval to'sish signallari yo'qligiga ishonch hosil qilishi;

z) vagonlarni mo'ljallanayotgan turib qolish vaqtidan qat'iy nazar mahkamlamasdan yoki stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida belgilanganidan kamroq mahkamlanib qoldirilishiga yo'l qo'ymaslik;

i) barcha vagonlar o'zaro va lokomotiv bilan tirkalganiga ishonch hosil qilmasdan turib manyovr tarkibi (lokomotiv yoki vagonlarini oldinga qaratib) harakatlanishiga yo'l qo'ymasligi;

k) manyovrlar turtish bilan amalga oshirilganda ajratilgan vagonlarni teskari tomonga harakatlanishiga yoki yo'lning qarama-qarshi chetidagi chegara ustunchasidan tashqariga chiqib ketmasligi choralarini ko'rishi;

l) turtki bilan manyovr qilinganda yoki tarkiblar tepachaga surilganida ajratish richaglari ish sharoitlariga ko'ra "buferga" holatiga o'rnatilgan bo'lsa, ajratilgan qism tarkibdan uzilganidan so'ng richaglarni darhol normal holatga keltirishi;

m) manyovr lokomotivi (yakka yoki vagonlar bilan) vagonlar bilan band etilgan u yoki bu yo'lga boshqa vagonlarni tirkash yoki uzish uchun kirganida, shuningdek, turgan vagonlar uzish uchun siqilganida manyovr lokomotividan qarama-qarshi tomonda vagonlar ishonchli mahkamlanganligiga ishonch hosil qilmasdan ushbu operatsiyalarini bajarishga yo'l qo'ymasligi;

n) u yoki bu yo'lda turgan vagonlar guruhiga, jumladan, belgilangan me'yorlar bo'yicha mahkamlanganlariga ham, qo'shimcha vagonlar tirkalganda, buning natijasida ilgari qo'yilgan boshmoqlarning to'g'ri o'rnatilishi buzilmaganligini, shuningdek, mavjud boshmoqlar, soni oshgan vagonlarga yetarli ekanligini tekshirishi;

o) manyovr tarkibi yuk ortish va tushirish joylaridan qo'zg'alishidan avval, harakatga to'siq yo'qligiga ishonch hosil qilishi;

p) yuk ortish va tushirish ishlari yakunlanmagan vagonlar bilan manyovrlarni faqat yuk ortish va tushirish operatsiyalarini boshqaruvchi xodim bilan kelishilgandan so'ng amalgा oshirish;

r) tuzuvchi va konduktorlik brigadalari xodimlari bilan manyovrlar amalgा oshirilganda, mehnat muhofazasi bo'yicha mahalliy yo'riqnomada ro'yxati belgilangan vagonning maxsus zinachasida, nogabarit va xavfli joylarida turishlarini taqiqlashi.

318. Manyovrlar rahbari ishni shunday tashkil etishi lozimki, harakat tarkibi yo'llarning qarama-qarshi chetidagi chegara ustunchalari (izolyatsiyalovchi birikma yoki svetoforlar)dan tashqariga chiqib ketmasin.

Manyovrlar rahbarining park (yo'l)ning qarama-qarshi chetidagi xodimlar bilan ko'rsatilgan talab bajarilishini ta'minlovchi harakatlarni muvofiqlashtirish tartibi stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida belgilanganadi.

319. Odamlar band etgan yoki 1 klassli xavfli yuk (VM) ortilgan vagonlar, shuningdek, tashish hujjatlarida "Tepachadan tushirilmasin" va "Tepachadan ehtiyyotkorlik bilan tushirilsin" shtempellari bor boshqa xavfli yuklar ortilgan vagonlar bilan manyovr qilish zarurligida stansiya navbatchisi, manyovrlar dispetcheri yoki tepacha navbatchisi bu xaqda poezd tuzuvchisini, u esa o'z navbatida yordamchisini va manyovr lokomotivi mashinistini xabardor qilishi shart.

320. Ta'mirlash (yo'l, SSB) brigadalari ishlayotgan joylarda, pereezdlarni kesib o'tib, yo'lovchi platformalari yonida, yuk omborlari, yuk hududlari, yonilg'i omborlari, vagon va lokomotiv depo yo'llarida, zavodlar, ustaxonalar va shu kabi hududlarda manyovr ishlari amalga oshirilganda, tuzuvchi va lokomotiv brigadalari o'ta ehtiyyotkorlikka riosa etishlari, tarkib yo'l yonida yoki platformalarda turgan odamlarga yaqinlashganda tovushli signallarni o'z vaqtida berishlari, shuningdek, tarkib harakatlanishi xususida yuk ortish, tushirish, yo'lni, vagonlarni ta'mirlash va boshqa operatsiyalarda ishlovchilarga tovushli signalni o'z vaqtida berishlarni shart.

321. TFQ ning 207-bandiga muvofiq, manyovrlarni bajarayotganda lokomotiv brigadasi quyidagilarga amal qilishi shart:

manyovr ishlari topshiriqlarini aniq va o'z vaqtida bajarish;

berilayotgan signallarni diqqat bilan kuzatish, harakatlanish xaqidagi signal va ko'rsatmalarni aniq va o'z vaqtida bajarish;

yo'llardagi odamlar, strelkalarning holati va harakat tarkibining joylashishini diqqat bilan kuzatish;

manyovrlar bajarish xavfsizligini va harakat tarkibi butligini ta'minlash.

TFQ ning 198-bandiga muvofiq, manyovrlarni amalga oshirayotgan lokomotiv mashinistiga, manyovrlar rahbarining ko'rsatmasini shaxsan, radio aloqa, ikki tomonlama park aloqasi qurilmalari orqali yoki qo'l signal asboblari bilan berilgan signalini qabul qilmasdan turib, lokomotivni harakatga keltirish taqilanganadi. Manyovrlar rahbarining ko'rsatmasi yoki signalidan tashqari, markazlashtirilgan manyovr marshrutlarining strelkalariga chiqish oldidan mashinist manyovr svetoforining ruxsat ko'rsatmasi mavjudligiga ishonch hosil qilishi, markazlashtirilmagan strelkalarga chiqish oldidan strelka posti navbatchisidan strelkalarning manyovr harakatlarga tayyorligi to'g'risida signal yoki axborot (shaxsan, radio aloqa, ikki tomonlama park aloqasi qurilmalari) orqali qabul qilishi lozim. Manyovr svetoforlari mavjud bo'limgan hollarda, markazlashtirilgan strelkalarga chiqish oldidan, mashinist strelkalarning manyovr harakatlariga tayyorligi to'g'risida stansiya navbatchisidan (shaxsan, radio aloqa, ikki tomonlama park aloqasi qurilmalari yoki manyovrlar rahbari orqali uzatilgan) axborot qabul qilishi lozim.

Strelka va signallar elektr markazlashtirilgan stansiyalarda, strelkalarni markaziy boshqaruvdan mahalliysiga topshirilgan hollarda, strelkalarga ularni o'tkazish vazifasi yuklatilgan xodimning ko'rsatmasi yoki signaliga binoan chiqishga ruxsat etiladi.

TFQ ning 208-bandiga muvofiq, yig'ma poezdlar bilan ishlayotgan, shuningdek, manyovr ishlarini bajarish uchun ajratilgan lokomotiv brigadalari, konduktorlar va tuzish brigadalari stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatilgan manyovr ishlarining tartibini bilishlari lozim. Stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatilagan manyovr ishlarining shartlari bilan lokomotiv va tuzish brigadalari, konduktoriarni tanishtirish tartibi DATK mintaqaviy temir yo'l uzelining boshlig'i tomonidan belgilanadi.

(321-bandning 8-xatboshisi "O'zdavtemiryo 'lnazorat" DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko'rsatmasiga muvofiq o'zgartirildi).

Manyovrlarni amalga oshirayotgan lokomotiv mashinistiga, manyovrlar rahbarining ko'rsatmasini shaxsan, radio aloqa, ikki tomonlama park aloqasi qurilmalari, manyovrlarda ishtirok etayotgan boshqa xodim orqali yoki shaxsan ushbu Yo'riqnomaning 338-bandida belgilangan qoidalarni bajarib, qabul qilmasdan turib, lokomotivni harakatga keltirish taqiqlanadi.

Manyovrlar paytida lokomotiv mashinist tomonidan boshqariladi. Mashinist lokomotivni boshqarishni o'z yordamchisi yoki nazorati ostida dublyorga ishonib topshirishi mumkin.

322. Vagonlar bilan oldinga qarab harakatlanganda manyovrlar rahbari faqat strelkali post navbatchisidan strelkalarning manyovr harakatiga tayyorligi to'g'risida signal (ma'lumot) olganidan yoki manyovr svetofori ochiq holatda ekanligiga ishonch hosil qilganidan so'ng strelkalar hududiga chiqib, harakatni boshlash to'g'risida signal berishi mumkin.

323. Yakka lokomotiv mashinisti stansiya yo'llari bo'ylab harakatlanganda stansiya navbatchilari, markazlashtirish postlari operatorlari, strelkali post navbatchilari bevosita lokomotiv mashinistiga uzatadigan signallari yoki xabarlari yoki manyovr svetoforlari ko'rsatmalariga binoan ish ko'radi.

324. Uzatiladigan signallar, shuningdek, radio aloqa yoki ikki tomonlama park aloqasi qurilmalari orqali olinadigan ko'rsatmalarni mashinist lokomotivning hushtagi yoki uzatilgan ko'rsatmani qisqacha takrorlash bilan tasdiqlashi shart.

Agar mashinist signal yoki ko'rsatmaning to'g'ri tushunganiga ishonchi bo'lmasa yoki manyovr ishlarining rejasini bilmasa to'xtab, ahvolni aniqlashtirishi lozim.

325. Yo'lovchi poezd jo'natilayotgan yo'ldan (ushbu poezd orqasidan) lokomotiv va manyovr tarkiblari harakatlanishiga bu yo'l to'liq bo'hamaguncha signal va ko'rsatmalar berish taqiqlanadi. Yo'lovchi poezi band etgan yo'lda turgan lokomotivlar mashinistlariga yo'l to'la bo'shatilgani xaqida ma'lumot olmasdan turib, yo'lovchi poezdining ortidan harakatlanishi man etiladi.

326. Strelkali post navbatchilari, markazlashtirish posti operatorlari va strelkalar o'tkazish vazifasi yuklatilgan boshqa xodimlar, manyovrlar amalga oshirilayotgan paytda quyidagilarga amal qilishlari shart:

a) manyovrlar rahbari ko'rsatgan marshrut bo'yicha strelkalarni to'g'ri va o'z vaqtida o'tkazish;

b) strelka o'tkazilgandan so'ng strelkali post navbatchisi uni zakladka bilan berkitib (ushbu Yo'riqnomaning 360-bandida ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno) va ostryak romli relsga jips turganiga ishonch hosil qilishi kerak;

v) manyovr tarkibi harakatlanishi xaqida signal uzatish yoki xabar yuborishdan oldin manyovr marshrutidagi strelkalar holati to'g'rilingini tekshirishi;

g) mashinistga va tuzuvchiga signal va xabarlarni aniq va o'z vaqtida uzatishi;

d) manyovr tarkibining harakatlarini, uzatilayotgan ko'rsatmalar va signallarni e'tibor bilan kuzatib borishi, ushbu ko'rsatma va signallar talablarini o'z vaqtida bajarish.

VAGONLARNI MAHKAMLASH

327. TFQ ning 204-bandiga muvofiq, stansiya yo'llaridagi harakat tarkibi chegara ustunchalari bilan belgilangan chegara ichida joylashtirilishi lozim.

Stansiya yo'llarida lokomotivsiz turgan poezd tarkiblari, vagonlar va maxsus harakat tarkiblari o'z-o'zidan ketib qolishidan tormoz boshmoqlari, qo'l tormozlari

yoki DATK tomonidan belgilangan boshqa mahkamlash vositalari bilan ishonchli mahkamlanishi lozim.

Vagonlar stansiya yo'llarida ushbu Yo'riqnomashshg 2-ilovasida keltirilgan me'yor va qoidalarga muvofiq mahkamlanishi lozim.

Mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda vagon va tarkiblarni mahkamlash tartibi stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatilib, unda har bir yo'lda poezdlarning vagon va tarkiblari qay tariqa mahkamlanishi, ushbu operatsiyalarni bajaradigan, shuningdek, vagon g'ildiraklari ostida mahkamlash vositalarini oladigan yoki qo'l tormozlarini qo'yib yuboradigan kishilar hamda yuqoridagi operatsiyalar bajarilgani xaqida kimga xabar qilish kerakligi belgilanadi.

328. Stansiya yo'llarida qoldiriladigan poezd tarkiblari, yakka yoki guruh vagonlar har bir holatda lokomotiv uzilguniga qadar stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida ko'zda tutilgan me'yorlar bo'yicha tormoz boshmoqlari bilan mahkamlanishi lozim. Nishabligi 0,0025 dan oshmaydigan qiyaliklarda yo'lovchi poezdlar lokomotivlari almashtirilganda 15 minutdan ortiq bo'lмаган muddat mobaynida tarkibni mahkamlash uchun poezd avtotormozlaridan foydalanish mumkin. Ko'rsatilgan vaqt mobaynida lokomotivlarni almashtirish imkon bo'lmasa, tarkib belgilangan me'yorlar bo'yicha tormoz boshmoqlari bilan mahkamlanishi lozim.

329. Stansiyaga kelayotgan poezdlar lokomotivlari mashinistlariga tarkib mahkamlanganligi xususida ma'lumot olmasdan turib, undan lokomotivni uzishiga ruxsat etilmaydi. Bunday xabar mashinistga stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida belgilangan tartibda uzatiladi. Lokomotivni poezddan uzishdan avval barcha holatlarda mashinist tarkibni avtomatik tormozlar bilan tormozlashi shart.

330. Stansiyaga uzoq muddat (24 soatdan oshiq) turish uchun (rezervda, vagon ta'mir zavodiga uzatilishini kutib) kelgan vagonlar poezdlar harakatlanish marshrutidan ajratiltan, nishabligi 0,0025 dan oshmagan yo'llarga qo'yillishi kerak. Bunday vagonlar vagon g'ildiraklarini tormoz boshmoqlari ustiga surish usuli bilan mahkamlanishi lozim. Ishonchli va to'g'ri mahkamlanganlik stansiya boshlig'i, uning o'rinosari yoki stansiya navbatchisi tomonidan tekshirilishi kerak.

331. Yuk poezdlari oraliq stansiyalarda lokomotivsiz vaqtincha qoldirilganda, ular stansiyaiing texnikaviy-boshqaruv aktida tegishli yo'l uchun belgilangan me'yorlar bo'yicha vagon g'ildiraklarini tormoz boshmoqlari ustiga surish bilan maxkamlanadi. Bunday poezd tarkiblarning to'g'ri va ishonchli mahkamlanganli stansiya boshlig'i yoki uning o'rinosari tomonidan tekshiriladi. Ular poezd dispetcherining ko'rsatmasiga binoan stansiyaga oldindan chaqiriladilar va to'g'ri mahkamlanganlik tekshiruvi xaqida unga xabar beradilar. Ko'rsatilgan rahbarlarning chaqirtirish imkon bo'lmasa, to'g'ri va ishonchli mahkamlanganlik shaxsan stansiya navbatchisi tomonidan tekshiriladi va u bu to'g'rida poezd dispetcheriga xabar qiladi.

332. Nishabligi 0,0025 dan ortiq bo'lган, poezdlarni qabul qilish va jo'natish marshrutlariga vagonlarni ketib qolishini oldini oluvchi qurilmalar bilan jihozlanmagan stansiyalarda yoki stansianing ayrim yo'llarida poezdlar tarkibini lokomotivsiz qoldirilishga yo'l qo'yilmaydi.

Bunday stansiyalar va stansiya yo'llarining ro'yxati DATK mintaqaviy temir yo'l uzeli boshlig'inining buyrug'i bilan belgilanadi.

(332-bandning 2-xatboshisi "O'zdavtemiryo'lnazorat" DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko'rsatmasiga muvofiq o'zgartirildi).

333. TFQ ning 201-bandiga muvofiq, harakat tarkibining peregonga ketib qolish xavfi mavjud qiyalikda joylashgan stansiya yo'llaridagi manyovrlar, lokomotivni qiyalik tomondan qo'yib, vagonlarning avtotormozlari ishga tushirilib va sinab ko'rolgandan so'ng amalga oshiriladi. Lokomotivni qiyalik tomondan qo'yish imkoniyati bo'limgan hollarda ushbu yo'llarda manyovrlar tisarish usuli bilan amalga oshiriladi, bunda vagonlarning avtotormozlari ishga tushirilgan va sinab ko'rolg'an bo'lishi lozim. Bunday yo'llarga ega stansiyalarda harakat xavfsizligini ta'minlab manyovrlarni amalga oshirish tartibi poezdlar harakati va manyovr ishlar bo'yicha Yo'riqnomaga bilan belgilanib, stansiyaning texnikaviy boshqaruv aktida ko'rsatiladi.

Qiyalikda joylashgan yo'llarda manyovrlar amalga oshirilganda barcha holatlarda ehtiyoj choralar (strelkalarni ajratilgan holatga o'matish, ayrim uzilgan qismlar ostiga boshmoqlarni qo'yish va boshqa choralar) ko'rilib, uzilgan vagonlarni manyovr tarkibi bilan to'qnashushi, shuningdek, vagonlarni poezdlar harakatlanish marshrutlari yoki manyovr hududlariga ketib qolinishining oldi olinishi lozim.

Manyovr paytida harakat tarkibining ketib qolish xavfi mavjud qiyaliklarda joylashgan hudud va yo'llarning ro'yxati, shuningdek, manyovrlar paytida bu hududlarda rioya etilishi lozim bo'lgan harakat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha choralar stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatiladi.

334. Oraliq stansiyada lokomotivsiz qoldirilgan poezd tarkibi yo'lovchilar o'tishi uchun uzilib, ajratilganda ushbu tarkibning har bir qismi o'zi turgan yo'lning profiliga mos me'yorlar bo'yicha tormoz boshmoqlari bilan mahkamlanishi kerak.

335. Tutashtirish va birlashtirish yo'llari tutashadigan xududlarda harakat tarkibini stansiya yoki peregonga o'z-o'zidan ketishini oldini olish maqsadida stansiya navbatchilar, tuzuvchi brigadalari, strelkali postlar navbatchilar biron harakatdagi tarkib tutash yo'lga kirganidan (chiqqanidan) so'ng darhol berk yo'llar strelkalari (jumladan, markazlashtirilganlari)ni va saqlovchilarini, tushirib yuboruvchi strelka va boshmoqlarni normal holatga o'tkazhilari lozim.

336. Kutilayotgan kuchli shamol to'g'risida ma'lumot olib yoki ma'lumot olinmagan bo'lsada, shunday shamol turganda stansiya xodimlari har biri o'z postida harakat tarkibi ketib qolishdan ishonchli mahkamlanganligini tekshirib ko'rishi va ushbu Yo'riqnomaning 2-ilovasi 9-bandiga muvofiq qo'shimcha tormoz boshmoqlarini qo'yishi lozim.

337. Harakat tarkibini peregonga ketib qolish xavfi paydo bo'lganda stansiya xodimlari uni to'xtatish uchun darhol ixtiyorida bo'lgan barcha vositalardan foydalanishlari shart. Harakat tarkibi peregonga ketib qolganda stansiya navbatchisi ixtiyorida bo'lgan barcha vositalardan foydalanib, qarama-qarshi tomondan kelayotgan poezdlarni ushlab qolish va ketib qolgan tarkibni to'xtatish choralarini ko'rish uchun bu to'g'rida peregondagi poezdlarning mashinistlariga, poezd dispetcheriga, yo'l postlari, qo'shni stansiya va pereezd navbatchilariga va boshqa xodimlarga xabar berishi shart.

338. Harakat tarkiblarini stansiya yo'llarida mahkamlash operatsiyalari bajarilganida xodimlarni o'zaro nazoratini ta'minlovchi quyidagi asosiy qoidalarga rioya etilishi lozim:

A. Poezd tarkiblari maxkamlanganda:

asosiy va qabul qilish-jo'natish yo'llarida stansiya navbatchisi, alohida manyovr hududlarida esa - manyovrlar dispetcheri mahkamlashga rahbarlik va nazoratni amalga oshiradi;

faqat tarkib to'g'ri mahkamlanganligiga ushbu operatsiyani bajaruvchining xabari yoki shaxsan ishonch hosil qilganidan so'ng stansiya navbatchisi lokomotivni uzishga ruxsat berishi mumkin;

poezd lokomotivining mashinisti radio aloqa, park aloqasi, mahkamlashni amalgalash qilganidan so'ng stansiya navbatchisi lokomotivni uzishga ruxsat etilmaydi;

tarkib g'ildiragi ostidan tormoz boshmoqlarini olish ushbu operatsiyani bajaruvchiga radio aloqa, park aloqasi, stansiyaning boshqa xodimi yoki shaxsan lokomotiv brigadasi orqali uzatilgan stansiya navbatchisining ruxsatisiz lokomotivni tarkibdan uzishga ruxsat etilmaydi;

mashinistning radio aloqa yoki stansiya xodimi orqali berilgan xabari bo'yicha lokomotiv tarkibga xaqiqatdan tirkalganligiga ishonch hosil qilganidan so'ng stansiya navbatchisi boshmoqlarni olish to'g'risida ko'rsatma berishi mumkin.

B. Manyovr ishlari paytida:

manyovrlarni amalga oshirish paytida harakat tarkibini mahkamlanishiga manyovrlar rahbari mas'uldir;

manyovr rahbari lokomotivni (yakka o'zini yoki vagonlar bilan) uzishning barcha holatlaridan oldin, yo'lida qoldirilayotgan vagonlarning mahkamlanganligi xaqida ularning soni, shuningdek, tormoz boshmoqlari soni va ular qaysi tomondan qo'yilganligi to'g'risidagi ma'lumot bilan xabar berishi lozim. Qabul qilish-jo'natish yo'llarida manyovrlarni amalga oshirilayotganda xuddi shunga o'xhash xabarni manyovr rahbari stansiya navbatchisiga, alohida manyovr hududlarida - manyovr dispetcheriga vagonlar (yoki boshqa harakat tarkibi) qoldirilayotgan yo'lidan chiqishga ruxsat so'ralganda uzatishi, lokomotiv mashinisti esa - ushbu xabarni radio aloqa orqali stansiya navbatchisiga (manyovr dispetcheriga) qaytarishi shart;

stansiya navbatchisi (manyovr dispetcheri) mashinist va manyovr rahbari uzatgan xabarlarni konkret yo'l uchun stansiya texnika-boshqaruv aktida belgilangan vagonlarni mahkamlash me'yorlariga muvofiqligiga ishonch hosil qiladi va lokomotivni (manyovr tarkibini) yo'lidan (ushbu manyovr hududidan) chiqishiga ruxsat beradi.

Harakat tarkibini mahkamlash operatsiyalarining ularni bajaruvchi va xabar beruvchi konkret xodimlari ko'rsatilgan batafsil reglamenti stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktiga ilova qilinadi.

MANYOVR LARDA TEZLIK

339. Manyovrlar quyidagidan ortiq bo'lмаган tezlikda amalga oshiriladi:

60 km/soat - bo'sh yo'llardan yakka lokomotivlar va avtotormozlari qo'shilgan va sinab ko'rilgan vagonlar ostidan tirkalgan lokomotivlar harakatlanganda;

40 km/soat - ostidan vagonlar tirkalgan lokomotivlar, shuningdek, maxsus o'zi yurar harakat takribi bo'sh yo'llardan harakatlanganda;

25 km/soat - vagonlarini oldinga qaratib, shuningdek, tiklash va o't o'chirish poezdlari harakatlanganda;

15 km/soat - odamlar band etgan vagonlar, shuningdek, nogabaritlik darajasi pastdan va yondan 4-, 5- va 6-darajani tashkil etgan nogabarit yuklar ortilgan vagonlar bilan harakatlanganda;

5 km/soat - vagonlar ajratmasi boshqa vagonlar ajratmasiga, manyovrlar turtki bilan tepacha osti parkida amalga oshirilib, yaqinlashganda;

3 km/soat - lokomotiv (vagonlari bilan yoki vagonlarsiz) vagonlarga yaqinlashganda.

Harakat tarkibining vagon tarozisi bo'yicha harakatlanish tezligi tarozining tuzilishiga bog'liq ravishda stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktida belgilanadi.

Manyovr tarkiblari va yakka lokomotivlar faqat yo'lning bo'shligi to'g'risida ogoshlantirilgan hollardagina 60, 40 va 25 km/soat tezlikda harakatlanishi mumkin. Agar mashinist yo'lning bo'shligi xaqida ogoshlantirilmagan bo'lsa, u harakatga to'siq paydo bo'lsa darhol to'xtashni ta'minlaydigan tezlikda o'ta ehtiyyotkorlik bilan harakatlanishi lozim.

SARALASH TEPECHALARI VA TORTISH YO'LLARIDAGI MANYOVRLAR

340. Vagonlarni saralash uchun tepacha qurilmalariga ega stansiyalarda manyovrlar DATK mintaqaviy temir yo'l uzeli boshlig'i tomonidan tasdiqlangan Yo'riqnomalarga muvofiq amalga oshirilishi lozim bo'lib, ularda, shuningdek, tarkibni tarqatish jarayonlarini avtomatlashtirish qurilmalaridan foydalanish tartibi ham aks ettiriladi.

(340-bandning 1-xatboshisi "O'zdavtemiryo'lnazorat" DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko'rsatmasiga muvofiq o'zgartirildi).

Saralash tepachalari ishi bo'yicha Yo'riqnomada, shuningdek, vagonlarni saralash yo'llaridan saralash tepachasidan qarama-qarshi tomondagi bo'g'izga ketib qolishi oldini oladigan choralar (to'suvchi tormoz boshmoqlarini qo'yish, ajratmalarni park ichida tormozlash, saralash tepachasi va saralash parki xodimlari hamjixatligi va boshqa choralar) ham ko'zda tutilishi lozim.

341. Saralash tepachaligidan vagonlarni tarqatishdan avval tepacha navbatchisi quyidagilarni bajarishi shart:

- tepacha tomondan yo'llarning bo'shligini va ularda o'tish joylari mavjudligini;
- mo'ljallanayotgan tarqatish rejasи, ajratmalarni joylashish ketma-ketligi, har bir ajratmadagi vagonlar soni, ajratmalarining yurish xususiyatlari, tarqatishda o'ta ehtiyyotkorlikni talab qiluvchi,
- bazasi uzun (ichki g'ildirak juftlari o'qlari orasidagi masofa 11,3 m dan ortiq bo'lgan) vagonlar mavjudligi va boshqa zarur ma'lumotlar bilan tanishib chiqishi;
- ushbu stansiyada o'rnatilgan tartibga ko'ra vagonlarni saralashda ishtirok etayotgan boshqa xodimlarni (boshqaruv va ijro posti operatorlari, poezd tuzuvchisi, vagonlarni harakatlanish tezligini regulirovkachilarini) mo'ljallanayotgan saralash ishi xususiyatlari bilan tanishtirishi;
- saralash ishlarini avtomatlashtirish qurilmalarini qo'shishi.

342. Tepacha navbatchisi, boshqaruv va ijro postlari operatorlari, poezd tuzuvchilari, vagonlar harakati tezligi regulirovkachilarini saralash yo'llarining to'liqligi, ajratmalarining o'tish sharoitlari, saralash parki yo'llari bo'yicha ajratmalarining navbatlashuvida boshqalarga bog'liq ravishda tarqatish jarayonida vagonlarni yaqinlashish tezligi va tormozlanish darajasini regulirovka qilishlari lozim.

Tarqatish jarayonida tepacha navbatchisi, boshqaruv va ijro postlari operatorlari ajratmalarining harakatlarini kuzatishlari, ularning saralash parki yo'llaridan to'g'ri harakatlanishlarini tekshirishlari, saralash ishlarini avtomatlashtirish qurilmalari faoliyatini nazorat qilishi va vujudga kelayotgan ahvoldan kelib chiqib, zarurat tug'ilganda ushbu qurilmalar ishini sozlashlari lozim.

343. Saralash yo'llarida 1 klassli xavfli yuk (VM) ortilgan vagonlar va suyiltirilgan gazli sisternalar bo'lganda, manyovr dispetcherlari va saralash tepachalari navbatchilari ushbu vagonlar joylashgan yo'llarning aniq hisobini yuritishlari shart.

Tashish hujjatlarida "Tepachadan tushirilmasin" shtempeli mavjud bo'lgan portlovchi materiallar (VM) ortilgan vagonlar, suyiltirilgan gazli sisternalar va suyiltirilgan gazlardan bo'shatilgan sisternalar saralash yo'llariga qo'yilgach, zudlik bilan tepacha, yarim tepacha va tortish yo'li tomonidan ikki relsga bir-biridan 25 metr masofada o'rnatiladigan muhofaza

boshmoqlari bilan shunday mahkamlanishi kerak-ki, saralash qurilmasidan bиринчи bo'lib joylashgan tormoz boshmog'идан to'silayotgan vagonlargacha bo'lган umumiylasofa 50 metrdan kam bo'lmasin.

Bu yo'llarga yuborilayotgan keyingi ajratmalar, muhofaza tormoz boshmoqlari o'rnatilgan joy oldida, 10 vagondan kam bo'lмаган guruh to'planguniga qadar, to'xtatilishi kerak. Vagonlarni tarqatish yoki ularni manyovr vaqtida turtkilar bilan bu yo'llarga jo'natishtirish normal rejimi, to'siluvchi vagonlarni bu guruh vagonlar bilan (muqaddam ular bilan biriktirilgan bo'lsa) to'silgan holda, qaytadan tiklanadi. Agar, tashish hujjatlarida "Tepachadan tushirilmasisin" shtempeli mavjud bo'lган to'silayotgan vagonlar bilan park tormoz pozitsiyasi oxirigacha bo'lган masofa 50 metrdan kam bo'lsa, keyingi ajratmalar bu yo'lga tisarish usuli bilan yuborilishi kerak.

Tarqatish jarayonida tepacha navbatchisi, boshqaruv posti operatori yoki tepacha tuzuvchisi ikki tomonlama park aloqasi yoki aloqaning boshqa turlari orqali ijro postlari operatorlarini vagonlarni harakatlanish tezligi regulirovkachilarini, strelkali postlar navbatchilarini o'ta ehtiyyotkorlik talab qiluvchi ajratmalar: 1 klassli xavfli yuk (VM), vagon kuzatuvchilari, jonivorlar va b. ortilgan vagonlar to'g'risida doimo xabardor qilib turishi kerak.

Bunday ajratmalarni tepachadan tarqatishda, shuningdek, o'ta ehtiyyotkorlikni talab qiluvchi yuk ortilgan vagonlar turgan yo'llarda har qanday ajratmalarni tarqatishda ishtiroy etayotgan barcha xodimlar ayniqsa, juda ehtiyyot bo'lishlari, tarqatish xavfsizligini va harakat tarkibi butligini ta'minlashlari kerak. Yaqinlashish tezligini, shuningdek, sekinlatkichlardagi tormozlash kuchini ajratmalar o'rtasida zarur oraliqlar bo'lishini va ushbu vagonlarning boshqa vagonlar bilan to'qnashganida belgilangan tezliklarga so'zsiz rioya etilishini hisobga olib regulirovka qilishi lozim.

Tarqat'iyayotgan tarkibda va saralash parki yo'llarida ayrim toifadagi o'ta ehtiyyotkorlikni talab qiluvchi, temir yo'llar bo'ylab xavfli yuklarni tashish qoidalari va temir yo'llarda yuklarni tashish qoidalari nomlari zikr etilgan yuklar ortilgan vagonlar mavjudligi to'g'risida xodimlarni xabardor qilish tartibi, mahalliy Yo'riqnomalarda belgilanadi.

344. TFQ ning 202-bandiga muvofiq, quyidagi vagonlarni turtki bilan manyovr qilish va tepachadan tarqatish taqiqlanadi:

odamlar bo'lган vagonlar, ammo yuklarni kuzatib boruvchi yo'l kuzatuvchilar (guruhrilar) bo'lган vagonlar bundan mustasno;

yuklarni tashish qoidalariiga muvofiq alohida toifadagi yuklar ortilgan vagonlar;

4-, 5-, 6-darajadagi yon va pastki nogabaritlik, 3-darajadagi yuqori nogabaritlik yuklar ortilgan platforma va yarim vagonlar, yuk ortilgan transportyorlar;

ishlamayotgan lokomotivlar, motor vagonli harakat tarkibi, refrijerator poezd tarkiblari, yo'lovchi vagonetlar, temir yo'lda harakatlanadigan kranlar;

"Tepachadan tushirilmasisin" yozuvi bor vagonlar va maxsus harakat tarkiblari.

Yuqorida ko'rsatilgan harakat tarkiblari saralash tepachasi orqali faqat manyovr lokomotivi bilan o'tkazilishi mumkin.

TFQ ning 203-bandiga muvofiq, saralash tepachalaridan quyidagilarni o'tkazish taqiqlanadi: 12 va undan ortiq o'qi bor yuk ortilgan bo'sh transportyorlar; ulanmada bir yoki ikkita oraliq platforma mavjud bo'lганida yuk ko'tarish qobiliyati 120 tonna bo'lган ulanma turidagi yuk ortilgan transportyorlar; "Tepachadan o'tkazilmasin" yozuviga ega harakat tarkibi.

Tepacha svetoforlarining turli ko'rsatmalarida saralash tepachalaridan vagonlarni tarqatish tezligi, shuningdek, harakat tarkibi butligini ta'minlovchi shartlar tepachalarning texnikaviy jihozlanganligi va mahalliy sharoitlardan kelib chiqib DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi. Tepacha osti parkida bir vagonlar ajratmasining ikkinchisiga yaqinlashish tezligi 5 km/soat dan ortiq bo'lmasligi lozim.

Agar vagonlarning tashish hujjatlarida "Tepachadan tushirilmasin" yoki vagon va maxsus harakat tarkibida "Tepachadan tushirilmasin" trafareti qo'yilgan bo'lsa, bu holda ular bilan manyovrlar tisarish yo'li bilan yoki park osti parki tomonidan lokomotivlar yordamida "olish" bilan, to'sish me'yorlariga rioya qilgan holda o'ta ehtiyyotkorlik bilan, turtikilarsiz va bordaniga to'xtalishlarsiz amalga oshirilishi kerak. Bunday vagonlar va maxsus harakat tarkibining boshqa vagonlar yoki lokomotivlar bilan birikish tezligi 3 km/soat dan oshmasligi kerak. Ularning saralash tepachalaridan o'tkazilishi faqat lokomotivlar bilan amalga oshirilishi kerak.

Saralash tepachalaridan 12- va 5-vagonli seksiyalar, shuningdek, mashina sovutgichli avtonom vagonlarni tarqatishda ularni tepacha osti parkida turgan vagonlar bilan hamda o'sha vagonlarning keyingi ajratmalar bilan urilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ko'rsatilgan vagonlar tepacha svetoforining sariq chirog'ida tarqatiladi.

345. Tepachadan yuk yoki jonivorlarni kuzatib borayotgan yo'l kuzatuvchilar (komandalar) bilan band vagonlar tarqatilishidan avval, shuningdek, bunday vagonlar bilan turtki usulida manyovrlarni boshlashdan oldin yo'l kuzatuvchilar va komanda mo'ljallanayotgan manyovrlar to'g'risida poezd tuzuvchilari tomonidan ogohlantirishlari lozim.

346. Vagonlar harakatlanish tezligining har bir regulirovkachisi tarqatish jarayonida u yoki bu saralash yo'lida vagonlar mavjudligini kuzatib borishi va ushbu yo'l to'liq band etilganda katta regulirovkachi, tepacha navbatchisi yoki tepacha tuzuvchisiga o'z vaqtida xabar berishi kerak.

Aniq va avariyasiz ishni ta'minlash maqsadida vagonlarni harakat tezligi regulirovkachilari quyidagilarga amal qilishi shart:

- a) tarkibni tarqatish boshlanganida o'zi xizmat ko'rsatadigan yo'llarda bo'lishi;
- b) tepacha navbatchisi uzatadigan ma'lumot va komandalarni hamda tuzuvchi yoki lokomotiv mashinisti uzatadigan signallarni diqqat bilan kuzatishi;
- v) yo'llarning sig'imidan imkonи boricha to'liq foydalanishi va tepacha osti parkining yo'llarida turgan vagonlarga ajratmalarni xavfsiz yaqinlashishini ta'minlagan holda vagonlarni hisob-kitob bilan tormozlash. Tepachadan katta ajratmalar tarqatilganda qo'shimcha tormoz boshmoqlari g'ildirak juftliklari ostiga boshmoq qo'ygich yoki maxsus vilka vositasida o'rnatiladi;
- g) vagonlarni tirkash uchun yo'lga tuzuvchi yoki tepacha navbatchisining ko'rsatmasiga binoan lokomotiv kirganida vagonlar ostidan tormoz boshmoqlarini chiqarish;
- d) qo'shni yo'llarga xizmat ko'rsatuvchi vagonlarning harakat tezligi regulirovkachilariga, ajratmalar ularning ish hududiga jadal harakatlanayotganda yordam berish.

347. Vagonlar stansiya yo'llarida tormozlanganda tormoz boshmoqlarini quyidagi joylarga o'rnatish taqiqlanadi:

- a) bevosita rels ulog'i oldidan (1 m va kamroq masofada) va rels ulog'iga (payvandlanmagan bo'lsa);
- b) strelka o'tkazgichning krestovinasi oldidan;
- v) strelka o'tkazgichning ostryagi jipslashgan romli relsiga;
- g) egri joyning tashqi relsiga.

348. Nosoz tormoz boshmoqlaridan (old qismi yorilgan, tag qismi tob tashlab qiyshaygan va b.) foydalanish taqiqlanadi.

Tormoz boshmoqlari (ko'z yaxshi ilg'aydigan rangga) bo'yalishi, belgilangan tamg'aga ega bo'lishi va yo'llar oralig'ida va stellajlarda maxsus javonlarda saqlanishi lozim.

349. Tepacha navbatchi (tuzuvchi)si va saralash parkining qarama-qarshi tomoni tuzuvchisi yoki boshqa xodimi stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida belgilangan tartibda, o'zaro kelishib olmaslaridan, saralash parkida tepacha tomonidan yoki saralash parki yo'llarining qarama-qarshi tomonidan vagonlarni tisarish va birlashtirish taqiqlanadi.

Tisarishdan oldin tuzuvchi vagonlar ostida tormoz boshmoqlarining yo'qligiga, vagonlar avtoulagichi ajratish dastaklarining normal holatda ekanligiga va harakatga to'siq yo'qligiga ishonch hosil qilishi shart.

350. Tortish yo'llaridagi manyovrlar, odatda (davomli yoki yakka) turtkilar bilan amalga oshiriladi.

Turtkilar bilan manyovrlarni amalga oshirish manyovr ishlarini tashkil etishning asosiy usuli hisoblangan hududlar uchun stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida quyidagilar: ajratmalarni tormozlash tartibi; texnikaviy vositalar (aloqa, boshmoq qo'yigichlar, boshmoq tushirgichlar va h.z.) mavjudligi va qo'llash tartibi hamda xavfsizlikni ta'minlashning boshqa choralar ko'rsatilishi lozim.

351. Ajratmaning yurish xususiyatlari va og'irligi, saralash yo'llarining bo'shligi va atmosfera sharoitlarini hisobga olib tuzuvchi turtki uchun tarkibni tezlanishini, markazlashtirish postlari operatorlari, strelkali postlar navbatchilari va vagonlar tezligining regulirovkachilari strelkalarni o'tkazish va tormoz boshmoqlarini qo'yish uchun yetarli vaqtga ega bo'lishini hamda vagonlarni urilish tezligi belgilanganidan oshib ketmasligini hisobga olib regulirovka qilishi shart.

352. Manyovrlarni normal amalga oshirish jarayoni buzilganda (orqadagi ajratma oldindagisini quvib etganda, ajratma strelkali bo'g'izda to'xtab qolganda va h.z.) tepacha postlari operatorlari, strelkali postlar navbatchilari, vagonlar harakat tezligini regulirovkachilari va manyovrlarda ishtirot etuvchi boshqa xodimlar darhol saralash tepachasi navbatchisini, tepacha tuzuvchisini xabardor qilishlari, to'xtash buyrug'ini (signalini) berishlari va harakatlanayotgan navbatdagi ajratmani ushlab qolish choralarini ko'rishi shart.

ASOSIY VA QABUL QILISH-JO'NATISH YO'LLARIDA AMALGA OSHIRILADIGAN MANYOVRALAR

353. TFQ ning 200-bandiga muvofiq, asosiy yo'llarda yoki ularni kesib o'tib, shuningdek, chiqish strelkalaridan tashqarida manyovrlar bajarish, har bir alohida holatda manyovrlar amalga oshirilayotgan yo'llar va strelkalarni kirishni to'suvchi tegishli kirish svetoforlarining yopiq holatida, stansiya navbatchisining ruxsati bilan amalga oshirilishi mumkin.

Stansianing qabul qilish-jo'natish parkalarida manyovrlar faqat stansiya navbatchisi tuzuvchi (bosh konduktor) ga manyovr ishiga topshiriq berganda ko'rsatgan yo'llar (strelkalar)da amalga oshirilishi mumkin.

354. TFQ ning 200-bandiga muvofiq, poezdlar dispetcheri va qo'shni stansiya navbatchisining rozilgisiz va mashinistga berilgan tegishli ruxsatnomasiz tarkibni stansiya chegarasidan peregonlardagi bir yo'lli va noto'g'ri yo'ldan ikki yo'lli uchastkalarga chiqib manyovr qilishi taqiqlanadi. Tarkibni stansiya chegarasidan to'g'ri yo'l bo'ylab ikki yo'lli uchastkalarga chiqib manyovrlar qilishiga, poezd dispetcherining roziligi bilan, stansiya navbatchisining og'zaki ruxsati bo'yicha ruxsat etiladi.

Bir yo'llik peregonlarda manyovr tarkibining stansiya chegarasidan chiqishi uchun quyidagilar ruxsat bo'lib xizmat qiladi:

a) avtomatik blokirovkada - tegishli chiqish svetofori ochilganidan so'ng manyovr lokomotivi mashinistiga topshiriladigan jezl-kalit. Ochiq chiqish svetofori va jezl-kalit bo'yicha manyovr tarkibi birinchi bor stansiya tashqarisiga chiqqanidan so'ng peregonga takroriy chiqishlar, mashinistda jezl-kalit mavjudligida chiqish svetoforini ochmasdan amalga oshiriladi.

Yo'l svetoforlari bilan bog'langan maxsus manyovr svetoforlariga ega avtomatik blokirovka bilan jihozlangan stansiyalarda manyovr tarkibining stansiya chegarasidan tashqariga chiqishi ushbu manyovr svetoforining ruxsat ko'rsatmasiga asosan amalga oshiriladi.

Jezl-kalit yoki maxsus manyovr svetofori bo'limganda stansiya chegarasidan chiqiladigan manyovrlar uchun manyovr lokomotivining mashinistiga yo'l xati (qog'ozi) taqdim etiladi;

b) yarim avtomatik blokirovkada - ushbu peregonning kalit-jezli, uning yo'qligida - yo'l xati (qog'ozi);

v) elektr jezl tizimida - ushbu peregonning jezli yoki kalit-jezli;

g) telefon aloqasida - yo'l xati (qog'ozi).

355. Bir yo'llik peregonlarda mashinistga yo'l xati (qog'ozi) taqdim etilib manyovr tarkibining stansiya chegarasidan chiqishi barcha holatlarda faqat poezdlar harakatida signalizatsiya va aloqa asosiy vositalarining amal qilishini to'xtatmasdan peregonni chegaralovchi ikkala stansiyaga bir paytning o'zida uzatiladigan poezd dispetcherining ruxsati bo'yicha amalga oshiriladi.

Bunday ruxsatni olganlaridan so'ng stansiya navbatchilari quyidagi mazmundagi telefonogrammalar bilan almashadilar:

"Stansiya chegarasidan chiqib manyovrlar amalga oshirishim mumkinmi";

"Stansiya chegarasidan chiqib manyovrlarni amalga oshirishga ruxsat beraman".

Ko'rsatilgan so'nggi telefonogrammani qabul qilinishi mashinistga ushbu Yo'riqnomanинг 5-bobida ko'zda tutilgan DU-50 shaklidagi blankada yo'l qog'ozini taqdim etish uchun asos bo'lib, uning yuqorisida qo'l bilan **"stansiya chegarasidan chiqib manyovrlar qilish"** degan belgi qo'yiladi.

Ko'rsatilgan telefonogrammalar bilan poezd dispetcherlik aloqasi orqali poezd dispetcherining nazorati ostida almashinadi.

Peregon qarama-qarshi tomondan kelayotgan poezd bilan band bo'lsa, manyovr tarkibini stansiya chegarasidan chiqishiga so'rov so'rash va ruxsat berish taqilganadi.

Peregonda manyovrlar amalga oshirilayotgan stansiyadan jo'natilayotgan poezd harakatlanayotganda rozilik berilgan paytda peregon qo'shni stansiyadan poezd yetib borganligi xaqida xabar olinguncha va ushbu stansiyaga manyovrlar yakunlangani to'g'risida quyidagi shakldagi xabarnoma uzatilmaguncha peregon band hisoblanadi:

"Manyovr tarkibining stansiya chegarasidan tashqariga chiqadigan manyovrlari yakunlandi".

Manyovr tarkibini stansiya chegarasidan chiqishiga taaluqli barcha so'zlashuvlar poezd telefonogrammalarini jurnalida qayd etiladi.

356. Manyovr tarkibining ikki tomonlama yo'l blokirovkasi bilan jihozlanmagan ikki yo'llik peregonning noto'g'ri yo'li bo'ylab stansiya chegarasidan chiqish zaruriyati tug'ilganda, peregonning ushbu yo'lida blokirovka faoliyati o'matilgan tartibga binoan yopiladi. Blokirovka yopilgandan so'ng, manyovr tarkibining stansiya chegarasidan chiqishi lokomotiv mashinistiga ushbu Yo'riqnomanинг 355-bandida ko'zda tutilgan tartibda

to'ldirilgan yo'l xati (qog'ozi)ni berish bilan amalga oshiriladi, bunda yo'l xati (qog'ozi) blankasining tepasidagi belgida "noto'g'ri yo'l bo'yab" degan so'zlar qo'shiladi.

Ikki tomonlama avtomatik blokirovkada blok sistema harakatning tegishli yo'nali shiga o'tkazilgandan so'ng, manyovr tarkibining stansiya chegarasidan noto'g'ri yo'l bo'yab chiqishi bir yo'llik peregonlar uchun ko'zda tutilgan tartib bo'yicha amalga oshiriladi.

357. Qabul qilish va jo'natish yo'llarini yakka yoki bir guruh vagonlar bilan egallab turishga odatda yo'l qo'yilmaydi. Harakat tarkibi tomonidan manyovr ishlari amalga oshirilayotganda qabul qilish va jo'natish yo'llarini vaqtincha band etish faqat poezd dispetcherining ruxsati bo'yicha yo'l qo'yiladi.

Oraliq stansiyalarda qabul qilish-jo'natish yo'llarini alohida vagonlar yoki harakat takribi bilan band etishga, stansiya navbatchisi faqat poezd dispetcheri buyrug'i bilan yo'l qo'yadi.

Tutib qoluvchi berk yo'llarni har qanday harakat tarkibi, muhofaza berk yo'llarni esa - yo'lovchi va odamlar ortilgan yuk vagonlari, xavfli yuki bo'lgan yuk vagonlar bilan band etish man qilinadi.

STRELKALI POSTLARNING NAVBATCHILARI XIZMAT KO'RSATMAYDIGAN STANSIYA HUDDULARIDA MANYOVR ISHLARI

358. Manyovr lokomotivi yuk hududlari, ko'mir omborlari, vagon yoki lokomotiv depolari va boshqa yo'llarga kirish zaruriyati tug'ilsa, stansiya navbatchisi yoki poezd tuzuvchisi vagonlarni qo'yish yoki chiqarish xaqida ushbu hududda ishlarni boshqaruvchisi bilan avvaldan kelishib olishi kerak.

Kelishuv tartibi stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatiladi.

359. Poezd tuzuvchisi strelkalarga strelkali postlar navbatchilari xizmat ko'rsatmaydigan hudud yo'llariga manyovr tarkibining kirishi oldidan yo'l va strelkalar holatini o'ta sinchkovlik bilan tekshirib, harakat uchun to'siqlar yo'qligiga ishonch hosil qilish kerak.

Bunday hududlarda strelkalarni o'tkazish poezd tuzuvchisi yoki stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatilgan boshqa xodim tomonidan amalga oshiriladi.

360. Stansiya navbatchisining ruxsatisiz, stansiya yo'llariga strelkali post navbatchilari tomonidan xizmat ko'rsatilmaydigan hududlardagi manyovr lokomotivlari yoki tarkiblarning chiqishi man qilinadi.

Manyovr lokomotivlarning bunday hududlardan chiqishi stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida belgilanadi.

12-bob. OGohlantirishlarni Berish Tartibi

361. TFQ ning 263-bandiga muvofiq, poezdlarning yo'nali shi bo'yicha lokomotiv brigadalarining alohida hushyorligini ta'minlash va ularni ishlarni amalga oshirish xaqida ogohlantirish kerak bo'lgan taqdirda poezdlarga yozma ogohlantirishlar topshiriladi.

Ogohlantirishlar quyidagi hollarda topshiriladi:

yo'l, kontakt tarmoq qurilmalari, pereezd signalizatsiyasi, sun'iy va boshqa inshootlar nosozligida, shuningdek, yo'lda to'xtash yoki tezlikni kamaytirishni talab qiladigan ta'mir va qurilish ishlarida;

signalizatsiya va aloqa vositalarining yangi turlarini foydalanishga topshirishda, shuningdek, yangi svetoforlarni yoqishda, eskilarini ko'chirishda va bartaraf qilishda, ularni yopiq holatga keltirib bo'lmaydigan nosozliklarda;

yo'l avtomatik signalizatsiya qurilmalarining nosozligida;
ortish gabaritlaridan tashqariga chiqqan yuklar ortilgan poezdni jo'natishda
ushbu poezdning yo'naliishi davomida tezlikni pasaytirish yoki alohida sharoitlarga
rioya qilish kerak bo'lganda;

ikki yo'lli peregonda qor tozalagich, ballaster, yo'l yotqizuvchi, ko'tarma kran,
shag'al tozalagich va boshqa mashinalar ishlaganda;

berilgan uchastka uchun belgilangan tezlik bilan harakatlana olmaydigan
harakat tarkibini poezdga biriktirganda;

kirish sharoiti yomon bo'lganida olib qo'yiladigan harakat birliklari bilan
ishlashda, shuningdek, yo'l vagonchalarida og'ir yuklarni tashishda;

yo'lda poezdni to'xtatish yoki tezlikni pasaytirish kerak bo'lgan boshqa barcha
holatlarda, shuningdek lokomotiv brigadalarni poezd alohida sharoitda
harakatlanayotgani xaqida ogohlantirish kerak bo'lganida.

Barcha ogohlantirishlar uch turga bo'linadi:

a) belgilangan vaqtidan bekor qilinguncha amaldagilar, tegishli rahbar ishlarni bajarish
sharoitlariga ko'ra ishning yakunlashining aniq vaqtini aytib berolmagan hollarda;

b) ishlar rahbari tomonidan belgilangan aniq muddat mobaynida amaldagilar, ushbu
muddat ogohlantirish berish uchun talabnomada ko'rsatiladi;

v) ayrim poezdlar uchun o'tkazishning alohida harakatlarida (masalan, poezdda
belgilangan tezlikda harakatlanishi mumkin bo'lмаган yuk yoki harakat tarkibining
mavjudligi, grafikda belgilanmagan to'xtashlar tayinlanishi va rioya qilish zarurligida).

362. Mo'ljallangan ishlarni bajarish bilan bog'liq ogohlantirishlarga talabnomalar
quyidagi muddatlarga beriladi:

a) yo'l ustalari, kontakt tarmog'i hududining boshliqlari va elektromexaniklari,
signalizatsiya va aloqa vositasi elektromexaniklari tomonidan - ishlarni bajarish davriga,
ammo 12 soatdan oshmagan muddatga;

b) yo'l, signalizatsiya va aloqa, elektr ta'minoti distansiyalari boshliqlari yoki ularning
o'rnbosarlari tomonidan - 5 sutkagacha;

v) DATK mintaqaviy temir yo'l uzeli boshliqlari tomonidan - 10 sutkagacha.

(*362-bandning 4-xatboshisi "O'zdavtemirov Inazorat" DI boshlig'ining 2003 yil
27 yanvardan 1/6-7-02-son ko'rsatmasiga muvofiq o'zgartirildi*).

Poezdlar harakati grafigida ko'zda tutilmagan bundan uzoqroq muddatga beriladigan
ogohlantirishlar DATK boshqaruvi raisining buyrug'i bilan belgilanib, ushbu buyruqda
DATK boshqaruvi raisi tegishli xodimlarga zarur ishlar bajarilib, normal tezlik tiklangandan
so'ng, ogohlantirishni bekor qilish xuquqini berishi mumkin. DATK boshqaruvi raisi
tomonidan belgilanadigan ogohlantirishlar, talabnomada tushgandan so'ng bir sutka muddat
ichida rasmiylashtirilishi kerak.

Yo'lni yo'l o'lchagich va defekt aniqlagich vagonlar bilan tekshirish paytida
poezdlarni harakat xavfsizligiga tahdid soluvchi joylar aniqlanganda, ogohlantirish berishga
talabnomalar ushbu vagonlarning boshliqlari yoki ularning o'rnbosarlari tomonidan ham
topshirilishi mumkin.

Yo'l ustalari, kontakt tarmog'i hududining boshliqlari va elektromexaniklari,
signalizatsiya va aloqa distansiyasining elektromexaniklari ogohlantirish berishga
talabnomani quyidagi hollarda topshiradilar: olinadigan harakat birliklarining ishlashida, yo'l
vagonchalarida og'ir yuklarni tashilganda, ikki va ko'p yo'llik peregonlarda yo'l oralig'iga
materiallar tushirilganda yoki poezd o'tuvchi yo'l orqali qo'shni yo'lda turgan poezddan
yuklar tushirilganda.

Yo'l ustalari tomonidan, bundan tashqari, yo'l brigadir rahbarlik qilish xuquqiga ega
mo'ljallangan ishlarni bajarish uchun ogohlantirish berishga talabnomalar topshiriladi.
Bunday ishlar ro'yxati yo'l ishlarini bajarishda poezdlar harakati xavfsizligini ta'minlash
bo'yicha Yo'riqnomada belgilanadi.

363. Ogohlantirish berishga talabnomalar yozma ravishda, telegramma yoki telefonogramma shaklida DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilangan ogohlantirishlar berish stansiyalariga, ogohlantirish belgilanayotgan peregonni chegaralovchi stansiyalarga, markazlashtirilgan dispetcherlik uchastkalarida esa, shuningdek, poezd dispetcheriga ham yo'llanadi. Sanab o'tilgan stansiyalardan biriga berilgan yozma talabnoma uni imzolagan shaxs tomonidan belgilangan boshqa manzillarga telegramma yoki telefonogramma yuborilib, tasdiqlanishi lozim.

Agar ogohlantirish berishga talabnoma yo'l distansiyasi boshlig'i yoki boshqa yuqori turuvchi rahbar tomonidan berilsa, uning nusxasi ishlar rahbariga ham yuboriladi.

Ko'zda tutilgan ogohlantirishlar berishga talabnoma bayon etilgan telegammalar (telefonogrammalar) shunday hisob-kitob bilan jo'natilishi lozimki, ogohlantirish berish stansiyasining navbatchisi tomonidan ogohlantirish amalga kirishi paytidan kamida 3 soat ilgari qabul qilinsin, poezdlar to'xtovsiz 3 soatdan ortiq harakatlanadigan yo'nalishlarda esa - DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilangan muddatdan ilgari qabul qilinsin.

Ogohlantirishni o'rnatish yoki bekor qilish uchun beriladigan har bir talabnoma alohida telegramma (telefonogramma) bilan rasmiylashtirilishi va ogohlantirish berish stansiya navbatchisiga faqat yozma ravishda yetkazilishi kerak.

Begilangan manzillar bo'yicha talabnomalar, telegramma va telefonogrammalarni o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlaydigan, ogohlantirishlarni o'rnatish yoki bekor qilish xaqidagi talabnomalar, telegramma yoki telefonogrammalarni yuborish tartibi DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.

Talabnoma ijroga qabul qilinganiga quyidagilar tasdiq bo'ladi:

a) begilangan manzillarga jo'natish uchun telegramma qabul qilib olingani xaqida telegraf xodimi (telegraf bo'lмаган joyda - stansiya navbatchisi) imzo chekkan telegramma (telefonogramma) nusxasi yoki matnida uni begilangan manzillarga yetkazishning qayd etilgan vaqt, ushbu telefonogrammani qabul qilgan xodimning lavozimi va familiyasi ko'rsatiladi;

b) ogohlantirishlar berish stansiyasi navbatchisining yozma talabnoma olganligi to'g'risida yoki ushbu stansiya navbatchisining ogohlantirishlar kitobida talabnoma bergen xodimning yozuvi ostidagi imzosi.

364. Poezdlarga ogohlantirishlar berilayotganiga poezd dispetcheri yoki stansiya navbatchisi orqali ishonch hosil qilmasdan oldin, ishlar rahbariga ishga kirishish, ishlarni xavfsiz bajarilishiga mas'ul xodimiga ishni boshlashga ruxsat berish taqilanganadi.

365. Ogohlantirish berish uchun talabnomalarda quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

a) ogohlantirish amal qiladigan joyning aniq belgilari (peregon, kilometr va yo'l nomeri);

b) poezdlar harakatida ehtiyyot choralari;

v) ogohlantirish amalga kiradgan vaqt va muddati.

366. Harakat xavfsizligiga xavf soluvchi va to'xtash signallari yoki tezlikni pasaytirish, "Tok qabul qilgichni tushirish" signallari bilan to'silishni talab qiluvchi yo'l va qurilmalar nosozliklari (defektli yakka rels, nakladkalar, strelna ostryaklari, tenglash asboblari qismlari, krestovinani almashtirish, bo'rtib chiqqan yo'llarni to'g'rilash va h.z.) aniqlanganda, ularni bartaraf etishda kutilmagan ishlarni bajarish harakatlariga ogohlantirish berishga talabnomalar yo'l ustasi (u bo'lмагана - yo'l brigadir), kontakt tarmog'i hududlari xodimlari talabi bo'yicha energodispetcher yoki elektrita'minoti distansiyasi boshlig'i (elektmexanigi), SSB elektrmexanigi tomonidan topshirilib, bu to'g'rida yo'l distansiyasi boshlig'i yoki mos ravishda elektr ta'minot distansiyasi, kontakt tarmog'i hududi yoki signalizatsiya va aloqa distansiyasi boshlig'iga xabar qilinadi.

367. Harakat xavfsizligiga tahdid qiluvchi kutilmagan holatlar paydo bo'lganda, ogohlantirish berishga talabnama bevosita peregonni chegaralovchi stansiyalar (yoki shu stansiyalardan biri) navbatchilariga uzatiladi.

Peregonni chegaralovchi stansiya navbatchisi olingan talabnomaga yoki qo'shni stansiya navbatchisining ma'lumotiga asosan, birinchi navbatda peregonda xavfli joyga qarab harakatlanayotgan poezdlarning mashinistlariga radio aloqa orqali kilometr (piket)ni va uni bosib o'tishda ehtiyyot choralarni xabar qilishi shart. Ma'lumot to'g'ri qabul qilinganiga ishonch hosil qilib bu xaqda poezd dispetcheriga xabar qilishi lozim. Ushbu yo'nalishda harakatlanayotgan poezd yaqinlashayotgan yoki stansiyada bo'lsa, mashinistni radio aloqa orqali ogohlantirish imkoniyati bo'lmasa, yozma shakldagi ogohlantirishni taqdim qilish uchun chiqish (marshrut) svetofori oldida to'xtatish lozim.

Stansiya navbatchisidan xabar olgan poezd dispetcheri peregonni chegaralovchi va ogohlantirish berish stansiyalariga poezdlarga ogohlantirish berish tartibi to'g'risida qayd etiladigan buyruq beradi.

Poezd dispetcherlik aloqasi uzilgan hollarda peregonni chegaralovchi stansiya navbatchisi toki dispetcherlik aloqasi tiklangunga qadar xavfli joyga qarab jo'nab ketayotgan barcha poezdlarga ogohlantirish berishi shart. Aloqa tiklangandan so'ng poezd dispetcherining ko'rsatmalariga muvofiq harakat qilinadi.

Markazlashtirilgan dispetcherlik uchastkalarida kutilmagan ogohlantirishlarga beriladigan talabnomalar poezdlarga ogohlantirish berishni ta'minlovchi choralar ko'radigan poezd dispetcheriga topshiriladi.

DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilangan ayrim uchastkalarda harakatlanayotgan poezdlarning mashinistlariga kutilmaganda paydo bo'lgan ogohlantirishlar xaqidagi xabarni yozma ruxsatnomasi berish uchun poezdni to'xtatmasdan, radio aloqa orqali uzatish tartibi ko'zda tutilishi mumkin. Bunday xabarlar poezd peregonni chegaralovchi stansiyaga yaqinlashganda kirish signali ochilgunga qadar, poezdlar harakati yoki dispetcherlik farmoyishlari jurnalida xabarni qayd etib, mashinistga stansiya navbatchisi, markazlashtirilgan dispetcherlik uchastkalarida esa poezd dispetcheri tomonidan berilishi mumkin.

Poezdlar harakati uchun xavfli bo'lgan yo'l, kontakt tarmog'i va boshqa qurilmalarning kutilmagan nosozligini bartaraf etish bo'yicha ishlar hamda shu bilan bog'liq bo'lgan maxsus o'zi yurar harakat tarkibi va olinadigan birliklarning harakati nosozlik aniqlangandan so'ng darhol, ish joyi tegishlicha to'silgandan so'ng amalga oshirilishi shart. Ogohlantirishni o'matish zaruriyati tug'ilganda uni berishga talabnomalar belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

368. Ogohlantirish to'g'risidagi barcha talabnama va telegrammalar (jumladan, poezd dispetcherining buyrug'i bilan uzatilganlari ham) stansiya (park) navbatchisi yoki operator tomonidan ogohlantirishlar kitobiga yozib qo'yiladi va nomerланади.

Ogohlantirishlar kitobini yuritish va poezdlarga ogohlantirishlarni berish tartibi stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida belgilanadi.

Ogohlantirish o'rmatilgan peregonni chegaralovchi stansiya navbatchisi talabnomasi olingani xaqida poezd dispetcheriga xabar qiladi.

Ogohlantirishlar har oyning birinchi kuni nol soatdan boshlab, oyma-oy birinchi raqamdan nomerланади.

Har oyning birinchi kunida amaldagi barcha ogohlantirishlar kitobga yangitdan yozib qo'yiladi.

Kitobdagagi barcha qaydlar stansiya (park) navbatchisining imzosi bilan tasdiqlanishi lozim.

Ogohlantirish beriladigan stansiyalarda ogohlantirishlarni qayd etish kitobi, odatda har bir tutash yo'nalish uchun alohida yuritiladi.

Stansiya boshlig'i yoki uning o'rribbosari ogohlantirishlar kitobini muntazam tekshirib borishlari shart.

369. Ogohlantirishlar poezdlar tuziladigan va poezdlar texnikaviy ehtiyoj uchun to'xtaydigan stansiyalarda beriladi. Shahar atrofiga qatnaydigan poezdlarga ogohlantirishlar ularni jo'natiladigan boshlang'ich stansiyalar tomonidan berilishi mumkin.

Stansiyalar ro'yxati va poezdlarga ogohlantirishlar berish tartibi DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi. Ishlar rahbarlari (ishlarni xavfsiz bajarilishiga mas'ul shaxslar) ogohlantirishlar o'rnatilganligi xaqidagi telegrammalarini shu stansiyalarga, jumladan, qo'shni yo'llarda joylashgan yondosh uchastkalardan ham yo'llashi lozim.

370. Ayrim poezdlar harakatlanishning alohida shartlari to'g'risidagi ko'zda tutilgan ogohlantirishlar poezdlarni tuzish yoki belgilangan tezlikda harakatlana olmaydigan harakat tarkiblarini poezdlarga tirkash stansiyalarida beriladi. Lokomotivlarni va lokomotiv brigadalarni almashtirish stansiyalarida tarkibida harakatlanishni alohida shartlariga rioxqa qilinishi talab qiladigan tarkib yoki yuk bor poezdlarni jo'natilishini istisno qiladigan shunday ogohlantirishlarni berish tartibi DATK tashishlarni tashkil qilish boshqarmasi boshlig'i tomonidan belgilanishi va stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatilishi lozim.

371. Ogohlantirish diagonali bo'ylab sariq tasmali oq rangli maxsus blankada yoziladi (DU-61 shaklidagi blank 211-betda keltirilgan) va imzo chektirilib, lokomotiv (motorvagon poezdi) mashinistiga yoki uning yordamchisiga shaxsan stansiya (post, park) navbatchisi yoki uning ko'rsatmasiga binoan operator, stansiya texnologik markazining xodimlari, strelkali post navbatchisi, signalchi yoki boshqa xodim tomonidan topshiriladi. Ogohlantirish mashinist yordamchisiga topshirilgan bo'lsa, u darhol mashinistga berishi shart, mashinist esa, o'z navbatida yordamchisidan ogohlantirish topshirilganligi xaqida tekshirib ko'rishi lozim.

Ogohlantirishlar shaxsiy kompyuterlar va teletayp apparatlarida sariq tasmasiz oq qog'ozda bosib chiqarilishi mumkin. Bunda ularni jo'nab ketayotgan poezdlar lokomotiv mashinistlariga berish tartibi avvalgicha qoladi.

372. Ogohlantirishlar blankalari avvaldan to'ldirilib (poezd nomeridan tashqari) stansiya (park, post) navbatchisi tomonidan imzo chekiladi.

Blankalar nusxa ko'chirish qog'ozi bilan ko'paytirib to'ldirilganda har bir nusxada ogohlantirish matni aniq-ravshan o'qilishi lozim.

Jo'natilayotgan poezd nomeri ogohlantirish blankasida mashinistga yoki uning yordamchisiga topshirilishi oldidan qo'yiladi.

Poezdni ikkita lokomotiv tortganda ogohlantirish yetakchi lokomotiv mashinistiga topshiriladi, u esa ikkinchi lokomotiv mashinistini ogohlantirish borligidan xabardor qiladi. Poezd suruvchi lokomotiv bilan harakatlanganda ogohlantirish suruvchi mashinistiga ham topshiriladi.

Shahar atrofiga qatnovchi, tortib chiqaradigan va uzatib beradigan poezdlarga, shuningdek, suruvchi lokomotivlarga ogohlantirishlar berish tartibi DATK mintaqaviy temir yo'l uzeli boshlig'i tomonidan belgilanadi. Bunda ogohlantirishlarni har bir poezdga emas, ma'lum (brigadalar almashuvi oralig'ida) muddatga berilishi mumkin.

(372-bandning 5-xatboshisi "O'zdavtemiryo'lnazorat" DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko'rsatmasiga muvofiq o'zgartirildi).

Ogohlantirish berilgan birinchi poezd nomerini, ularni bergen stansiya navbatchilarini poezd dispetcheriga xabar qilishlari, u esa o'z navbatida bajarilgan harakat grafigida bu xaqda qayd kiritmog'i lozim.

373. Ogohlantirish o'rnatilgan peregonni chegaralovchi stansiya navbatchisi ogohlantirish amalga kirishidan avval, poezd dispetcheri orqali uni yaqinlashib kelayotgan poezd mashinistlariga topshirilganmi-yo'qmi ekanligini aniqlaydi.

Ogohlantirish topshirilmagan poezdlar topshirish uchun to'xtatilishi yoki ogohlantirish mavjudligi xaqida radio aloqa orqali ushbu Yo'riqnomaning 367-bandiga muvofiq DATK boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlangan tartibga binoan xabar qilinishi lozim.

374. Ikki yo'llik peregonlarda poezd noto'g'ri yo'ldan jo'natilganda stansiya navbatchisi poezd dispetcheri orqali ushbu yo'lda ogohlantirish amal qilishini tekshirib, amal qilgan taqdirda uni jo'natilayotgan poezd mashinistiga topshirishi shart.

Ko'p yo'llik peregonlarda poezdlarni u yoki bu yo'l bo'ylab jo'natganda ogohlantirishlarni topshirish tartibi DATK tashishlarni tashkil qilish boshqarmasi boshlig'i tomonidan belgilanadi.

375. Bekor qilinguncha amal qiladigan ogohlantirishlar bekor qilinganligi to'g'risida xabar olinmaguncha poezdlarga topshiriladi.

Ma'lum muddatga amal qiladigan ogohlantirishlar faqat shu muddat davomida topshiriladi. Ishlar rahbaridan ogohlantirishni amal qilish muddatini uzaytirish xaqida xabar olinmasa, bunday ogohlantirishlarni bekor qilish to'g'risida talabnomalar berilmaydi va ularni poezdlarga topshirish to'xtatiladi.

Ishlar rahbari biron sababga ko'ra talabnomada ko'rsatilgan muddat ichida ogohlantirishni keltirib chiqargan ishlarni yakunlay olmasa, u mazkur muddat tugamasdan ilgari o'rnatilgan ko'chirib yuriladigan tezlikni kamaytirish signallariga signalchilarni yuborib, peregonni chegaralovchi stansiya navbatchilarini ogohlantirish uzaytirilganidan xabardor qilib, yangi muddatni ko'rsatishi lozim.

Bunday talabnomani olgan stansiya navbatchisi ushbu Yo'riqnomaning 367-bandiga muvofiq ish ko'rishi lozim.

376. Bekor qilingunga qadar belgilangan ogohlantirishni faqat uni belgilagan xodim yoki uning bevosita boshlig'i bekor qilishi mumkin.

Ogohlantirishni belgilagan mansabdor shaxslar qo'llari ostida joylardagi bo'linmalarning boshliqlariga tegishli ishlar bajarilgandan so'ng ogohlantirishni bekor qilish yoki ogohlantirishda belgilangan poezdlar harakati tezligini oshirishga topshiriq berishlari mumkin. Bunday topshiriq xaqida ogohlantirishni berishga talabnomada ko'rsatilishi lozim.

Yo'l o'lchagich va defekt aniqlagich vagonlarning boshliqlari talabnomasiga ko'ra berilgan ogohlantirishlarni yo'l masofasi boshlig'i yoki uning o'rnbosari bekor qiladi.

377. Bekor qilingunga qadar belgilangan ogohlantirishlar ularni keltirib chiqargan sabablar bartaraf etilgandan so'ng, darhol ogohlantirishlarni belgilagan manzillarga telegramma (telefonogramma) yo'llanib bekor qilinadi.

Ogohlantirish yozma ravishda yoki ogohlantirish berilgan stansyaning ogohlantirishlar kitobiga yozuv kiritilib, bekor qilayotgan shaxs tomonidan bekor qilish oyi, kuni va vaqt qayd etiladi va ushbu yozuvni belgilangan manzillarga telegramma (telefonogramma) jo'natish bilan tasdiqlab bekor qilinadi.

Ogohlantirishlar bekor qilinganligi to'g'risidagi xabarni stansiya navbatchisi ogohlantirishlar kitobining mavjud yozuvlar qarshisiga tushiradi va bekor qilish kim tomonidan va qachon (soat, minut va kun) kelib tushganini ko'rsatadi. Bekor qilingan, shuningdek, amal qilish muddati tugagan ogohlantirishlar ustidan chiziladi.

Peregonda poezdlar harakat tezligini cheklash bilan bog'liq ogohlantirishlar bekor qilinganligi yoki ma'lum muddatga belgilangan shu kabi ogohlantirishlarning amal qilishi muddatidan ilgari tugagani to'g'risida xabar olgan stansiya navbatchisi bu xaqda poezd dispetcheriga ma'lum qilishi kerak.

378. Lokomotivlar (motorvagon poezdlar, maxsus o'zi yurar harakat tarkibi) mashinistlari uchastkada harakatlanayotganda berilgan ogohlantirishlarga amal qilishlari va yo'llarda o'rnatilgan ko'chiriladigan signallarni diqqat bilan kuzatishlari shart.

Ogohlantirishda ko'rsatilgan davrda poezd ish joyiga harakatlanganda to'sish signallari mavjudligidan qat'iy nazar, ogohlantirishda belgilangan tezlikka rioya etilishi kerak.

To'sish signallari bo'limganda mashinist bu xaqda poezd dispetcheriga yoki peregonni chegaralovchi stansiya navbatchisiga ushbu buzilishni bartaraf etish choralarini ko'rish uchun xabardor qilishi shart.

Ish joyi ogohlantirishda ko'rsatilgan muddatdan ilgari yoki kechroq bosib o'tilganda va yo'llarda tezlikni kamaytirish yoki to'sish signali bo'limganda, poezd tezligi kamaytirilmaydi.

Ishlar ogohlantirishda ko'rsatilgan muddatdan ilgari yakunlanganligi yoki ogohlantirish bo'yicha cheklangan tezlikni oshirish xabar lokomotiv mashinistiga radio aloqa orqali poezd dispetcherining qayd etiluvchi buyrug'i bilan uzatiladi.

379. Har qanday shaxsdan peregonda yo'l, kontakt tarmog'i, inshoot yoki qurilmalar nosozligini ko'rganligi xaqida xabar olganidan so'ng stansiya navbatchisi uni ko'rik jurnaliga yozib qo'yishi va darhol poezd dispetcherini, qo'shni stansiya navbatchisini va qurilmalarga xizmat ko'rsatuvchi xodim (yo'l ustasi, SSB elektromexanigi, kontakt tarmog'i elektromexanigi) ni xabardor qilishi shart.

Agar bunday nosozlik peregonda harakatlanayotgan lokomotiv (motorvagon poezdi, maxsus o'zi yurar harakat tarkibi) mashinisti tomonidan aniqlansa, u tezlikni pasaytirishi, zarur bo'lsa, poezdni to'xtatishi, bu xaqda poezd radio aloqasi orqali ortidan kelayotgan poezdlarning mashinistlariga, yaqinroqdagi stansiya navbatchisiga yoki poezd dispetcheriga nosozlikni xususiyati va aniqlangan joyini (kilometr, piket) ko'rsatib e'lon qilishi shart.

Agar stansiya navbatchisi (mashinist yoki boshqa shaxsdan) olgan xabar poezdlarning normal harakatiga to'siq mavjudligidan dalolat bersa, ushbu xabarni peregonda harakatlanayotgan poezdlar mashinistlariga uzatish choralarini ko'rishi, xabarni xususiyati poezdlar harakatini davom ettirishni iloji yo'qligidan dalolat bersa, ushbu to'siq bartaraf etilgani xaqida xabarnoma kelmaguncha harakatni taqiqlashi shart. Peregona (yo'l) yopilishi xaqidagi buyruqni kutmasdan stansiya navbatchisi qo'shni stansiya navbatchisiga ham peregonga boshqa poezdlar jo'natilishi taqiqlanishi to'g'risidagi buyruqni uzatishi shart. Peregondagi poezdlarning mashinistlari olingan xabarning xususiyatlariga bog'liq ravishda xavfli joyni o'ta ehtiyyotkorlik bilan, zarur bo'lsa tezlikni kamaytirib va to'xtashga tayyor holda bosib o'tishlari yoki poezdni to'xtatib, to'siq bartaraf etilgan xaqida xabar kelgandan so'ng harakatni davom ettirishlari shart.

Normal harakatga to'siq borligi xaqida xabar olingen peregonga birinchi poezd yo'l ustasi yoki u bo'lmasa, yo'l brigadiri, kontakt tarmog'i shikastlanganda esa, kontakt tarmoq elektromonteri kuzatuvda jo'natilishi mumkin.

Yo'l ustasi yoki brigadiri peregonda bo'lib, ularning manzili ma'lum bo'lsa, poezd mashinistiga poezdni xavfli joyga kuzatib borishlari uchun poezdni to'xtatib, ularni mindirib olishlari xaqida ogohlantirish topshiriladi.

Ogohlantirishda nosozlik aniqlangan joydan oldingi kilometrda to'xtash va shundan so'ng poezdni kuzatib borayotgan yoki xavfli joyda turgan xodimning ko'rsatmasi bilan harakatlanish lozimligi ko'rsatiladi.

Poezdni kuzatib borayotgan xodim keyingi poezdlarni o'tkazish tartibini belgilaydi, zarur bo'lsa belgilangan tartibda poezdlarga ogohlantirish topshirishga talabnomaga beradi.

380. Ogohlantirishlar to'g'risidagi DATK boshqaruvi raisining buyruqlari tegishli bo'linmalarning boshliqlariga yo'llanadi va ogohlantirish belgilanadigan uchastkalarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq poezd dispetcherlari, yo'riqchi-mashinistlar, poezd mashinistlari va

maxsus o'zi yurar harakat tarkibi mashinistlari (haydovchilari)ga, stansiya navbatchilar, yo'l ustalari va yo'l brigadirlariga imzo chektirilib e'lon qilinishi shart.

Ushbu buyruqlar stansiya va lokomotiv depo navbatchilarining xonalariga ilib qo'yiladi, shuningdek, ogohlantirishlar kitobiga yelimlab yopishtiriladi, ko'chirmalari esa poezd lokomotivlari mashinistlariga, maxsus o'zi yurar harakat tarkibi mashinistlari (haydovchilari)ga taqdim etiladi.

Lokomotiv depo boshliqlari va maxsus o'zi yurar harakat tarkibi tegishli bo'lgan tashkilot rahbarlari buyruq olganlaridan so'ng uch sutka ichida ogohlantirish beruvchi stansiya boshliqlarini, lokomotiv brigadalari DATK boshqaruvi raisi buyrug'i bilan tanishtirilganligi to'g'risida xabardor qilishlari shart, shundan poezdlarga yozma ogohlantirishlar berish to'xtatiladi.

Yo'lda ogohlantirish va signallar mavjudligidan qat'iy nazar DATK boshqaruvi raisining maxsus buyruqda ko'rsatilgan xavfli joylardan sharros yomg'ir yog'ayotgan paytlarda lokomotiv brigadalari o'ta ehtiyyotkorlik bilan va zarur hollarda tezlikni pasaytirib harakatlanishlari lozim.

OGOHLANTIRISH KORESHOGI

№ _____ poezdga ogohlantirishni _____ 20__ yilda oldim

Mashinist (mashinist yordamchisi) _____

Stansiya _____ (shtempel) "___" _____ 20 __ y.

OGOHLANTIRISH № _____ poezdga

Ogohlantirish amal qilish joyi (km, piket, stansiya)	Amal qilish muddati, soat	Tezlik, ko'pi bilan, km/soat	Qizil signal oldida to'xtash, u bo'lmasa harakatlanadigan eng katta tezlik, km/soat	Poezd harakatining boshqa alohida shartlari
1	2	3	4	5
15	Bekor qilin.	25		
28	8-16	15		
123	8-14			
172-175	8-16			
Oqsoy				
186	10-12			
Buloqchi	Bekor qilin.	40		
Str. 8				
Xonobod	Bekor qilin.	60 yuk		
3-asosiy yo'l	Bekor qilin.	70 yo'lovchi		

Stansiya navbatchisi _____

(oq rangdagi dioganali bo'yicha sariq tasmali)

OGOHLANTIRISH BLANKASINI TO'LDIRISHGA SHARHLAR

1-ustunda poezdning harakat yo'nalishi bo'ylab ogohlantirish belgilangan kilometrlar (piketlar) yoki stansiyalar (yo'l nomeri, strelka nomeri) yoziladi.

2-ustunda ogohlantirishni amal qilish muddati qayd etiladi. Ogohlantirishni amal qilish muddati ma'lum muddat bilan cheklansa, tegishli kilometr to'g'risiga amal qilish soatlari yoziladi. Masalan, 8-16 raqamlari ogohlantirish soat 8 dan 16 gacha amal qilishini ko'rsatadi. Bekor qilinguncha amal qiladigan ogohlantirishlar uchun tegishli kilometr to'g'risiga "Bekor qilin." (bekor qilinguncha) deb yozilishi lozim.

3-ustunda tegishli kilometr, piket, yo'l nomeri, strelka nomeri to'g'risiga ushbu kilometr, piket, yo'l va strelkalarda ogohlantirish bilan o'rnatiladigan harakat tezligi yoziladi.

4-ustunda qizil chiroq o'rnatilishi ko'zda tutilgan tegishli kilometr, piket va h.z. to'g'risida qizil chiroq bo'lмаган hollarda poezdni harakatlanish tartibi xaqida qaydlar qo'yiladi. Qizil chiroq bo'lмаганда poezdga belgilangan tezlikda harakatlanishga ruxsat berilgan bo'lsa, "Belgilangan" deb qayd qo'yiladi, qizil chiroq yo'qligida kamaytirilgan tezlikda harakatlanish talab qilinsa, tezlikni raqami qo'yiladi, masalan, "25".

Ogohlantirish biron peregon bilan bog'liq bo'lmasa, blankaning toza qismida to'xtash yoki tezlikni kamaytirish talab etiladigan kilometrlardan pastroqda bayon etiladi, masalan, "Maksimal tezlik 50 km/soat".

5-ustunda poezdni uchastkadan harakatlanishining boshqa shartlari qayd etiladi.

13-bob. STANSIYALARDA SSB QURILMALARINING ME'YORIY FAOLIYATI BUZILGAN HOLLARDA POEZDLARNI QABUL QILISH, JO'NATISH VA MANYOVR ISHLARINI BAJARISH TARTIBI

381. SSB nazorat asboblaridagi ko'rsatmalarning me'yordan og'ishi kuzatilganda stansiya navbatchisi, avvalo, ushbu holat quyidagilar oqibati emasligini tekshirishi kerak:

a) vagonning ketib qolishi, harakat birliklarining o'z-o'zidan yurib chiqishi, strelka kesilish, harakat tarkibining yo'ldan tushishi;

b) o'zining yoki boshqa xodimlarning noto'g'ri harakatlari.

Bunda qo'shimcha ravishda yana quyidagilarni tekshirishi lozim:

qabul qilish yo'li (birinchi uzoqlashuv blok-uchastkasi) va poezd taxmin etilayotgan yo'nalishi bo'yicha chegaralangan marshrut uchastkalarining xaqiqatdan ham bo'sh ekanligini;

marshrutga kiruvchi barcha, shu jumladan, muhofazalovchi strelkalarning nazorat holati mavjudligini, hamda ularning to'g'ri o'rnatilganligini;

talab qilingan marshrutga kiruvchi yo'l va strelkalar boshqa marshrutlarga kirib qolmaganligini;

apparatdan jezl-kalit olib qiyo'l maganligini va u apparatga to'g'ri o'rnatilganligini;

stansiya hududida joylashgan perezdda to'suvchi svetofor yoki poezdlar tarkiblari va h.z. ning markazlashtirilgan to'siq signalining yoniq qolmaganligini, bunda asboblar ishida paydo bo'lgan buzilishlar turiga qaraladi;

tayyorlangan marshrutning poezd yo'nalishi marshruti va o'rnatilgan blokirovka yo'nalishiga mos kelishini;

SSB qurilmalaridan foydalanilganda boshqa xatolarga yo'l qiyilmaganligini.

382. SSB qurilmalaridagi nosozlikni aniqlagandan so'ng stansiya navbatchisi darhol ko'rik jurnalida buni qayd etishi va elektormexanikka (aloqa va signalizatsiya distansiyasi navbatchi muhandisiga) va zaruriyat tug'ilsa, boshqa tegishli xizmat xodimlariga xabar berishi kerak. Agar svetoforlar avtoharakatda bo'lgan bo'lsalar - avtoharakatni o'chirish kerak.

Shundan so'ng, to nosozlik bartaraf etilib, qurilmalar faoliyati tegishli tartibda tekshirilib, SSB elektromexanigi va dahldor xizmatlar xodimlari ko'rik jurnaliga tegishli yozuvlarni kiritunlaricha, stansiya navbatchisiga, poezd holatidan qat'iy nazar, nosoz asboblaridan foydalanish (kirish, chiqish, marshrut va manyovr svetoforlarini ochish, sterlkalarini o'tkazish, nosoz asboblarning nazorat ko'rsatmalariga asoslanib harakat tarkibini o'tkazish) man etiladi, shuningdek, ushbu yozuvlar kiritilgunga qadar ajratilgan seksiyalarning bo'sh yoki bandligi nazorati, markazlashtirilgan strelkalar holati qayta tiklanganda yoki boshqaruv pultining ko'rsatmalarida boshqa o'zgarishlar sodir bo'lganda ham.

Agar SSB qurilmalari nosozligi taklif etish signali knopkasidagi plombani uzish zarurati bilan bog'liq bo'lsa, ko'rik jurnalida qayd etilayotgan yozuvda taklif etish signali plombasini uzish xqidagi ma'lumot ko'rsatiladi, masalan:

"5-9 SP uchastka soxta bandlikni ko'rsatmoqda. Taklif etish knopkasidagi plomba uzildi. DSP ____".

Xuddi shunday yozuvlarni stansiya navbatchisi, SSB qurilmalarining nosozligida poezdlarni qabul qilish va jo'natish plombalanmaydigan knopkalarga ega taklif etish signallari bo'yicha (hisoblagichlar mavjud bo'lganda) amalga oshirilayotganda ham kiritadi, bunda qurilmalarning normal ishslashini tiklash va nosozliklari xaqida jurnaldagi yozuvlarda hisoblagich ko'rsatmalari qayd etiladi.

383. Nosozlik xususiyatiga qarab stansiya navbatchisi, elektromexanik yetib kelishini kutmasdan, SSB qurilmalarining normal faoliyatini buzgan sabablarni aniqlash uchun qo'l ostidagi mavjud vositalardan foydalanib, yo'l va strelkalarni tashqi ko'rikdan o'tkazishi kerak. Masalan:

yo'lning yoki ajratilgan uchastkadagi strelkaning soxta band etilgani ko'rsatilsa - rels zanjiri o'zga jism bilan berkitilmaganligini;

strelka boshqaruv pultidan o'tkazilmasa - ostryaklar va romli relslar orasiga biron yot jism tushib qolmaganini.

Agar tashqi ko'rikdan so'ng, asboblarning normal faoliyati buzilish sabablari aniqlanib, u bartaraf etilsa, stansiya navbatchisiga qurilmalardan foydalanishga ruxsat beriladi.

Qurilmalarning normal faoliyatining buzilish sabablari va ularning bartaraf etilganini stansiya navbatchisi ko'rik jurnalining oxirgi ustunida qayd etadi.

384. Tashqi ko'rikdan o'tkazilganda SSB qurilmalarining normal faoliyatining buzilish sabablari aniqlanib, bartaraf etilmasa, elektromexanik yetib kelib, nosozlik bartaraf etilguncha, stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida bunday holatlarda ko'zda tutilgan tartibda yo'l va strelkalarning bo'shligi va marshrut tayyorligini tekshirishni ta'minlab, stansiya navbatchisi poezdlarni qabul qilishi va jo'natishi hamda manyovr harakatlarini amalga oshirishi lozim.

385. Strelkali ajratilgan uchastkalarning soxta bandligida, ushbu strelkalar yordamchi knopka vositasi bilan o'tkazilib, uning plombasi uzilgani xaqida stansiya navbatchisi ko'rik jurnalida qayd qiladi. Bunday strelkani har safar o'tkazayotganda, stansiya navbatchisi uning harakat tarkibi band etmaganini va yondosh yo'llardan o'tish mumkinligiga ishonch hosil qilish kerak. Soxta band etilgan uchastka marshrutlarida poezdlarni qabul qilib, jo'natish va manyovr harakatlari svetoforlarning taqiq ko'rsatmasida amalga oshiriladi, ushbu Yo'riqnomaning 79-bandida keltirilgan holat bundan mustasno.

386. Qabul qilish yo'lining soxta bandligida stansiya navbatchisi shaxsan o'zi yoki tegishli xodimlar orqali uning harakat tarkibidan bo'sh ekanligiga ishonch hosil qilishi kerak. Bunday yo'llarga poezdlarni qabul qilish o'tish (marshrut) svetoforining taqiq ko'rsatmasida amalga oshiriladi.

387. Agar stansiya yo'li, strelkali yoki strelkasiz uchastka yoki dastlabki uzoqlashuv blok-uchastkasining xaqiqatda bandligida boshqaruv apparatidagi nazorat asboblari ularning (soxta) bo'shligini ko'rsatsa, stansiya navbatchisi quyidagilarni amalga oshirishi kerak:

ko'rik jurnalida uni darhol qayd etishi va SSB elektromexanigini chaqirishi;

svetoforlar avtoharakatda turgan bo'lsa - avtoharakatni bekor qilib, ularni yakka boshqarishga o'tishi kerak.

Nosozlik bartaraf etilguncha stansiya navbatchisiga quyidagilar ruxsat etiladi:

poezdlarni qabul qilish va jo'natish, manyovr harakatlari stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida belgilangan tartibga ko'ra svetoforlarning taqiq ko'rsatmasida amalga oshiriladi;

ajratilgan uchastkaning harakat tarkibidan bo'shligiga shaxsan o'zi yoki stansianing boshqa xodimlari orqali ishonch hosil qilganidan so'nggina, poezdlarni qabul qilish va jo'natish, manyovr harakatlari marshrutlarini belgilash, uzoqlashuv bo'yicha birinchi blok-uchastkaning soxta bandligi aniqlanganda esa, soxta bandlikdagi kabi, ushbu Yo'riqnomaning 32-bandida belgilangan tartibda harakat qilishi kerak.

SSB elektromexanigi kelganidan so'ng nosozlikni bartaraf etishi, buning iloji bo'limganda esa - signaldan foylanishni saqlamasdan uchastkani o'chirishi shart.

388. Markazlashtirilgan strelka holatining nazorati bo'limganda, uning sozligi va marshrutda o'rnatilganligi joyida (shaxsan navbatchining o'zi yoki stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatilgan boshqa xodim tomonidan) tekshiriladi. Bundan tashqari, bunday strelka osma qulf va zakladka bilan berkitilishi, uning elektr yuritividagi blok-kontakt o'chirilgan bo'lishi shart. Berkitilgan strelka qulf kaliti stansiya navbatchisi yoki stansianing texnikaviy-boshqaruv aktiga binoan boshqa xodimda saqlanishi kerak.

Nosozlik bartaraf etilmaguncha yoki strelka signallardan foydalanish saqlab qolinib chiqilmaguncha, bunday strelkada poezdlar harakati svetoforning taqiq ko'rsatmasida amalga oshirilaveradi. Strelka boshqaruv pulni nazoratidagi marshrulgarda kirsa, poezdlar tegishli svetoforlarning ruxsat belgisida o'tkazib yuboriladi.

Poezd (manyovr tarkibi) o'tayotganda, markazlashtirilgan strelka nazorati boshqaruv pulni nazoratidan yo'qolsa, stansiya navbatchisi (markazlashtirilgan post operatori) ushbu strelkada harakatlanayotgan poezdni (manyovr tarkibini) to'xtatish bo'yicha choralar ko'radi.

389. Strelka boshqaruv pultidan o'tkazilmagan taqdirda, tashqi ko'rikdan so'ng, elektromexanik kelguniga qadar, stansiya navbatchisi poezd dispetcherini xabardor qilgani holda, strelkani qo'l boshqaruviga (kurbel bilan) o'tkazishi mumkin. Strelkani kurbel bilan o'tkazish stansiya navbatchisi, markazlashtirilgan post operatori, signalchi yoki stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatilgan tashishlarni tashkil qilish boshqarmasining boshqa xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu xodimlar axborotiga ko'ra stansiya navbatchisi strelka tegishli marshrut bo'yicha to'g'ri o'rnatilganiga ishonch hosil qiladi. Strelka holati nazoratiga ega bo'lish uchun, uni kurbel bilan o'tkazgandan so'ng, strelkani o'tkazishga tegishli quyidagi amallarni pulta bajarish lozim: strelkali dastakni burish (tegishli holatdagi knopkani bosish). Agar strelka kiradgan ajratilgan uchastkaning bandligi ko'rsatilsa, strelkaning bo'shligi va qo'shni yo'llardan o'tish mumkinligi tekshiriladi va qo'shimcha, plombalar uzilib, strelkaning yordamchi o'tkazgich knopkasi (zarur hollarda esa marshrutni sun'iy ajratish knopkasi ham) bosiladi. Agar strelka kurbel bilan o'tkazilgandan so'ng, boshqaruv pultida uni nazorat qilish holati saqlanib tursa, poezdlarni qabul qilish va jo'natish, manyovr harakatlari tegishli svetoforlarning ruxsat ko'rsatmasida amalga oshiriladi.

Boshqaruv pultida strelka holatining nazorati bo'limganda, poezdlarni qabul qilish va jo'natish, manyovr harakatlari marshrutlarini tayyorlash ushbu Yo'riqnomaning 388-bandida ko'rsatilgan tartib bo'yicha amalga oshiriladi.

390. Agar ochiq kirish (marshrut) svetoforining ruxsat ko'rsatmasi o'z-o'zidan taqiq ko'rsatmasiga o'zgarsa, stansiya navbatchisi boshqaruv asboblarining ko'rsatmalariga binoan qo'shimcha ravishda strelkalarning to'g'ri o'rnatilganiga, ajratilgan uchastka va qabul qilish yo'llarining bo'shligiga ishonch hosil qillib, kirish (marshrut) svetoforini qaytadan ochishi lozim. Svetofor ochilsa, keyinchalik ham undan foydalanishga ruxsat beriladi. Signalning o'z-o'zidan yopilganini stansiya navbatchisi ko'rik jurnalida qayd etishi va elektromexanikka xabar berishi kerak. Chiqish svetofori o'z-o'zidan to'silib qolganda ham poezdlarni avtoblokirovka bilan jihozlangan peregonga jo'natishda stansiya navbatchisi xuddi shunday harakat qiladi, bunda svetoforni ikkinchi marta ochishdan oldin birinchi blok-uchastkaning shu yo'nalishdagi poezdlardan bo'shligini, ikki tomonlama avtoblokirovka bilan jihozlangan bir yo'llik va ikki yo'llik peregonlarda esa, bundan tashqari, peregonning (yo'lning) qaramaqarshi yo'nalishdagi poezdlardan bo'shligini ham tekshirishi shart.

Strelkalarning to'g'ri holatida, ajratilgan uchastkalar va qabul qilish yo'llari bo'sh bo'lganda (bu nazorat asboblari bilan tekshiriladi), kirish (marshrut) svetofori o'z-o'zidan yopilgandan so'ng, svetofor ikkinchi marta ochilmasa, nosozlik aniqlanib bartaraf etilmaguncha, poezdlar ushbu svetofor uzatayotgan ko'rsatmaga binoan, ushbu Yo'riqnomaga va stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida ko'zda utilgan tartibga ko'ra marshruti tekshirilib, qabul qilinadi. Chiqish (marshrut) svetoforining takroran yopilishida ham (nazorat asboblarining ko'rsatmalaridan qat'iy nazar) stansiya navbatchisi xuddi shunday harakat

qilishi kerak. Chiqish (marshrut) svetoforining o'z-o'zidan yopilishi va ikkinchi marta ochilishining imkonini bo'lmasa, avtoblokirovkali peregonlarda stansiya navbatchisi ushbu Yo'riqnomaning 30, 31 va 33-bandlari talablariga binoan, yarim avtomatik blokirovkada - 79 va 80-bandlariga binoan harakat qiladi.

391. Kalitli bog'liqlik bilan jihozlangan strelkada nazorat qulfi nosoz bo'lsa, SSB elektromexanigi (montyori) uni ta'mirlash uchun yechib oladi.

Tarkibiga strelka kiradgan marshrutlarda poezdlarni qabul qilish va jo'natish hamda manyovr harakatlari svetoforlarning taqiq yoki ruxsat ko'rsatmalarida amalga oshirilishi mumkin.

Poezdlar va manyovr tarkiblari strelkalardan foydalanish saqlanmasdan harakatlanganda strelka zakladka va osma qulfga berkitiladi. Bunda strelka nazorat qulfining kalitini SSB elektromexanigi (montyori) o'zida qoldiradi, signallardan foydalanish saqlanib harakat davom ettirilganda esa, strelkali post navbatchisiga (stansiya navbatchisiga) topshiradi.

Poezdlarni qabul qilish-jo'natish va manyovr marshrutlarida signallardan foydalanish saqlab qolingga, strelkalar tegishli holatga o'tkazilgandan so'ng maxsus skobalar bilan mahkamlanadi, zakladka va kaliti strelkali post navbatchisida (stansiya navbatchisida) saqlanadigan osma qulf bilan berkitiladi. Strelkali post navbatchisi stansiya navbatchisiga marshrut tayyorligi to'g'risida xabar berganidan so'ng nazorat qulfining kaliti stansiya navbatchisining ko'rsatmasiga binoan (yoki shaxsan uning o'zi tomonidan) marshrutni tutashtirish uchun ijro apparatiga kiritiladi.

392. Elektr markazlashtirish bilan jihozlangan stansiyalarda, svetoforlarning taqiq ko'rsatmasida poezdlar taklif signali yoki tegishli ruxsatnomalar bo'yicha qabul qilinsa yoki jo'natilsa, stansiya navbatchisi taklif signalini bosishdan yoki poezdni qabul qilishga yoki jo'natishga ruxsat berishdan oldin quyidagilarni bajarishi shart:

a) strelka dastaklari (knopkalari) ni marshrutdagi strelkalar holatiga mos qilib o'rnatishi va nazorat asboblari orqali marshrut to'g'ri o'rnatilganligiga ishonch hosil qilishi lozim.

Barcha marshrut kiradgan va muhofaza strelkalarning strelka, dastaklari (knopkalari) ga qizil qalpoqchalar kiydirishi lozim.

Holati tabloda nazorat qilinmaydigan strelkalarning to'g'ri o'rnatilganligi va berkitilganligi ushbu Yo'riqnomaning 388-bandiga muvofiq amalga oshiriladi. Bog'liqlik qutisi bor elektr markazlashtirishda marshrutdagi strelkalar, bundan tashqari, marshrut-signal dastagini burish bilan berkitiladi.

Marshrut o'rnatilib, strelkalar holati tekshirilgandan so'ng poezdni harakatlanish marshrutida yo'lning bo'shligi (shaxsan stansiya navbatchisi yoki uning ko'rsatmasiga binoan stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktida belgilangan boshqa xodim tomonidan), shuningdek, marshrutga kiradgan ajratilgan strelkali uchastkalarning va yondosh nogabarit uchastkalarning bo'shligi tekshirilishi lozim;

b) manyovr marshrutlari mayjudligida poezdni qabul qilish yoki jo'natish marshruti, manyovr svetoforlarini ochib, manyovr marshrutlaridan teriladi. Bunda yakka boshqaruv (marshrut markazlashtirishda) strelka dastaklari (knopkalari) marshrutdagi strelkalarga mos holatga keltirilib, ularga qizil qalpoqchalar kiydiriladi. Harakatlanish marshrutida yo'lning bo'shligi boshqaruv pultidagi oq nur taratuvchi tasma bo'yicha, u bo'limganda esa, "a" bandda ko'rsatilgan tartib bilan tekshiriladi.

Bunday holatda manyovr svetoforlarini bosib o'tuvchi poezdlar mashinistlari faqat taklif signali ko'rsatmalariga yoki taqiq ko'rsatmali kirish, marshrut, chiqish svetoforini bosib o'tish uchun beriladigan tegishli ruxsatnomaga amal qiladilar.

Poezdni harakatlanish marshruti bo'yicha manyovr svetoforini ochishning imkonini bo'lmasa, marshrut "a" bandda belgilangan tartib bo'yicha tayyorlanadi. Bunda strelkalar

"strelkalarni tutashtirish" maxsus knopkasi bilan tutashtiriladi (boshqaruv pultida mavjud bo'lganda). Manyovr marshrutlariga ega bo'lmanan uchastkalarda ham marshrutni tayyorlashning shunday tartibi joriy qilinadi;

v) kodli boshqaruv elektr markazlashtirish bilan jihozlangan stansiyalarda uning nosozligida strelkalarni marshrutga mos holatga keltirish faqat zahira (mahalliy) boshqaruv pultidan dastaklarga qizil qalpoqchalar kiydirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Marshrutdagi strelkalarning to'g'ri holati zahira (mahalliy) boshqaruv pultidagi nazorat asboblari bo'yicha, yo'lning bo'shligi esa, shaxsan stansiya navbatchisi yoki uning ko'rsatmasiga ko'ra boshqa xodim tomonidan tekshiriladi. Markaziy postdagi tabloning kodli boshqaruv uchastkasiga taaluqli qismidan foydalanish taqiqlanadi;

g) manyovr svetoforlarini ochish imkoniyati bo'limganda (ularning nosozligi yoki o'chirilishi sababli) manyovr marshrutlarini tayyorlash "a" bandda ko'rsatilagn tartibda amalga oshiriladi.

393. Qurilmalarning me'yordagi faoliyati buzilgani xaqida xabar olganidan so'ng, elektromexanik nosoz qurilmani markazlashtirishdan (bog'liqlikdan) o'chirish kerakmi yoki yo'qmi aniqlashi va bu xaqda ko'rik jurnaliga yozuv kiritishi shart.

Elektromexaniklarga quyidagilar man qilinadi:

stansiyalarda SSB qurilmalarining nosozligini stansiya navbatchisining ma'lumisiz va ko'rik jurnaliga yozuv kiritmasdan turib bartaraf etishga kirishish; bunda Texnikaviy Foydalanish Qoidalarining 115-bandidagi talablarga binoan maxsus Yo'riqnomalarda ko'zda tutilgan holatlar istisno;

ta'mir tugagan yoki nosozlik bartaraf etilgandan so'ng, faoliyati vaqtinchalik to'xtatilgan qurilmalarni stansiya navbatchisi yoki markazlashtirilgan post navbatchisi bilan birgalikda amalda tekshirmasdan va qurilmalarning sozligi va boshqaruv pultining nazorat asboblaridagi ko'rsatmalarning to'g'riliqiga ishonch hosil qilmasdan turib harakatga kiritish.

394. Markazlashtirilgan strelkalar, ajratilgan uchastkalar, nazoratdagi strelkali qulflar va boshqa qurilmalarni signallardan foydalanishni saqlab o'chirish SSB elektromexanigi tomonidan (kalitli bog'liqlikda montyor tomonidan ham) quyidagi muddatlarga amalga oshiriladi:

8 soatgacha - stansiya boshlig'ining, markazlashtirilgan dispetcherlik uchastkalarida - poezd dispetcheri va katta elektromexanik yoki signalizatsiya va aloqa distansiyasi navbatchi muhandisi ruxsati bilan;

8 soatdan ortiq (5 sutkagacha) - DATK tashishlarni tashkil qilish boshqarmasi boshlig'ining ruxsati bilan;

(394-bandning 3-xatboshisi "O'zdavtemiryo'lnazorat" DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko'rsatmasiga muvofiq o'zgartirildi).

5 sutkadan ortiq - DATK boshqaruvi raisining telegraf farmoyishi bilan.

Markazlashtirilgan dispetcherlik uchastkalarida nosozliklarni bartaraf etish maqsadida strelkalarni yoki ajratilgan uchastkalarni o'chirish barcha hollarda stansiya rezerv boshqaruvga o'tgandan so'ng amalga oshadi.

SSB qurilmalarini o'chirish bilan bog'liq rejadagi ishlar DATK mintaqaviy temir yo'l uzeli boshlig'i tomonidan tasdiqlangan oylik grafikka binoan, ko'rsatib o'tilgan rahbarlarning telegraf farmoyishiga asosan poezdlar harakat xavfsizligini ta'minlaydigan maxsus xodim tayinlangach, amalga oshiriladi.

Stansiya navbatchisiga stansiyada strelkalarni (ajratilgan uchastkalar) signallardan foydalanishni saqlagan holda o'chirishda yordam berish va uning harakat xavfsizligini ta'minlashning nazorat qilish uchun stansiya boshlig'i yoki uni vazifasini bajaruvchi shaxs ishtiroy etishi kerak.

Ko'rsatilgan qurilmalarning signallardan foydalanishi saqlangan holda o'chirish va bu holatni va o'chirilgan qurilmani marshrutga qo'shilganini tekshirish stansiyaning texnikaviy-

boshqaruv aktida belgilangan alohida tartibga binoan amalga oshiriladi. Bunday tekshiruvdan so'ng birinchi poezdni qabul qilish va jo'natish kirish, chiqish yoki marshrut svetoforining taqiq ko'rsatmasida amalga oshiriladi. Bunda poezdlarni qabul qilish va jo'natish marshrutlarini yo'nalihsdosh manyovr marshrutlari bilan tutashtirishga ushbu Yo'riqnomaning 392-bandi "b" qismiga muvofiq ruxsat etiladi. Keyingi poezdlarni qabul qilish va jo'natish ushbu svetoforlarning ruxsat ko'rsatmasida amalga oshiriladi.

Agar qabul qilish va jo'natish marshrutiga signallardan foydalanish xuquqi saqlab o'chirilgan strelka kirsa, stansiyadan poezd o'tishi uchun bir paytning o'zida kirish (marshrut) va chiqish svetoforlarini ochish man etiladi. Bu holatda, to'xtovsiz o'tadigan poezd uchun, uning bosh tomoni kirish (marshrut) svetoforidan o'tgandan so'nggina chiqish svetofori ochiladi.

Marshrutni o'zgartirish uchun o'chirilgan strelkani o'tkazish yoki regulirovka ishlarini mahkamlagichni yechish bilan amalga oshirish talab etilganda, stansiya navbatchisi ostryaklar (ostryak) birikishi va krestovinaning buraladigan (harakatchan) o'zaklaridan mahkamlagichni yechib olish xaqida farmoyish berishdan oldin, boshqaruv apparatida ushbu strelka kiradgan marshrutlarda signallar ochilishiga yo'l qo'yilmaydigan ishlarni bajarishi shart. O'tkazish va mahkamlagichni yechish bilan bog'liq regulirovka ishlari bajarilayotganda strelkada harakatlanish man etiladi.

Strelkani o'tkazish va regulirovka ishlari yakunlangandan so'ng undagi ostryaklar (ostryak) va krestovinaning buraladigan (harakatchan) o'zaklari mahkamlanadi va talab etiladigan holatda belgilangan tartibda yopiladi, bu xaqda mas'ul xodim stansiya navbatchisiga axborot beradi.

Alovida e'tibor muhofazalanuvchi va juft strelkalarga (s'ezdlarga) qaratilishi kerak. Bu strelkalar o'rnatilishida marshrutlar bir-biriga nisbatan xavfsiz holatda bo'lishi kerak.

Stansiya navbatchisi barcha ko'rsatilgan ishlar to'g'ri bajarilgani xaqida stansiya xodimidan xabar olganidan (yoki shaxsan ishonch hosil qilganidan) so'ng, boshqaruv pultidagi dastakni (knopkani) strelkaning xaqiqiy holatiga moslaydi va poezdlarni svetoforlarning ruxsat beruvchi belgilari bo'yicha o'tkazishni davom ettiradi.

395. Signallardan foydalanishni saqlamasdan markazlashtirilgan strelkalar, ajratilgan uchastkalar, nazorat qulflari va boshqa qurilmalar o'chirilganda, poezdlar kirish va chiqish svetoforlarning taqiq ko'rsatmasida qabul qilinadi va jo'natiladi, bunda yo'lning bo'shligi, marshrutdagi har bir strelkaning holati va tutashgani ushbu Yo'riqnomaga va stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida belgilangan tartibda tekshiriladi.

396. Strelka yoki ajratilgan uchastka o'chirilgan har bir holatda elektromexanik stansiya navbatchisi bilan birgalikda nazorat asboblari bo'yicha aynan ko'rik jurnaliga yozuv kiritilgan qurilmaning o'chirilganini tekshirishi lozim.

Strelka yoki ajratilgan uchastka o'chirilishidan avval stansiya navbatchisi yoki uning ko'rsatmasiga binoan markazlashtirish posti operatori o'chiriluvchi ajratilgan uchastkaga kiradgan strelka yoki strelkalarning strelka dastaklari (knopkalari)ga qizil qalpoqchalar kiydirishi shart.

O'chirilishdan oldin markazlashtirilgan strelka quyidagi tartibda mahkamlanishi va berkitilishi lozim:

signallardan foydalanish saqlab qolingga (ostryaklarni ajratmasdan) - skoba, zakladka va osma qulfga;

signallardan foydalanish saqlanmaganda, ostryaklar elektr yurituvdan ajratilganda - skoba, zakladka va osma qulfga;

signallardan foydalanish saqlanmaganda, ostryaklar elektr yurituvdan ajratilmasa - zakladka va osma qulfga.

Krestovinaning harakatchan o'zagi maxsus qurilma bilan mahkamlanib, osma qulf bilan berkitiladi.

Strelkani ta'mirlashda yoki nosozligida, ostryaklar o'rtasidagi mexanik aloqa buzilsa (ostryaklar ajraganda), ostryaklar yo'l ishlarini bajarishda poezdlar harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha Yo'riqnomaga muvofiq ma'lum holatda mahkamlanadi. Bundan tashqari, jipslangan ostryak zakladka va osma qulfga berkitiladi.

Signallardan foydalanish saqlanmasdan juft strelkalar o'chirilganda, ta'mir ishlari bajarilayotgan strelka zakladka va osma qulfga berkitiladi, signallardan foydalanish saqlanganda - u rusumli skoba bilan mahkamlanadi hamda zakladka va osma qulfga berkitiladi.

Berkitilgan (juft) strelkalarning kaliti (kalitlari) o'chirilish muddati davomida stansiya navbatchisi (strelkalarga xizmat ko'rsatish uchun ajratilgan xodim yoki harakat xavfsizligini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan rahbar) da saqlanishi kerak.

Strelkani mahkamlash yo'l boshqarmasi xodimi tomonidan yo'l ishlarini bajarishda poezdlar harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha Yo'riqnomaga muvofiq, ko'rik jurnaliga yozuv kiritish yoki tegishli telefonogrammani berish bilan amalga oshiriladi. Strelka ostryaklarining (krestovina harakatchan o'zagini) ishonchli mahkamlanishiga yo'l boshqarmasi xodimi mas'uldir. Strelkani zakladka osma qulf bilan berkitish DATK tashishlarni tashkil qilish boshqarmasi xodimi tomonidan amalga oshirilib, u stansiya navbatchisining ko'rsatmasiga muvofiq strelkani marshrutdagi to'g'ri holatiga va ocma qulf bilan ishonchli berkitilganligiga mas'uldir.

Ishlar yakunlanganlan so'ng, strelkadan mahkamlagich olingunga qadar stansiya navbatchisi SSB elektromexanigi bilan birgalikda strelka (harakatchan o'zak) holatining strelka dastagi holatiga (tegishli knopka bosilganiga) mosligini va boshqaruvi pultidan nazorat qilinishini tekshirib, ishonch hosil qilishlari lozim.

397. Ushbu bobda stansiyalarda SSB qurilmalarining normal faoliyati buzilganida poezdlarni qabul qilish va jo'natish, manyovrlarni amalga oshirishga taaluqli asosiy qoidalargina bayon etilgan. Nosozlik, ko'rik va ta'mirlashda SSB qurilmalarini o'chirish va ulashning bat afsil tartibi SSB qurilmalarini joriy saqlash va ta'mirlash ishlarini bajarishda poezdlar harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha Yo'riqnomada keltirilgan.

14-bob. POEZDLARNING VAQTNI TAQSIMLASH TARTIBIDA HARAKATI

398. Vaqt ni taqsimlash (ketma-ket) tartibida poezdlar harakati DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.

399. Poezdlarni vaqt ni taqsimlash tartibida jo'natish faqat ayrim, o'tkazish qobiliyati cheklangan, kamida tormozlash yo'li masofasida ko'rinishni ta'minlaydigan plan va profilga, avtoblokirovka bilan jihozlanmagan yo'llarga ega peregonlarda, shuningdek, avtoblokirovka bilan jihozlangan peregonlarda blokirovka qurilmalari uzoq vaqt ishdan chiqqan holatlarda, telefon aloqa vositalari orqali poezdlar harakati o'rnatilgandan so'ng qo'llanishi mumkin.

400. DATK boshqaruvi raisining buyrug'i bilan poezdlarni vaqt ni taqsimlab jo'natish ruxsat etilgan peregonlar, ketma-ket jo'natilayotgan poezdlarning eng katta harakat tezliklari va jo'natilayotgan poezdlar orasidagi eng kam vaqt oraliqlari belgilanishi lozim.

401. Vagonlarni peregonga tutash shahobcha yo'llarga qo'yilgan holatlarda, shuningdek, jo'natilgan poezd ketidan jo'natilish stansiyasiga qaytadigan xo'jalik poezdlari harakatlanganda, vaqt ni taqsimlab harakatlanish tartibi DATK tashishlarni tashkil qilish boshqarmasi boshlig'i tomonidan belgilanadi.

402. Vaqt ni taqsimlash tartibida poezdlar harakati poezd dispetcherining tegishli peregonni chegaralovchi stansiyalarga uzatiladigan qayd etiluvchi buyrug'i bilan o'rnataladi.

403. Vaqt ni taqsimlab jo'natilganda birinchi poezdning mashinisti peregon uchun belgilangan normal tezlikda harakatlanishi lozim. Ikkinci poezdning mashinisti poezdni ushbu holatlar uchun DATK boshqaruvi raisi buyrug'i bilan o'rnatalgan tezlikdan oshirmsadan, o'ta ehtiyyotkorlik bilan va harakatga to'siq uchrasa, darhol to'xtatishga tayyor holda yuritishi kerak.

404. Quyidagi poezdlarni vaqt ni taqsimlab (ketma-ket) jo'natish taqiqlanadi:

- a) yo'lovchi, pochta-bagaj, yo'lovchi-yuk va odamlar tashiydigan, shuningdek, tarkibida 1 klassli xavfli yuk (VM) ortilgan vagonlar va suyiltirilgan gazli sisternalar bor poezdlarni. Bunday poezdlar ortidan ham boshqa poezdlarni jo'natish ruxsat etilmaydi;
- b) vagonlarni oldinga qaratib harakatlanganda;
- v) oldinda ketayotgan poezd uchun peregonda to'xtash ko'zda tutilgan bo'lsa;
- g) tuman, bo'ron paytida va signallarni ko'rinishini yomonlashtiradigan boshqa noqulay sharoitlarda.

405. Bir va ikki yo'llik peregonlarda ham poezdlarni vaqt ni taqsimlab jo'natish faqat telefon aloqa vositalari bo'yicha bir yo'llik harakat qoidalariga asosan yoki elektr jezl tizimida amalga oshiriladi. Poezdlarni vaqt ni taqsimlab harakatlanishi ruxsat etilgan peregonlarning jezl apparatlarida burab chiqariladigan jezllar bo'lishi kerak.

406. Poezd dispetcherining harakatni telefon aloqa vositalari orqali o'rnatish va poezdlarni vaqt ni taqsimlab jo'natish xaqidagi buyrug'i olingandan so'ng, bunday poezdlar harakati to'g'risida poezd telefonogrammalarini bir yo'llik va ikki yo'llik peregonlarda quyidagi shakllar bo'yicha uzatiladi:

"№ ____ poezdni va undan keyin ____ minutdan so'ng № ____ poezdni ketma-ket jo'natishim mumkinmi".

"№ ____ poezdni va undan keyin ____ minutdan so'ng ketma-ket № ____ poezdni kutmoqdaman".

Har bir poezdni jo'natilishi va yetib kelishi to'g'risidagi xabarnomalar ushbu Yo'riqnomaning 152-bandida ko'zda tutilgan 3 va 4 shakllar bo'yicha uzatiladi.

(406-bandning 4-xatboshisi "O'zdavtemiro 'Inazorat" DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko'rsatmasiga muvofiq o'zgartirildi).

407. Telefon aloqa vositalarida birinchi poezdning ortidan peregonda ishlab jo'natish stansiyasiga qaytadigan poezd jo'natiladigan bo'lsa, telefonogrammalar quyidagi shakllar bo'yicha rasmiylashtiriladi:

"№ ____ poezdni va undan keyin ____ minutdan so'ng ____ km gacha borib, orqaga qaytadigan № ____ poezdni jo'natishim mumkinmi".

"№ ____ poezdni kutmoqdaman va undan keyin ____ minutdan so'ng ____ km gacha borib, orqaga qaytadigan № ____ poezdni ketma-ket jo'natishingiz mumkin".

Har bir poezd jo'natilgani to'g'risida xabarnomalar 3-shakl bo'yicha, ortiga qaytadigan poezdga nisbatan: "**____ km gacha borib, orqasiga qaytadigan**" so'zлari qo'shilib, xabarnomalar jo'natiladi.

Birinchi poezd yetib kelganligi xaqida ushbu Yo'riqnomaning 153-bandida ko'zda tutilgan 4-shakl bo'yicha, ikkinchi poezd qaytganligi to'g'risida esa, 7-shakl bo'yicha telefonogrammalar uzatiladi.

(407-bandning 5-xatboshisi "O'zdavtemiro 'Inazorat" DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko'rsatmasiga muvofiq o'zgartirildi).

408. Birinchi, ham ikkinchi poezdning mashinistlariga ushbu Yo'riqnomaning 134-bandida ko'zda tutilgan tartibda yo'l xat (qog'oz)lari taqdim etiladi, bunda blankaning tepasida: birinchi poezdnikida - "**Ketma-ket -birinchi poezd**", ikkinchi poezdnikida - "**Ketma-ket - ikkinchi poezd**" deb qayd etiladi. Bunday qaydlar mavjud bo'lsa, lokomotivlarning mashinistlari peregon bo'ylab ushbu Yo'riqnomaning 400-bandiga muvofiq chiqariladigan DATK boshqaruvi raisining buyrug'ida belgilangan tezliklar bilan harakatlanadilar.

409. Elektr jezl tizimi bilan jihozlangan peregonlarda poezd dispatcherining buyrug'iga ko'ra poezdlar vaqtini taqsimlab jo'natilganda, stansiya navbatchisi qabul qilish stansiyasining roziligin oladi va apparatdan jezlni chiqarib, uning "Bilet" deb yozilgan qismini birinchi jo'natilayotgan poezd mashinistiga, "Jezl" deb yozilgan ikkinchi qismini esa ketma-ket boradigan poezd mashinistiga berishi shart. 1 - va 2 - poezdlarning jo'natilgani xaqida stansiya navbatchisi qo'shni stansiya navbatchisini xabardor qiladi.

Ikkinci poezd biron sababga ko'ra jo'natilmay qolsa, jezl tizimining faoliyati to'xtatiladi va poezdlar harakati telefon aloqasi orqali o'rnatiladi. Bunday holatda jezlning bir qismi dastlabki jo'nab ketayotgan poezd bilan qo'shni stansiyaga jo'natiladi, u yerda ikkinchi qismi bilan burab biriktiriladi va jezl apparatiga solinadi. Shundan so'ng jezl tizimi faoliyati tiklanadi.

410. Elektr jezl tizimida poezdlar vaqtini taqsimlab jo'natilganda, ikkinchi poezd peregondan jo'natish stansiyasiga qaytadigan bo'lsa, birinchi poezdga jezl, ikkinchisiga - jezl-kalit taqdim etiladi. Qo'shni stansiya navbatchisi birinchi hamda ikkinchi poezdlarning jo'natilgani, shuningdek, ikkinchi poezd peregondan ortiga qaytishi to'g'risida xabardor qilinadi. Bunday holatda ikkala poezdning mashinistlariga quyidagi ogohlantirishlar beriladi: birinchi poezdga - undan keyin ketma-ket peregondan ortiga qaytadigan ikkinchi poezd jo'natilishi to'g'risida, ikkinchi poezdga - vaqtini taqsimlab jo'natilgani va peregondan qaytish vaqtি to'g'risida.

15-bob. SEMAFORLARNI QO'LLASH TARTIBI

411. Kirish, chiqish, o'tish va to'sish semaforlarini doimiy signallar sifatida faqat avtomatik blokirovka bilan jihozlanmagan va strelkalari elektr markazlashtirilmagan stansiyalarda qo'llash ruxsat etiladi.

Texnikaviy Foydalanish Qoidalarida doimiy signallar uchun ko'zda tutilgan umumiy talablar asosida semaforlarni o'rnatish joyi aniqlanadi.

412. Semafor machtadan va o'tish yuqori qismida o'rnatilgan, machtaga nisbatan gorizontal yoki yuqoriga 135^0 burchak ostida ko'tarilgan holatni egallashi mumkin bo'lган qanotdan iborat. Qanotning gorizontal holati semaforni taqiq ko'rsatmasiga, yuqoriga ko'tarilgani esa - ruxsat ko'rsatmasiga mos keladi.

Kechasi semafor qanotining holati (gorizontal yoki ko'tarilgani) tegishli signal chiroqlari bilan ko'rsatiladi.


413. Zarur holatlarda ikki qanotli semaforlar qo'llanilishi mumkin. Semaforning ikkinchi qanoti machtaga nisbatan normal o'rnatiladi.

414. Bir qanotli semaforlar bilan quyidagi signallar beriladi:

a) "Yo'l ochiq" - kunduzi oq rangda 135^0 ga ko'tarilgan qanot, kechasi esa - bitta yashil chiroq (1-rasm).

Bu taxlit stansiyada to'xtashga tayyor poezd asosiy yo'lga qabul qilinganda kirish semaforlari, shuningdek, chiqish, o'tish va to'sish semaforlari signal beradi;

b) "To'xta! Signaldan o'tish taqiqlanadi" - kunduzi semafor qanotining gorizontal holati, kechasi - qizil chiroq (2-rasm).



1- rasm

2-rasm

415. Ikki qanotli semaforlar bilan quyidagi signallar beriladi:

"Poezdga tutash yo'lga Jo'nashga ruxsat beriladi" - chiqish semaforlarida kunduzi ikki qanoti yuqoriga 135^0 ga ko'tarilgan holda, kechasi - yashil va sariq chiroqlar (3-rasm).


416. Tunda kirish semaforlari qanotlari holatini stansiya tomonidan nazorat qilish uchun nazorat chiroqlari xizmat qiladi. Semaforning yopiq holatida, unda stansiya tomonidan qanotlar soniga mos shaffof-oq nazorat chiroqlari, ochiq holatida - ochiq qanotlar soniga mos yashil chiroqlari bo'lishi kerak. Chiqish va o'tish semaforlari, qoidaga ko'ra nazorat chiroqlariga ega emaslar. Semaforni boshqarish punkti harakat Yo'nalishi bo'yicha uning orqasida joylashgan bo'lsa, semaforda yopiq holatdagi shaffof-oq nazorat chirog'i bo'lmg'i lozim. Ushbu semaforlarning ochiq holati nazorat chiroqlariga ega emas.

417. Kirish va o'tish semaforlari hamda to'sish semaforlari ko'rsatkichlari kunu-tun yaqinlashib kelayotgan poezd lokomotivi boshqarish kabinasidan ushbu joy uchun maksimal tezlikdagi to'la xizmat tormozlanishida zarur tormoz yo'lidan kam bo'lмаган masofadan, lekin 1000 m dan kam bo'lмаган masofadan aniq va ravshan ko'rinish turishi kerak.

Chiqish semaforlari ko'rsatkichlari: asosiy yo'llarda 400 m, yon yo'llardan 200 m dan kam bo'lмаган masofada aniq va ravshan ko'rinish turishi kerak.

418. Ishlamayotgan semaforlar yopiq holatga o'tkazilishi ikki planka bilan belgilanishi kerak (4-rasm).

Ishlamayotgan semaforlarning signal chiroqlari yoqilmaydi.




3- rasm

4-rasm

Amalda bo'lмаган семафорлар олдидә түрүвчи хабарловчи шитлар һам иккі плака билан белгиланышы үоки оліб қо'йилышы керак.

419. Кіріш үә о'tish семафорлары олдидә оқ рангага қора тасмалы һәм нур қайтарғичли хабарловчи шитлар о'rнатылады.

Улarning о'rнатылышы 5-rasmда ко'rsatilgan sxema bo'yicha amalga oshriladi.



5-rasm

420. Семафор торғичининг узилишида семафор қаноти автоматик holdа тақиқловчи (горизонтал) һолатга о'tishi керак.

421. Семафорлардаги сигнал пірборларынін үорітіш тартыбы DATK мінтақавиы төмір ю'l үзелі бoshlig'i томондан белгіланады.

(421-band "O'zdavtemiryo 'lnazorat" DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko'rsatmasiga muvofiq o'zgartirildi).

**16-bob. 1 KLASS XAVFLI YUKLAR (VM) ORTILGAN
VAGONLARI BOR POEZDLAR BILAN
MANYOVR ISHLARINI AMALGA OSHIRISH,
TUZISH VA O'TKAZISH TARTIBI**

UMUMIY QOIDALAR

422. Portlovchi мoddalar (keyinchalik VM (vzrivchatie materiali)) ortilgan вагонлар bilan poezd һәм manyovr ishlарini amalga oshirish үчүн tashish hujjatlarida mavjud ma'lumotlardan foydalанилады.

VM ortilgan вагонларнан hujjatlarida "Yuk nomi" ustunchasida bu yuk nomi үоки uning shartli nomeri ko'rsatылады.

VM yukli вагонлар ташish hujjatlariga shtempellar qo'yilады, jumladan:

a) 119, 126, 137, 141, 179, 182 shartli nomerli VM larni tashishda - qizil rangli "**O'ta xavfli, VM №__**", "**To'siq**", shtempellari, shuningdek "**Tepachadan tushirilmasin**" shtempeli. "**O'ta xavfli, VM №__**" shtempeli asosida ushbu Yo'riqnomaning 5-ilovasi 2-ustunchasiga muvofiq to'siq me'yori belgіланады.

b) qolgan VM larni tashishda - qizil rangli "**VM**", "**To'siq**" shtempellari, shuningdek, "**Tepachadan tushirilmasin**" shtempeli, ushbu talab temir yo'llar bo'ylab xavfli yuklarni tashish qoidalarida mavjud bo'lsa.

Bundan tashqари, quyidagi qo'shimcha shtempellar qo'yillishi mumkin:

"Seksiya. Ajratilmasisin";

"Zaharli";

"Mutaxassis kuzatuvida";

"T. y. qo'riqchiligi" va boshqalar.

"VM" shtempeli qo'lda yoziladigan tashilayotgan yuk shartli nomeri bilan to'ldirilishi kerak, "To'siq" shtempeli esa "3.6.6 band bo'yicha, sxema A" yoki "3.6.6 band bo'yicha, sxema B" qaydi bilan to'ldiriladi va uning asosida to'sish me'yori o'rnatiladi (muvofig ravishda, ushbu Yo'riqnomaga 5-ilovasi 2 va 3-ustunchalari).

423. GU-38 shaklidagi vagon varag'ida "To'siq kodi" ustunchasida 115, 119, 121, 126, 128, 130, 134, 137, 141, 143, 148, 154, 155, 156, 167, 168, 176, 179, 182, 199 shartli nomerlar ostidagi VM li vagonlar uchun 9 kodi ko'rsatiladi, boshqa VM li vagonlar uchun 3 kodi ko'rsatiladi.

Bunda 9 to'sish kodiga ega VM li vagonlar uchun "Nogabaritlik, jonivorlar, DB, NG" 7 kodi ko'rsatiladi (tepachadan tushirilmaydigan vagonlar).

424. Barcha saralash, uchastka, yuk ortish, vagonlarni bir izdan boshqasiga o'tkazish stansiyalarida, zarur bo'lsa boshqa stasiyalarda ham stansianing texnikaviy-boshqaruv aktiga ilova sifatida DATK mintaqaviy temir yo'l uzeli boshlig'i tomonidan tasdiqlanadigan, xavfli yuk (VM) ortilgan vagonlar bilan ishslash to'g'risidagi Yo'riqnomaga ishlab chiqilishi lozim. Ushbu Yo'riqnomaga temir yo'llar bo'ylab xavfli yuklarni tashish qoidalarida keltirilgan talablarga muvofig kelishi kerak.

(*424-bandning 1-xatboshisi "O'zdavtemiryo'lnazorat" DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko'rsatmasiga muvofig o'zgartirildi*).

VM vagonli poezdlar va alohida VM li vagonlar xaqida ma'lumotlarni, bunday poezd va vagonlarga xizmat ko'rsatishda qatnashmaydigan shaxslarga taqdim etish taqiqlanadi.

VM li vagonlar bilan ish bajarilayotgani xaqida xabar uzatish uchun temir yo'l stansiyasining park aloqasidan foydalanishga faqat aloqaning boshqa turlari bo'limganda ruxsat etiladi.

425. Stansiyadagi poezdlardan tashqari VM ortilgan vagonlar, saralash parklari yo'larida yig'ilayotgan vagonlar bundan mustasno, stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida turishi eng xavfsiz deb ko'rsatilgan alohida yo'llarda turishi kerak. Bunday vagonlar tirkalgan bo'lishi, ketib qolishdan ishonchli mahkamlanishi va ko'chiriladigan to'xtash signallari bilan to'silishi shart. Bunday vagonlar turgan yo'lga boradigan strelkalar bunday yo'llarga biron harakat birligi kirib ketmaydigan holatga o'matiladi va berkitiladi. Bunday strelkalarni berkitish va kalitlarni saqlash tartibi stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatiladi.

Qorovul naryadlari yoki yuk jo'natuvchi (yuk qabul qiluvchi) mutaxassislari tomonidan kuzatib borilayotgan vagonlar o'sha yoki yondosh yo'lga o'zları kuzatib borayotgan VM ortilgan vagonlardan ko'pi bilan 50 metr masofada qo'yiladi. VM ortilagan vagonlarni stansiya yo'llarida mahkamlanishi stansianing texnikaviy-boshqaruv aktida belgilangan tartibda va me'yorlar bo'yicha amalga oshiriladi.

426. VM ortilgan vagonlar poezdlarda va manyovrlar amalga oshrilayotganda, shuningdek, korxona va tashkilotlarning shahobcha yo'llariga qo'yilganda (olinganda) ushbu Yo'riqmaning 5-Ilovasida ko'zda tutilgan me'yorlarga binoan to'siqa ega bo'lishlari kerak.

VM ortilgan vagonlar harakatlanayotgan poezdlarda to'siq sifatida bo'sh vagonlar yoki xavfli bo'limgan yuklar ortilgan vagonlar qo'yillishi kerak.

Bo'sh vagonlar yuk va axlat qoldiqlaridan tozalangan bo'lishi, lyuk va eshiklari yopilgan bo'lishi kerak.

Bo'sh sisternalar yuk qoldiqlaridan tozalangan bo'lishi, lyuk qopqoqlari berkitilgan bo'lishi kerak. To'siq sifatida maxsus sisternalarni, shuningdek, xavfli yuklarni tashishga mo'ljallangan maxsus sisternalarni foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Ortilgan va bo'sh platformalar (shu jumladan ushbu Yo'riqnomaning 5-ilovasi 10-bandida ko'rsatilganlari ham), shuningdek transportyorlar to'siq sifatida qo'yiladi, ammo VM ortilgan vagonga bevosita birinchi bo'lib ulaniishi mumkin emas.

427. Xavfli yuklarni (VM) ortish uchun vagonlarni berishdan oldin manyovr dispatcheri (stansiya navbatchisi) stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktida aniqlangan tartibda, VU-14 shaklidagi jurnal bo'yicha vagonlar ko'rikdan o'tganligiga va xavfli yuklarni (VM) tashish qoidalari talablariga muvofiq texnikaviy jihatdan soz deb topilganiga ishonch hosil qilishi lozim.

428. VM ortilgan vagonlarni yuk tushirish yoki jo'natish uchun qabul qiladigan shahobcha yo'llarga xizmat ko'rsatish to'g'risidagi mahalliy Yo'riqnomalarda bunday vagonlarni qo'yish va olish marshrutlari, shunday vagonlari bor manyovr tarkiblarining harakat tezligi, pereezdlardan o'tish va marshrutlarni muhofazalash tartibi, shuningdek, xavfsizlikni ta'minlashning boshqa choralari belgilanishi lozim.

Arsenal, baza va omborlarning shahobcha yo'llariga xavfli yuklar (VM) ortilgan vagonlarni qo'yish (olish) qoida bo'yicha, suyuq yoqilg'idiagi teplovoz yoki parovoz yordamida amalga oshirilishi kerak.

POEZDLARNI TUZISH

429. 1 klass xavfli yuklar (VM), poezdlar harakati grafigida, shuningdek, ketib borish uchastkalaridagi qabul qilish-jo'natish yo'llari sig'imidan oshmaydigan marshrutlarda ko'zda tutilgan, uzunlik va og'irlik bo'yicha me'yorlar chegarasida tuzilgan yuk poezdlarida yakka vagonlar bilan, barcha holatlarda tegishli to'siq qo'yillishi bilan guruh vagonlarda tashiladi.

VM li vagonlarni quyidagi poezdlarga qo'yish taqiqlanadi:

- yo'lovchi va pochta-bagaj poezdlariga (tabel quroli va ularga tegishli o'q-dorilar, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi, boshqa davlat harbiylashtirilgan tashkilotlarining harbiy qorovullari va komandalari hamda temir yo'llarning harbiylashtirilgan qo'riqlash naryadlaridan tashqari);
- odam tashiydigan poezdlarga, shuningdek, tarkibida odam tashiydigan (harbiy esholonlardan tashqari) poezdlarga (eshelon shaxsiy tarkibi bilan band vagonlardan tashqari);
- birlashtirilgan poezdlarga;
- nogabarit yuklar ortilgan poezdlarga - nogabaritlik darajasi yuqorida uchinchi, pastdan uchinchi va ortiq bo'lган, yondan to'rtinchi va ortiq bo'lган yuklar;
- uzunligi poezdlarning harakat grafigida belgilangandan ortiq.

Bundan tashqari, shartli nomeri ushbu Yo'riqnomaning 423-bandida ko'rsatilgan VM li vagonlarni, tarkibida temir yo'llarda xavfli yuklarni tashish qoidalarida sanab o'tilgan xavfli yuklari bor quyidagi yuk poezdlarga qo'yish taqiqlanadi:

- siqilgan va suyiltirilgan gaz (2 klass);
- oson alanganadigan suyuqliklar (3 klass);
- oson alanganadigan qattiq moddalar, o'z-o'zidan yonuvchi moddalar va suv bilan, shuningdek, havodagi namlik bilan o'zaro ta'sir natijasida oson alanganuvchi gazlar chiqaradigan moddalar (4 klass);
- oksidlanuvchi moddalar va organik peroksidlar (5 klass);
- zaharli moddalar (6.1 klass osti).

430. Saralash va uchastka stansiyalari oralig'ida VM ortilgan vagonlar tuzish rejasiga muvofiq barcha yuk poezdlari tarkibida harakatlanishi mumkin. Oraliq stansiyalardan eng yaqin uchastka yoki saralash stansiyalariga qarab va teskari yo'nalishda bunday vagonlar yig'ma, chiqarish poezdlari yoki dispatcherlik lokomotivlari bilan, stansiyaning uzel va uzeloldi stansiyalari o'rtasida esa, uzatish va chiqarish poezdlari bilan uzatiladi.

Tarkibiga VM li vagonlar kiritilgan yig'ma poezdga, tuzish yoki konduktorlik brigadasi xodimi, bosh konduktor vazifasini bajaruvchi mashinist yordamchisi xizmat ko'rsatishi kerak.

Tuzish rejasi bo'yicha uzoqqa qatnaydigan poezdlar bilan jo'natish ko'zda tutilgan VM ortilgan vagonlarni yaqin masofalarga qatnaydigan poezdlar tarkibiga qo'yish ruxsat etilmaydi.

YaDM ning yo'naliш bo'yicha navbatchisi, stansiya va manyovr dispetcherlari poezd ishini rejalashtirganda, stansiyaga kelayotgan VM li vagonlarni kamroq miqdordagi poezdlar bilan birinchi navbatda jo'natish imkoniyatlarini alohida mas'uliyat bilan ko'rib chiqishga majburdirlar.

431. VM ortilgan vagonlarni DATK harbiylashtirilgan qo'riqlashi bilan kuzatish uchun bu vagonlardan uzog'i bilan besh vagon narida tormoz maydonchalik yoki maxsus ajratilgan yopiq bo'sh vagon qo'yillishi lozim.

Agar DATK harbiylashtirilgan qo'riqlashi bilan qo'riqlanayotgan vagonlar guruhi poezdning old qismida elektrovoz yoki teplovozdan ko'pi bilan 5 ta vagon uzoqlikda joylashgan bo'lib hamda tormoz maydonchali vagonlar bo'lmasa, harbiylashtirilgan qo'riqlash o'qchilariga lokomotivlarda yurish tartibi to'g'risida mashinist yo'rig'idan o'ttanlaridan so'ng, poezd lokomotivi kabinasida ketishga ruxsat etiladi.

VM ortilgan harbiy transport harakatlanayotgan poezdlar tarkibiga ushbu transportga tegishli bo'limgan, VM ortilgan vagonlar qo'yillishi mumkin.

VM ortilgan vagonlar yuk jo'natuvchi (yuk qabul qiluvchi)ning mutaxassislari yoki harbiy qorovuli, shuningdek, DATK harbiylashtirilgan qo'riqlash bilan kuzatib borilganda, ular qo'riqlayotgan vagonlar poezdga bir guruh qilib qo'yiladi. Ushbu Yo'riqnomaga muvofiq bu vagonlar bir-biridan guruhga tegishli bo'limgan, xavfsiz yuk ortilgan vagonlar bilan to'silganda, bunday to'siq eng kam me'yorlardan oshib ketmasligi lozim.

VM li vagonlar va maxsus sxema (seksiya) ga kiruvchi kuzatib boruvchi vagonlar orasiga vagon qo'yish talab etilmaydi.

432. Harbiy eshelonlarda ushbu eshelonga tegishli VM va tez o't oladigan yuklarni birgalikda tashishga, ular orasida kamida bir vagondan iborat to'siq qo'yillishi bilan ruxsat etiladi.

Jangovar o'q-dori va aslasha bilan ta'minlangan tanklar, o'zi yurar artilleriya qurilmalari, artilleriya shatakkhilarini va yopiq bronetransportyorlar ortilgan platforma va yarim vagonlar harbiy eshelon tarkibida to'siqsiz harakatlanishi mumkin.

VM BO'LGAN POEZDLAR HARAKATI

433. Tarkibida VM ortilgan vagonli poezdlar uchastkalarda harakatlanganda doimo poezd dispetcheri, stansiyalar navbatchilarining nazorati ostida turishi lozim, ular ushbu poezdlarning vaqtida va xavfsiz harakatlanishini ta'minlovchi choralar ko'rishi shart.

DATK, tarkibida VM bo'lgan tranzit poezdlarining, aylanib o'tishlari mavjud bo'lgan yirik temir yo'l uzellaridan aylanib o'tish tartibini o'rnatadi.

Tarkibida VM li vagoni bor bo'lgan poezdning bo'lajak jo'natilishi xaqida, poezd tuzish stansiyasi navbatchisi poezd dispetcheriga oldindan xabar beradi.

434. "VM" harfi qo'shilgan poezd nomeri poezdlar harakati jurnalida, ijro etilgan harakat grafigida, lokomotiv mashinistiga beriladigan yozma ruxsatnomasi va ogohlantirishlarda, natura varaqlarida va poezdlarni qabul qilish va jo'natish bilan bog'liq boshqa hujjatlarda qo'yillishi kerak.

435. Xavfli yuki bo'lgan poezd kutilayotganda stansiya navbatchisi texnikaviy xizmat ko'rsatish, tijorat ko'rigi punkti, DATK harbiylashtirilgan qo'riqlash xodimlarini va VM (xavfli yuklar) ortilgan poezdlar va vagonlarni qabul qilish va ishlashni amalga oshiruvchi

boshqa xodimlarni, VM ortilgan vagonlar bilan ishslash tartibi xaqidagi mahalliy Yo'riqnomaga muvofiq, xabardor qilishi shart.

436. VM bor poezdlarni oraliq stansiyalarda lokomotivsiz qoldirish taqiqlanadi.

Favqulodda holatlarda (avariya holatlari yuzaga kelganda) VM bor poezd tarkibi DATK tashishlarni tashkil qilish boshqarmasi boshlig'ining yozma buyrug'i bo'yicha oraliq stansiyada lokomotivsiz qoldirilishi mumkin. Bunda DATK tashishlarni tashkil qilish boshqarmasi rahbarlari va xodimlari vaqtincha qoldirilgan VM li tarkibni jo'natishni tezlatish bo'yicha barcha zarur choralar ni ko'rishlari shart. Poezd tarkibida VM bo'lsa, ularni oraliq stansiyada lokomotivsiz qoldirish mumkinligini temir yo'llarda xavfli yuklarni tashish qoidalariga muvofiq yuklarni kimga tegishli ekanligiga qarab kelishiladi:

agar yuk O'zbekiston Respublikasining Mudofaa Vazirligiga tegishli bo'lsa - temir yo'l uchastkasi va stansiyaning harbiy komendanti bilan;

agar yuk O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligiga, Milliy Xavfsizlik Xizmati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi IIV ichki qo'shin qorovullari bilan qo'riqlanadigan boshqa vazirlik, idora, tashkilotlarga tegishli bo'lsa - O'zbekiston Respublikasi IIV maxsus tashishlar bo'limi bilan.

Poezdlarda DATK harbiylashtirilgan qo'riqlash tomonidan qo'riqlanadigan VM vagonlari bo'lganida, bu xaqda poezd dispatcheri, eng yaqin harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'linmasi (qorovul) boshlig'ini (uchastkasida stansiya joylashgan) xabardor qiladi.

437. Harakatlanish vaqtida harbiylashtirilgan qo'riqlash kuzatuvidagi VM ortilgan ayrim vagonlarda, shuningdek, maxsus harakat tarkibi (sxema) seksiyalari, harbiy transport va eshelonlar tarkibiga kiruvchi vagonlarda aniqlangan texnikaviy va tijorat nosozliklar o'z xususiyatlari va ish sharoitlariga bog'liq ravishda, ushbu vagonlarni ajratgandan so'ng ixtisoslashtirilgan alohida yo'llarga o'tkazilib yoki tarkibdan ajratmasdan bartaraf etilishi mumkin.

Stansiyalarda harbiylashtirilgan qo'riqlash bilan qo'riqlanayotgan vagonlar guruhidan texnikaviy va tijorat nosozliklariga ko'ra ayrim xavfli yuklar ortilgan vagonlar faqat ular qo'riqlansagina ajratilishi mumkin. Aks holda harbiylashtirilgan qo'riqlash naryadi qo'riqlayotgan vagonlar guruhi to'lig'icha ajratiladi. Stansiya navbatchisi harbiylashtirilgan qo'riqlashning qo'shimcha naryadini chaqirtirishi va u yetib kelganidan so'ng ajratmaning soz vagonlarini manziliga jo'natishi shart.

Harbiy transportdan, shuningdek, harbiy qorovul yoki yuk jo'natuvchi (yuk qabul qiluvchi)ning mutaxassislari kuzatib borayotgan vagonlar guruhidan vagonlarni ajratish taqiqlanadi. Nosozliklarni bartaraf etish yoki yuklarni soz vagonlarga qayta ortish uchun transport (vagonlar guruhi) to'lig'icha ushlab qolinadi, bu to'g'rida stansiya boshlig'i YaDM ning yo'nalish bo'yicha navbatchisiga xabar berishi lozim. Transport ushlab qolningani to'g'risida stansiya boshlig'i belgilangan tartibda temir yo'l uchastkasi va stansiya harbiy komendantini xabardor qilishi shart. Ta'mir yakunlanganidan yoki yuklar qayta ortilgandan so'ng vagonlar ushlab qolningan transport (vagonlar guruhi) tarkibiga qo'shilishi va belgilangan manzilga jo'natilishi lozim.

Xavfli yuklarni tashish uchun mo'ljallangan maxsus harakat tarkibi seksiyalari, shuningdek, maxsus tuzilgan seksiyalar tarkibiga kiruvchi vagonlarni ajratib ta'mirlash zarur bo'lsa, bunday vagonlar faqat yuklarni kuzatib borayotgan mutaxassis, qorovul boshlig'ining roziligi bilan va kuzatuvi ostida seksiya va sxemadan ajratilishi va ta'mir yo'llariga o'tkazilishi mumkin. Bu holatda ajratilib ta'mirlashni talab qiladigan vagon aniqlangan seksiya (sxema) tarkibi to'lig'icha ushlab qolinadi. Ta'mirlangan vagonlar seksiya (sxema)ning tegishli joyiga qo'yillishi lozim. Agar seksiya (sxema)dagi bo'sh vagon texnikaviy nosozlik oqibatida belgilangan manzilgacha harakatlana olmasa, yuklarni kuzatib borayotgan mutaxassis yoki qorovul boshlig'ining talabnomasiga binoan seksiya (sxema)dan

ajratilib, tegishlicha rasmiylashtirilgan tashish hujjatlari bo'yicha yangi manzilga yuborilishi mumkin.

Ko'rsatilgan barcha holatlarda ushlab qolingga harbiy transportga, maxsus harakat tarkibi seksiya (sxema)lariga tegishli vagonlar, shuningdek, DATK harbiylashtirilgan qo'riqlashi, harbiy qorovul, yuk jo'natuvchi (yuk qabul qiluvchi)ning mutaxassislari kuzatuvidagi vagonlar guruhi ushbu Yo'riqnomanining 440-bandi talablariga muvofiq stansiyaning texnikaviy-boshqaruv aktida ko'zda tutilgan xavfli yuklar (VM) ortilgan vagonlar turishi uchun mo'ljallangan yo'llarga qo'yiladi.

Xavfli yuklar (VM) ortilgan vagonlar va tarkiblarga texnikaviy va tijorat xizmati ko'rsatish tartibi DATK tomonidan belgilanadi.

AVARIYA HOLATLARIDAGI HARAKATLAR

438. Faoliyati poezdlar harakati bilan bog'liq xodimlar temir yo'llardan xavfli yuklar tashilganda xavfsizlik qoidalarini va avariya holatlarini bartaraf etish tartibini bilishlari va aniq bajarishlari lozim.

Xavfli yuki (VM) bor poezdga xavf (buksalarning yonishi, o'qning sinishi, harakat tarkibini izdan chiqishi, vagonning yoki yukning o't olishi va h.z.) tahdid solganda lokomotiv va konduktor brigadalari, yuklarni qo'riqlab, kuzatib borayotgan shaxslar, stansiya navbatchilari va poezdlarni qabul qilish, jo'natish, o'tkazish va ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan barcha shaxslar poezdni to'xtatish va xavfni bartaraf etish uchun qo'lidan kelgan barcha choralarini ko'rishlari shart.

Harakat tarkibining texnik va uning yurish qismlari holatini avtomatik nazorat qilish vositalari yordamida aniqlangan nosozliklari bilan poezd harakatlanishi taqiqilanadi.

439. Peregonda ushbu Yo'riqnomanining 438-bandida ko'rsatilgan holatlar sodir bo'lganda lokomotiv mashinisti yoki poezdni kuzatib borayotgan bosh konduktor bu xaqda darhol poezd dispetcheriga yoki yaqinroqdagi stansiyaning navbatchisiga chora ko'rishlari uchun xabar berishi shart. Bunda, avariya (harakat tarkibining izdan chiqishi va h.z.) yong'in sodir bo'lganda, uning tafsilotlari, poezd tarkibida xavfli yuk (VM) ortilgan vagonlarning mavjudligi va joylashuvini ma'lum qilishi, avariya kartochkalarining nomerlarini (yo'il vedomostlari orqasida ko'rsatilgan) yoki yuk qog'ozlari (nakladnoylar)ga ilova qilingan avariya kartochkalarining mazmunini xabar qilishi lozim. Elektrlashtirilgan uchastkalarda, bunday xabarni qabul qilgan poezd dispetcheri, zarur hollarda kontakt tarmoqdan kuchlanishni olish kerakligi xaqida energodispetcherga ko'rsatma berishi kerak. Lokomotiv mashinisti yoki bosh konduktor yuzaga kelgan vaziyatdan kelib chiqib, lavozim yo'riqnomasining talablari, avariya kartochkalarini, VM va boshqa xavfli yuklarni kuzatib borayotgan mutaxassislarning ko'rsatmalari va poezd dispetcherining buyruqlariga amal qilib, avariya holatini va uning oqibatlarini bartaraf qilish uchun bor imkoniyatlardan foydalaniib, choralar ko'rishi lozim.

Poezd mashinistining avariya xaqidagi xabarini olgan stansiya navbatchisi darhol uning mazmunini poezd dispetcheriga ma'lum qilishi va keyinchalik uning ko'rsatmalariga amal qilishi kerak.

440. Harakatlanayotgan xavfli yuki (VM) bor poezdda, yuk yoki harakat tarkibi o't olgani aniqlansa, poezd to'xtatilishi lozim. To'xtash joyi odamlarning shikastlanishi va atrof-muhit ifloslanishiga, harakatlanayotgan tarkib yo'lidagi tonellar, ko'priklar, turar joy va stansiya binolari, omborlarni zararlanishiga olib keladigan oqibatlarni hisobga olgan holda tanlanadi.

Poezd to'xtaganidan so'ng lokomotiv brigadasi xavfli yuklar (VM) ni kuzatib yoki qo'riqlab borayotgan shaxslar bilan birgalikda tarkibning joyida qoladigan qismini belgilangan tartibda mahkamlagandan keyin yonayotgan vagonlarni darhol ajratib olishlari va

uni qolgan qismidan chetga olishlari shart va ushbu yukning xususiyatlarini hisobga olib, yong'inni o'chirishga yordam kelgunicha lokomotiv va motorvagon harakat tarkiblarida yong'in xavfsizligi bo'yicha Yo'riqnomada ko'zda tutilgan talablarga muvofiq o'tni o'chirish choralarini ko'rishlari lozim.

441. Stansiya hududida xavfli yuklar (VM) bilan avariya holati paydo bo'lganda, stansiya navbatchisi sodir bo'lgan voqeа xususida poezd dispetcheri va stansiya boshlig'iga xabar qilishi, keyingi poezdlarni o'tkazish, manyovr ishlarini amalga oshirish imkonи va sharoitlarini belgilab, zarur bo'lsa poezdlar harakati va manyovrlarni to'xtatish choralarini ko'rishi shart.

Xavfli yuk (VM) ortilmagan vagonda yoki yonida joylashgan bino, inshootda yong'in paydo bo'lsa xavfli yuklar (VM) ortilgan vagonlar yong'in hududidan xavfsiz masofaga eng kami 100 m ga uzoqlashtirilishi lozim.

442. Bunday vagonlar bilan sodir bo'lган barcha hodisalarни poezd dispetcheri YaDM ning yo'naliш bo'yicha navbatchisiga xabar qilishi va u bilan birgalikda darhol avariya viy holatlarning oqibatlarini tezda bartaraф etish choralarini ko'rishi shart.

YaDM ning yo'naliш bo'yicha navbatchisi voqeа to'g'risida bosh poezd dispetcheriga xabar berishi shart.

Bosh poezd dispetcheri voqeа to'g'risida DATK boshqaruvi raisi o'rincosariga xabar berishi shart.

443. Xavfsizlik choralarini amalga oshirish va VM bilan sodir bo'lган avariya viy holatlar oqibatlarini tugatish bo'yicha boshqa harakatlar, yuzaga kelgan vaziyatdan kelib chiqib, temir yo'llardan xavfli yuklar tashilganda xavfsizlik qoidalari va avariya holatlarini bartaraф etish tartibiga va xavfli yuklarni tashish qoidalariga muvofiq olib borilishi kerak.

**POEZDLAR HARAKATIDA SIGNALIZATSİYA VA ALOQANING TURLI
VOSITALARI QO'LLANILGANDA POEZDLARNI STANSİYALARDAN
JO'NATISH UCHUN RUXSATNOMALAR RO'YXATI**

<i>Poezdlar jo'natilayotgan sharoitlar</i>	<i>Peregonni egallash uchun mashinistga nima ruxsatnomani bo'lib xizmat qiladi</i>	<i>Chiqish signalini ochish yoki peregonni egallashga ruxsatnomani berish uchun asos</i>
------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------------------------------------------

A. Avtomatik blokirovka - bir yo'llik uchastka

O'z chiqish svetoforlariga ega bo'lgan yo'llardan poezdlarni jo'natish	Chiqish svetoforining ruxsat ko'rsatmasi	Bir yoki ko'proq blok- uchastkaning bo'shligi (nazorat asboblarining ko'rsatmalari bo'yicha), poezd dispatcherining (poezd dispatcherlik aloqasining nosozligida - qo'shni stansiya navbatchisining) roziligi
Jo'natilayotgan yo'lning marshrut ko'rsatkichlari bilan jihozlangan guruh svetoforlari bo'yicha poezdlarni jo'natish	Chiqish svetoforining ruxsat ko'rsatmasi va marshrut ko'rsatkichidagi jo'natilayotgan yo'l nomeri (yashil chiroqda)	Shuning o'zi
Poezdlarni guruh svetoforlari bo'yicha marshrut ko'rsatkichlar bo'limganda, jo'nalayotgan yo'lida guruh svetofori ruxsat ko'rsatmasining takrorlovchilarini bo'lganda jo'natish	Takrorlovchi svetoforining yashil chirog'i (guruh svetoforida ruxsat ko'rsatma paydo bo'lishi bilan bir paytda yonadi)	Shuning o'zi
Poezdlarni guruh svetoforlari bo'yicha jo'natilayotgan yo'lning marshrut ko'rsatkichi nosozligida yoki guruh svetoforlari bo'yicha guruh svetoforlari takrorlovchilarining nosozligida marshrut ko'rsatkichlarisiz jo'natilishi	Poezdning tegishli yo'ldan jo'nashi to'g'risida stansiya navbatchisining radio aloqa orqali uzatilgan buyrug'i yoki II punktiga to'ldirilgan yashil blankdagi ruxsatnomasi (unisi va bunisi ham guruh svetoforining ruxsat ko'rsatmasida mashinistga uzatilishi mumkin)	Bir yoki ko'proq blok- uchastkaning bo'shligi (nazorat asboblarining ko'rsatmalari bo'yicha), poezd dispatcherining (poezd dispatcherlik aloqasining nosozligida-qo'shni stansiya navbatchisining) roziligi
Poezdni chiqish svetofori bo'limgan yo'ldan yoki chiqish svetoforining nosozligida jo'natilishi	Poezdning tegishli yo'ldan jo'nashi to'g'risida stansiya navbatchisining radio aloqa orqali uzatilgan buyrug'i yoki I punktiga to'ldirilgan yashil blankdagi ruxsatnomasi	Bir yoki ko'proq blok- uchastkaning bo'shligi, poezd dispatcherining stansiyadan poezdni chiqish svetoforining taqiq ko'rsatmasida jo'natish va peregonni qarama-qarshi tomondan kelayotgan poezdlardan bo'shligi xaqidagi qayd etiluvchi buyrug'i, avtoblokirovkani tegishli yo'nalishga o'tkazilishi, boshqaruv apparatidan peregonning jezl-kalitimi olinishi

<i>Poezdlar jo'natilayotgan sharoitlar</i>	<i>Peregonni egallahash uchun mashinistga nima ruxsatnomasi bo'lib xizmat qiladi</i>	<i>Chiqish signalini ochish yoki peregonni egallahashga ruxsatnomasi berish uchun asos</i>
Poezdning oldi bosib o'tganligi sababli chiqish svetoforini ruxsat ko'rsatmaga o'tkazishni imkonи bo'limganda poezdni jo'natilishi	Poezdning tegishli yo'ldan jo'nashi to'g'risida stansiya navbatchisining radio aloqa orqali uzatilgan buyrug'i yoki I punkti to'ldirilgan yashil blankdagi ruxsatnomasi, svetoforining teskari kallagidagi ruxsat ko'rsatma (mavjudligida va mashinistga ko'ringanda)	Shuning o'zi
Ko'rsatmasi mashinistga ko'rinnmaganda ochiq chiqish svetofori bo'yicha poezdni jo'natilishi	Poezdning tegishli yo'ldan jo'nashi to'g'risida stansiya navbatchisining radio aloqa orqali uzatilgan buyrug'i yoki II punkti to'ldirilgan yashil blankdagi ruxsatnomasi	Bir yoki ko'proq blok-uchastkaning bo'shligi (nazorat asboblarining ko'rsatmalari bo'yicha), poezd dispetcherining (poezd dispetcherlik aloqasining nosozligida-qo'shni stansiya navbatchisining) roziligi
Peregonning boshidan oxirigacha surib boruvchi lokomotiv bilan poezdni jo'natilishi	Chiqish svetoforining ruxsat ko'rsatmasi	Shuning o'zi
Peregonning bir qismigacha surib borib orqaga qaytadigan lokomotiv bilan poezdni jo'natilishi	Chiqish svetoforining ruxsat ko'rsatmasi. Ortga qaytish uchun suruvchining mashinistiga kalit-jezl beriladi	Shuning o'zi
Ortiga qaytadigan poezdni peregondan jo'natilishi	Chiqish svetoforining ruxsat ko'rsatmasi. Ortga qaytish uchun kalit-jezl berilib, poezd peregondan ortga qarab jo'naganda mashinistga topshirishi uchun ishlar rahbariga taqdim etiladi	Bir yoki ko'proq blok-uchastkaning bo'shligi (nazorat asboblarining ko'rsatmalari bo'yicha) hamda ortiga qaytadigan poezdni jo'natish uchun poezd dispetcherining ruxsati
Kalit-jezl bo'limganda yoki uning nosozligida ortiga qaytuvchi poezdlarni yoki lokomotivlarni faqat telefon aloqa vositalariga o'tilganidan so'ng jo'natish mumkin		
Avtoblokirovka nosozligida poezdni jo'natilishi	Yo'l xati (qog'oz)	Poezd dispetcherining atblokirovka amal qilishini to'xtatish va telefon aloqasiga o'tish xaqidagi buyrug'i va qo'shni stansiyadan poezdni qabul qilishga roziligi to'g'risida poezd telefonogrammasi

B. Avtomatik blokirovka - bir yo'llik uchastka (poezdnii to'g'ri yo'ldan jo'natish)

O'z chiqish svetoforlariga ega bo'lgan yo'llardan poezdlarni jo'natish	Chiqish svetoforining ruxsat ko'rsatmasi	Bir yoki ko'proq blok-uchastkaning bo'shligi (nazorat asboblarining ko'rsatmalari bo'yicha)
Jo'nalayotgan yo'lning marshrut ko'rsatkichlari bilan jihozlangan guruh svetoforlari bo'yicha poezdlarni jo'natish	Chiqish svetoforining ruxsat ko'rsatmasi va marshrut ko'rsatkichdagi jo'natilayotgan yo'l nomeri (yashil chiroqda)	Shuning o'zi

<i>Poezdlar jo'natilayotgan sharoitlar</i>	<i>Peregonni egallahash uchun mashinistga nima ruxsatnomasi bo'lib xizmat qiladi</i>	<i>Chiqish signalini ochish yoki peregonni egallahashga ruxsatnomasi berish uchun asos</i>
Poezdlarni guruh svetoforlari bo'yicha marshrut ko'rsatkichlar bo'limganda, jo'nalayotgan yo'lida guruh svetofori ruxsat ko'rsatmasining takrorlovchilar bo'lganda jo'natish	Takrorlovchi svetoforning yashil chirog'i (guruh svetoforida ruxsat ko'rsatma paydo bo'lishi bilan bir paytda yonadi)	Bir yoki ko'proq blok-uchastkaning bo'shligi (nazorat asboblarining ko'rsatmalari bo'yicha)
Poezdlarni guruh svetoforlari bo'yicha jo'natilayotgan yo'lning marshrut ko'rsatkichi nosozligida yoki guruh svetoforlari bo'yicha guruh svetoforlari takrorlovchilarining nosozligida marshrut ko'rsatkichlarisiz jo'natilishi	Poezdning tegishli yo'ldan jo'nashi to'g'risida stansiya navbatchisining radio aloqa orqali uzatilgan buyrug'i yoki II punkti to'ldirilgan yashil blankdagi ruxsatnomasi (unisi va bunisi ham guruh svetoforining ruxsat ko'rsatmasida mashinistga uzatilishi mumkin)	Shuning o'zi
Poezdni chiqish svetofori bo'limgan yo'ldan jo'natilishi	Poezdning tegishli yo'ldan jo'nashi to'g'risida stansiya navbatchisining radio aloqa orqali uzatilgan buyrug'i yoki I punkti to'ldirilgan yashil blankdagi ruxsatnomasi	Shuning o'zi
Poezdning oldi bosib o'tganligi sababli chiqish svetoforini ruxsat ko'rsatmaga o'tkazishni imkonи bo'limganda poezdni jo'natilishi	Poezdning tegishli yo'ldan jo'nashi to'g'risida stansiya navbatchisining radio aloqa orqali uzatilgan buyrug'i, I punkti to'ldirilgan yashil blankdagi ruxsatnomasi, svetoforining teskari kallagidagi ruxsat ko'rsatma (mavjudligida)	Shuning o'zi
Ko'rsatmasi mashinistga ko'rinnmaganda ochiq chiqish svetofori bo'yicha poezdni jo'natilishi	Poezdning tegishli yo'ldan jo'nashi to'g'risida stansiya navbatchisining radio aloqa orqali uzatilgan buyrug'i yoki II punkti to'ldirilgan yashil blankdagi ruxsatnomasi	Shuning o'zi
Peregonning oxirigacha surib lokomotiv bilan jo'natilishi	Chiqish svetoforining ruxsat ko'rsatmasi	Shuning o'zi
Peregonning bir qismigacha surib borib orqaga qaytadigan lokomotiv bilan poezdni jo'natilishi	Chiqish svetoforining ruxsat ko'rsatmasi. Ortga qaytish uchun suruvchining mashinistiga kalit-jezl beriladi	Shuning o'zi
Ortiga qaytadigan poezdni peregondan jo'natilishi	Chiqish svetoforining ruxsat ko'rsatmasi. Ortga qaytish uchun kalit-jezl berilib, poezd peregondan ortga qarab jo'naganda mashinistga topshirishi uchun ishlar rahbariga taqdim etiladi.	Bir yoki ko'proq blok-uchastkaning bo'shligi (nazorat asboblarining ko'rsatmalari bo'yicha) hamda ortiga qaytadigan poezdni jo'natish uchun poezd dispetcherining ruxsati
Kalit-jezl bo'lmaganda yoki uning nosozligida ortiga qaytuvchi poezdlarni yoki lokomotivlarni faqat telefon aloqa vositalariga o'tilganidan so'ng jo'natish mumkin		

<i>Poezdlar jo'natilayotgan sharoitlar</i>	<i>Peregonni egallahash uchun mashinistga nima ruxsatnomasi bo'lib xizmat qiladi</i>	<i>Chiqish signalini ochish yoki peregonni egallahashga ruxsatnomasi berish uchun asos</i>
Poezdni chiqish svetoforining nosozligida jo'natilishi	Poezdning tegishli yo'ldan jo'nashi to'g'risida stansiya navbatchisining radio aloqa orqali uzatilgan buyrug'i yoki I punkti to'ldirilgan yashil blankdagi ruxsatnomasi	Bir yoki ko'proq blok-uchastkaning bo'shligi (nazorat asbolarining ko'rsatmalari bo'yicha)
Avtoblokirovka nosozligida poezdni jo'natilishi	Yo'l xati (qog'oz)	Birinchi poezd uchun - poezd dispetcherining atoblokirovka amal qilishini to'xtatish va telefon aloqasiga o'tish xaqidagi buyrug'i. Keyingi poezdlar uchun - qo'shni stansiyadan burun jo'natilgan poezdning yetib kelganligi (o'tganligi) to'g'risida poezd telefonogrammasi

V. Yarimavtomatik blokirovka - bir yo'llik uchastka

O'z chiqish svetoforlariga ega yo'llardan poezdlarni jo'natilishi	Chiqish svetoforining ruxsat ko'rsatmasi	Qo'shni stansianing rozilik blokirovka signalini mavjudligi yoki blok-tizimni harakatning tegishli yo'nalishiga o'tkazilishi
Chiqish svetofori yopilganidan (jumladan, o'z-o'zidan) so'ng ushlab qolingga yoki shu yo'nalishdagi boshqa poezdning jo'natilishi	I punkti to'ldirilgan yashil blankdagi ruxsatnomasi	Shuning o'zi
Chiqish svetoforini qaytadan ochishga imkon beradigan qurilmalar bilan jihozlangan stansiyalarda shu yo'nalishdagi poezdni qaytadan ochilgan chiqish svetofori bo'yicha poezd dispetcherining ruxsatini bilan jo'natiladi		
Oldi ruxsat ko'rsatmali chiqish svetoforini bosib o'tgan poezdni jo'natish	Stansiya navbatchisining radio aloqa orqali uzatilgan buyrug'i yoki II punkti to'ldirilgan yashil blankdagi ruxsatnomasi	Qo'shni stansianing rozilik blokirovka signalini yoki blok-tizimni harakatning tegishli yo'nalishiga o'tkazilishi
Yo'l va strelkalari elektr izolyatsiyalangan stansiyalarda chiqish svetofori ajratilgan uchastkaning bandligi tufayli ochilmagan hollarda svetoforni ochish uchun "Jo'natish marshrutlarida ajratilgan strelkali uchastkalarning bo'shligi nazoratini o'chirish" knopkasi ishlatalishi mumkin (bunday knopka mavjud stansiyalarda)		
Oldi taqiq ko'rsatmali chiqish svetoforini bosib o'tgan poezdni jo'natish	Yo'l xati (qog'oz)	Poezd dispetcherining avtoblokirovka amal qilishini to'xtatish va telefon aloqasiga o'tish xaqidagi buyrug'i va qo'shni stansiyadan poezdning qabul qilishga roziligi to'g'risida poezd telefonogrammasi
Chiqish svetofori yopilganidan so'ng qarama-qarshi yo'nalishdagi poezdni jo'natish	Yo'l xati (qog'oz)	Shuning o'zi
Jo'nalayotgan yo'lning marshrut ko'rsatkichi bilan jihozlangan guruh svetofori bo'yicha poezdni jo'natilishi	Chiqish svetoforining ruxsat ko'rsatmasi va marshrut ko'rsatkichdagi jo'natilayotgan yo'l nomeri (yashil chiroqda)	Qo'shni stansianing rozilik blokirovka signalini mavjudligi yoki blok-tizimning tegishli harakat yo'nalishiga o'tkazilishi

<i>Poezdlar jo'natilayotgan sharoitlar</i>	<i>Peregonni egallah uchun mashinistga nima ruxsatnomasi bo'lib xizmat qiladi</i>	<i>Chiqish signalini ochish yoki peregonni egallahga ruxsatnomasi berish uchun asos</i>
Chiqish svetoforini ochishni imkon bo'limganda poezdning jo'natilishi	Yo'l xati (qog'oz)	Poezd dispetcherining avtoblokirovka amal qilishini to'xtatish va telefon aloqasiga o'tish xaqidagi buyrug'i va qo'shni stansiyadan poezdni qabul qilishga roziligi to'g'risida poezd telefonogrammasi
Peregon bo'shligida chiqish svetofori ajratilgan strelkali uchastkaning soxta bandligi tufayli ochilmayotgan bo'lsa, uni poezd dispetcherining roziligi bilan avval "Jo'natish marshrutlarida ajratilgan strelkali uchastkalarning bo'shligi nazoratini o'chirish" knopkasi bosib (bunday knopka mavjud stansiyalarda), so'ngra ochish mumkin		
Peregondan ortiga qaytadigan poezdni jo'natilishi	Chiqish svetoforining yopiq holatida jezl-kalit	Qo'shni stansianing rozilik blokirovka signali mavjudligi yoki blok-tizimning tegishli harakat yo'nalishga o'tkazilishi, shuningdek, poezd dispetcherining ortiga qaytadigan poezdni jo'natishga ruxsati
Peregonning bir qismigacha surib borib orqaga qaytadigan lokomotiv bilan poezdni jo'natilishi	Chiqish svetoforining ruxsat ko'rsatmasi. Ortga qaytish uchun suruvchining mashinistiga kalit-jezl beriladi	Qo'shni stansianing rozilik blokirovka signali mavjudligi yoki blok-tizimning tegishli yo'nalishga o'tkazilishi
Agar poezdlar yoki suruvchi lokomotivlar uchun jezl-kalit bo'lmasa yoki birlari nosoz bo'lsa, orqaga qaytadigan poezd yoki suruvchi suruvchi faqat telefon aloqa vositalariga o'tilganidan so'ng jo'natiladi		
Peregonning boshidan oxirigacha surib boruvchi lokomotiv bilan poezdni jo'natilishi	Chiqish svetoforining ruxsat ko'rsatmasi	Qo'shni stansianing rozilik blokirovka signali mavjudligi yoki blok-tizimning tegishli harakat yo'nalishga o'tkazilishi
Blokirovka nosozligida poezdlarni jo'natilishi	Yo'l xati (qog'oz)	Poezd dispetcherining avtoblokirovka amal qilishini to'xtatish va telefon aloqasiga o'tish xaqidagi buyrug'i. Qo'shni stansiyadan poezdni qabul qilishga roziligi to'g'risida poezd telefonogrammasi

G. Yarimavtomatik blokirovka - ikki yo'llik uchastka

O'z chiqish svetoforlariga ega yo'llardan poezdlarni jo'natilishi	Chiqish svetoforining ruxsat ko'rsatmasi	Avval jo'natilgan poezd yetib kelganligini bildiruvchi blokirovka signali mavjudligi
Chiqish svetofori yopilganidan (jumladan, o'z-o'zidan) so'ng ushlab qolangan yoki boshqa poezdning jo'natilishi	I punkti to'ldirilgan yashil blankdagi ruxsatnomasi	Shuning o'zi
Chiqish svetoforini qaytadan ochishga imkon beradigan qurilmalar bilan jihozlangan stansiyalarda shu yo'nalishdagi poezdni qaytadan ochilgan chiqish svetofori bo'yicha poezd dispetcherining ruxsati bilan jo'natiladi		
Jo'nalayotgan yo'lning marshrut ko'rsatkichi bilan jihozlangan guruh svetofori bo'yicha poezdni jo'natilishi	Chiqish svetoforining ruxsat ko'rsatmasi va marshrut ko'rsatkichdagi jo'natilayotgan yo'l nomeri (yashil chiroqda)	Avval jo'natilgan poezd yetib kelganligini bildiruvchi blokirovka signali mavjudligi

<i>Poezdlar jo'natilayotgan sharoitlar</i>	<i>Peregonni egallahash uchun mashinistga nima ruxsatnomasi bo'lib xizmat qiladi</i>	<i>Chiqish signalini ochish yoki peregonni egallahashga ruxsatnomasi berish uchun asos</i>
Guruh svetoforidagi jo'nalayotgan yo'lning marshrut ko'rsatkichi nosozligida guruh svetofori bo'yicha poezdni jo'natilishi	Chiqish svetoforining ruxsat ko'rsatmasi va II punkti to'ldirilgan yashil blankdagi ruxsatnomasi yoki stansiya navbatchisining poezdni jo'nashi to'g'risida radio aloqa orqali uzatilgan buyrug'i	Shuning o'zi
Boshi ruxsat ko'rsatmali chiqish svetoforini bosib o'tgan poezdni jo'natish	Stansiya navbatchisining radio aloqa orqali mashinistga uzatgan buyrug'i yoki II punkti to'ldirilgan yashil blankdagi ruxsatnomasi	Shuning o'zi
Yo'l va strelkali elektr izolyatsiyalangan stansiyalarda chiqish svetofori ajratilgan uchastkaning bandligi tufayli ochilmagan hollarda svetoformi ochish uchun "Jo'natish marshrutlarida ajratilgan strelkali uchaskalarinng bo'shligi nazoratini o'chirish" knopkasi ishlatalishi mumkin (bunday knopka mavjud stansiyalarda)		
Boshi taqiq ko'rsatmali chiqish svetoforini bosib o'tgan poezdni jo'natish	Yo'l xati (qog'oz)	Poezd dispatcherining avtoblokirovka amal qilishini to'xtatish va telefon aloqasiga o'tish xaqidagi buyrug'i
Chiqish svetoforini ochishni imkonli bo'limganda poezdni jo'natilishi	Shuning o'zi	Shuning o'zi
Peregon bo'shligida chiqish svetofori ajratilgan strelkali uchastkaning soxta bandligi tufayli ochilmayotgan bo'lsa, uni poezd dispatcherining roziligi bilan avval "Jo'natish marshrutlarida ajratilgan strelkali uchastkalarning bo'shligi nazoratini o'chirish" kopkasini bosib (bunday knopka mavjud stansiyalarda), so'ngra ochish mumkin		
Peregondan ortiga qaytayotgan poezdni jo'natilishi	Chiqish svetoforining yopiq holatida kalit-jezl	Avval jo'natilgan poezd yetib kelganligini bildiruvchi blokirovka signalini mavjudligi, shuningdek, poezd dispatcherining ortiga qaytadigan poezdni jo'natishga ruxsati

HARAKAT TARKIBINI TORMOZ BOSHMOQLARI BILAN MAHKAMLASHNING ME'YORLARI VA ASOSIY QOIDALARI

1. Ushbu Yuriqnomaning 11-bobida bayon etilgan talablarga muvofiq vagonlar stansiya yo'llarida mahkamlanganida quyidagi eng kam me'yorlarga tayanish zarur:

1.1. Gorizontal va nishabligi 0,0005 gacha bo'lган yo'llarda istalgan sondagi vagonlarni (harakat tarkibi, vagonlar guruhi yoki yakka vagonni) ikki tomondan mahkamlash uchun bittadan tormoz boshmog'i;

1.2. Nishabligi 0,0005 dan katta bo'lган yo'llarda mahkamlanish me'yorlari quyidagi hisob formulalari bo'yicha aniqlanadi:

1.2.1. yakka vagonlar, shuningdek, og'irligi (brutto) bo'yicha bir turdag'i harakat tarkibidan tashkil topgan tarkib yoki guruhrilar: ularning turidan qat'iy nazar yuklangan yoki bo'sh yuk vagonlar, motorvagon harakat takribini o'z ichiga oluvchi yo'lovchi park vagonlari; refrijerator vagonlar, guruhda (seksiyada) barcha vagonlar ortilgan yoki bo'sh (shu jumladan mashina bo'limi bilan bo'sh seksiya) bo'lish sharti bilan; ish faoliyatida bo'limgan lokomotivlar yig'masi;

1.2.2. aralash (og'irligi bo'yicha har turli) yuklangan va bo'sh vagonlardan yoki turli og'irlikdagi yuklangan vagonlardan (tormoz boshmoqlari o'qlarga yuklamasi 15 t (brutto) dan kam bo'limgan vagonlar ostiga qo'yillishi, bunday vagonlar bo'limgan taqdirda – o'qlar yuklamasi kamroq bo'lган, lekin mahkamlanayotgan guruh uchun eng maksimal bo'lган vagonlar ostiga qo'yillishi sharti bilan) tashkil topgan tarkib va guruhrilar mahkamlanganda.

Ushbu ilovaning 1.2.1 va 1.2.2 bandlarida ko'rsatilgan shartlar bajarilganda (1) formula qo'llaniladi:

$$K = \frac{n}{200} (1,5i + 1) \quad (1)$$

bunda: K - tormoz boshmoqlarining zaruriy miqdori;

n - tarkibdagi (guruhdagi) o'qlar soni;

i - yo'l yoki yo'l bo'lagi nishabligining mingliklardagi o'rtacha kattaligi;

(1,5 i +1) - har 200 o'qqa tormoz boshmoqlari miqdori;

1.2.3. og'irligi bo'yicha har turli vagonlardan tashkil topgan tarkiblar yoki guruhlarning mahkamlanishida, agar tormoz boshmoqlari bo'sh vagonlar ostiga, o'qlarga yuklamasi 15 t (brutto) dan kam bo'lган vagonlar (guruhdagi eng og'ir bo'limgan vagonlar) ostiga yoki o'qlarga yuklamasi noma'lum bo'lган vagonlar ostiga qo'yilganda, (2) formula qo'llaniladi:

$$K = \frac{n}{200} (4i + 1) \quad (2)$$

bunda: (4 i+1) - har 200 o'qqa tormoz boshmoqlari miqdori;

1.2.4. ushbu formulalar bo'yicha hisoblangan mahkamlanish me'yorlari stansiya texnikaviy-boshqaruv aktida ko'rsatiladi.

Tormoz boshmoqlarining zaruriy miqdori DATK tomonidan tasdiqlangan mahkamlanish me'yorlarini hisoblashning avtomatik tizimlaridan foydalanib aniqlanishi mumkin.

2. Kasr qiymat hosil bo'lsa, tormoz boshmoqlari soni kattaroq butun songacha yaxlitlanadi.

Misollar:

a) 80 ta o'qli vagonlar guruhini 0,0025 nishablikda, boshmoqlarni bo'sh (yoki o'qiga yuklamasi noma'lum) vagonlar ostiga qo'yilib mahkamlaganda:

$$\frac{80(2,5 \times 4 + 1)}{200} = 4,4 \sim 5 \text{ tormoz boshmoqlari};$$

xuddi o'sha vagonlar guruhini o'qiga yuklamasi kamida 15 tonna (agar guruhda bunday vagonlar bo'lmasa, ushbu guruh uchun o'qiga eng katta yulklama) bo'lgan vagonlar ostiga tormoz boshmoqlarini qo'yilib mahkamlaganda:

$$\frac{80(2,5 \times 1,5 + 1)}{200} = 1,9 \sim 2 \text{ tormoz boshmoqlari};$$

b) 240 ta o'qli ko'mir marshrutini yoki bo'sh vagonlar tarkibini 0,0015 nishablikda mahkamlash uchun kerak bo'ladi:

$$\frac{240(1,5 \times 1,5 + 1)}{200} = 3,9 \sim 4 \text{ tormoz boshmoqlari};$$

v) 72 ta o'qli (18 ta vagon) yo'lovchi poezdi tarkibini 0,003 nishablikda mahkamlash uchun kerak bo'ladi:

$$\frac{72(3 \times 1,5 + 1)}{200} = 1,98 \sim 2 \text{ tormoz boshmoqlari};$$

3. Rejslarning sathini moy kuchli qoplagan stansiya yo'llarida (suyuq yuklarni ortish, sisternalarni tozalash va yuvish va h.z. yo'llarida) ushbu ilovaning 1 bandida ko'rsatilgan mahkamlash me'yorlari 1,5 marta oshiriladi.

4. Profili siniq yo'llarda yo'lning to'liq uzunligi chegarasida joylashgan poezdlar tarkibi yoki vagonlar guruhini mahkamlash me'yorlari profilning o'rta qiymati bo'yicha hisoblanadi. Yo'llarning alohida qismlarida qoldirilayotgan vagonlar tormoz boshmoqlari bilan ushbu qismning xaqiqiy nishablik qiymatiga mos me'yorlar bo'yicha mahkamlanishi lozim.

5. Yuk tushirish uchun qo'yilgan vagonlar guruhini tormoz boshmoqlarini eng oxirida yuki tushirilishi lozim bo'lgan vagonlar ostiga qo'yib mahkamlanadi yoki ularni mahkamlash me'yori ushbu ilovaning 1.2.3 bandiga muvofiq hisoblanishi kerak.

6. Tormoz boshmoqlari soz bo'lib, tarkibning turli o'qlari ostiga boshmoq tagligining uchi g'ildirak gardishiga tegadigan qilib qo'yillishi lozim. Muntazam ravishda tormoz boshmoqlari qo'yiladigan joylarda qirov tushganda, muz qoplaganda va shu kabi holatlarda ishlatiladigan qumli qutilar o'rnatilishi lozim. Mahkamlashda ikkita yoki ko'proq boshmoq qiyolsa, ularni vagonning bitta o'qi ostiga qo'yish mumkin emas.

Tagligini muz yoki moy qoplagan boshmoqlarni vagonlarni mahkamlash uchun ishlatish taqiqlalanadi.

7. Qiya yo'llarda boshmoqlar nishab tomondan qo'yiladi. Qiyaligi 0,0005 dan 0,001 gacha bo'lgan nishablarda bo'sh vagonlar qo'shimcha ravishda nishabga qarama-qarshi tomondan qo'yiladigan yana bitta tormoz boshmog'i bilan mahkamlanadi.

8. Tormoz boshmog'i mahkamlanayotgan guruh ketib qolish ehtimoli bo'lган tomondan eng chetgi bo'lмаган vagon ostiga qo'yiladigan bo'lsa, qo'shimcha ravishda ushbu vagon bilan guruhdagi boshqa vagonlarning ulanish ishonchlligi tekshirib ko'riliши kerak.

9. Vagonlarning eshtimoldagi ketib qolish yo'nalishi tomonga esayotgan kuchli shamolda (15 m/s dan ortiq), ushbu ilovaning 1 bandiga muvofiq hisoblab topilgan mahkamlash me'yori (mahkamlanayotgan guruhning har 200 o'qiga mos) vagonlar g'ildiragi ostiga qo'shimcha 3 ta, o'ta kuchli shamol (dovul) da esa, ettita tormoz boshmog'ini qo'yish bilan orttiriladi.

10. Motorvagon poezdlari, foydalanilmaydigan holatdagi lokomotivlar, favqulodda hollarda esa boshqa harakat tarkibini mahkamlashda tormoz boshmoqlari yetarli bo'lмаганда, tarkibning qo'l tormozlari quyidagi hisobda qo'llanishi mumkin: 5 ta tormoz o'qi 1 dona boshmoqni o'rnini bosadi.

Gorizontal yoki nishabligi 0,0005 dan kam yo'llarda tirkalgan harakat tarkibining istalgan qismida bitta vagon (lokomotiv)ning qo'l tormozini ikkala tomondan qo'yiladigan tormoz boshmoqlari o'rniga ishlatish ruxsat etiladi.

**O'TA EHTIYOTKORLIKNI TALAB ETUVCHI YUKLAR ORTILGAN
VAGONLARNI VA MAXSUS HARAKAT TARKIBINI
POEZDLARGA QO'YISH TARTIBI**

1. Poezdlarga qo'yishda alohida ehtiyotkorlikni talab qiluvchi yuklar ortilgan vagonlar (sisternalar) ayrim holatlarda lokomotivlardan, odamlar ketayotgan vagonlardan, bir-biridan to'siq bilan ajratilishi lozim. Alohida ehtiyotkorlikni talab qiluvchi yuklarni tashish shartlari, ro'yxati va to'silihning belgilangan me'yorlari yuklarni temir yo'llarda tashish qoidalarida keltiriladi.

Bunday yukning asosiy xususiyatlari, shuningdek, to'silihning zarur me'yorlari xaqidagi ma'lumotlar yuk jo'natuvchi tomonidan tashish hujjatlarida ko'rsatiladi.

2. Poezd tarkibida harakatlanishga yaroqsiz, yurish qismlari soz bo'lgan yakka vagonlar vagon depolari yoki yuvish-bug'lash stansiyalari tomonidan belgilangan yuborish hujjatlari tuzilgandan so'ng ta'mirlash punktlariga faqat alohida lokomotivlar bilan jo'natilishi lozim.

3. Temir izlar eni 1520 mm bo'lgan temir yo'llar bo'ylab nogabarit va og'ir yuklarni tashish bo'yicha Yo'riqnomada belgilangan 4, 5 va 6-darajali yon va past nogabaritli yuklar ortilgan vagonlar poezdning boshidan va oxiridan kamida bitta gabaritli yuk ortilgan yoki bo'sh vagon bilan to'silishi kerak.

Yon va pastki nogabaritli yuklar (1-3-darajali nogabarit yuklardan tashqari) ortilgan vagonlarni uzun tarkibli poezdlarga qo'yish taqiqlanadi.

Nazorat ramali vagon poezdning boshiga qo'yiladi yoki nazorat ramasi yuqori zonada yaxshi ko'rinishi uchun lokomotivdan bitta bo'sh platforma bilan ajratiladi.

O'ta nogabarit yukli vagonlar poezd tarkibiga nazorat ramali vagondan kamida 20 ta vagon uzoqlikda qo'yiladi.

Alohida lokomotivli maxsus poezdda o'ta nogabarit yuk nazorat ramasi bilan tashilganda, ushbu yuk ortilgan vagon nazorat ramali vagondan kamida beshta vagon bilan ajratilishi lozim. Poezd orqasidan bunday yukli vagon, bittadan kam bo'limgan, gabarit yukli yoki bo'sh vagondan iborat to'siqqa ega bo'lishi kerak.

Poezd tarkibiga yuk ko'tarish qobiliyati 240 t gacha bo'lgan yuk ortilgan transportyorlarni qo'yishga ruxsat etiladi.

Yuk ko'tarish qobiliyati bundan ortiq bo'lgan transportyorlarni yuk ortilgan va bo'sh holatda harakatlanish tartibi ushbu transportyorlardan foydalanish texnikaviy shartlari yoki DATK ning alohida ko'rsatmalari bilan belgilanadi.

Poezdlarga o'qlar soni 12 ta va undan ortiq bo'lgan (bir yoki ikki oraliq platformalari bilan yuk ko'tarish qobiliyati 120 tonna bo'lgan ulangan turdag'i transportyorlardan tashqari) yuk ortilgan tranportyorlar qo'yilganda, ular bilan yonma-yon har ikkala tomonidan kamida ikkitadan ko'pi bilan 40 tonna yuk ortilgan yoki bo'sh istalgan turdag'i vagonlar to'siq sifatida qo'yillishi lozim. Bir poezdda bir necha shunday transportyorlar harakatlanganda, ular o'rtasida kamida 3 ta shunday to'sish vagonlari qo'yiladi.

8 va undan ortiq o'qqa ega bo'sh transportyorlar, shuningdek, yuk ko'tarish qobiliyati 120 tonna (tip kodlari 3960 va 3961) va 240 tonna (tip kodi 3974) bo'lgan ulangan turdag'i transportyorlar, og'irligi 3 ming tonnadan ortiq bo'lgan poezdlarda harakatlanganda, ularni faqat poezd tarkibining oxirgi choragiga qo'yishga ruxsat etiladi. Poezd og'irligi kamroq bo'lsa, ushbu transportyorlarni poezd tarkibining istalgan qismiga qo'yish mumkin.

4. Umumiy foydalanishdagi temir yo'llar bo'ylab xopper-dozatorlarni faqat berk marshrutlar bo'ylab, har bir marshrutda xizmat ko'rsatuvchi xodimlar uchun bitta vagon bilan harakatlanishiga yo'l qo'yiladi.

Har bir marshrutda xopper-dozatorlarning soni texnologik talablardan va ortilgan yukni tushirish shart-sharoitlaridan kelib chiqib, aniqlanadi. Ballast materiallarni boshqa temir yo'llardan olib chiqish, shuningdek, saqlash uchun qishki omborlarga tashib kiritish, odatda, juft marshrutlar bilan amalgalashirilishi lozim.

Xopper-dozator marshrutlarini, oraliq stansiyalarda ajratishni talab etmaydigan va marshrutlarning harakat tezligini cheklamaydigan dumpkarlardan tashqari (6 VS-60, 7 VS-60 va VS-66 turdagilardan mustasno) istalgan harakat tarkibi bilan to'ldirishga ruxsat etiladi. Bunda SNII-2 va SNII-3 xopper-dozatorlardan iborat marshrutlar uchun yuk ortilgan tarkibning og'irligi 2600 tonnadan oshmasligi lozim. Bunday yuk poezdlarining harakatlanish tezligi poezddagi xopper-dozatorlarning harakat tezligidan ortiq bo'lmasligi lozim.

Xopper-dozatorlardan iborat marshrutning bo'sh yoki yuk ortilgan holatda harakatlanish uchastkasi bo'ylab belgilangan tezlikda harakatlanishga tayyorligi xaqida xopper-dozator marshrutining mashinisti tashish hujjalarda marshrutning harakatlanishga tayyorligi, xopper-dozatorning barcha yuk tushirish-dozirovka qurilmalari tekshirilganligi, ko'rikdan o'tkazilganligi, to'liq transport holiga keltirilganligi xaqida yozuv kiritishi shart. Yuk ortilgan holatda harakatlanganda bunday yozuv yuk qog'ozi (nakladnoy)ga, bo'sh holatda harakatlanganda esa yuborish vedomostiga kiritiladi.

Vagon qismlarining ko'rige va zarur ta'miri texnikaviy xizmat ko'rsatish punktining xodimlari tomonidan odatdagagi tartibda amalgalashirilishi lozim.

Kuzatuvchisiz xopper-dozatorlar yuk poezdlarida faqat bo'sh holatda ishlab chiqargan zavodlarning, vagon depolarining, ta'mirlash zavodlarining, ro'yxatga olingan joyiga o'tkazish zarurligida yo'l xo'jaligi bo'limmalarining talabnomalariga binoan, shuningdek, ta'mirlash uchun va ta'mirdan chiqqanda, regulirovka tartibida va h.z. holatlarda stansiya xisobotini va nosoz vagonlar mavjudligi va ta'miri hisobini yuritish bo'yicha amaldagi ko'rsatmalarga muvofiq tashish rasmiylashtirilgandan so'ng yuborilishi mumkin.

Jo'natishdan avval jo'natuvchi xopper-dozatorlarni to'liq transport holatiga keltirishi, harakatga tayyorligi va harakatning yo'l qo'yiladigan tezliklari to'g'risida esa jo'natish stansiyasida yuborish hujjalarda tegishli yozuv kiritishi lozim.

Nosozligi tufayli vertushkadan ajratilgan yuk ortilgan xopper-dozator ta'mirga yuborilishdan oldin yuki tushirilishi va shundan so'ng to'liq transport holatiga keltirilishi lozim. Faqat jo'natishga talabnomasi, yuborish va tashish hujjalari mavjudligidagina, stansiya boshlig'i xopper-dozatorlarni jo'natadi.

5. Boshqa vazirlik va idoralarning tashkilot va korxonalariga tegishli dumpkarlarning DATK temir yo'llarida harakatlanishi DATKnинг ko'rsatmalari asosida olingan ruxsatnomalar va mintaqaviy temir yo'l uzeli hududida - DATK mintaqaviy temir yo'l uzeli boshlig'i tomonidan, temir yo'l hududida - DATK boshqaruvi raisi tomonidan, ikki va undan ortiq temir yo'llar hududida - SSJD tomonidan belgilangan shartlar bo'yicha amalgalashiriladi.

(5-bandning 1-xatboshisi "O'zdavtemiryo'lnazorat" DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko'rsatmasiga muvofiq o'zgartirildi).

DATK temir yo'llari bo'ylab harakatlanishga ruxsatnomasi berilishidan avval dumpkarlar, tarkibini "O'zdavtemiryo'lnazorat" belgilagan komissiya tomonidan ko'rikdan o'tkazilib, dumpkarlar harakatlanishiga talabnomada ko'zda tutilgan sharoitlarda foydalanishga yaroqligi tekshiriladi. Ko'rik natijalari xaqida vagonlarning texnikaviy holati va DATK temir yo'llarida harakatlanishga yaroqliliginini aks ettiruvchi dalolatnomasi tuziladi.

SSJD yo'llarida dumpkarlar quyidagi holatlarda harakatlanadi: 6VS-60, 7VS-60 va VS-66 dumpkarlar - yuk poezdlari, to'liq tarkibli marshrutlar va yiriklashtirilgan guruhlarda, bo'sh yoki yuk ortilgan holatda tuzish rejasiga muvofiq istalgan harakat tarkibi bilan

to'ldirilib harkatlanadi; barcha boshqa turdag'i dumpkarlar - tegishli turdag'i dumpkarlar uchun belgilangan tezliklarda, og'irligi 2600 tonnadan ortiq bo'limgan alohida marshrutlarda, bo'sh holatda belgilangan uzunlikkacha, yuk ortilgan holatda esa belgilangan og'irlikkacha istalgan harakat tarkibi bilan to'ldirilib harakatlanadi.

Dumpkar marshrutlarini faqat oraliq stansiyalarda ajratishni talab etmaydigan va dumpkar marshrutlari tezligini cheklamaydigan harakat tarkibi bilan to'ldirishga ruxsat etiladi.

Dumpkar marshrutlari va barcha turdag'i dumpkarlarning yiriklashtirilgan guruhlari, machinist hamda egalik qiluvchi korxona yoki tashkilot tomonidan tayinlangan, dumpkarlarning tuzilishi va ulardan foydalanishni biladigan mashinist yordamchisidan iborat brigada tomonidan kuzatiladi.

Ta'mirga, ish joyiga jo'natalayotgan yoki ta'mirdan qaytayotgan dumpkarlar poezdlarda faqat bo'sh holatda, yuk poezdlari uchun belgilangan tezliklarda (VS-100 va 2VS-1O5 dumpkarlari uchun 80 -km/soatdan ortiq bo'limgan tezlikda) jo'nataladi, bunda 6VS-60, 7VS-60 va VS-66 dumpkarlari poezdning istalgan qismida qo'yillishi mumkin bo'lsa, boshqa turdagilari yuk poezdining ortiga ulanadi.

DATK yo'llaridagi dumpkar-vagonlarga DATK parkidagi vagonlar qatori texnikaviy xizmat ko'rsatiladi.

Texnikaviy va tijorat nosozligi tufayli yuk ortilgan dumpkarlar marshrutlardan yagona yuk qog'ozi bo'yicha yuklarni marshrutlar va vagonlar guruhi bilan tashish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi. Ketidan jo'nataladigan hujjatlarda ham asosiy tashish xujjalarda mavjud alohida belgilar ko'rsatiladi, bunda albatta VU-23 shaklidagi xabarnoma tuziladi.

6. Og'ir turdag'i yo'l mashinalari (yo'l yotqizgich, shag'al tozalagich, qor tozalagich va h.z.), temir yo'l kranlari va maxsus harakat tarkibining boshqa birliklari (ko'chma elektr qurilmalar, kotlavan qazish, svaya poydevorlarini kontakt tarmoq tayanchlari ostiga cho'ktirish mashinalari va h.z.) faqat ushbu agregatlariga egalik qilayotgan xo'jalik bo'linmalarining talabnomalariga binoan stansiyalardan foydalanilmaydigan holatda (yuk poezdlarida yoki alohida lokomotivlar bilan) jo'nataladi.

Ularni foydalanilmaydigan holatda harakatlanishga tayyorlash tegishli aggregatlar uchun ishlab chiqilgan yoki ushbu aggregatning pasport ma'lumotlariga muvofiq texnikaviy shartlar (yo'riqnomalar)da ko'zda tutilgan talablarga muvofiq amalga oshiriladi. Agregat transport holatiga keltirilgani to'g'risida jo'natuvchi tomonidan tashish xujjalarda qayd kiritilishi lozim.

Agregatning foydalanilmaydigan holatda harakatga tayyorligi DATK mintaqaviy temir yo'l uzeli boshlig'i tayinlaydigan komissiya tomonidan tekshiriladi.

(6-bandning 3-xatboshisi "O'zdavtemiryo'l nazorat" DI boshlig'ining 2003 yil 27 yanvardan 1/6-7-02-son ko'rsatmasiga muvofiq o'zgartirildi).

Yuk poezdlari tarkiblariga aggregatlar tegishli aggregatdan foydalanish tartibini belgilaydigan texnikaviy shartlar (yo'riqnomalar) yoki pasport ma'lumotlarida ko'zda tutilgan qoidalarga muvofiq qo'yiladi.

Agar texnikaviy shartlar (yo'riqnomalar) yoki pasport ma'lumotlariga muvofiq aggregat yuk poezdlari harakat grafigida belgilanganidan pastroq tezlikda o'tkazilishi lozim bo'lsa, unda aggregatni transport holatiga keltirilgani to'g'risidagi qaydda jo'natuvchi shu tezlikni ko'rsatishi lozim.

7. Foydalanilmaydigan holatdagi lokomotivlar depo boshliqlari yoki zavod ma'muriyati talabnomasi bo'yicha lokomotivlarning texnikaviy holati tekshirilib va belgilangan shaklda tuzilgan dalolatnoma bilan rasmiylashtirilib, jo'nataladi. Jo'natish stansiyasi boshlig'iga talabnoma bilan birga taqdim etiladigan dalolatnomada lokomotivning ruxsat berilgan harakat tezligi ko'rsatiladi. Dalolatnomaning ikkinchi nusxasi lokomotiv kuzatuvchisiga topshiriladi.

Foydalanilmaydigan holatda jo'natilayotgan elektrovozlar va teplovozlar yuk poezdlarida yetakchi lokomotivning ortidan ko'pi bilan ikkita bir seksiyalik yoki bitta uch (ikki) seksiyalik qilib, DATK hududida esa DATK boshqaruvi raisi belgilagan miqdorda qo'yiladi.

DATK boshqaruvi raisi ko'rsatmasiga binoan ko'p miqdorda lokomotivlar jo'natilganda bir metrga 8,1 tonnadan ortiq bo'limgan yuklama bilan 3 tadan 10 tagacha ikki seksiyalik, 7 ta uch seksiyalik yoki 20 bir seksiyalik lokomotivlarni (etakchi lokomotivni hisoblanmaganda) yig'ma qilib, birlashtirib jo'natishga ruxsat etiladi, bunda yig'ma lokomotivlaridan biri yetakchi bo'lishi mumkin.

Yuk poezdlarida jo'natiladigan dizel poezdlar yuk poezdining oxiriga qo'yiladi.

Sovuq tenderli parovozlar ikki va undan ortiq temir yo'llar bo'ylab jo'natilganda yetakchi lokomotiv ortidan ko'pi bilan bitta, DATK temir yo'l xududida esa DATK boshqaruvi raisi belgilagan miqdorda qo'yiladi. Juft tortishda sovuq parovoz poezd boshiga yo'lning ustki tuzilmasi va sun'iy inshootlarga bog'liq ravishda qo'yiladi va bu DATK boshqaruvi raisi tomonidan ruxsat etiladi. Tenderi to'rt va olti o'qli parovozlarni tenderini oldinga qaratib jo'natishga ruxsat etiladi, tenderi uch o'qli parovozlar poezdga faqat trubasi bilan oldiga qilib qo'yiladi.

8. Maxsus tuzilmalar ularning boshliqlari talabnomalariga binoan ko'chiriladi: DATK hududida – DATK raisi buyrug'i, ikki va undan ko'proq yo'llarda SSJD buyrug'i bo'yicha ko'chiriladi.

Maxsus tuzilmaning xususiyatlari va harakat tarkibining turiga bog'liq ravishda buyruqda harakat xavfsizligini ta'minlaydigan ko'chirish tartiblari ko'rsatiladi.

9. Metropolitenlarning vagonlari (12 vagongacha) yig'malarga biriktirilib va 2 bo'sh yuk vagonlardan to'siq qilib jo'natiladi. To'siq vagonlar yig'maning har ikki uchida bittadan ulanadi. Ushbu vagonlar metropoliten vagonlari bilan birikkan tomonida avtoulagichlarning odatdag'i boshchalari o'rniga o'rnatiladigan o'tkazma birikmalar bilan jihozlanadi.

Metropoliten vagonlarini kuzatib borish uchun jo'natuvchi tomonidan kuzatuvchilar tayinlanib, ularning borishi uchun yozgi mavsumda metropoliten vagonlaridan biri, qish paytida esa to'siq vagonlardan biri sifatida foydalanilgan teplushka-vagon ishlataladi.

Harakatlanishga yaroqligini aniqlash maqsadida jo'natilayotgan metropoliten vagonlari jo'natuvchi tayinlagan komissiya tomonidan ko'rikdan o'tkaziladi. Komissiya tarkibiga DATK stansiyasi texnikaviy xizmat ko'rsatish punkti vakili kiritiladi. Komissiya jo'natilayotgan vagonlarning texnikaviy holatini tekshirish dalolatnomasini VU-25 shaklda uch nusxada tuzadi. Dalolatnomaning birinchi nusxasi vagonni jo'natayotgan depo yoki zavodda qoladi, ikkinchisi - kuzatuvchilar guruhi rahbariga topshiriladi, uchinchisi esa vagonlarni jo'natish stansiyasi talabnomasi uchun foydalaniladi.

Tayyor biriktirilgan yig'ma alohida lokomotiv bilan tortiladi. Metropoliten vagonlarini poezd tarkibiga qo'yish, shuningdek, ularni saralash tepachalari orqali o'tkazish taqiqilanadi.

DATK temir yo'llarida metropoliten vagonlarini o'tkazish to'g'ri yo'llarda va egrilik radiusi 300 metrdan ortiq qismlarda yuk poezdlari uchun belgilangan, ammo 75 km/soat dan ortiq bo'limgan tezlikda amalga oshiriladi. Radiusi 300 metr va undan kamroq egriliklarda harakat tezligi: radiusi 60 metr egrilikda - 1km/soat, radiusi 100 metr- 30 km/soat, radiusi 300 metr-60 km/soat dan ortiq bo'lmasligi lozim.

Metropoliten vagonlari biriktirilgan yig'malarning harakatlanish marshruti DATK tomonidan belgilanadi va e'lon qilinadi.

OLIB QIYO'LADIGAN DREZINALARNI HARAKATLANISH TARTIBINING ASOSIY QOIDALARI

1. Olinadigan prezinalarning harakati poezd dispetcherining buyrug'i bilan peregon yopilib amalga oshiriladi.

Tonnel yoki katta ko'prikkaga ega, shuningdek, yo'lning murakkab plan va profiliga ega peregonlarda prezinalarni harakatlanish tartibi DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.

Drezinalarni harakati poezdlarni jadval bo'yicha harakati buzilishiga olib kelmasligi lozim.

Drezinalar peregonga jo'natilgan taqdirda ularning harakati to'g'risida pereezd navbatchilarini ogohlantirish tartibi DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.

2. Drezinalarni peregonni egallab harakatlanishi prezina tasarrufida bo'lган yo'l boshqarmasining (lavozimi yo'l brigadiridan past bo'lman) mas'ul xodimi yoki boshqa xizmat (hudud kontakt tarmog'ining elektromexanigi yoki ustasi) xodimlarining talabnomasiga binoan poezd dispetcheri tomonidan ruxsat etiladi. Peregonni egallah uchun prezina haydovchisiga dioganali bo'yicha qizil tasmali oq rangdagi ruxsatnomaga taqdim etiladi.

3. Sutkaning qorong'i vaqtlarida, shuningdek, tuman, qor yog'ayotgan, bo'ron paytida va -5°S dan past temperaturada, sharros yomg'irda prezinalarni peregonga chiqishi taqiqlanadi.

4. Harakat paytida prezinalar O'zbekiston Respublikasi temir yo'llarida signallashtirish bo'yicha Yo'riqnomaga muvofiq signallarga ega bo'lishi lozim.

Signallarsiz prezinani yo'lga qo'yish taqiqlanadi.

5. Markazlashtirilgan dispetcherlik uchastkalarida prezinalarni harakat tartibi DATK boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.

6. Presinani kuzatib boruvchi kishilar soni quyidagidan kam bo'lmasligi kerak: TD-5 prezinalarda 4 kishi, ID va SM-4 prezinalarda-2 kishi.

Lavozimi yo'l brigadiridan past bo'lmatan xodim, hudud kontakt tarmog'ining elektromexanigi yoki ustasi, ular yo'qligida esa prezina haydovchisi prezinani kuzatib borayotgan boshliq hisoblanadi.

Yo'lidan olingen prezina inshootlarning yaqinlashish gabaritlari buzilmasdan o'matilishi lozim.

7. Stansiyadan jo'natilayotgan prezina biron ishlarni bajarish uchun peregonda to'xtashi kerak bo'lsa, stansiya navbatchisi peregonni egallahga ruxsatnomadan tashqari ushbu Yo'riqnomaning 232-bandiga muvofiq ogohlantirish beradi. Peregonni ogohlantirishda belgilangan vaqtdan ortiq band etish taqiqlanadi.

8. Presina haydovchisini Texnikaviy foydalanish qoidalari, O'zbekiston Respublikasi temir yo'llarida signallashtirish bo'yicha Yo'riqnomasi, O'zbekiston Respublikasi temir yo'llarida poezdlar harakati va manyovr ishlari bo'yicha Yo'riqnomasi, yo'l ishlarni bajarishda poezdlar harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha Yo'riqnomasi, texnika xavfsizligi

qidalarini bilishi sinab ko'rishi kerak va u o'z yonida hamma vaqt drezinani boshqarishga xuquq beruvchi guvohnomasini olib yurishi lozim.

Haydovchilarga drezinani boshqarishni boshqaruv xuquqiga ega bo'limgan shaxslarga topshirishi taqiqlanadi.

9. Drezinani kuzatib borayotgan boshliq xodim drezina harakati va undagi odamlar xavfsizligi uchun mas'uldir. U poezdlar harakati jadvaliga ega bo'lishi va stansiyadan peregonga jo'nashdan oldin o'z soatini stansiya navbatchisi soati bilan to'g'rilashi, shuningdek, drezinaning to'liq sozligiga ishonch hosil qilib, signallar mavjudligi va yonilg'i bilan ta'minlanganlikni tekshirib ko'rishi lozim.

Drezinani kuzatib borayotgan boshliq xodimga stansiya navbatchisining ma'lumisiz drezinada stansiya hududida harakatlanishi, shuningdek, poezd dispetcherining buyrug'isiz yoki tegishli ruxsatnomasiz peregonga chiqishi taqiqlanadi.

Drezinada peregonga chiqishda boshliq xodim o'ta hushyor bo'lishi kerak.

10. Pereezdlardan, ayniqsa, navbatchi xodimlar xizmat ko'rsatmaydiganidan va yo'l ishlari olib borilayotgan uchastkalardan o'tishda drezina haydovchisi o'ta ehtiyyotkor bo'lishi lozim.

11. Peregondan stansiyaga kelgan drezinani kuzatib borayotgan boshliq xodim darhol shaxsan yoki telefon orqali bu to'g'rida stansiya navbatchisiga xabar qilib, so'ng uning ko'rsatmalariga amal qilishi shart.

Stansiya navbatchisi poezdlar harakati jurnalida drezinani kelgan vaqtini qayd etishi va peregonni ochib, poezdlar harakatini asosiy aloqa vositalari bo'yicha tiklash uchun bu xaqda jo'natgan stansiya navbatchisi va poezd dispetcheriga xabar qilishi shart.

Agar drezina harakatining oxirgi punkti peregonda joylashgan bo'lsa, u yo'ldan olinib, gabarit masofasiga o'rnatilganidan so'ng mas'ul rahbar ishlar yakunlangani to'g'risida poezd dispetcheriga yoki peregonni chegaralovchi stansiyalardan birining navbatchisiga xabar qiladi va uning asosida poezdlarning harakati tiklanadi.

12. Drezinaning oldinga (farasi bilan oldinga) yurishi asosiy hisoblanadi. Orqaga yurishga stansiyadagi manyovrlarda istisno sifatida ruxsat beriladi.

13. TD-5 drezinalarning harakat tezligi peregonlarda 50 km/soat dan, stansiya yo'lllarida 25 km/soat dan, strelkalarda esa, 15 km/soat dan oshmasligi lozim. Ko'rinish yomon bo'lganda drezinalarning harakat tezligi 25 km/soat dan oshmasligi lozim, yoritgichlar (fara va ortidagi qizil signal chiroq) qo'shilgan bo'lishi kerak.

14. Drezinani prisep (tirkama) bilan va prisepplarni o'zaro, faqat namunaviy asboblar vositasida, drezinalar tuzilishi va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha Yo'riqnomaga muvofiq tirkashga ruxsat etiladi. Drezinalar harakatida o'z-o'zidan ajralib ketish ehtimoli istisno qilinishi lozim.

Drezinani platforma va vagonlar bilan tirkash taqiqlanadi.

15. Drezina harakatlanishi vaqtida: drezina yoki prisepda turish, bortlarda o'tirish, prisepdan prisepga o'tish, to'liq to'xtamaguncha drezina yoki prisepdan tushish yoki ularga chiqish, harakat vaqtida, shuningdek, yonilg'i quyo'layotgan vaqtida chekish taqiqlanadi.

16. Bir paytning o'zida drezinada ketayotganlar soni quyidagidan oshmasligi lozim: TD-5 drezinasida 6 kishi, yuk ortilmagan prisepda 10 kishi, yuk ortilganida faqat prisepni tormozlash uchun 1 kishi. Yuklarni bevosita drezinada tashishga yo'l qo'yilmaydi.

17. Ishchilarni yoki yuklarni tashish uchun prisepli prezina yo'lga chiqqanida uning ishiga umumiy rahbarlikni lavozimi yo'l brigadiri, hudud kontakt tarmog'inining elektromexanigidan past bo'limgan xodim amalga oshiradi.

Priseplarda ishchilar guruhi tashilganda har bir prisepda mas'ul xodim-tajribali ishchi (guruh boshlig'i) tayinlanib, u shu prisepda bo'lib, tartibni va tashilayotgan odamlarning xavfsizligini kuzatib borishi lozim.

Priseplarda tormozlash uchun ishchilar bo'limganda prisepli prezinalarni harakatlanishi taqiqlanadi. Yuk ortilgandan so'ng tormoz richaganing erkin yurishiga ishonch hosil qilinishi lozim. Tormoz richagini tashilayotgan yuk bilan to'sib qo'yish taqiqlanadi.

**1 KLASSLI XAVFLI YUKLAR (VM) ORTILGAN
VAGONLAR UCHUN POEZDLARDA VA
MANYOVRALAR AMALGA OSHIRILGANDA
TO'SISHLARNING MINIMAL ME'YORLARI**

To'sish talab etiladigan shartlar	To'sish vagonlarning soni	
	A sxemasi bo'yicha	B sxemasi bo'yicha
1	2	3
<i>Yetakchi lokomotivdan:</i> VM li barcha maxsus berk vagonlardan (tortish va yoqilg'inining turidan qat'iy nazar)	3	3
<i>VM li yarim vagonlar va platformalarni:</i> qattiq yoqilg'idagi paravozdan boshqa turdag'i lokomotivlardan	5 3	5 3
Poezd ortidan oxirgi vagonni hisobga olib, shu jumladan surishda ham	3	3
Eshelonning shaxsiy tarkibi bilan band vagonlardan	3	3
Kuzatuvchilari, yuklarni kuzatib borish uchun maxsus ajratilgan xodimlari, qorovullari, qo'riqlash naryadlari bo'lgan harakat tarkibidan (vagonlar, ishlamayotgan holatdagi lokomotiv, temir yo'llardagi kran va boshqa mexanizmlardan)	3	1
Xavfli yukli vagonlardan (2, 3, 4, 5 klassdagi va 6.1 klass osti yuklaridan tashqari)	3	3
2, 3, 4, 5 klassdagi va 6.1 klass osti xavfli yukli vagonlardan	Taqiqlanadi	3
Xavfli yuklarni tashishga mo'ljallangan bo'sh sisternalardan	1	1
115, 119, 121, 126, 128, 130, 134, 137, 141, 143, 148, 154, 155, 156, 167, 168, 176, 179, 182, 199 shartli nomeri bilan VM li vagonlardan	3	3
Boshqa VM li vagonlardan	3	0
So'nggi balka va transportyorlar tashqarisiga chiqarib yog'och, po'lat va temir beton balkalar, relslar, truba va shunga o'xshash yuklar ortilgan vagon va platformalardan	1	1
Manyovr vaqtida va VM li vagonlarni shahobcha yo'llariga berish (olish) da teplovoz (parovoz) dan, qattiq yoqilg'idagi parovozdan	1	1

MARSHRUTLARNI TAYYORLASHDAGI SO'ZLASHUVLAR REGLAMENTLARINING NAMUNAVIY RO'YXATI

Poezdlarni qabul qilish va jo'natish marshrutlarini tayyorlash xaqidagi farmoyishlar, shuningdek, ushbu farmoyishlarni bajarilishi xaqidagi xabarlar aniq va ravshan bo'lishi kerak. Stansiya navbatchilarini va strelkali post navbatchilarini namunaviy ro'yxatga muvofiq so'zlashuvlar reglamentiga rioya qilishlari kerak.

Ushbu ro'yxatda ko'zda tutilmagan holatlarda ham, stansiya navbatchilarini va strelkali post navbatchilarini poezdlarni qabul qilish va jo'natish marshrutlarini tayyorlash xaqida so'zlashuvlarni aniq va ravshan olib borishlari kerak.

Poezdlarni qabul qilish va jo'natish marshrutlarini tayyorlash xaqidagi farmoyishlarni uzatishdan oldin, shuningdek, ushbu farmoyishlarni bajarilishi xaqidagi xabarlarni olishdan oldin, stansiya navbatchisi uni, eshitish va xabar berish xuquqiga ega shaxslar eshitayotgani va xabar berayotganiga ishonch hosil qilishi kerak. Ko'rsatib o'tilgan farmoyishlarni berish va ularni bajarilishi xaqidagi xabarlarni olishni, bunday xuquqqa ega bo'limgan shaxslarga tatbiq qilish taqiqlanadi.

Marshrutlarni tayyorlashdagi so'zlashuvlar reglamentlarining namunaviy ro'yxati

So'zlashuvlar ma'nosi	So'zlashuvlar shakli	
	stansiya navbatchisining	strelkali post navbatchisining
Stansiya navbatchisining marshrutni tayyorlash xaqidagi farmoyishi:	"№ ____ poezdni Navbahordan 3-yo'lga qabul qilish marshrutini tayyorlang"	"3-post. № ____ poezdni Navbahordan 3-yo'lga qabul qilish marshrutini tayyorlang"
a) poezdni qabul qilish uchun	Farmoyish, bir vaqtida marshrutni tayyorlashda ishtirok etuvchi barcha strelkali postlarga beriladi	Stansiya navbatchisining ko'rsatmasiga bo'yicha strelkali post navbatchilarining biri takrorlaydi. Boshqa hammalar "post №____ to'g'ri" so'zlari bilan tasdiqlaydi
		Agar poezd suruvchi lokomotiv bilan harakatlanayotgan bo'lsa, stansiya navbatchisi va farmoyishni takrorlovchi strelkali post navbatchisi "suruvchisi bilan" so'zini qo'shadilar
b) poezdni jo'natish uchun	"№ ____ poezdni 1-yo'lidan Istiqlolga jo'natish marshrutini tayyorlang". Farmoyish, bir vaqtida marshrutni tayyorlashda ishtirok etuvchi barcha strelkali postlarga beriladi	"2-post. № ____ poezdni 1-yo'lidan Istiqlolga jo'natish marshrutini tayyorlang". Stansiya navbatchisining ko'rsatmasiga bo'yicha strelkali post navbatchi-larinining biri takrorlaydi. Boshqa hammalar "post №____ to'g'ri" so'zlari bilan tasdiqlaydi
		Agar poezd suruvchi lokomotiv bilan jo'natilayotgan bo'lsa, stansiya navbatchisi va farmoyishni takrorlovchi strelkali post navbatchisi "suruvchisi bilan" so'zini qo'shadilar

So'zlashuvlar ma'nosi	So'zlashuvlar shakli	
	stansiya navbatchisining	strelkali post navbatchisining
v) poezdni o'tkazish uchun	"№____ poezdni Navbahordan Istiqlolga 2-yo'l bo'ylab qabul qilish va jo'natish marshrutini tayyorlang". Farmoyish, bir vaqtda marshrutni tayyorlashda ishtirok etuvchi barcha strelkali postlarga beriladi	"1-post. №____ poezdni Navbahordan Istiqlolga 2-yo'l bo'ylab qabul qilish va jo'natish marshrutini tayyorlang" "2-post. №____ poezdni Navbahordan Istiqlolga 2-yo'l bo'ylab qabul qilish va jo'natish marshrutini tayyorlang" Stansiya navbatchisining ko'rsatmasiga bo'yicha (kirish va chiqish) strelkali post navbatchilarining biri takrorlaydi. Boshqa hammalar "To'g'ri" so'zi bilan tasdiqlaydi
Strelkali post navbatchilarining stansiya navbatchisiga xabari: a) qabul qilish marshrutining tayyorligi xaqida	Stansiya navbatchisi xabarni marshrutni tayyorlashda ishtirok etgan barcha strelkali post navbatchilarining telefon oldida hozirligida eshitadi	"3-post. №____ poezdni Navbahordan 3-yo'lga qabul qilish marshruti tayyor, yo'l bo'sh". Marshrutni tayyorlashda ishtirok etgan barcha strelkali post navbatchilari xabar qiladilar.
b) jo'natish marshrutining tayyorligi xaqida	Stansiya navbatchisi xabarni marshrutni tayyorlashda ishtirok etgan barcha strelkali post navbatchilarining telefon oldida hozirligida eshitadi	"2-post. №____ poezdni Istiqlolga 1-yo'lidan jo'natish marshruti tayyor". Marshrutni tayyorlashda ishtirok etgan barcha strelkali post navbatchilari xabar qiladilar
v) poezdni o'tkazish marshrutini tayyorligi xaqida	Stansiya navbatchisi xabarni qabul qilish va jo'natish marshrutini tayyorlashda ishtirok etgan barcha strelkali post navbatchilarining telefon oldida hozirligida eshitadi	"1-post. №____ poezdni Navbahordan 2-yo'lga qabul qilish marshruti tayyor, yo'l bo'sh". "2-post. №____ poezdni Istiqlolga 2-yo'l bo'ylab jo'natish marshruti tayyor, yo'l bo'sh". O'tkazish marshrutni tayyorlashda ishtirok etgan barcha strelkali post navbatchilari xabar qiladilar
g) poezdning yetib kelganligi xaqida		"5-post. №____ poezd Navbahordan 3-yo'lga to'liq tarkibda yetib keldi. O'tish joylari mavjud". Agar poezd suruvchi lokomotiv bilan yetib kelgan bo'lsa, "suruvchi bilan" so'zlari qo'shiladi
d) poezdni jo'natish xaqida		"2-post. №____ poezd Istiqlolga 1-yo'lidan to'liq tarkibda jo'nadi". Agar poezdni jo'natish suruvchisi bilan amalga oshirilgan bo'lsa, "suruvchi bilan" so'zlari qo'shiladi

MUNDARIJA

1-bo'lim. UMUMIY QOIDALAR	3
2-bo'lim. POEZDLAR HARAKATI VA MANYOVR ISHLARI	8
1-bob. Poezdlarning avtomatik blokirovkada harakati	8
Poezdlarni qabul qilish va jo'natish	10
Avtoblokirovka nosozligida ishlash tartibi	13
Avtoblokirovka amal qilishini to'xtatish	17
Avtoblokirovka bo'yicha harakatni tiklash	18
Mustaqil signalizatsiya va aloqa vositasi sifatida qo'llaniladigan avtomatik lokomotiv signalizatsiyasida poezdlarning harakatlanish tartibi	19
2-bob. Markazlashtirilgan dispatcherlik bilan jihozlangan uchastkalarda poezdlar harakati	22
Poezdlarni qabul qilish va jo'natish	23
Manyovrlarni amalga oshirish	24
Markazlashtirilgan dispatcherlik qurilmalari nosozligida ishlash tartibi	26
3-bob. Yarim avtomatik blokirovkada poezdlar harakati	30
Poezdlarni qabul qilish va jo'natish	31
Yo'l postlari (blok-postlari)ga ega peregonlarda poezdlar harakati	34
Yarim avtomatik blokirovka nosozligida poezdlar harakati	35
4-bob. Elektr jezl tizimida poezdlar harakati	36
Poezdlarni qabul qilish va jo'natish	37
Peregonda tutashuvlar mavjudligida poezdlar harakati	39
Elektr jezl tizimi nosozligida poezdlar harakati va jezl apparatlarida jezllar miqdorini boshqarishni tartibga solish	40
5-bob. Telefon aloqa vositalarida	42
poezdlarning harakati	42
Poezd telefonogrammalarini jurnalini yuritish tartibi	45
Bir yo'llik uchastkalardagi poezdlar harakatida telefonogrammalar shakllari	48
Ikki yo'llik uchastkalardagi poezdlar harakatida telefonogrammalar shakllari	48
6-bob. Barcha turdagи signalizatsiya va aloqa vositalari	51
ishlamaganda poezdlarning harakati	51
Bir yo'llik peregonlarda poezdlarning harakatlanish tartibi	55
Ikki yo'llik peregonlarda poezdlarning harakatlanish tartibi	59

7-bob. Tiklash, o't o'chirish poezdlari, maxsus o'zi yurar harakat tarkibi va yordamchi lokomotivlarning harakati Poezdni pergondan jo'natilgan stansiyaga qaytishi Peregonda to'xtab qolgan poezdga ortidan kelayotgan poezd lokomotivi tomonidan yordam ko'rsatilishi	62 65 67
8-bob. Temir yo'llarda va inshootlarda ishlar bajarilayotganda xo'jalik poezdlari, maxsus o'zi yurar harakat tarkibi harakati	72
9-bob. Poezdlarni qabul qilish va jo'natish Umumiy qoidalar Poezdlarni qabul qilish Poezdlarni jo'natish Kirish svetoforining taqiq ko'rsatmasida poezdlarni stansiyaga qabul qilish	78 78 81 84 88
10-bob. Poezd dispatcherining ishi	91
11-bob. Stansiyalarda manyovr ishlari Umumiy qoidalar Manyovr ishlariga rahbarlik qilish Manyovrlarni amalga oshirishda xodimlarga qo'yiladigan talablar Vagonlarni mahkamlash Manyovrlarda tezlik Saralash tepachalari va tortish yo'llaridagi manyovrlar Asosiy va qabul qilish-jo'natish yo'llarida amalga oshiriladigan manyovrlar Strelkali postlarning navbatchilarini xizmat ko'rsatmaydigan stansiya hududlarida manyovr ishlari	99 99 102 103 108 111 111 115 117
12-bob. Ogohlantirishlarni berish tartibi	118
13-bob. Stansiyalarda SSB qurilmalarining me'yoriy faoliyati buzilgan hollarda poezdlarni qabul qilish, jo'natish va manyovr ishlarini bajarish tartibi	128
14-bob. Poezdlarning vaqtini taqsimlash tartibida harakati	135
15-bob. Semaforlarni qo'llash tartibi	137
16-bob. 1 klass xavfli yuklar (VM) ortilgan vagonlari bor poezdlar bilan manyovrlarin amalga oshirish, tuzish va o'tkazish tartibi Umumiy qoidalar	140 140

Poezdlarni tuzish	141
VM bo'lgan poezdlar harakati	143
Avariya holatlaridagi harakatlar	145
1-ilova. Poezdlar harakatida signalizatsiya va aloqaning turli vositalari qo'llanilganda poezdlarni stansiyalardan jo'natish uchun ruxsatnomalar ro'yxati	147
2-ilova. Harakat tarkibini tormoz boshmoqlari bilan mahkamlashning me'yorlari va asosiy qoidalari	154
3-ilova. O'ta ehtiyyotkorlikni talab etuvchi yuklar ortilgan vagonlarni va maxsus harakat tarkibini poezdlarga qo'yish tartibi	157
4-ilova. Olib qo'yiladigan drezinalarni harakatlanish tartibining asosiy qoidalari	162
5-ilova. 1 klassli xavfli yuklar (VM) ortilgan vagonlar uchun poezdlarda va manyovrlar amalga oshirilganda to'sishlarning minimal me'yorlari	165
6-ilova. Marshrutlarni tayyorlashdagi so'zlashuvlar reglamentlarining namunaviy ro'yxati	166